

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

X. Shennayev

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*Oliy o‘quv yurtlarining «Sug‘urta ishi» mutaxassisligi bo‘yicha
magistratura talabalari uchun o‘quv qo‘llanma*

**Toshkent
«Iqtisod-Moliya»
2013**

UO‘K: 339.13.012(575.1)

KBK: 65.27(50‘)

Sh53

Taqrizchilar: N. Xaydarov – i.f.d., prof.;
S. Shirinov – i.f.n., dots.

Shennayev X.

O‘zbekiston sug‘urta bozori. Oliy o‘quv yurtlarining «Sug‘urta ishi» mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalari uchun o‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Toshkent Moliya instituti. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2013. 264 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining «Sug‘urta ishi» mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda mustaqillik yillarida O‘zbekiston sug‘urta bozorida ro‘y bergan ijobiy o‘zgarishlar, sug‘urta sohasida amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijalari o‘z aksini topgan.

O‘quv qo‘llanmada sug‘urta bozorining mohiyati, tarkibi, O‘zbekiston sug‘urta bozorining shakllanishi va rivojlanishi, sug‘urta bozorining huquqiy asoslari, sug‘urta bozorida talab va taklif hamda narxning shakllanishi, O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari va shu kabi mavzular bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan.

Shuningdek, o‘quv qo‘llanmadan sug‘urta amaliyotida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar, shu sohaga qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

O‘quv qo‘llanmada qonunchilik hujjatlari va statistik ma’lumotlar 2013-yilning 1-yanvar holatiga keltirilgan.

UO‘K: 339.13.012(575.1)

KBK: 65.27(50‘)

ISBN 978-9943-13-406-5

© «Iqtisod-Moliya», 2013

© Shennayev X., 2013

Kirish

Soʻngi yillarda respublikamizda sugʻurta xizmatlari bozorini taraqqiy ettirish, tarmoqda bozor mexanizmlarini keng koʻlamda joriy etish yuzasidan eʼtirof etishga arzigulik ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-maydagi «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» qarori sugʻurta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini oshirish, ularning respublika hududlarida agentlik shaxobchalarini kengaytirish va investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etdi.

2008-yil 21-aprelda Oʻzbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida», 2009-yil 17-martda «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»gi qonunlarning qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi tufayli jamiyatda sugʻurtaning nufuzi oshdi. Eng muhimi, aholining sugʻurta tizimiga boʻlgan ishonchi yanada ortdi. 2010-yil 26-noyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting koʻrsatkichlariga erishishning ustuvor yoʻnalishlari toʻgʻrisida» 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli qarori sugʻurta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi boʻldi. Mazkur qarorga asosan, 2011–2015-yillarda sugʻurta sohasini rivojlantirish boʻyicha rejalar belgilab olindi. Taʼbir joiz boʻlsa, ulardan eng asosiylari quyidagilardan iborat.

– Zamonaviy talablarni hisobga olgan holda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya institutida oʻquv-metodik ishlar va ilmiy-tadqiqot faoliyati sifatini oshirish maqsadida oʻquv va metodik ishlarni tashkil etish, oʻquv reja va dasturlarni tubdan qayta koʻrib chiqish.

– «Tashuvchining javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish.

– Jahon tajribasi asosida sugʻurta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini amalga oshirish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishni nazarda tutgan holda Oʻzbekiston Respublikasining

«Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonuniga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish boʻyicha qonun loyihasini ishlab chiqish.

– 2015-yilga qadar sugʻurtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdoriga oʻrnatilgan talablarni bosqichma-bosqich oshirish va boshqalar.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan vazifalarning istiqbolda bajarilishi milliy sugʻurta bozorimizni yanada modernizatsiya qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalar ijrosini sifatli va oʻz vaqtida taʼminlash jarayonida sugʻurta olamining yetuk amaliyotchi mutaxassislari bilan bir qatorda oliy taʼlim va ilmiy-tadqiqot markazlarida soha bilan bevosita yaqindan tanish boʻlgan olimlarning ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Zero, Prezident Islom Karimov 2012-yil 16-17-fevral kunlari Toshkent shahrida boʻlib oʻtgan «Bilimli va aql-zakovatli yetuk avlodni tayyorlash – mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti» mavzusida boʻlib oʻtgan xalqaro konferensiyadagi nutqlarida taʼlim, shu jumladan, oliy taʼlim muassasalarining iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi rolini alohida eʼtirof etdilar.

Oʻzbekistonda sugʻurta bozorini rivojlantirishning yoʻnalishlaridan biri sugʻurta tashkilotlari tomonidan koʻrsatilayotgan sugʻurta xizmatlarining koʻlami va sifatini oshirish masalasidir. Toʻgʻri, soʻngi yillarda sugʻurtalovchilar yuridik va jismoniy shaxslarga sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish saviyasini oshirish borasida bir muncha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Ammo tadqiqotlarning koʻrsatishicha va bozor ekspertlarining fikricha, respublikamiz sugʻurta bozorida chakana sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish talab darajasida emas. Bunga jiddiy eʼtibor qarataishning asosiy sababi shundaki, chakana xizmatlar orqali aholining keng qatlamini sugʻurta himoyasiga olish imkoniyati tugʻiladi.

Mamlakat sugʻurta bozorini isloh qilish va rivojlantirishning yana bir yoʻnalishi, fikrimizcha, mijozlarning sugʻurtaga boʻlgan qiziqishlarini umumlashtirish va amaliy choralar ishlab chiqish maqsadida sohada sotsiologik tadqiqotlar oʻtkazish ishlarini faollashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu jarayonda marketing tadqiqotlarini amalga oshirishga ixtisoslashgan konsalting kompaniyalari va oliy taʼlim muassasalarining ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu pirovardida, nafaqat sugʻurta xizmatlari koʻrsatishning miqdor koʻrsatkichlariga, balki sifat koʻrsatkichlariga ijobiy taʼsir koʻrsatishi shubhasiz.

Ta'kidlash lozimki, sug'urta bozorini yanada modernizatsiya va isloh qilish kompleks xarakterga ega tizim bo'lib, uni amalga oshirish sug'urta bozori professional ishtirokchilari, sohaga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari va konsalting kompaniyalarining samarali faoliyat yuritishlariga bog'liq.

1-mavzu: SUG‘URTA BOZORINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

1.1. Sug‘urta bozorining mohiyati, tarkibi va ahamiyati.

1.2. Umumiy sug‘urta xizmatlari bozori.

1.3. Hayotni sug‘urta qilish bozori.

1.1. Sug‘urta bozorining mohiyati, tarkibi va ahamiyati

Iqtisodiyotning umumiy nazariyasida ham, sug‘urta ilmida ham «sug‘urta bozori» va «sug‘urta xo‘jaligi» yangi tushunchalardir. Shunga qaramay, aytish mumkinki, «sug‘urta bozori» tushunchasi o‘ziga nisbatan bir muncha umumiy hisoblangan «sug‘urta xo‘jaligi» tushunchasining pog‘onalaridan biri bo‘lib, sug‘urta xizmatlari oldi-sotdisi bilan bog‘liq. «Sug‘urta xo‘jaligi» sug‘urta sohasidagi sug‘urta xizmatlarini bajarish, taqsimlash, sotish va iste‘mol qilish bilan bog‘liq munosabatlar yig‘indisidan iborat. Umumjahon xo‘jaligi miqyosida «jahon sug‘urta xo‘jaligi» atamasini qo‘llash mumkin. Ana shu ma’noda «sug‘urta xo‘jaligi» sug‘urta tashkilotlarining ta’sis etilishi, tashkiliy tuzilmasi, faoliyati, boshqaruvi bilan bog‘liq munosabatlarni, shuningdek, sug‘urta kompaniyalarining yoki sug‘urta bozorining boshqa turdagi obyektlarining sug‘urtaga oid faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish munosabatlarini, iqtisodiy munosabatlarda sug‘urtadan foydalanish shart-sharoitlari va asoslarini ifoda etadi. Xorijiy adabiyotlarda bu borada tegishli ravishda «sug‘urta iqtisodiyoti» va «jahon sug‘urta iqtisodiyoti» tushunchalari ishlatiladi.

Iqtisodiyot hamda zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan sug‘urta bozorini xaridorlar – sug‘urtalanuvchilarning sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talablari va sotuvchilar – sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta himoyasi bo‘yicha takliflari nisbati bilan boshqariladigan iqtisodiy makon yoki tizim sifatida tasavvur etish mumkin. Sug‘urta himoyasiga talab ikki bosh omil bilan: xo‘jalik yurituvchi subyektning va alohida fuqaroning risk-menejmentining elementi sifatidagi sug‘ur-

taga nisbatan bo'lgan talabi va shuningdek, sug'urtalanuvchilarning sug'urta xizmatini sotib olish orqali o'z talabini qondirishga imkon yaratadigan sotib olish layoqati bilan belgilanadi. Ijtimoiy qayta ishlab chiqarishga xos bo'lgan ehtimoldagi xavf sifatida xatar iqtisodiy munosabatlar yuksalishi bilan sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning kuchayishiga olib keladi. Ayni vaqtda davlat ijtimoiy sug'urta va ta'minot tizimi orqali taqdim etiladigan sug'urta himoyasining qisqarishi ham, shuningdek, sug'urta xizmatlariga talabning oshishiga sabab bo'ladi.

Sug'urta bozori – ma'lum bir pul munosabatlari sohasi bo'lib, unda savdo-sotiq obyektini sifatida sug'urta himoyasi qatnashadi hamda unga talab va taklif shakllanadigan maxsus ijtimoiy-iqtisodiy tarmoq hisoblanadi. Sug'urta bozori keng ma'noda sug'urta xizmatlarining oldi-sotdisi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisini aks ettiradi. Sug'urta bozorining obyektiv asosini kutilmagan baxtsiz hodisalar oqibatida yetkazilgan zararni bartaraf etish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash tashkil etadi. Qolaversa, sug'urta bozori iqtisodiyotni qo'shimcha moliyalashtirishda ham muhim o'rin tutadi. Sug'urta bozori faoliyat yuritishining asosiy sharti bo'lib sug'urta xizmatlariga jamiyat ehtiyojining mavjudligi va ushbu ehtiyojni qondira oladigan sug'urtalovchilarning mavjud bo'lishi tushuniladi. Faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta bozori turli tarmoq bo'limlarini birlashtirgan murakkab, integratsiyalashgan tizimni o'zida aks ettiradi.

Sug'urta bozori ishtirokchilari sifatida sotuvchilar, xaridorlar va vositachilar hamda ularning uyushmalari qatnashadilar. Sotuvchilar kategoriyasini sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari tashkil etadi. Xaridorlar sifatida u yoki bu sotuvchi bilan sug'urta shartnomasini rasmiylashtiruvchi sug'urtalanuvchilar-jismoniy va yuridik shaxslar ishtirok etadilar. Sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi vositachilar bo'lib, o'z harakatlari bilan sug'urta shartnomalarini tuzishga ko'maklashuvchi sug'urta agentlari va sug'urta brokerlari hisoblanadi.

Sug'urta bozorida taklif etilayotgan o'ziga xos tovar - sug'urta xizmati hisoblanadi. Uning xarid qiymati bo'lib sug'urta qoplamasi shaklini ifodalovchi sug'urta himoyasini ta'minlash hisoblanadi. Sug'urta xizmatining narxi sug'urta tarifida aks ettiriladi. U talab va taklifga taqqoslangan raqobat asosida shakllanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan sug'urta bozorlarining muammosi sug'urtalanuvchilar tomonidan zarur darajada sotib olish layoqatiga ega

bo'laslikda ifodalanishi mumkin. Bu muammoning hal etilishi bir jihatdan aholining sotib olish layoqatining o'sishiga va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligiga, ikkinchi jihatdan davlat tomonidan umummilliy darajada mamlakat makroiqtisodiyoti miqyosida sug'urta xizmatlarini sotib olish layoqatini o'stirishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlarga bog'liq. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 145-moddasiga muvofiq ixtiyoriy sug'urta uchun mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini qo'shgan holda tushgan tushum hajmining 2 foizi doirasidagi ajratmalarni ishlab chiqarishdan va tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlardan chegirib tashlanadigan xarajatlar toifasiga kiritilishi korxonalar va tashkilotlarning sug'urta xizmatlarini sotib olish imkoniyatlarini keskin oshirib yubordi. Xuddi shu kabi sug'urta xizmatlariga talab hayot sug'urtasi, tibbiy sug'urta va boshqa ijtimoiy turdagi sug'urtalarga oid sug'urta mukofotlarini to'lash bo'yicha xarajatlarini fuqarolarning soliqqa tortiladigan daromadlari bazasidan chiqarib tashlash orqali rag'batlantirilishi mumkin. Mutaxassislar diqqatni sug'urta xizmatlariga talab subyektiv xususiyatga ega ekanligiga qaratadilar, ya'ni sug'urta himoyasi bilan ta'minlanishga ongli talab ko'p jihatdan iste'molchining ana shunday xizmat mavjud ekanligidan, uning iste'mol sifatlaridan, samarasidan, bahosidan bexabarligi va hokazo sababli amalga oshmay qolishi mumkin. Bu holat sug'urta qiluvchilardan «sug'urta riskini qoplashga doir yashirin talabning oshishiga» qaratilgan marketing tadbirlarini o'tkazishni taqozo qiladi.

Sug'urta xizmatlarining taklif etilishi yetarli darajada ixtisoslashgan va moliyaviy barqaror, ehtimoldagi sug'urtalanuvchilarning talablarini qondirishga layoqatli sug'urta tashkilotlarining mavjud bo'lishi orqali ta'minlanadi. Investirlarning sug'urta kompaniyasiga qiziqishi, sug'urta tariflarini hisoblab chiqish uchun zarur statistik va axborot bazasining mavjudligi, moliya bozorining sug'urta kompaniyalarining investitsiyalarining qaytarilishini va daromadlilikini kafolatlaydigan darajada samarali faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, sug'urta kompaniyalarida malakali menejerlarning va sug'urta xizmati andarraytingi bo'yicha mutaxassislarning mavjudligi sug'urta bozorini shakllantirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

1.2. Umumiy sug'urta xizmatlari bozori

Sug'urta xizmatlari bozori faoliyat turiga qarab umumiy sug'urta xizmatlari bozori va hayotni sug'urta qilish bozoriga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasida sug'urta xizmatlari bozori 2002-yilning oxirlariga qadar universal tusga ega bo'lgan, ya'ni sug'urta tashkilotlari bir paytning o'zida ham umumiy ham hayot sug'urta turlarini amalga oshirib kelgan. 2002-yilning 27-noyabrida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 413-sonli qaroriga asosan «Sug'urta faoliyati klassifikatori» tasdiqlandi. Unga muvofiq sug'urta tashkilotlarining faoliyati ikkiga ajratildi: umumiy sug'urta va hayotni sug'urta qilish sohasi.

1-jadval

Umumiy sug'urta tarmog'ining klasslarga bo'linishi

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning yomonlashuvi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan, ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq II klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
II klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
III klass	Yer usti transport vositalarini sug'urta qilish	Transport vositalari, o'ziyurar mashina va mexanizmlar (harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno), yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
IV klass	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami

V klass	Aviatsiya sug'urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
VI klass	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
VII klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
VIII klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yerosti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (III va VII klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
IX klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	VIII klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (III va VII klasslarda ko'rsatilganlardan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
X klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	Yer usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida (tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi) uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XI klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XII klass	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida (dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi) uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XIII klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	X, XI va XII klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

XIV klass	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XV klass	Kafillikni (kafolatlarini) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XVI klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lamini kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (XVII klassda ko'rsatilgandan tashqari); d) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XVII klass	Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

Umumiy sug'urta xizmatlari hayot sug'urtasidan tashqari barcha sug'urta xizmat turlarini qamrab oladi. Hozirgi kunda umumiy sug'urta xizmatlari bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari «Sug'urta faoliyati klassifikatori»ning umumiy sug'urta tarmog'iga oid barcha sug'urta klasslari doirasida sug'urta xizmatlarini ko'rsatayapti. Umumiy sug'urta xizmatlari bozorini tavsiflovchi asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- sug'urta polisining amal qilish muddati bir yildan oshmasligi. Shunday sug'urta xizmat turlari borki, uning muddati hatto bir soatni tashkil etadi. Masalan, havo yo'llari orqali yo'lovchilarni tashishda qo'llaniladigan yo'lovchilarning majburiy sug'urtasida polisning amal qilish muddati uchish va qo'nish masofasidan kelib chiqqan holda bir soatga teng bo'lishi mumkin;

- investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larning qisqa muddatli obyektlarga joylashtirilishi.

2013-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekiston sug‘urta bozorida jami 33 ta sug‘urta tashkiloti faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, uning 31 tasi yoki 93,9 foizi umumiy sug‘urta xizmatlari bozoriga tegishlidir. Umumiy sug‘urta xizmatlari bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan eng yirik sug‘urta tashkilotlari jumlasiga «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi, «O‘zagrosug‘urta» va «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyalarini kiritish mumkin.

1.3. Hayotni sug‘urta qilish bozori

Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida hayotni sug‘urta qilish bozori umumiy sug‘urta xizmati bozoriga qaraganda yuksak darajada rivojlangan. Masalan, AQSh, Yaponiya va Yevropaning ba’zi davlatlarida sug‘urtalovchilar tomonidan to‘plangan jami sug‘urta mukofotlari tarkibida hayotni sug‘urtalash bo‘yicha yig‘ib olingan sug‘urta mukofotlari katta salmoqqa ega. O‘zbekistonda hayotni sug‘urta qilish bozori shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. 2002-yil 5-aprelda «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan hayotni sug‘urta qilish sug‘urta faoliyatining, binobarin sug‘urta bozorining alohida tarmog‘iga aylandi.

2-jadval

Hayotni sug‘urta qilish tarmog‘i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug‘urta qilish shartlari bo‘yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug‘urta summolari to‘lash bo‘yicha sug‘urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug‘urta qilish turlari jami: - sug‘urta qilinuvchining sug‘urta muddati tamom bo‘lgungacha yoki sug‘urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; - sug‘urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek, sug‘urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to‘lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno
II klass	Nikoh va tug‘ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug‘ilganda sug‘urta summasi to‘lanishini ta’minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug‘urta qilish turlari jami
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish	Umrbod renta to‘lanishi bilan birgalikda hayotni sug‘urta qilish turlari jami

IV klass	Sog'liqni sug'urta qilish	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga yetguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summalari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas
----------	---------------------------	--

2003-yil dekabrda «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi muassisligida hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan dastlabki sug'urta kompaniyasi – «O'zbekinvest Hayot» sho'ba sug'urta kompaniyasi tashkil etildi. Mazkur sho'ba sug'urta kompaniyasi O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslariga hayot va sog'likni sug'urta qilish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- hayotni sug'urtalash tarmog'ining barcha klasslari va umumiy sug'urta tarmog'ining I va II klasslari bo'yicha sug'urta xizmatlarini ko'rsatish;
- tegishli sug'urta mahsulotlarini taqdim etish orqali O'zbekiston Respublikasi aholisi keng qatlamini ijtimoiy himoyalash vositalarini rivojlantirish;
- hayotni va sog'liqni sug'urtalashning xalqaro standartlari amaliyotini joriy etish;
- xorijiy, xalqaro, milliy sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Kompaniya tashkil etilgan davrda uning ustav kapitali 500,0 mln so'mga teng bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda bu miqdor 3,0 mln yevroni tashkil etadi. 2009-yilda «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi «O'zbekinvest Hayot» sug'urta kompaniyasiga ta'sischi sifatida kirishi munosabati bilan kompaniya sho'ba xo'jalik jamiyati maqomini oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 31-maydagi «Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-1544-sonli qarorida belgilangan talablarni bajarish maqsadida 2012-yilning 1-iyul holatiga «O'zbekinvest Hayot» sug'urta kompaniyasining ustav kapitali 2250,0 ming yevro

miqdorida shakllantirildi. Uning 82,22 foizi «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasiga, qolgan qismi «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasiga tegishli bo‘lgan edi. 2012-yil noyabr oyida «O‘zbekinvest Hayot» sug‘urta kompaniyasi ta’rischilari umumiy yig‘ilishi qarori bilan mazkur kompaniyaning ustav kapitali 3,0 mln yevroga yetkazildi.

Hozirgi kunda «O‘zbekinvest Hayot» sug‘urta kompaniyasi respublikamizning barcha mintaqalarida o‘z filiallariga ega va ular tomonidan quyidagi sug‘urta xizmatlari ko‘rsatiladi:

- bonus to‘lovli hayot sug‘urtasi. Mazkur sug‘urta turining amal qilish muddati 13 oydan 20 yilgacha bo‘lgan muddatni tashkil etadi. Sug‘urta summasi sug‘urta qildiruvchi tomonidan aniqlanadi va shundan kelib chiqqan holda sug‘urta mukofoti hisoblanadi. Sug‘urta mukofotining miqdori sug‘urtalangan shaxsning yoshi, sug‘urta muddati va badallarni to‘lash tartibi bilan bog‘liq. Sug‘urta mukofotlari sug‘urta qildiruvchi shaxs uchun qulay usulda: bir marotaba, har yili, yarim yilda bir marta yoki har chorak yoxud har oyda to‘lab borilishi mumkin. Sug‘urta summasini to‘lash quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- shartnoma amal qilishining oxirgi muddatigacha yashash (bunda sug‘urta summasi ilgari to‘langan barcha sug‘urta mukofotlari yig‘indisi va kompaniya tomonidan to‘lanadigan bonusga teng);

- sug‘urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda (bunday holatda sug‘urta summasi sug‘urtalangan shaxsning qachon vafot etganidan va qancha sug‘urta mukofoti to‘laganidan qat’iy nazar sug‘urtalangan shaxs tomonidan qancha sug‘urta mukofoti to‘lanishi kerak bo‘lgan summaga teng bo‘ladi).

Bu sug‘urta mahsulotini sotib olish uchun sug‘urta qildirimoqchi bo‘lgan shaxsning yoshi 18-60 yosh oralig‘ida bo‘lishi lozim.

- ta’lim olish uchun hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish. Bunda ota-onalarning farzandlarini ta’lim muassasalarida o‘qishi bilan bog‘liq xarajatlarini sug‘urta yo‘li bilan qoplash nazarda tutiladi. Sug‘urta shartnomasining muddati 13 oydan 20 yilgacha bo‘lgan muddatni tashkil etadi. Mazkur sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta summalarini to‘lash quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- farzandning oliy ta’lim muassasasi, kasb-hunar kolleji, akademik litsey yoki maktabga o‘qishga kirishi;

- farzandning sug‘urta polisida ko‘rsatilgan yoshga kirishi (agar bola qayd etilgan muddatda o‘qishga kira olmagan taqdirda).

Sugʻurta qildiruvchiga toʻlanadigan sugʻurta summasi miqdori ilgari toʻlangan barcha sugʻurta mukofotlari yigʻindisi va kompaniya tomonidan taqdim etiladigan bonusga teng.

- nikohga hayotni uzoq muddatli sugʻurta qilish. Mazkur sugʻurta mahsuloti farzandning nikohga kirish munosabati bilan uning ota-onasi sarflaydigan xarajatlarni moliyaviy taʼminlash masalasini hal etishga koʻmak beradi. Sugʻurta shartnomasining butun amal qilish davomida ishonchli sugʻurta himoyasi taʼminlanadi. Hatto, oila boquvchisini yoʻqotgan taqdirda ham nikoh arafasida farzand sugʻurta polisida belgilangan summani oladi. Bu sugʻurta turida ham sugʻurta polisining amal qilish muddati 13 oydan 20 yilgacha boʻlgan muddatni tashkil etadi. Sugʻurtalangan shaxsga sugʻurta summasi farzand nikohga kirganda yoki u sugʻurta polisida koʻrsatilgan yoshga yetganda toʻlanadi. Sugʻurta summasining miqdori sugʻurta qildiruvchi tomonidan ilgari toʻlangan barcha sugʻurta mukofotlari miqdoriga va kompaniya tomonidan taqdim etiladigan bonusga teng.

Hayotni sugʻurta qilish bozorida yuqorida koʻrsatilgan sugʻurta xizmat turlari bilan bir qatorda hayot sugʻurtasi ham amalga oshiriladi. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, hayotni sugʻurtalash bozorini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi soliq imtiyozlari berilgan:

- yuridik shaxslarning uzoq muddatli hayot sugʻurtasi boʻyicha sugʻurta mukofotlarini toʻlash bilan bogʻliq xarajatlari boshqa xarajatlar tarkibiga kiritiladi va foyda soligʻini hisoblashda hisobga olinmaydi;

- yuridik shaxslarning uzoq muddatli hayot sugʻurtasi boʻyicha sugʻurta mukofotlarini toʻlashga yoʻnaltirilgan xarajatlari jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi;

- jismoniy shaxslarning ish haqi va boshqa daromadlaridan uzoq muddatli hayot sugʻurtasi boʻyicha toʻlagan sugʻurta mukofotlari daromad soligʻiga tortilmaydi.

Koʻrinib turibdiki, mamlakatimizda hayotni sugʻurtalash bozorini rivojlantirish uchun davlat tomonidan katta imkoniyatlar yaratilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Sugʻurta bozorining mohiyatini ochib bering.
2. Sugʻurtaning iqtisodiyotdagi ahamiyati nimada?
3. Sugʻurta bozori ishtirokchilariga kimlar kiradi?

4. O'zbekistonda sug'urta xizmatlarini sotib olish layoqatini o'stirishga qaratilgan qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
5. Umumiy sug'urta xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida gapirib bering.
6. Sug'urta faoliyati klassifikatori qachon tasdiqlangan?
7. Umumiy sug'urta tarmog'i hayotni sug'urta qilish tarmog'idan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
8. Umumiy sug'urta tarmog'ida nechta klass mavjud?
9. Umumiy sug'urta tarmog'ining 1 klassi qaysi sug'urta turlarini o'z ichiga oladi?
10. Umumiy sug'urta tarmog'ining mulk sug'urtasiga oid klasslarining nomlari va mazmunini aytib bering.
11. Hayotni sug'urtalash tarmog'ining barcha klasslari mazmunini yoriting.
12. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan hayotni sug'urtalovchi qaysi kompaniyalarni bilasiz?
13. Hayotni sug'urtalash bo'yicha qanday sug'urta mahsulotlari mavjud?
14. Hayotni sug'urtalashni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qanday muammolar mavjud?

2-mavzu: O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

2.1. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning sug‘urta tizimiga ta’siri.

2.2. 1991-1994-yillarda milliy sug‘urta bozorining shakllanishi.

2.3. 1995-2001-yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanishi.

2.4. 2002-2007-yillarda milliy sug‘urta bozorida ro‘y bergan o‘zgarishlar.

2.5. 2008-2009-yillarda majburiy sug‘urta sohasida amalga oshirilgan islohotlar va uning ahamiyati.

2.6. 2010 va undan keyingi yillarda milliy sug‘urta bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

2.1. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning sug‘urta tizimiga ta’siri

1991-yilning noyabr oyida «Mol-mulklarni davlat taassarufigidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida» qonunning qabul qilinishi bilan O‘zbekiston Respublikasida keng miqyosda davlatga tegishli bo‘lgan korxonalarni ijaraga topshirish, ularni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Iqtisodiy islohotlar kuchli ijtimoiy siyosatni uyg‘unlashtirish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Xususiylashtirishning birinchi bosqichida, ya’ni 1992-1993 yillarda, davlatga qarashli kichik korxonalar va uy-joy fondi eng kam narxlarda, asosan, korxonaning xodimlariga sotildi. Bu davrda 54000 korxonalar xususiylashtirildi, 18000 dan ortiq oilaviy korxonalar va 26000 ta aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. Shuningdek, mazkur bosqichda 700 dan ortiq davlat qishloq xo‘jaligi korxonalarini jamoa va ijara xo‘jaliklariga aylantirildi.

Ma’lumki, ilgari hamma korxonalar davlatning ixtiyorida bo‘lgan-

ligi tufayli, ularni har xil noxush hodisalardan sug'urta qilishga ehtiyoj bo'lmagan. Sababi, ushbu korxonalariga sug'urta hodisalari natijasida zarar yetkazilsa, bu zararlar davlat mablag'lari hisobidan bemalol qoplanaverar edi. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, mol-mulklarni davlat ixtiyoridan chiqarish va xususiylashtirish natijasida sektorida o'n minglab korxonalarni paydo bo'lishi, o'z-o'zidan sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni sezilarli ravishda oshirdi. Negaki, ilgari tajribadan farqli o'laroq, nodavlat sektoridagi korxonalar stixiyali hodisalar tufayli zarar ko'rganda, bu zararlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanmaydi.

Yuqorida bayon etilganlarga qo'shimcha ravishda ta'kidlash lozimki, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar sug'urta tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Davlat sug'urta tashkilotlariga raqobatbardosh xususiy sektorda mustaqil sug'urta kompaniyalari vujudga kela boshladi. Bu shubhasiz, ularning faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun qabul qilishni talab etdi. 1993-yilning 6-mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (hozirgi Oliy Majlis) «Sug'urta to'g'risida» qonun qabul qildi. Ushbu qonun sug'urtani rivojlantirishning, sug'urta bozorini shakllantirishning huquqiy asoslarini, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sug'urtaning mavqeyi va o'rnini belgilab beradi, fuqarolar va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablari to'liqroq qondirilishini kafolatlaydi, sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarining manfaatlari himoya qilinishi va majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi. Shunisi diqqatga sazovarki, mazkur qonunda davlat sug'urtasining monopoliyasiga barham berildi. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda, davlat sug'urta tashkilotlari va nodavlat sug'urta tashkilotlari uchun teng sharoitlar yaratildi.

2.2. 1991-1994-yillarda milliy sug'urta bozorining shakllanishi

1992-1994-yillarda iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida monopoliyaga barham berilishi va xususiylashtirish jarayoni kuchayishiga qaramasdan, O'zbekiston sug'urta bozorida davlat sug'urta muassasalarining ustunligi saqlanib qoldi. Mamlakatning shahar va qishloq joylaridagi asosiy sug'urta operatsiyalari O'zbekiston Moliya vazirligi huzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi va uning joylardagi bo'linmalari tomonidan amalga oshirildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1992-yilda davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan

jami 2415,1 mln rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan. Bu ko'rsatkich 1991-yilda yig'ib olingan sug'urta badallaridan uch marta ko'pdir. Agar ushbu davrda sug'urta badallari tarkibini chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, umumiy hajmda shaxsiy sug'urtaning ulushi kam ekanligini ko'ramiz. Xususan, 1991-yilda sug'urta badallarining umumiy hajmida shaxsiy sug'urtaning ulushi 38,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1992-yilda bu ko'rsatkich – 16,2 foizni tashkil etdi. Buning asosiy sababi pulning qadrsizlanishi va o'sha paytda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ro'y bergan tangliklar bilan bog'liq. Shaxsiy sug'urta turi bo'yicha 1990-yilda 6915,9 ming shartnomalar tuzilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1992-yilda 2624,0 ming ni tashkil etdi yoki shartnomalar soni 2,6 martaga kamaydi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yuridik shaxslarning mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilish iqtisodiy nuqtayi-nazardan samarali hisoblanadi. Chunki iqtisodiy islohotlarning mohiyati ham ko'proq korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Bunday chora-tadbirlardan biri korxonalar mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilishdir. 1992-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, davlat sug'urta organlari tomonidan yig'ib olingan jami sug'urta badallari hajmida mol-mulk sug'urtasining ulushi keskin kamayib ketdi.

1992-1994- va undan keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq operatsiyalarni o'tkazish faqat davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirildi. Bunday sug'urta turlariga qishloq xo'jalik mol-mulki sug'urtasi, fuqarolar mol-mulki sug'urtasi va yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urta qilish va boshqalar kiradi. Shu yerda ta'kidlash zarurki, 1991-yilning 1-yanvaridan sobiq ittifoq hududida qishloq xo'jaligi korxonalari mol-mulkini majburiy sug'urta qilish bekor qilingan edi. Ammo O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblangani uchun bu tarmoqqa qarashli mol-mulklarni sug'urta qilish ishlari uzluksiz davom ettirildi. 1993-yilning oxirida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi korxonalari mol-mulkini majburiy sug'urta qilish joriy etildi.

1993-1994-yillar davomida sug'urta sohasida monopoliyadan chiqarilish jarayoni bir muncha tezlashdi. 1994-yil oxirlarida mamlakat nodavlat sektorida 60 dan ortiq sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsata boshladi. 1993-yilda davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan jami

26892,8 mln rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan va uning qariyb 81,3 foizi majburiy sug'urta turlaridan kelib tushgan. Aniqroq qilib ta'kidlaydigan bo'lsak, ushbu kelib tushgan majburiy sug'urta badallarining 79,4 foizi yoki 21,4 mlrd rubli qishloq xo'jalik korxonalarining mol-mulkini sug'urta qilishdan kelib tushgan. Mol-mulklarni ixtiyoriy sug'urta qilish va shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan badallar umumiy sug'urta tushumlarida tegishli ravishda 7,3 va 9,4 foizlarni tashkil etdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 1993-yilda davlat sug'urta muassasalari 12,8 mlrd rublni bevosita sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan zararlarni qoplashga sarfladi. 1994-yilning 1-iyulida Moliya vazirligi huzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi fuqarolar tomorqalaridagi qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik dov-daraxtlarni ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalarini tasdiqladi. Bu qoidalarga ko'ra, kartoshka, sabzovat, poliz ekinlari, ko'chatlari, tomorqada o'stirilayotgan mevali-rezavor hamda boshqa ko'p yillik daraxt, buta – o'simliklar ixtiyoriy sug'urtaga olindi. Sug'urta badallarining stavkalari qishloq xo'jaligi ekinlari turlariga qarab belgilandi. Masalan, bir yillik va ko'p yillik ekilgan o'tlar uchun sug'urta badalining stavkasi sug'urta summasiga nisbatan 7 foiz miqdorida belgilandi.

1992-yil boshlarida O'zbekistonda nodavlat sektorida o'nga yaqin sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatdi. Ular, davlat sug'urta tashkilotlaridan farqli o'laroq, amaldagi sug'urta qilish qoidalarini ancha takomillashtirdilar. Jumladan, sug'urta badali stavkasini kamaytirgan holda sug'urta javobgarligi hajmini kengaytirdilar. 1992-yil davomida mamlakatda «Umid» qo'shma sug'urta kompaniyasi, «Inobat», «Ishonch», «Temir yo'lchi» kabi bir qator nodavlat sug'urta tashkilotlari turli xil sug'urta operatsiyalarini amalga oshirdilar.

1993-1994-yillarda nodavlat sug'urta tashkilotlari ichida eng ko'p sug'urta operatsiyalarini amalga oshirgan hamda eng dastlabki nodavlat sektoridagi sug'urta kompaniyalaridan biri – «ARK sug'urta guruhi»dir. Bu kompaniya ilk marta 1991-yilning 21-fevralida «ASTROVAZ» nomi bilan rossiyalik hamkorlar yordamida tashkil etildi. 1992-yilning yanvar oyida Rossiyalik hamkorlar ta'sischi sifatidan chiqarildi. Shu yilning 24-iyunida «ASTROVAZ» yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. 1993-yilning mart oyidan boshlab bu tashkilot «ARK sug'urta guruhi» deb atala boshlandi. Uning Nizom jamg'armasi ana shu davrda 3,0 mln so'mdan ortiqni tashkil etgan edi. Mazkur tashkilot

hozirgi paytda «ARK sugʻurta» nomi ostida Oʻzbekiston sugʻurta bozorida muvaffaqiyat bilan faoliyat koʻrsatmoqda. U, asosan, fuqarolarning hayoti sugʻurtasi, Oʻzbekiston hududida akkreditatsiya qilingan chet davlatlar vakolatxonolari, elchixonalarinng mol-mulkini sugʻurtalash bilan shugʻullanmoqda.

«ARK sugʻurta guruhi» bilan bir qatorda 1992-1994-yillarda «Umid» Osiyo sugʻurta kompaniyasi ham nisbatan faol sugʻurta qilish ishlarini amalga oshirdilar. Bu kompaniyaning asosiy taʼsischilari Oʻzbekiston Respublikasi xomashyo birjasi va Pokiston Islom Respublikasidan boʻlgan hamkorlardir. Ushbu kompaniya dastlab, eksport-import yuklarini, transport vositalarini sugʻurtalashga ixtisoslashdi. Keyinchalik «Umid» Osiyo sugʻurta kompaniyasi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni oʻz vaqtida qarz oluvchilar tomonidan qaytarib bera olmaslik tavakkalchiligini sugʻurta qila boshladi. Hozirgi paytda «Umid» sugʻurta kompaniyasi oʻz faoliyatini yuritmayapti.

1994-yil 13-aprelda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «Oʻzbekinvest» milliy sugʻurta kompaniyasi tashkil etildi

Yuqorida bayon etilganlar shundan dalolat beradiki, Oʻzbekiston sugʻurta bozorida davlat sugʻurta tashkilotlari bilan bir qatorda xususiy, aksiyadorlik va boshqa mulk shaklidagi xususiy sugʻurta kompaniyalari ham raqobat asosida faoliyat koʻrsatishlari mumkin.

2.3. 1995-2001-yillarda Oʻzbekiston sugʻurta bozorining rivojlanishi

Sugʻurta tashkilotlari taraqqiyotining ikkinchi bosqichi 1995-2001-yillarni oʻz ichiga oladi. 1995-yil 1-yanvardan transport vositalari va boshqa oʻziyurar mashina va mexanizmlar egalarining uchinchi shaxslarga zarar keltirish boʻyicha javobgarligini majburiy sugʻurta qilish joriy etildi. Bu davrda bevosita davlat ishtirokida yirik sugʻurta tashkilotlari tashkil etildi.

Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatayotgan sugʻurta tashkilotlari haqida gapirganda, albatta, «Madad» sugʻurta agentligini ham alohida tilga olish joiz. Bu agentlik Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni sugʻurtaviy himoya qilish boʻyicha agentlikni tashkil etish toʻgʻrisida» 1995-yil 26-iyuldagi farmoniga binoan tashkil etilgan va bugungi kunda muvaffaqiyatli faoliyat koʻrsat-

yapti¹. Agentlik ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati bo‘lib, uning asosiy muassislari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, «O‘zsanoatqurilishbank», «Tadbirkorbank» (hozir Mikrokredit-bankka aylantirilgan) va boshqa bir nechta tijorat banklari hamda tashkilotlardir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga, shuningdek, aholiga hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalariga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish agentlikning asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi.

«Madad» sug‘urta agentligi, dastlabki tashkil etilgan yillaridayoq, mamlakatimizda tadbirkorlik harakatini qo‘llab-quvvatlashda, ayniqsa kichik biznes subyektlariga «Biznes-fond» tomonidan ajratilgan kreditlarga sug‘urta kafolatlarini berish hamda ularni imtiyozli tariflar asosida sug‘urta qilishda muhim rol o‘ynadi. Hozirgi kunda ushbu agentlik respublikamizning barcha viloyatlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘z filiallariga ega. Agentlikda yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi sug‘urta faoliyatini muntazam takomillashtirib borish, yangi sug‘urta xizmatlarini joriy etishda katta omil bo‘layapti.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga tobora integratsiyalashuvi, o‘z navbatida, sug‘urta xizmatlari ko‘rsatish darajasini xalqaro andozalarga moslashtirishni talab etadi. Shuningdek, vatanimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan chet el investitsiyalarini sug‘urtaviy himoya qilish va chetga eksport qilinayotgan mahsulotlarni siyosiy hamda tijorat risklaridan sug‘urta qilish tizimini yaratish o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalarida dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Buni e‘tiborga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 1997-yilning 18-fevralida «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi. Ushbu hujjatga ko‘ra, sobiq «O‘zbekinvest» milliy sug‘urta kompaniyasi negizida tashkil etilgan yangi tashkilotning ustav kapitali 60,0 mln AQSh dollari miqdorida belgilandi. Bugungi kunda uning ustav kapitali to‘liq shakllantirilgan. Kompaniyaning asosiy muassislari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankidir.

1997-yilning 14-martida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil etilgan «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi haqida ham iliq gaplarni aytish mumkin. Bu kompaniya sug‘urta operatsiyalari hajmi va ustav kapitali miqdori jihatidan respublikamizdagi yirik sug‘urta tashkilotlari tarkibiga kiradi.


¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 26-iyuldagi «Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni sug‘urtaviy himoya qilish bo‘yicha «Madad» sug‘urta agentligini tashkil etish to‘g‘risida» farmoni. – «Xalq so‘zi» gazetasi, 1995-yil 27-iyul.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish to‘g‘risida» 1998-yil 8-iyuldagi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga davlat sug‘urta nazorati funksiyasi yuklatildi va shu munosabat bilan uning markaziy apparatida Sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi.

2.4. 2002-2007-yillarda milliy sug‘urta bozorida ro‘y bergan o‘zgarishlar

Uchinchi bosqich 2002-2007-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi va amaliyotga joriy qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug‘urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2002-yil 31-yanvardagi PF-3022-sonli farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq hamda sug‘urta tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish, sug‘urta kompaniyalarining moddiy-texnika bazasi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning mintaqaviy vakolatxonalarini kengaytirish va aholining sug‘urta tashkilotlariga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2002-yilning 27-noyabrda 413-sonli qaror qabul qildi.

Sug‘urta sohasiga davlat tomonidan bo‘lgan e‘tibor tarmoqda ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini berdi. Buni quyidagi diagramma ma‘lumotlaridan ham ko‘rish mumkin.



1-diagramma. 2002-2007-yillarda barcha sug‘urta tashkilotlari tomonidan to‘plangan sug‘urta mukofotlari dinamikasi¹

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil etilayotgan yillarda sug'urta mukofotlari tushumi muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Masalan, 2002-yilda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta tashkilotlari tomonidan jami 21,6 mlrd so'm sug'urta mukofotlari to'plangan bo'lsa, 2007-yilga kelib bu ko'rsatkich 73,6 mlrd so'mga yetgan. Bunday natijaga erishishning asosiy sababi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan sug'urta tashkilotlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berilganligidadir.

2002-2007-yillar mobaynida nodavlat sektorida ko'plab sug'urta kompaniyalari tashkil etildi. Unga misol tariqasida «Universal sug'urta», «Fotis sug'urta», «Yunipolis» kabi sug'urta kompaniyalarini keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati muntazam davom etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 aprelda «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-618-sonli qarori e'lon qilindi. Mazkur qarorga asosan 2007-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Bu dasturda sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik bazasini xalqaro amaliyotga muvofiq yanada takomillashtirish, sug'urta xizmatlari, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyati, eksport-import operatsiyalari, hayotni uzoq muddatli sug'urtalash hajmini kengaytirish, respublika sug'urta bozorini xalqaro sug'urta bozorlariga integratsiyalashuvini ta'minlash kabi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan. Farmonda sug'urta tashkilotlari kapitallashtirish darajasini oshirishga alohida e'tibor berilgan, ya'ni 2008-yil 1-yanvardan sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdoriga yangi talablar o'rnatildi. Buni quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan bilib olish mumkin.

2-jadval

2003-2008-yillarda O'zbekiston sug'urta kompaniyalari kapitalizatsiya darajasidagi o'zgarishlar dinamikasi

Faoliyat turi	2003-yil 1-avgustdan	2008-yil 1-yanvardan	2010-yil 1-yanvardan
Umumiy sug'urta	150 ming doll.	500 ming doll.	750 ming YEVRO
Hayot sug'urtasi	250 ming doll.	750 ming doll.	1 mln YEVRO
Majburiy sug'urta	500 ming doll.	1 mln doll.	1,5 mln YEVRO
Faqat qayta sug'urta	2 mln doll.	3 mln doll.	4 mln YEVRO

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan qarorda «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqidagi» Oʻzbekiston Respublikasi qonunini qabul qilish ham nazarda tutilgan edi. Mazkur qonunda sugʻurta bozori professional ishtirokchilari boʻlgan sugʻurtalovchilar, sugʻurta agentlari, sugʻurta va qayta sugʻurta brokeri, sugʻurta syurveyeri, assistans va aktuariy xizmati hamda adjasterlarning faoliyatini tartibga soluvchi normalar mavjud. Sugʻurta bozorining ushbu professional ishtirokchilari faoliyatini qonuniy jihatdan mustahkamlamasdan turib, ularni rivojlantirish mumkin emas. Sugʻurta bozorini rivojlantirishda mazkur subyektlarning nechogʻli katta ahamiyat kasb etishini eʼtiborga olib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 21-mayda qabul qilingan «Oʻzbekiston Respublikasida 2010-yilgacha boʻlgan davrda xizmat koʻrsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qaroriga muvofiq sugʻurta bozori professional ishtirokchilari ham 2009-yilgacha foyda soligʻi toʻlashdan ozod etildi.

2.5. 2008-2009-yillarda sugʻurta sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ahamiyati

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-maydagi «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» qarori sugʻurta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini oshirish, ularning respublika mintaqalarida agentlik shaxobchalarini kengaytirish va investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etdi. Sugʻurta kompaniyalari ustav kapitalining eng kam miqdoriga oʻrnatilgan talab kuchaytirildi. Qarorga koʻra, 2010-yil 1-yanvardan umumiy sugʻurta sohasida faoliyat koʻrsatuvchi kompaniyalar uchun ustav kapitalining eng kam miqdori 750,0 ming yevroga teng ekvivalent summada; hayotni sugʻurta qilish sohasida faoliyat koʻrsatuvchi sugʻurta kompaniyalari uchun 1000 ming yevroga teng ekvivalent summada; majburiy sugʻurta boʻyicha 1500,0 yevroga teng ekvivalent summada belgilandi. Bu albatta sugʻurta tashkilotlarining kapitallashuv darajasini keskin oshiradi.

Maʼlumki, majburiy sugʻurta ijtimoiy himoya tizimining muhim boʻgʻinlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning bozor shart-sharoitlari asosida rivojlanishida sugʻurtaning majburiy turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, majburiy sugʻurta oʻzida nafaqat

ijtimoiy himoya elementlarini namoyon etadi, balki bozor munosabatlariga xos bo'lgan jihatlarni ham ifodalaydi. Amaliyotda majburiy sug'urtaning ikki turi uchraydi. Birinchisi, bevosita mijozlarning to'lagan sug'urta mukofotlari hisobidan amalga oshiriladigan majburiy sug'urta, ikkinchisi, sug'urta mukofoti to'lovi davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan majburiy davlat sug'urtasi.

Majburiy sug'urtaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini e'tiborga olgan holda 2008-yil 21-aprelda «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.¹ Qonun 41 ta moddadan iborat bo'lib, unda mazkur qonunning maqsadi, asosiy tushunchalar, majburiy sug'urtaning asosiy prinsiplari, majburiy sug'urtani amalga oshirish shartlari va tartibi, sug'urta hodisalari bo'yicha zararning o'rnini qoplash, kompensatsiya to'lovlari, majburiy sug'urta bo'yicha to'lovlarni kafolatlash kabi boblar mavjud. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur qonunning 41-moddasida «Ushbu qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin kuchga kiradi», deb ko'rsatib o'tilgan edi².

Qonun qabul qilingandan so'ng uni amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan Hukumat qarorini qabul qilishga zarurat tug'ildi va 2008-yilning 26-iyunida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» 141-sonli qaror qabul qildi. Mazkur qarorga asosan «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari» tasdiqlandi.³ Shuningdek, qarorda Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasini tashkil etish va uning asosiy vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Eng muhimi, mazkur qaror asosida majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqini olish uchun sug'urtalovchilarga muayyan talablar belgilandi. Ular quyidagilardan iborat:

- Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqini olish uchun sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori qonun hujjatlarida belgilangan me'yordan kam bo'lmasligi kerak.

¹ «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari to'plami. T.: Adliya vazirligi, 2008-yil 17-son.

² «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. T.: Adliya vazirligi, 2008-yil, 17-son.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 141-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T.: Adliya vazirligi, 2008-yil, 26-27-son.

- Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish huquqini olish uchun sugʻurtalovchilar Qoraqalpogʻiston Respublikasida, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida majburiy sugʻurta shartnomalarini tuzish, jabrlanuvchi (uning merosxoʻri yoki huquqiy vorisi)ning sugʻurta toʻlovlari toʻgʻrisidagi talablarini koʻrib chiqish va sugʻurta toʻlovlarini amalga oshirish vakolati berilgan oʻz filiallariga va boshqa alohida boʻlinmalariga ega boʻlishi shart.

Davlat tomonidan majburiy sugʻurtani amalga oshirishda sugʻurtalovchilarga nisbatan bunday talabning oʻrnatilishi bejiz emas, albatta. Buni shu bilan izohlash mumkinki, majburiy sugʻurta butun Oʻzbekiston hududini qamrab oladi va yoʻl-transport hodisasi mamlakatimizning qaysi joyida sodir boʻlishidan qatʼiy nazar, yuridik yoki jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zarar, transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligining majburiy sugʻurtasi boʻyicha sugʻurtalovchi tomonidan jabrlanuvchiga zarar qoplab berilishi lozim.

Hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi hududida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish huquqiga quyidagi sugʻurta tashkilotlari haqlidirlar:

1. «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadordik sugʻurta kompaniyasi.
2. «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi.
3. «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi.
4. «Kapital sugʻurta» sugʻurta kompaniyasi.
5. «Alfa invest» sugʻurta kompaniyasi.
6. «Asia insurans» sugʻurta kompaniyasi.
7. «Alskom» sugʻurta kompaniyasi.
8. «Ishonch» banklararo sugʻurta kompaniyasi.
9. «Universal sugʻurta» sugʻurta kompaniyasi.

Yuqorida nomlari keltirilgan sugʻurta tashkilotlarining ustav fondi 2010-yil 1-yanvardan sugʻurtalovchilarning ustav fondlariga nisbatan oʻrnatilgan yangi talablarga toʻla-toʻkis mos keladi. Maʼlumki, 2010-yil 1-yanvardan majburiy sugʻurtani amalga oshiruvchi sugʻurtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 1,5 mln yevro ekvivalentidagi summadan kam boʻlmasligi shart. Bu haqda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-mayda qabul qilingan «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» PQ-872-sonli qarorida aniq koʻrsatilgan.¹

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada icloh qilish va rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» 2008-yil 21-maydagi PQ-872-son qarori.// Xalq soʻzi, 2008-yil 22-may.

Shuningdek, mazkur sugʻurta tashkilotlarining Oʻzbekiston Respublikasining barcha hududlarida filiallari mavjud.

2010-yilda mamlakatimizda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha 1247596 dona sugʻurta polislari mijozlarga taqdim etildi. Buni quyida keltirilgan jadval maʼlumotlari koʻrsatib turibdi.

3-jadval

2010-yilda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish bozorining asosiy koʻrsatkichlari¹

№	Koʻrsatkichlar	Oʻlchov birligi	Miqdor
1	Sugʻurta polislari soni	dona	1247596
2	Sugʻurta mukofotlari	mlrd soʻm	31,8
3	Sugʻurta summasi	trln soʻm	5,83
4	Qanoatlantirilgan sugʻurta daʼvolari soni	birlik	5050
5	Qanoatlantirilgan sugʻurta daʼvolari summasi	mlrd soʻm	5,44
6	Taqdim etilgan siylovlar summasi	mln soʻm	346,9

Jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, tahlil etilayotgan davrda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha jami 31,8 mlrd soʻm miqdorida sugʻurta mukofotlari kelib tushgan. Agar 2010-yilda respublikamiz sugʻurta bozori boʻyicha kelib tushgan sugʻurta mukofotlari summasi jami 175,0 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilishning yalpi mukofotdagi ulushi 18,2 foizni tashkil etganligiga guvoh boʻlamiz. Qizigʻi shundaki, 2009-yilda bu koʻrsatkich 21,8 foizni tashkil etgan. 2010-yilda jami sugʻurta mukofotlari tarkibida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha ulushning 2009-yilga nisbatan kamayganligiga sabab shuki, birinchidan, 2010-yilda bozor boʻyicha sugʻurta mukofotlarining oʻsish surʼatlari 2009-yilning oʻsish surʼatlaridan ortda qoldi. Qolaversa, 2009-yilda majburiy sugʻurtani amalga oshirish 2010-yilga nisbatan faolroq boʻlgan.

2010-yil yakunlari boʻyicha transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha qanoatlantirilgan sugʻurta daʼvolari soni 5050 tani tashkil etib, ular

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha toʻlovlarni kafolatlash jagʻarmasi maʼlumotlari.

bo'yicha jabr ko'rgan shaxslarga 5,44 mlrd so'm sug'urta qoplamlari to'langan.

4-jadval

2009-2010-yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarning solishtirma tahlili¹

№	Ko'rsatkichlar	2009-yil	2010-yil	Farqi (+,-)
1	Sug'urta polislari soni	1307242	1247596	-59646
2	Sug'urta mukofotlari	31,2	31,8	+0,6
3	Sug'urta summasi	5,6	5,8	+0,2
4	Qanoatlantirilgan sug'urta da'volari soni	3544	5050	+1506
5	Qanoatlantirilgan sug'urta da'volari summasi	3,6	5,4	+1,8
6	Taqdim etilgan siylovlar summasi	988,2	346,9	-641,3


Agar biz bu ko'rsatkichlarni 2009-yilning tegishli ko'rsatkichlari bilan solishtiradigan bo'lsak, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashning rivojlanishidagi tendensiyalar namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan jadvalda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha 2010-yilda erishilgan natijalar 2009-yilning mos ko'rsatkichlari bilan solishtirma tahlil etilgan. Eng achinarli jihati shundaki, 2010-yilda 2009-yilga nisbatan 59646 dona sug'urta polislari kam sotilgan. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, 2010-yilda transport vositalari soni kamaymagan, ammo sug'urta polislarni sotish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Shu sababli jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, 2010-yilda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari miqdorida keskin o'zgarish kuzatilmagan. Ya'ni 2009-yilda mazkur sug'urta bo'yicha jami 31,2 mlrd so'm sug'urta mukofotlari to'plashga erishilgan bo'lsa, 2010-yilda 31,8 mlrd so'm miqdorida sug'urta mukofotlari to'plashga erishilgan. O'sish sur'atlari sug'urta bozori bo'yicha yig'ilgan yalpi sug'urta mukofotlarining o'sish sur'atlaridan ancha past. Ammo ma'lumotlarning solishtirma tahlili shuni ko'rsatayaptiki, 2010-yilda 2009-yilga nisbatan

¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi ma'lumotlari.

1506 dona ko‘p sug‘urta da‘volari sug‘urtalovchilar tomonidan qanoatlantirilgan. Qanoatlantirilgan sug‘urta da‘volari bo‘yicha jami 5,4 mlrd so‘m miqdorida sug‘urta to‘lovlari amalga oshirilgan. Bu mijozlarning sug‘urta bo‘yicha saviyasi va tushunchasi oshganligi hamda sug‘urta kompaniyalari mijozlarning ishonchini qozonishga harakat qilayotganligini bildiradi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishda sug‘urta qildiruvchilar sifatida jismoniy shaxslar bilan bir qatorda yuridik shaxslar ham sug‘urta polislarini sotib olish imkoniyatiga egadirlar. Shu munosabat bilan, bizning nazarimizda, sotilgan sug‘urta polislar va ular bo‘yicha sug‘urtalovchilar hisob raqamiga kelib tushgan sug‘urta mukofotlari hamda sug‘urta summasi va to‘langan sug‘urta qoplamalarini yuridik va jismoniy shaxslar kesimida tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Quyidagi diagrammada yuridik va jismoniy shaxslar bo‘yicha majburiy sug‘urta bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlarning solishtirma tahlilini keltiramiz.



2-diagramma. 2010-yilda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarning yuridik va jismoniy shaxslar kesimida solishtirma tahlili¹

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi ma‘lumotlari..

Yuqorida keltirilgan diagramma ma'lumotlari shundan dalolat bermoqdaki, 2010 yil yakunlari bo'yicha transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish yuzasidan mazkur sug'urtani amalga oshirish huquqiga ega sug'urtalovchilar tomonidan jami 1247596 dona sug'urta polisleri sotilgan bo'lsa, ularning 88,3 foizi jismoniy shaxslarga, 11,7 foizi yuridik shaxslarga to'g'ri kelgan. Agar biz kelib tushgan sug'urta mukofotlarini yuridik va jismoniy shaxslar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, diagramma ma'lumotlaridan ma'lumki, bunda ham yaqqol ustunlik jismoniy shaxslarga tegishli. Ya'ni 2010-yilda ular tomonidan sug'urtalovchilarga to'langan sug'urta mukofotlari miqdori jami sug'urta mukofotlarining 78,2 foizini yoki 24,9 mlrd so'mni tashkil etgan.

Diagramma ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2010-yilda sug'urtalovchilar tomonidan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha qabul qilib olingan sug'urta summasi, ya'ni sug'urta javobgarligi hajmi 5,83 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning roppa-rosa 88,3 foizi yoki 5,15 mlrd so'mi jismoniy shaxslar – transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha qabul qilingan. Diagramma ma'lumotlari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha ustunlik jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi. Demak, sug'urtalovchilar jismoniy shaxslar – transport vositalari egalarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasiga alohida e'tibor qaratganlar.

Biz yuqorida majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqini olish uchun talabgor sug'urtalovchilar respublikamizning barcha mintaqalarida o'z filiallariga ega bo'lishi lozimligi haqida ta'kidlab o'tgan edik. Shunga ko'ra, sug'urta tashkilotlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda mavjud bo'lgan transport vositalarini ham majburiy sug'urta bilan qamrab olishga harakat qilganlar. Bunga oid statistik ma'lumotlarning tahlili mintaqalar kesimida sug'urta mukofotlari tushumi turlicha ekanligini ko'rsatdi. Albatta, bunga bir qator omillar o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Chunonchi, transport vositalarining soni, sug'urtalovchilarning mijozlarni jalb etish darajasini ta'sir etuvchi omillar sifatida keltirish mumkin. Respublika viloyatlarida majburiy sug'urta bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlarini tahlil qilish uchun quyidagi jadval ma'lumotlariga murojaat qilamiz.

Jadval ma'lumotlari tahlili asosida, avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, 2010-yilda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish huquqiga ega sug'urtalovchilar va ularning joylardagi filiallari hamda bo'linmalari tomonidan jami 1247596 dona sug'urta polislari sotilgan. Uning salmoqli qismi, ya'ni 23 foizi Toshkent shahri hududida sotilgan. Bu tushunarli, albatta. Toshkent shahrida respublikamizning boshqa hududlariga qaraganda transport vositalari soni ko'p. Bundan tashqari, yo'lovchilarga xizmat qiladigan qator avtobus parklari mavjud.

5-jadval

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sotilgan sug'urta polislari va kelib tushgan sug'urta mukofotlarining hududlararo taqsimlanishi¹
(01.01.2011-yil holatiga)

t/r	Hududlar	Sotilgan sug'urta polislari soni (dona)	Salmog'i (foizda)	Kelib tushgan sug'urta mukofotlari (mln so'm)	Salmog'i (foizda)
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	46 034	3,7	855,66	2,7
2	Andijon viloyati	97 311	7,8	2 491,18	7,8
3	Buxoro viloyati	95 943	7,7	2 001,04	6,3
4	Jizzax viloyati	29 266	2,3	487,71	1,5
5	Qashqadaryo viloyati	83 333	6,7	1 703,73	5,4
6	Navoiy viloyati	38 421	3,1	922,08	3,0
7	Namangan viloyati	67 436	5,4	1 595,80	5,0
8	Samarqand viloyati	117 380	9,4	2 939,13	9,2
9	Surxondaryo viloyati	52 285	4,2	1 083,11	3,4
10	Sirdaryo viloyati	27 200	2,2	522,09	1,6
11	Toshkent viloyati	116 060	9,3	3 180,21	10,0
12	Farg'ona viloyati	117 364	9,4	2 940,88	9,2
13	Xorazm viloyati	73 194	5,8	1 265,51	4,0
14	Tashkent shahri	286 369	23,0	9 810,65	30,9
	Jami	1 247 596	100,0	31 798,78	100,0

Sirdaryo viloyatida tahlil etilayotgan davrda jami 27200 ta transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha polislar sotilgan. Ushbu sotilgan polislar respublika miqyosida

¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

sotilgan polislarning 2,2 foizini tashkil etgan. Holbuki, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida bu ko‘rsatkich mos ravishda 9,4 foizni tashkil etgan. Raqamlarni bu holatda taqqoslash, balki noto‘g‘ridir. Chunki Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida ham transport vositalari Sirdaryo viloyatida mavjud bo‘lgan transport vositalari sonidan bir necha baravar ko‘p bo‘lishi mumkin.

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2010-yilda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha jami 31798,78 mln so‘m sug‘urta mukofotlari kelib tushgan.

Uning qariyb 31 foizi, ya‘ni 9 810,65 mln so‘mi Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi. Buni ham izohlab o‘tirishga hojat yo‘q, albatta.

6-jadval

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha taqdim etilgan sug‘urta da‘volari va qanoatlantirilgan sug‘urta da‘volarining hududlararo taqsimlanishi¹
(01.01.2011-yil holatiga)

t/r	Hududlar	Taqdim etilgan sug‘urta da‘volari		Qanoatlantirilgan sug‘urta da‘volari	
		soni (dona)	summa (mln so‘m)	soni (dona)	summa (mln so‘m)
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	97	131,97	75	85,00
2	Andijon viloyati	208	286,18	194	241,92
3	Buxoro viloyati	71	112,84	62	91,82
4	Jizzax viloyati	17	23,95	15	22,39
5	Qashqadaryo viloyati	75	82,80	71	75,60
6	Navoiy viloyati	38	48,69	33	42,28
7	Namangan viloyati	160	218,45	143	173,62
8	Samarqand viloyati	85	113,17	80	103,55
9	Surxondaryo viloyati	40	63,34	40	60,24
10	Sirdaryo viloyati	89	114,02	83	99,77
11	Toshkent viloyati	550	721,78	506	597,72
12	Farg‘ona viloyati	79	98,21	67	85,82
13	Xorazm viloyati	41	66,02	35	52,92
14	Tashkent shahri	4 984	5 712,87	3 646	3 710,90
	Jami	6 534	7 794,29	5 050	5 443,54

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Sirdaryo viloyati bo'yicha 2010-yilda jami 522,09 mln so'm miqdorida sug'urta mukofotlari kelib tushgan. Bu respublika bo'yicha kelib tushgan jami sug'urta mukofotlarining 1,6 foizini tashkil etadi, xolos. Bizning fikrimizcha, Sirdaryo viloyatida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish yuzasidan hali foydalanilmayotgan, ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p. Avvalo, Sirdaryo viloyatida mavjud transport vositalarini majburiy sug'urtaga to'liq qamrab olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kerak. Bu yo'nalishda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari filiallari va bo'linmalari mahalliy ichki ishlar organlarining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xodimlari bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlarni kuchaytirishlari lozim.

Sirdaryo viloyatida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha ishlarni tahlil qilar ekanmiz, bu borada e'tiborni yana bir jadval ma'lumotlariga qaratishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2010-yilda respublikamiz bo'yicha transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha jabrlangan shaxslarga jami 5443,54 mln so'm miqdorida sug'urta qoplamalari to'langan. O'tgan 2009-yilda bu ko'rsatkich 3565,3 mln so'mni tashkil etgan.

Aslida jadval ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha mijozlardan umumiy summasi 7 794,29 mln so'mlik jami 6534 ta sug'urta da'volari taqdim etilgan. Amalda esa, uning 5050 tasi qanoatlantirilgan. Jabrlangan shaxslarga to'langan sug'urta qoplamalarining eng katta qismi, ya'ni 68,2 foizi yoki 3 710,90 mln so'mi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelgan. Bu nimadan dalolat beradi?

Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, oldingi jadvalda tahlil qilganimizdek, respublika bo'yicha eng ko'p sug'urta mukofotlari ham Toshkent shahriga to'g'ri kelgan edi. Demak, respublika bo'yicha eng ko'p transport vositalari Toshkent shahrida ro'yxatga olingan va tabiiyki, yo'l-transport hodisalari ham boshqa viloyatlarga qaraganda Toshkent shahrida ko'proq sodir bo'ladi. Shu sababli, to'langan sug'urta qoplamalarining eng katta qismi mana shu shaharga to'g'ri kelgan.

Ma'lumotlarni yanada tahlil qilish, sug'urta qoplamalari eng kam to'langan viloyatlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Bunday viloyatlar sirasiga Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarini keltirish mumkin. Mazkur viloyatlarda yo'l-transport hodisasi sodir bo'lishi natijasida jabrlangan shaxslarga to'langan sug'urta qoplamalari

miqdori mos ravishda 22,39; 42,28; 52,92 mln soʻmni tashkil etgan.

Sirdaryo viloyati hududiy sugʻurta bozori boʻyicha 2010-yilda yuridik va jismoniy shaxslardan yoʻl-transport hodisasi sodir boʻlishi oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplash uchun sugʻurtalovchilarga jami 89 ta ariza bilan murojaat qilingan. Jadval maʼlumotlarining guvohlik berishicha, uning 83 tasi qanoatlantirilgan.

Jadval maʼlumotlari tahliliga tayangan holda shunday xulosa chiqarish mumkinki, sugʻurta qoplamalarining toʻlanish darajasi, nafaqat, yoʻl-transport hodisalarining sodir boʻlishi yoki harakatlanadigan transport vositalari soniga, balki sugʻurta hodisasi sodir boʻlgandan soʻng jabrlanuvchi va sugʻurta qildiruvchilarning sugʻurta tashkilotlariga oʻz vaqtida murojaat qilishlariga ham uzviy bogʻliqdir.

Taʼkidlash joizki, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilishni joriy qilish kutilgan natijani berdi. Mustaqil tahlilchilarning fikriga koʻra, majburiy sugʻurtaning amaliyotga joriy etilishi mamlakat miqyosida sugʻurtaning aholi barcha qatlamlari orasiga kirib borishiga va shu orqali sugʻurta madaniyatining oshishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, majburiy sugʻurtani amaliyotga joriy etishdan koʻzlangan asosiy maqsad yoʻl-transport hodisalari sodir boʻlishi oqibatida jabrlangan shaxslarning ijtimoiy himoyasini kafolatlaydigan samarali tizimni shakllantirish edi. Tabiiyki, 2009-2010-yillar yakunlari qoʻyilgan maqsad naqadar toʻgʻri ekanligini koʻrsatdi.

Maʼlumki, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish tizimining ijtimoiy yoʻnaltirilgan jihatlaridan biri mazkur sugʻurta boʻyicha toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasining tashkil etilganligi hisoblanadi. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasining funksiya va vazifalari Oʻzbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»¹gi qonunida¹ va Vazirlar Mahkamasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»²gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2008-yil 24-iyundagi 141-sonli qarorida²da atroflicha qayd etib oʻtilgan.

¹ «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi qonuni. Oʻzbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari toʻplami. –T.: Adliya vazirligi, 2008-yil 17-son.

² Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2008-yil 24-iyundagi 141-sonli qarori. Oʻzbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari toʻplami. –T.: Adliya vazirligi, 2008-yil 26-27-son.

«Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 30-moddasida majburiy sugʻurta boʻyicha toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat ekanligi koʻrsatib oʻtilgan: «transport vositalaridan foydalanilayotganda jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararining oʻrni ularga ushbu qonun talablariga muvofiq kompensatsiya toʻlovlarni amalga oshirish orqali kafolatli qoplanishini taʼminlash; ushbu qonunga muvofiq sugʻurta mukofotlari boʻyicha siylovlar olish huquqiga ega boʻlgan fuqarolarning ayrim toifalarini qoʻllab-quvvatlash tizimini mazkur siylovlarni kompensatsiya qilish orqali moliyaviy jihatdan taʼminlash; majburiy sugʻurta toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni, shu jumladan, majburiy sugʻurta shartnomalari, sugʻurta hodisalari, sugʻurta qildiruvchilar va jabrlanuvchilar shaxsiga oid maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan axborot maʼlumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek, mazkur maʼlumotlar sugʻurtalovchilar va Toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasi oʻrtasida qonun hujjatlarida belgilangan sugʻurta siri toʻgʻrisidagi talablar taʼminlangan holda ayirboshlanishini tashkil etish; ushbu moddaga muvofiq Toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasi zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalarni amalga oshirish boʻyicha uning faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarni maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda ishlab chiqish va tasdiqlash»¹.

Jamgʻarma tashkil etilgan paytdan boshlab oʻz zimmasiga yuklangan vazifalarni sifatli va toʻliq bajarilishini taʼminlash maqsadida yoʻl-transport hodisasi sodir boʻlishi natijasida jabrlanuvchilarga kompensatsiya toʻlovlari boʻyicha kelib tushgan arizalarni koʻrib chiqish va toʻlovlarni amalga oshirish tartibini belgilovchi meʼyoriy hujjatlarni ishlab chiqdi. Mazkur hujjatlar jamgʻarma tomonidan tegishli arizalarni oʻz vaqtida koʻrib chiqish va kompensatsiya toʻlovlarni amalga oshirish imkoniyatini berdi. Masalan, 2010-yil yakunlari boʻyicha jamgʻarma tomonidan 366 ta jabrlanuvchiga jami 251,3 mln soʻm miqdorida kompensatsiya toʻlovlari amalga oshirildi.²

Qonunga muvofiq, sugʻurtalovchiga nisbatan bankrotlik tartib-taomili qoʻllanilganda, jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxs nomaʼlum boʻlganda va foydalanilayotganda zarar yetkazgan transport vositasining egasi oʻz fuqarolik javobgarligini sugʻurta qilish

¹ «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasining qonuni. Oʻzbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari toʻplami. –T.: Adliya vazirligi, 2008-yil 17-son.

² Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasi maʼlumotlari.

bo'yicha majburiyatini bajarmaganda jamg'arma tomonidan kompensatsiya to'lovlari amalga oshiriladi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasining asosiy vazifalaridan yana biri amaldagi qonunchilikka asosan sug'urta mukofotlarini to'lashda siylovlar berilishi belgilab qo'yilgan shaxslar tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofotlari summasining 50 foizini sug'urtalovchilarga to'lash hisoblanadi. «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 13-moddasiga ko'ra quyidagi shaxslar sug'urta mukofotlari bo'yicha siylovlar olish huquqiga quyidagilar ega¹:

- 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilari yoki partizanlari yoxud ularga tenglashtirilgan shaxslar;

- 1941-1945-yillardagi urush davri mehnat fronti faxriylari;

- konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari;

- harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchining ota-onasidan biri yoki boshqa turmush qurmagan bevasi;

- Chernobil AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar;

- pensionerlar;

- nogironlar.

2009-yilda to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi sug'urtalovchilarning yozma murojaatlariga muvofiq sug'urta mukofotlarini to'lashda siylov berilgan 61344 shaxsga jami 47,7 mln so'm miqdorida hisoblangan sug'urta mukofotlari summasini to'lagan.

Majburiy sug'urta shartnomasini tuzish uchun sug'urta qildiruvchi sug'urta kompaniyasi va uning joylardagi vakillariga majburiy sug'urta shartnomasini tuzish to'g'risidagi ariza-anketani har bir transport vositasi bo'yicha taqdim etadi, unga quyidagi hujjatlarning nusxalari ilova qilinadi:

a) transport vositasini boshqarishga qo'yilgan sug'urta qildiruvchi – jismoniy shaxsning va boshqa shaxslarning pasporti yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi guvohnomasi (fotosurati va ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi oxirgi yozuv qayd etilgan varaqlari);

¹ «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: Adliya vazirligi, 2008-yil 17-son.

b) transport vositasining texnik pasporti (schyot-ma'lumotnomasi) yoki uning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma (transport vositasining oldi-sotdi (almashish, hadya qilish) shartnomasining nusxasi);

d) transport vositasini boshqarishga berilgan ishonchnoma yoxud ushbu transport vositasiga egalik huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjat – agar majburiy sug'urta shartnomasi transport vositasini boshqarishga faqat muayyan shaxslargina boshqarishga qo'yilishi sharti bilan tuzilgan bo'lsa (transport vositasini boshqarishga qo'yilgan barcha shaxslar uchun, transport vositasi egasidan tashqari);


e) transport vositasini boshqarishga qo'yilgan barcha shaxslarning haydovchilik guvohnomasi yoki barcha haydovchilarning transport vositasini boshqarish huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar – transport vositasini boshqarishga faqat muayyan shaxslar qo'yilishi sharti bilan majburiy sug'urta shartnomasi tuzilgan taqdirda;

j) sug'urta qildiruvchi – jismoniy shaxslarning sug'urta mukofoti bo'yicha siylov olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar toifasiga tegishlilikini tasdiqlovchi (guvohnoma, ma'lumotnomalar va shu kabilar) hujjatlar (agar bo'lsa).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarning asl nusxalari ularning nusxalari bilan taqqoslash uchun taqdim etiladi, ushbu bandning «d» kichik bandida ko'rsatilgan hujjatlar bundan mustasno. Ushbu bandning «d» kichik bandida nazarda tutilgan hujjatlarning nusxalari notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak. Sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga taqdim etilayotgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'liqligi va haqiqiyliги uchun javobgar hisoblanadi.

Sug'urta puli majburiy sug'urta shartnomasida milliy valutada ko'rsatiladi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy sug'urta shartnomasi tuzilgan kundagi kursi bo'yicha belgilanadi. Majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotining miqdori hukumat qarori bilan tasdiqlangan sug'urta tariflariga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Hozirgi paytda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta summasining eng yuqori miqdori 3000,0 AQSh dollari ekvivalentiga teng miqdorda belgilangan. Uning 35 foizgacha bo'lgan qismi, ya'ni 1050 AQSh dollari ekvivalentiga teng summagacha bo'lgan qismi yo'l-transport hodisasi sodir bo'lishi natijasida jabrlanuvchining – yuridik yoki jismoniy shaxsning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash uchun sarflanadi.



1-chizma.

Sug'urta summasining 65 foizgacha bo'lgan qismi, ya'ni 1950 AQSh dollari ekvivalentiga teng summagacha bo'lgan qismi jabrlanuvchining hayoti va sog'ligiga yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadi. Buni yuqorida keltirilgan chizmada yaqqol ko'rsatish mumkin.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini hisoblashda tarif stavkasi quyidagilarni e'tiborga olgan holda o'zgaradi:

- Transport vositasining turi.
- Transport vositasining yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli ekanligi.
- Transport vositasi harakatlanadigan (ro'yxatga olingan) hudud.
- Oldingi davrlarda sug'urta hodisalarining sodir bo'lganligi yoki bo'lmaganligi.
- Haydovchining yoshi.
- Transport vositasidan mavsumiy foydalanish.
- Haydovchining staji.

Masalan, Toshkent shahrida davlat ro'yxatidan o'tgan va shu hududda harakat qiladigan dvigatel hajmi 1200 kub. santimetr gacha bo'lgan jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtomashinalar uchun bazaviy tarif stavkasi 0,4 foizni tashkil etadi. Sug'urta summasining eng yuqori miqdori 3000 AQSh dollari ekvivalentiga teng summada belgilangan (2013-yil 8-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha 1 AQSh dollari 1985,55 so'mga teng bo'lgan). Demak, bazaviy stavka 23826,60 so'mga teng. Mashina Toshkent shahrida harakat qilganligi uchun unga 1,4 koeffitsiyent qo'llaniladi va natijada sug'urta summasi 33357,2 so'mga teng bo'ldi.

Agar haydovchining staji 5 yildan ortiq bo'lsa, u holda unga 1,0 koeffitsiyent qo'llaniladi, ya'ni sug'urta mukofoti o'zgarasdan qoladi.

Jabrlanuvchilarga zarar yetkazilishiga olib kelgan yo'l-transport hodisasi ishtirokchisi bo'lgan sug'urta qildiruvchi (fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan boshqa shaxs) mazkur hodisaning boshqa ishtirokchilari talabiga ko'ra ularga ushbu transport vositasi egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtalangan majburiy sug'urta shartnomasi to'g'risidagi ma'lumotlarni xabar qilishi shart.

Sug'urta qildiruvchi (fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan boshqa shaxs) yoki uning vakolatli vakili sug'urta hodisasi sodir bo'lganda:

- jabrlanuvchiga (uning merosxo'rlariga yoki huquqiy vorislariga) yo'l-transport hodisasi kundan boshlab uch kalendar kundan kechiktirmay sug'urta polisining nusxasini topshirishi;

- davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarining yetib kelishini kutishi, imkoni boricha yo'l-transport hodisasi guvohlarining familiyasi va manzilini yozib olishi;

- darhol, yo'l-transport hodisasidan keyin 72 soatdan kechiktirmay, sodir bo'lgan hodisa haqida yozma shaklda, sug'urta polisining nusxasini ilova qilgan holda sug'urtalovchiga (uning filialiga) yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan joydagi va transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga bildirishi kerak. Bildirishnomada hodisaning xususiyati, sodir bo'lgan payti, ko'rilishi taxmin qilingan zararining miqdori, yo'l-transport hodisasiga aloqador barcha shaxslarning, shu jumladan, taxmin qilingan da'vogarlarining nomlari va manzillariga taalluqli axborot imkon qadar to'liq hajmda, shuningdek, sug'urta qildiruvchi hodisa haqida ilk marotaba qay tarzda xabardor bo'lganligi va sug'urta qildiruvchining nega hodisani talabnoma bildirishga sabab bo'lishi mumkin, deb hisoblashiga oid tafsilotlar majburiy tartibda ko'rsatilishi kerak;

- sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi munosabati bilan unga nisbatan qo'yilayotgan barcha talablar yoki unga qarshi boshlangan sud muhokamasi to'g'risida darhol xabar qilishi, zarar yetkazilishi holatlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni va vakolatli organlardan olingan, sug'urta hodisasining sabablari hamda oqibatlarini, zararining xususiyati va miqdorini belgilash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni sug'urtalovchiga taqdim etishi;

- zararning oldini olish va (yoki) kamaytirish yuzasidan mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'rish kerak.

Xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, majburiy sug'urtaning mavjudligi sug'urtaning mamlakat iqtisodiyotiga kirib borishida asosiy omillardan biridir. Albatta, sug'urtaning majburiy turlarini tatbiq etish respublikada sug'urta sohasi rivojiga ko'p jihatdan imkon yaratadi. Lekin majburiy sug'urta tizimini yaratishdan asosiy maqsad aholi muhtoj qatlamlarining ijtimoiy himoyasini ta'minlashdan iborat. Bugungi kunda majburiy sug'urta aholining muhtoj qatlamlari uchun ijtimoiy himoyani bozor iqtisodiyoti prinsiplari asosida ta'minlovchi qulay usul hisoblanadi.

Sug'urtaning majburiy turlari ijtimoiy himoyani bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'minlashda qanchalik dolzarb ekanligini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan «O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirishning 2007-2010-yillarga mo'ljallangan dasturi» tasdiqlangan edi. Bu dastur respublikada sug'urta sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda majburiy sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda mamlakatimizda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash muvaffaqiyatli amal qila boshladi.

2009-yilning 17-aprelida O'zbekiston Respublikasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi¹. Ushbu qonun sug'urta bozorini isloh qilish va rivojlantirishning 2007-2010-yillarga mo'ljallangan dasturida ko'zda tutilgan majburiy sug'urtaning ikkinchi turini tatbiq etishni nazarda tutadi. Ushbu qonunni qabul qilishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad mehnat jarayonida jarohat olgan, kasb kasalligi yoki xizmat burchini bajarayotgan vaqtida salomatligiga ziyon yetgan fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashdan iborat.

2013-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi hududida ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha quyidagi sug'urta tashkilotlari majburiy sug'urta shartnomalarini tuzishga haqlidirlar.

1. «O'zagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi.
2. «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi.
3. «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi.

¹ «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: Adliya vazirligi, 2009-yil, 16-son.

4. «Ishonch» banklararo sugʻurta kompaniyasi.
5. «Alfa invest» sugʻurta kompaniyasi.
6. «Alskom» sugʻurta kompaniyasi.
7. «Kapital sugʻurta» sugʻurta kompaniyasi.
8. «Asia insurans» sugʻurta kompaniyasi.
9. «Universal sugʻurta» sugʻurta kompaniyasi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2009-yil 24-iyunda qabul qilingan 177-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish qoidalari»da oʻz ifodasini topgan. Majburiy sugʻurtalash qoidalari yuqorida nomlari keltirilgan barcha sugʻurtalovchilar uchun bir xilda amal qiladi.

«Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasining ustav fondi qonunchilik hujjatlarida oʻrnatilgan talablarga va mazkur kompaniyaning respublikaning barcha hududlarida filiallari mavjud boʻlganligi sababli, kompaniya 2009-yil 18-oktabrdan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurtalash bilan shugʻullana boshlanadi.


2010-yil yakunlari boʻyicha «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi tomonidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha jami 2201,4 mln soʻm sugʻurta mukofotlari kelib tushgan. 2009-yilda esa 314,6 mln soʻm miqdorida sugʻurta mukofotlari kelib tushgan edi. Quyidagi jadvalda 2010-yil yakunlari boʻyicha «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi tizimida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish borasida amalga oshirilgan ishlar oʻz aksini topgan.

Jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, 2010-yilda kompaniya boʻyicha jami 14542 dona ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish shartnomalari tuzilgan. Shunga muvofiq, yuqorida qayd etganimizdek, 2201,4 mln soʻm miqdorida sugʻurta mukofotlari kelib tushgan. Sugʻurta shartnomalari boʻyicha kompaniya zimmasiga qabul qilib olingan sugʻurta javobgarligi hajmi 2073,8 mlrd soʻmni tashkil etgan.

2010-yilda «O‘zagsug‘urta» DASKda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishning asosiy ko‘rsatkichlari tahlili¹

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	miqdori
1	Sug‘urta shartnomalari	dona	14542
2	Sug‘urta mukofotlari	mln so‘m	2201,4
3	Sug‘urta summasi	mlrd so‘m	2073,8

Bitta sug‘urta shartnomasiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha javobgarlik hajmi 142,6 mln so‘mni tashkil etadi. Holbuki, bitta sug‘urta shartnomasiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofotining o‘rtacha miqdori 151,4 ming so‘mni tashkil etadi. Endi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha «O‘zagsug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining 2009 va 2010-yillardagi faoliyatini solishtirma tahlil qilish orqali bu sug‘urta turining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga harakat qilamiz (3-diagramma).



3-diagramma. «O‘zagsug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha 2009-2010 yillarda tuzilgan sug‘urta shartnomalarining solishtirma tahlili²

¹ Jadval «O‘zagsug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

² «O‘zagsug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining yillik hisobot materiallari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, «O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi bo‘yicha 2010-yilda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha jami 14542 dona sug‘urta shartnomalari tuzilgan bo‘lib, bu o‘tgan 2009-yilning tegishli ko‘rsatkichidan 13071 donaga ko‘pdir. O‘rtadagi farqning bunday keskin katta bo‘lishiga asosiy sabab shuki, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish 2009-yilning oktabr oyidan boshlangan bo‘lib, 2009-yil ma‘lumotlari faqat oktabr, noyabr va dekabr oylarini qamrab olgan. Aksincha, 2010-yil ma‘lumotlari to‘liq 12 oyni qamrab olgan. Agar 2010-yilda o‘zining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha polisga ega bo‘lmagan ish beruvchilarga nisbatan ma‘muriy choralar qo‘llanilishi to‘g‘risida amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilganligini inobatga oladigan bo‘lsak, 2011-yilda bu borada jiddiy siljishlar bo‘lishini oldindan bashorat qilish mumkin.

Shuni ta‘kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bugungi kunda xizmat burchini bajarayotgan paytida jarohat olgan xodimlarning ijtimoiy muhofazasini ko‘zda tutadi. Mehnat kodeksi ish beruvchining xodimga yetgan ziyon uchun javobgar ekanini belgilagan. Ma‘lumki, Mehnat kodeksining 189-192-moddalariga binoan ish beruvchi olgan jarohati, kasb kasalligi yoki mehnat jarayoni bilan bog‘liq ravishda sog‘ligiga yetgan zararni, shuningdek, boquvchini yo‘qotganlik uchun yetgan zararni o‘rnatilgan tartibda to‘liq qoplashi shart. Ko‘rinib turibdiki, xizmat burchini bajarayotgan paytda jarohat olgan xodimlarni moddiy jihatdan himoyalash ish beruvchi hisobidan amalga oshiriladi. Xodimning xizmat burchini bajarayotgan paytda olgan jarohati uchun ish beruvchi javobgar hisoblanadi. Shu bilan birga, ish beruvchi qoplashi zarur bo‘lgan zarar hajmi ish beruvchining moliyaviy imkoniyatlariga doimo ham mos kelavermaydi yoki ish beruvchining faoliyatiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki ish beruvchi qoplashi kerak bo‘lgan zarar hajmiga bir vaqtda va har oyda to‘lanishi kerak bo‘lgan kompensatsiya to‘lovlari kirish mumkin. Masalan, Mehnat kodeksining 190-moddasiga binoan xodimning sog‘ligiga yetgan zarar uchun qoplanishi kerak bo‘lgan mablag‘ xodim jarohat olgan vaqtga qadar olgan o‘rtacha oylik ish haqiga qo‘shimcha ravishda xodim olgan jarohat darajasiga qarab belgilangan oylik foiz, jarohat olishi bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash, shuningdek, nafaqa ko‘rinishidagi bir marotabalik to‘lanishi kerak bo‘lgan to‘lovdan iborat.

Bir marotaba to'lanadigan nafaqa hajmi jamoa shartnomasida, agar shartnoma tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakolatli organi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunda jarohat olgan xodimga to'lanadigan bir martalik nafaqa hajmi jarohatlangan shaxsning bir yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lmasligi, halok bo'lgan xodimning oila a'zolariga beriladigan nafaqa hajmi esa halok bo'lgan xodimning 6 yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lmasligi kerak.


Shu munosabat bilan «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi qonun barcha ish beruvchilarga ularning xodimlari xizmat burchini o'tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon yetgan taqdirda majburiy tarzda sug'urta himoyasini taqdim etishni nazarda tutadi. Qonun xodimlarning xizmat burchini o'tayotgan paytda hayoti yoki salomatligiga ziyon yetishi yoki kasb kasalligiga uchrashi, halok bo'lishi yoxud kasb kasalligi oqibatida vafot etishi bois ish beruvchining javobgarligi yuzaga kelgan hollarda sug'urtalovchilar tomonidan davriy va bir martalik to'lovlarni to'lash uchun zarur mablag'larni to'lashni ta'minlovchi murakkab tizim uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urtaning ushbu turining majburiyligi, birinchi navbatda, mamlakatning barcha ish beruvchilarini qamrab olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida sug'urtaning ushbu turi bo'yicha eng kam sug'urta tariflarini qo'llashga imkon yaratadi. Mohiyatan, majburiy sug'urtaning bu turi mamlakat ish beruvchilari ko'rgan zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan mablag'larni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bu mexanizm, birinchi navbatda, jabr ko'rgan xodimlarga yetkazilgan zararlarni qonunda belgilangan sug'urta summasi doirasida qoplash kafolatini ta'minlaydi. Ikkinchidan, majburiy sug'urta ish beruvchi o'zining jabr ko'rgan xodimiga zarar qoplab berilganda ham moliyaviy barqarorligi saqlanib qolishi va ish beruvchining faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi real usul bo'lib qoladi.

Quyida keltirilgan chizmada ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishning subyektlari keltirilgan.

Darhaqiqat, mazkur majburiy sug'urtada sug'urta qildiruvchi sifatida ish beruvchi – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzgan yuridik yoki jismoniy shaxs asosiy subyekt hisoblanadi. Jabrlanuvchi – o'z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan sog'lig'iga zarar yetkazilgan, sug'urta tovonini olish huquqiga ega

bo‘lgan xodim; naf oluvchi – xodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda vafot etgan taqdirda sug‘urta tovonini olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs; ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi – umumiy sug‘urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs; annuitetlar shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi – hayotni sug‘urta qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.



2-chizma.

Ta’kidlash kerakki, qonun e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirgan bo‘lishiga qaramay, ushbu qonunning 27-moddasiga binoan 17-moddaning 2-bandi ushbu qonun kuchga kirgan sanadan boshlab 6 oy vaqt o‘tgach, amalga kiritildi.¹ 17-moddaning 2-bandi ish beruvchining qator majburiyatlarini, shu jumladan, uning ushbu qonunga muvofiq o‘z fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash majburiyatini ko‘rsatib o‘tadi. Shu munosabat bilan majburiy sug‘urtaning bu turi amalda 2009-yilning 17-aprelidan 6 oy o‘tgandan so‘ng amal qila boshladi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘laqonli amalda bo‘lishini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2009-yil 24-iyunda 177-sonli qarori qabul qilindi.²

¹ «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to‘plami. –T.: Adliya vazirligi, 2009-yil, 16-son.

² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2009-yil 24-iyundagi 177-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to‘plami. –T.: Adliya vazirligi, 2009-yil, 26-son.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish jarayonini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich, majburiy sug'urta shartnomasi imzolangan paytdan sug'urta hodisasi sodir bo'lgan kun yoki majburiy sug'urta shartnomasi muddati tugagan sanagacha davom etadi. Ikkinchi bosqich, majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuzaga kelgan paytdan boshlanadi. Birinchi bosqich, sug'urta munosabatlarida faqat sug'urtaning ushbu turini amalga oshirgan sug'urtalovchi va ish beruvchi kabi subyektlar ishtirok etadi. Mazkur bosqichda majburiy sug'urta shartnomasi tuziladi va sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta mukofoti to'lanadi. Sug'urta shartnomasiga binoan sug'urtalovchi kelishilgan haq sug'urta mukofoti evaziga sug'urta hodisasi yuzaga kelganda ish beruvchi va jabrlanuvchi yoki naf oluvchiga sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta summasi doirasida sug'urta to'lovlarini to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

Ta'kidlash lozimki, majburiy sug'urta shartnomasining asosiy shartlari qonunning o'zi bilan muvofiqlashtiriladi. Mazkur shartlar asosida Vazirlar Mahkamasining yuqorida ko'rsatilgan qarori bilan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari tasdiqlangan. Ushbu qoidalar majburiy sug'urtaning mazkur turini amalga oshirishning umumiy qoidalari, subrogatsiya, sug'urtalovchini almashtirish yoki annuitetlar shartnomasiga ko'ra sug'urtalovchini o'zgartirish, yakuniy qoidalar kabi umumiy shartlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, qoidalar fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasiga tegishli shartlarni ham o'z ichiga oladi. Bu shartlar majburiy sug'urta shartnomasini tuzish, o'zgartirish va muddatidan avval bekor qilish, sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va uni to'lash qoidalari, majburiy sug'urta shartnomasida ishtirok etayotgan tomonlarning huquq va majburiyatlari, sug'urta hodisalarini ko'rib chiqish tartibi, ko'rilgan zarar hajmini aniqlash va majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasini to'lash, shuningdek, annuitetlar shartnomasiga tegishli shartlar, sug'urta summasi, sug'urta mukofoti va annuitetlar shartnomasi bo'yicha qaytarib sotib olish summasi, annuitetlar shartnomasida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari, annuitetlar shartnomasi bo'yicha joriy to'lovlar shaklida sug'urta qoplamalarini to'lash tartibi, annuitetlar shartnomasini o'zgartirish va muddatidan avval bekor qilish tartibidan iborat.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi va bir yil muddatga tuziladi. Ammo agar ish beruvchining faoliyati bir yildan kam muddat davom etishi moʻljallangan boʻlsa, u holda shartnoma ish beruvchi tomonidan ushbu faoliyatni olib borish muddatiga tuziladi. Majburiy sugʻurtaning ushbu turi boʻyicha sugʻurta summasi quyidagicha belgilanadi.¹

- Majburiy sugʻurta shartnomasi tuzilayotgan sanaga kelib, bir yildan koʻp faoliyat olib borgan ish beruvchi uchun – ish beruvchi barcha xodimlarining ushbu shartnoma tuzilgan kungacha oʻtgan 12 oyda olgan yillik ish haqi hajmidan;

- Oʻz faoliyatini yangidan boshlayotgan ish beruvchi uchun barcha xodimlar uchun majburiy sugʻurta shartnomasi tuzilgan kundan keyin keladigan 12 oy uchun oladigan ish haqi hajmidan. Bunda yillik ish haqi miqdori birinchi oydagi ish haqini 12 ga koʻpaytirish yoʻli bilan hisoblanadi.

- Oʻz faoliyatini kamida bir yil avval boshlagan ish beruvchi uchun ish beruvchining barcha xodimlari ish beruvchining ushbu faoliyatini amalga oshirish muddatida olgan ish haqi hajmida.

Majburiy sugʻurta boʻyicha sugʻurta mukofoti sugʻurta tariflari asosida hisoblanadi. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurtalash boʻyicha sugʻurta tarifi ikki tarkibiy qismda shakllantiriladi:

Bazaviy stavka va ish beruvchi olib borayotgan faoliyatning xavflilik darajasiga koʻpaytiriladigan koeffitsiyent. Bazaviy stavka ish beruvchilar va sugʻurtalovchilar uchun yagona hisoblanadi hamda ish beruvchining fuqarolik javobgarligi shartnomasi boʻyicha sugʻurta summasining yillik 0,1 foiz miqdorida belgilanadi. Bazaviy stavkaga koʻpaytiriladigan koeffitsiyent ish beruvchi olib borayotgan faoliyatning xavflilik darajasiga qarab belgilanadi. Faoliyat xavfliligi esa ish beruvchi faoliyat turining xavflilik darajasi klassifikatsiyasi darajasiga muvofiq belgilanadi. Ish beruvchi faoliyat turining xavflilik darajasi klassifikatsiyasi qoidalar asosida tasdiqlangan ushbu klassifikatsiyaga binoan iqtisodiyot sohalari kasbiy xatarlarining 20 ta klassiga ajratilgan. Har bir klass boʻyicha tegishli koeffitsiyentlar belgilangan. Agar ish beruvchi klassifikatsiyada keltirilmagan faoliyat turi bilan shugʻullanayotgan boʻlsa, faoliyatning bu turiga nisbatan kasbiy xatarlar klasslari

¹ «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasining qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari toʻplami. –T.: Adliya vazirligi, 2009-yil, 16-son.

bo'yicha o'rtacha sug'urta tariflariga teng 3,400 hajmidagi koeffitsiyent qo'llaniladi.

Shuningdek, sug'urtaning ushbu turi bo'yicha sug'urta tariflari tarkibi ham belgilangan bo'lib, bunda sug'urta mukofoti hajmidagi netto-stavka va sug'urta mukofoti hajmida majburiy sug'urtani amalga oshirish xarajatlari ulushi belgilab beriladi. Sug'urta tarifi tarkibiga muvofiq, tarif stavkasining 70 foizi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'lovlar va 30 foiz ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash xarajatlari (shu jumladan, sug'urta hodisalarini oldini olishga oid ogohlantirish tadbirlari zaxirasiga chegirmalar tarifning 5,0 foizini tashkil etadi)dan iborat.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda respublikada majburiy sug'urtaning ijtimoiy yo'naltirilgan tizimi shakllantirilmoqda. Bu tizim mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy talablariga to'liq javob beradi. Majburiy sug'urta turlarining tatbiq etilishi yaqin yillar ichida mamlakat sug'urta bozorini rivojlantirishga qudratli turtki beradi va majburiy sug'urtaning aholini ijtimoiy himoyalashda ishtirokini oshiradi.

2.6. 2010- va undan keyingi yillarda milliy sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari

2010-yilda O'zbekiston sug'urta bozori jadal sur'atlar bilan taraqqiy etdi. Bozorda 34 ta sug'urta kompaniyasi, 3 ta sug'urta brokeri, 10 ta assistans, adjaster, syurveyer va aktuariylar faoliyat ko'rsatdi. Shu yili sug'urta kompaniyalarining hududiy bo'linmalari soni 892 taga, sug'urta agentlarining soni esa 6753 taga yetdi.

2010-yilda barcha sug'urtalovchilar tomonidan jami 175,5 mlrd so'm miqdorida sug'urta mukofotlari to'plashga erishildi. Holbuki, bu ko'rsatkich 2007-yilda 73,5 mlrd so'mga teng bo'lgan. Yildan yilga sug'urta bozori bo'yicha yig'ilgan jami sug'urta mukofotlari tarkibida davlat ishtirokida tashkil etilgan sug'urta tashkilotlarining ulushi kamayib borishi kuzatildi. Chunonchi, 2007-yilda ularning ulushi jami sug'urta mukofotlari tarkibida 47,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilga kelib bu ko'rsatkich 36,9 foizga tushgan. Bu o'z navbatida, sug'urta bozorida raqobat muhiti kengayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'langan sug'urta qoplamala-

rining 18,7 mlrd so‘mi ixtiyoriy sug‘urta turlariga, 8,9 mlrd so‘mi majburiy sug‘urta turlariga to‘g‘ri kelgan.

2010-yilda O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishida muhim o‘rin tutgan voqealardan biri 2010-yilning 26-noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida» PQ-1438-sonli qarorining qabul qilinishi bo‘ldi. Ushbu qaror asosida 2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari Dasturi ma‘qullandi. Bu dastur quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari hamda 2011–2015-yillarda respublika mikromoliyalash sohasini va nobank moliya sektorini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlardan iborat.

2011–2015-yillarda mamlakatimizda sug‘urta bozorini yuqori sur‘atlarda ravnaq topishini ta‘minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilangan:

- «Xususiy banklar va moliya institutlari hamda ularning faoliyatini kafolatlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish. Bu qonun 2012-yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi.

- Respublika moliya-bank tizimining faoliyatini baholash uchun «Fitch reytings», «Mudis» va «Standart end Puers» xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo‘llaniladigan xalqaro normalar, mezonlar va standartlarni qo‘llash.

- Respublika tijorat banklari va boshqa moliya institutlari faoliyatini baholash tizimini xalqaro reyting kompaniyalari standartlari va mezonlariga muvofiqlashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari hamda reyting agentliklarining texnik ko‘magi va ekspertlarini jalb etish choralarini ko‘rish.

- Zamon talablari asosida o‘quv-metodik ishlar va ilmiy-tadqiqot faoliyati sifatini oshirishni nazarda tutgan holda Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutining o‘quv rejalari, dasturlari va mutaxassisliklari, o‘quv va metodik ishlarning

tashkil etilishini tubdan qayta ko'rib chiqish. 2010-yilning noyabr oyidan 2011-yilning yanvar oyiga qadar Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya institutining o'quv rejalari, dasturlari maxsus komissiya tomonidan atroflicha o'rganib chiqildi. Shuningdek, 2011-yilning yanvar oyida ikkala oliy ta'lim muassasasi rahbar xodimlari attestatsiyadan o'tkazildi.

- «Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonunini ishlab chiqish va joriy etish.

- Tijorat banklari va bankdan tashqari kredit tashkilotlari tomonidan ajratilgan mikrokreditlarning ta'minoti sifatida kreditlarning qaytarilishini sug'urtalash bo'yicha sug'urta polislaridan foydalanish amaliyotidan yanada kengroq foydalanish.

- 2015-yilda umumiy sug'urta sohasida sug'urtalovchilarning ustav kapitali eng kam miqdoriga o'rnatilgan talabni 1,5 mln yevroga va hayotni sug'urtalash sohasida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urtalovchilarning ustav kapitali eng kam miqdoriga o'rnatilgan talabni 2,0 mln yevroga, majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdoriga o'rnatilgan talabni 3,0 mln yevroga, qayta sug'urtalash sohasida mazkur talabni 6,0 mln yevroga yetkazish choralari ko'rish.

- Hayotni sug'urtalash sohasini, jumladan uzoq muddatli va jamg'arilib boruvchi hayotni sug'urtalash turlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

- Elektron hujjat aylanishiga o'tish, sug'urtalovchilar tomonidan davriy xususiyatga ega moliyaviy, sug'urta va boshqa hisobotlarni elektron hujjat aylanmasining yagona tizimi orqali taqdim etishga o'tish.

- Sug'urtalovchilar, sug'urta va qayta sug'urtalovchi brokerlar, jumladan ularning hududiy bo'linmalari rahbarlari va bosh buxgalterlariga qo'yiladigan malakaviy talablarni kuchaytirish.

- Sug'urta bozori professional ishtirokchilari, shu jumladan, adjasterlar, syurveyerlar, aktuariylar va assistans xizmati ko'rsatuvchi kompaniyalarning faoliyatini kengaytirish orqali sug'urta bozori infratuzilmasini yanada rivojlantirish.

Mazkur qarorning talablaridan kelib chiqqan holda 2011-yil 31-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-

tadbirlar to‘g‘risida» qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan sug‘urta faoliyati turlariga qarab, sug‘urtachilarning ustav kapitali minimal miqdorlarini 2012–2014-yillar mobaynida bosqichma-bosqich, tabaqalashtirilgan tarzda oshirib borilishi maqsadga muvofiq, deb topildi. Ya’ni qayd etilgan yillarda sug‘urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdorlari quyidagi miqdorlarda shakllantirishi zarur.

8-jadval

Sug‘urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlari¹

(ekvivalenti ming yevro)

Sug‘urta faoliyati turlari	2012-yil 1-iyuldan	2014-yil 1-iyuldan
Umumiy sug‘urta sohasida	1 125,0	1 500,0
Hayotni sug‘urtalash sohasida	1 500,0	2 000,0
Majburiy sug‘urtalash bo‘yicha	2 250,0	3 000,0
Faqat qayta sug‘urtalash bo‘yicha	5 000,0	6 000,0

Ko‘rinib turibdiki, sug‘urta kompaniyalari ustav kapitalining eng kam miqdorlari faoliyat turlariga qarab farqlanadi. Masalan, umumiy sug‘urta sohasida faoliyat yurituvchi sug‘urta kompaniyalari ustav kapitalining eng kam miqdori 2014-yil 1-iyulga kelib 1,5 mln yevro ekvivalentiga teng summada shakllantirilgan bo‘lish shart. Aks holda, mazkur talabga javob bermagan sug‘urtalovchilarning faoliyati qonunda belgilangan tartibda to‘xtatiladi.

2012-yilning boshida O‘zbekiston sug‘urta bozorida jami 37 ta sug‘urta tashkiloti faoliyat ko‘rsatgan. Ularning 2 tasi hayotni sug‘urtalash sohasida, 1 tasi qayta sug‘urtalash sohasida faoliyat ko‘rsatgan. Shundan 4 ta sug‘urta kompaniyasiga sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya 2011-yilda taqdim etilganligi e‘tiborlidir.

Milliy sug‘urta kompaniyalari tomonidan 2011-yilda jami 231,6 mlrd so‘m sug‘urta mukofotlari to‘plangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2010-yilning tegishli ko‘rsatkichidan 37,0 foizga ko‘p. 2011-yilda sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash uchun jami 45,0 mlrd so‘m sug‘urta qoplamalari to‘langan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 31-maydagi «Sug‘urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-1544-sonli qaroriga ilova.

Nazorat uchun savollar

1. 1991-yilda amalga oshirilgan dastlabki islohotlar sug'urta sohasiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. 1993-yilning 6-mayida O'zbekistonda sug'urtaga oid qanday qonun qabul qilingan?
3. 1992-1994-yillarda milliy sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib bering.
4. O'zbekiston Respublikasi hududida 1995-yil 1-yanvardan majburiy sug'urtaning qanday turi amal qila boshladi?
5. 1995-yilda tashkil etilgan «Madad» sug'urta agentligining asosiy vazifalari to'g'risida to'xtalib o'ting.
6. 1997-yili davlat kapitali ishtirokida tashkil etilgan sug'urta kompaniyalari to'g'risida gapirib bering.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002-yil 31-yanvardagi PF-3022-sonli farmonining mohiyati va ahamiyati nimada?
8. Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002-yil 27-noyabridagi 413-sonli qarori asosida qanday normativ hujjatlar tasdiqlandi?
9. 2002-2007-yillarda sug'urta bozoriga qaysi yangi sug'urta kompaniyalari kirib keldi?
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-618-sonli qarori milliy sug'urta bozori rivojlanishida qanday ahamiyat kasb etdi?
11. 2008-2009-yillarda O'zbekiston sug'urta bozorining yanada rivojlanishiga qanday omillar ijobiy ta'sir ko'rsatgan?

3-mavzu. SUG‘URTA BOZORINING HUQUQIY ASOSLARI

3.1. Sug‘urta bozori ishtirokchilari faoliyatini huquqiy tartibga solishning zarurligi.

3.2. O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘ri-sida»gi qonunida sug‘urta bozori ishtirokchilari faoliyatining huquqiy tartibga solinishi.

3.3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sug‘urta bozori munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi.

3.4. Sug‘urta bozorini tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenting farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Moliya vazirligining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari.

3.1. Sug‘urta bozori ishtirokchilari faoliyatini huquqiy tartibga solishning zarurligi

Har qanday jamiyatda fuqarolar va ularning jamoasi o‘z faoliyatlari jarayonida bir-birlari bilan tegishli ijtimoiy munosabatda bo‘ladilar. Ushbu munosabatlarni bir qolipga solish uchun ularni tartibga keltirish, ya’ni fuqarolar va tashkilotlarning xatti-harakat qilish doirasini belgilash zarur. Bayon etilganlar to‘laligacha sug‘urtaga ham taalluqlidir. Sug‘urta ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyat sifatida huquqiy tomondan mustahkamlanishni talab etadi. Sug‘urta fondini tashkil etish va undan foydalanish jarayonida paydo bo‘ladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinadi.

Sug‘urta sohasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bunday munosabatlar fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, shartnoma majburiyatlarini, shuningdek, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Sugʻurta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar quyidagi yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

- fuqarolar va sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida shakllanadigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;

- sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida yuzaga keladigan oʻzaro munosabatlar;

- fuqarolar va maxsus davlat organlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar;

- sugʻurta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar.

Fuqarolar va sugʻurta tashkilotlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalariga asoslanadi. Bunda bir tomondan sugʻurta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sugʻurta tashkiloti oldidagi burch va majburiyatlari paydo boʻladi. Yaʼni tuzilgan shartnomaga koʻra, fuqaro oʻz vaqtida sugʻurta mukofotini toʻlashi shart. Sugʻurta hodisasi roʻy berganda esa, sugʻurta tashkiloti sugʻurta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sugʻurta qoplamasi (summasi)ni fuqaroga toʻlab berishi lozim. Koʻrinib turibdiki, shartnoma – fuqarolik-huquqiy hujjat sifatida taraflarning oʻzaro munosabatini huquqiy tartibga solyapti.

Sugʻurta tashkilotlarining bir-birlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari sugʻurta pulini va qayta sugʻurta qilish bilan bogʻliq tuzilgan shartnomalar doirasida shakllanadi. Amaldagi qonun hujjatlariga koʻra, sugʻurta tashkiloti moliyaviy barqarorlikni taʼminlash, binobarin, sugʻurtalanuvchilar oldida oʻz majburiyatini bajarishini taʼminlash maqsadida sugʻurta pulida ishtirok etishi yoxud boshqa sugʻurta tashkilotlari yoki ixtisoslashgan qayta sugʻurta tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishi mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasida «sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalovchi oʻz zimmasiga olgan sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlash xavfi uning tomonidan toʻliq yoki qisman boshqa sugʻurtalovchida (sugʻurtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurtalanishi mumkin» deb alohida qayd etilgan.

Qayta sugʻurta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sugʻurta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, Fuqarolik kodeksining tadbirkorlik xavfini sugʻurta qilish borasida qoʻllanishi lozim boʻlgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sugʻurta qilish

shartnomasini tuzgan sugʻurta shartnomasi (asosiy shartnoma) boʻyicha sugʻurtalovchi keyingi shartnomada sugʻurta qildiruvchi hisoblanadi.

Fuqarolar va maxsus davlat organlari oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar maxsus vakolatli davlat organining sugʻurtalanuvchilar boʻlgan – fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya etish bilan bogʻliq. Amaliyotda shunday holatlar boʻladiki, sugʻurta tashkiloti sugʻurtalanuvchiga sugʻurta hodisasi tufayli koʻrilgan zararni qoplashdan asossiz voz kechishi mumkin. Bunday paytda oʻz manfaatlarini huquqiy himoya etish maqsadida sugʻurtalanuvchi maxsus vakolatli davlat organiga murojaat etishi mumkin.

Sugʻurta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi oʻrtasida paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Maxsus vakolatli organning sugʻurta tashkilotlariga nisbatan paydo boʻladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlari Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunda oʻz aksini topgan. Maxsus vakolatli davlat organi qonunda belgilangan tartibda sugʻurta tashkilotlarining faoliyatini nazorat etib boradi. Zaruriyat boʻlganda esa, sugʻurtalanuvchilarning manfaatini himoya etish maqsadida undan sugʻurta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani chaqirib olish huquqiga ega.

Sugʻurtani huquqiy tartibga solish davlat tomonidan sugʻurta munosabati qatnashchilarining xatti-harakatini huquqiy normalar vositasida amalga oshiriladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy huquqlarini har xil oldindan koʻrib boʻlmaydigan sugʻurtaviy himoya qilish uchun koʻpchilik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus fond hisobidan amalga oshiriladigan sugʻurta faoliyati jarayonida paydo boʻladigan ijtimoiy munosabatlar mavjud. Ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalar yigʻindisiga sugʻurta huquqi deyiladi.

3.2. Oʻzbekiston Respublikasining «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunida sugʻurta bozori ishtirokchilari faoliyatining huquqiy tartibga solinishi

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2002-yilning 5-aprelida qabul qilingan va shu yilning 28-mayida amaliyotga joriy etilgan «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonun sugʻurta faoliyatini tartibga soluvchi maxsus hujjat hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida 1993-yili Oliy Majlis «Sug'urta to'g'risida» qonun qabul qilgan edi. 1993-2001-yillar mobaynida mazkur qonunga ikki marta qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Tabiiyki, bu qonun o'sha paytda mavjud bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Boshqacha so'z bilan aytganda, ushbu qonun sug'urta munosabatlari qatnashchilari uchun biroz yumshatilgan holatda amal qildi. Jumladan, unda sug'urta tashkilotlari tugatilgan taqdirda ularning sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatini bajarish tartibi to'liq yoritilmagan. Shuningdek, bu qonunda qonunchilik talablarini buzganlik uchun tomonlarning javobgarligi o'z aksini topmagan hamda davlat sug'urta nazorati organining sug'urta tashkilotlariga nisbatan ta'sir qilish imkoniyati keskin chegaralangan edi.

Bayon etilgan holatlar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi talablarini hisobga olgan holda, amaldagi «Sug'urta to'g'risida»gi Qonunni yangilash va takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shuni e'tiborga olib, 2002-yilning 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi yangidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilindi va qabul qilindi.

Ma'lumki, sug'urta sohasini huquqiy tartibga soluvchi 2002-yil aprel oyigacha amalda bo'lgan qonun «Sug'urta to'g'risida» deb ataladi. Holbuki, biz fikr-mulohaza yuritmoqchi bo'lgan qonunning nomi esa «Sug'urta faoliyati to'g'risida» deyiladi va shubhasiz, bu holat diqqatimizni o'ziga jalb etadi. Ko'pchilik talabalarimizda haqli savol tug'ilishi mumkin: sug'urta va sug'urta faoliyati tushunchalari o'rtasida farq bormi? Albatta, farq bor. Sug'urtaning mohiyatini oddiy til bilan ifodalaydigan bo'lsak, oldindan ko'rib bo'lmaydigan har xil hodisalar ro'y berishi oqibatida yuridik va jismoniy shaxslar ko'radigan zararlarni sug'urta tashkiloti tomonidan qoplash bilan bog'liq munosabat. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, sug'urta tashkiloti o'z xizmatini mijozlarga tegishli haq – sug'urta mukofoti to'lash evaziga ko'rsatadi. Sug'urtalovchi mijozlardan kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etadi va bu jamg'arma mablag'lari faqat sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan zararlarni qoplaydi. E'tibor bergan bo'lsangiz, sug'urta munosabatlarida ikkita tomon ishtirok etyapdi: sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) va yuridik hamda jismoniy

shaxslar (sug'urtalanuvchilar). Endi, sug'urta faoliyati tushunchasiga kelsak, qonunda ta'kidlanishicha, u sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari faqatgina sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchidan iborat emas. Unda qayta sug'urtalovchilar, qayta sug'urtalanuvchilar, sug'urta brokerlari va agentlari ham ishtirok etadi.

Yangi qonunning e'tiborga molik tomonlaridan biri, unda aniqroq aytadigan bo'lsak, uning 4-moddasida sug'urtalovchilarning sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi qayd etilgan. Qayd etish joizki, sug'urta faoliyati ham tadbirkorlikning bir ko'rinishi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlari kechayotgan va tadbirkorlik harakatlariga keng yo'l ochilayotgan bir paytda, tadbirkorlik tizimining muhim bo'g'inlaridan bo'lgan – sug'urtalovchilar uchun bunday cheklovning qonun yo'li bilan belgilanishiga sabab nima? O'tgan yillar tajribasi shundan dalolat beradiki, ko'pgina sug'urta tashkilotlari «sug'urtalovchi» niqobi ostida turli tijorat operatsiyalarini, xususan, savdo-vositachilik ishlarini amalga oshirdilar. Yuridik va jismoniy shaxslarni sug'urta qilish hisobiga kelib tushgan sug'urta mukofotlari, qoidaga ko'ra, sug'urta qoplamalarini to'lashga mo'ljallangan zaxira jamg'armalarini tashkil etishga sarflanmasdan, balki sug'urta faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga sarflangan holatlar ham bo'lgan. Sug'urtaning eng asosiy prinsiplaridan biri - sug'urtalovchilarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishni ta'minlaydigan sug'urta zaxiralariga ega bo'lishidir. Taasufki, ba'zi sug'urtalovchilarimiz, bunday zaxiralarni shakllantirmaganliklari oqibatida murakkab moliyaviy holatni boshidan kechirganligi sir emas. Ayniqsa, bu ko'p ming sonli sug'urtalanuvchilar uchun noqulay vaziyatni vujudga keltirishi mumkin.

«Sug'urta faoliyati to'g'risida» qonunning diqqatga sazovor joylaridan yana biri, uning 10-moddasida sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibining aniq ko'rsatib qo'yilganligidir. Ma'lumki, qonun hujjatlariga muvofiq, aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan sug'urta tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olingan. Ammo uzoq vaqt, aniqrog'i, 1998-yilning birinchi yarmigacha sug'urta faoliyatini tartibga solish vakolati berilgan davlat sug'urta nazorati organining tashkil etilmaganligi va ilgari Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olingan tashkilotlarning fao-

liyati hech kim tomonidan nazorat qilinmaganligi oqibatida yangi tashkil etilgan sug'urta tashkilotlarini davlat ro'yxatiga olishda muammolar paydo bo'lgan.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sug'urta bozori munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi

Sug'urta munosabatlari, avvalo, fuqarolik-huquqiy munosabatga oid bo'lganligi tufayli 1996-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi sug'urtaga bag'ishlangan. Hozirgi kunga qadar amaliyotda sug'urta tashkilotlari o'z faoliyatlarini amalga oshirishlarida mazkur kodeksning talab-qoidalariga qat'iy rioya etadilar.

Fuqarolik kodeksining sug'urtaga oid bobida jami 47 ta modda mavjud bo'lib, ularning har biri sug'urta munosabatlarining u yoki bu jihatlarini tartibga soladi. Kodeksda ixtiyoriy va majburiy sug'urta, mulkiy sug'urta shartnomasi, sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydigan manfaatlar, mol-mulkni sug'urta qilish, shartnoma bo'yicha javobgarlikni sug'urta qilish, majburiy sug'urta va uni amalga oshirish tartibi kabi huquqiy normalar o'z aksini topgan.

Kodeksning 916-moddasida sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydigan manfaatlar ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

G'ayriqonuniy manfaatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Qimor, lotereyalar va garov o'yinlarida ishtirok etishda ko'riladigan zararni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, Fuqarolik kodeksida majburiy sug'urtani amalga oshirish tartibi ko'rsatilgan. Chunonchi, Majburiy sug'urta bunday sug'urta qilish majburiyati yuklangan shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasi tuzishi vositasida amalga oshiriladi.

Majburiy sug'urta sug'urta qildiruvchi hisobidan amalga oshiriladi, yo'lovchilarni majburiy sug'urtalash bundan mustasno bo'lib, bu sug'urta qonunda nazarda tutilgan hollarda ularning o'z hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Majburiy sug'urtalanishi lozim bo'lgan obyektlar, ular sug'urtalanishga sabab bo'ladigan xavflar va sug'urta pulining eng kam miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bunga misol tariqasida O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-iyundagi «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 141-sonli qarorini keltirish mumkin. Mazkur qarorga muvofiq transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha sugʻurta puli 3 ming AQSh dollari ekvivalentiga teng miqdorda belgilangan. Bundan tashqari, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish qoidalari ham mazkur qarorga bilan tasdiqlangan.

Sugʻurtalovchi va sugʻurta qildiruvchi oʻrtasida tuziladigan sugʻurta shartnomasining shakli va uning mazmuni boʻyicha talablar Fuqarolik kodeksida keltirib oʻtilgan. Sugʻurta shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab boʻladi.

Sugʻurta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurta qildiruvchiga uning yozma yoki ogʻzaki arizasiga binoan sugʻurtalovchi imzolagan, sugʻurta shartnomasining shartlarini oʻz ichiga olgan sugʻurta polisi (shahodatnomasi, sertifikat, kvitansiya)ni topshirish yoʻli bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sugʻurta qildiruvchining sugʻurtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sugʻurtalovchidan koʻrsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sugʻurta mukofoti toʻlash yoxud sugʻurta mukofoti boʻlib-boʻlib toʻlanganda - birinchi badalni toʻlash orqali tasdiqlanadi. Sugʻurtalovchi shartnoma tuzish chogʻida sugʻurtaning alohida turlari boʻyicha sugʻurta shartnomasi (sugʻurta polisi)ning oʻzi ishlab chiqqan standart shakllarini qoʻllanishga haqli.

Fuqarolik kodeksining 929-moddasida sugʻurta shartnomasining muhim shartlari koʻrsatilgan boʻlib, sugʻurta tashkilotlari sugʻurta shartnomalarini tuzishda mazkur shartlarni eʼtiborga olishlari lozim. Bu shartlar quyidagilardan iborat:

Mulkiy sugʻurta shartnomasi tuzishda sugʻurta qildiruvchi bilan sugʻurtalovchi oʻrtasida quyidagilar toʻgʻrisida kelishuvga erishilishi lozim:

- sugʻurta obykti boʻlgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat toʻgʻrisida;
- yuz berishi ehtimol tutilib sugʻurta amalga oshirilayotgan voqea (sugʻurta hodisasi)ning xususiyati toʻgʻrisida;
- sugʻurta puli miqdori toʻgʻrisida;

– sugʻurta toʻvoni miqdorini aniqlash tartibi toʻgʻrisida, agar shartnomada uni sugʻurta pulidan oz miqdorda toʻlash mumkinligi nazarda tutilgan boʻlsa;

– sugʻurta mukofotining miqdori va uni toʻlash muddati (muddatlari) toʻgʻrisida;

– shartnomaning amal qilish muddati toʻgʻrisida.

Shaxsiy sugʻurta shartnomasi tuzishda sugʻurta qildiruvchi bilan sugʻurtalovchi oʻrtasida quyidagilar toʻgʻrisida kelishuvga erishilishi lozim:

– sugʻurtalangan shaxs toʻgʻrisida;

– sugʻurtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sugʻurta amalga oshirilayotgan voqea (sugʻurta hodisasi)ning xususiyati toʻgʻrisida;

– sugʻurta puli miqdori toʻgʻrisida;

– sugʻurta mukofotining miqdori va uni toʻlash muddati (muddatlari) toʻgʻrisida;

– shartnomaning amal qilish muddati toʻgʻrisida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sugʻurta shartnomasi sugʻurta qildiruvchi, sugʻurtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni oʻz ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari oʻrniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qoʻllaniladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sugʻurta siri, sugʻurta puli, sugʻurta mukofoti va sugʻurta badallari, sugʻurta shartnomasining haqiqiy emasligi toʻgʻrisida meʼyorlar qayd etilgan.

3.4. Sugʻurta bozorini tartibga solishga qaratilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Moliya vazirligining meʼyoriy-huquqiy hujjatlari

Mustaqillik yillari Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta bozorini rivojlantirish va davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash borasida ulkan ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Bu haqda oldingi mavzularda atroflicha toʻxtalib oʻtilgan. Shu tufayli mazkur mavzu doirasida Oʻzbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan vakolat doirasida ishlab chiqilgan va oʻrnatilgan tartibda Adliya vazirligida davlat roʻy-

xatiga olingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning sug'urta bozorini tartibga solishdagi ahamiyatini yoritishga harakat qilamiz.

Ma'lumki, sug'urta faoliyatini amalga oshirishda sug'urta zaxiralarini yetarli darajada va to'g'ri shakllantirish muhim o'rin egallaydi. Zero, sug'urta tashkilotining o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajara olish qobiliyati, aynan, yetarli darajada sug'urta zaxiralarini shakllantirilganligi bilan bevosita bog'liq.

2008-yilning 20-noyabrida O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatiga olingan «Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» hujjat amaliyotga joriy etilgan. Mazkur nizomga muvofiq, sug'urta tashkilotlari quyidagi sug'urta zaxiralarini shakllantirishlari lozim:

a) ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (umumiy sug'urta (qayta sug'urta qilish) bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

b) mukofotlar zaxirasi (hayotni sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

d) keyingi yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta to'lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

e) sug'urta hodisasining yuz berishi bilan kelib chiquvchi hamda sug'urta shartnomasi shartlari bo'yicha qoplanishi lozim bo'lgan zarar (ziyon) hajmiga muvofiq holda aniqlanadigan va quyidagilardan tarkib topgan zararlar zaxirasi:

xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi (XZZ);

sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (SXZZ).

6. Sug'urtalovchi Davsug'urtanazorat bilan kelishilgan holda qo'shimcha ravishda:

– ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (OChZ);

– falokatlar zaxirasini (FZ);

– zararlilikning tebranishi zaxirasini (ZTZ);

– aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasini (ANZ);

– sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa turdagi sug'urta zaxiralarini tashkil etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 26-dekabrdagi 120-sonli buyrug‘i bilan «Biznes sohasi uchun sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning yagona talablari va standartlari to‘g‘risida»gi nizom tasdiqlangan. Bu nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 28-yanvarda 1891-soni bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-sonli «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq biznes sohasi uchun sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning yagona talablari va standartlarini belgilaydi.

Ta’kidlash lozimki, biznes sohasi uchun sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish deganda tadbirkorlik xavflarini sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha sug‘urta himoyasini taqdim etish tushuniladi. Mazkur Nizom bilan belgilangan yagona talablar biznes sohasi uchun sug‘urta xizmatlarini taqdim etayotgan sug‘urtalovchilar uchun majburiydir. Biznes sohasi uchun sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning standartlari standart tushunchalar va sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning standart shartlaridan iboratdir. Sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishning standartlari, agar qonun hujjatlarida yoki sug‘urta shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, biznes sohasi uchun sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda qo‘llaniladi.

Sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda sug‘urtalovchi iste’molchiga (tadbirkorlik xavfini sug‘urtalash shartnomasini tuzmoqchi bo‘lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorga) quyidagilar haqida haqqoniy va to‘liq axborotni taqdim etishi shart:

- a) sug‘urtalovchi haqida (oshkora axborotni);
- b) sug‘urtalovchi nomidan va topshirig‘iga binoan faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta vositachilari (sug‘urta agentlari) haqida (agar iste’molchi tomonidan bunday talab mavjud bo‘lgan taqdirda);
- d) sug‘urta xizmati, ya’ni uning narxi (sug‘urta mukofoti), qoplamasi, shartlari, xizmatning maqsadlari, tavakkalchilik omillari, kafolatlar, maxsus istisnolari va hokazohaqida;
- e) sug‘urta xizmatining iste’molchi uchun afzalliklari va kamchiliklari haqida;
- f) sug‘urtalovchi va sug‘urta qildiruvchining majburiyatlari haqida;
- g) sug‘urta mukofotlari (badallari) va mablag‘larning kutilayotgan qaytarilishi haqida (qo‘llanilishi mumkin bo‘lganda);

h) sug'urta da'volarini hal etish tartibi va sug'urta shartnomasining boshqa shartlari haqida.

Sug'urtalovchi taqdim etayotgan axborot barcha muhim shartlar (pozitsiyalar) bo'yicha aniq va ravshan, yanglishtirmaydigan, oson tushuniladigan va yozma shaklda yoki tegishli elektron tashuvchilarda bo'lishi shart.

2009-yilning 7-aprelidagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'iga asosan «Aktuar xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida Nizom» tasdiqlangan va bu hujjat 2009-yilning 26-iyunida Adliya vazirligida 1975-son bilan qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuniga muvofiq sug'urta tashkilotlari bir yilda bir marta moliya yili yakunlangandan so'ng keyingi yilning olti oyi ichida aktuar tashkilotining kuzatuvidan o'tishlari shart. Aktuar kuzatuvi deganda sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, takroriylik va zarar yetkazilish oqibatlarining og'irlik darajasini aniqlash, sug'urta zaxiralarini hisob-kitob qilish, sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlar hajmini aniqlash, sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish, sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini belgilash, investitsiya faoliyati natijalarini baholash, daromadlarni sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har xil turlari bo'yicha rejalashtirish va boshqa aktuar xizmatlarini ko'rsatishni o'zi ichiga oluvchi aktuar xizmatlari majmuasi tushuniladi.

Nazorat uchun savollar

1. Sug'urtada ishtirok etadigan taraflarning o'zaro munosabatlarini huquqiy tartibga solishning obyektiv zarurligi nimada?

2. Sug'urta sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar qanday vujudga keladi?

3. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan?

4. «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonun avval qabul qilingan qonundan nimasi bilan farq qiladi?

5. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni nechta moddadan iborat?

6. «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunning asosiy mazmun-mohiyati haqida so'zlab bering.

7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining qaysi bobi sug‘urtaga bag‘ishlangan va unda nechta modda mavjud?

8. Fuqarolik kodeksida sug‘urta shartnomasini tuzish uchun qanday shartlar belgilangan?

9. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida majburiy sug‘urta bo‘yicha keltirilgan normalarning mohiyatini ochib bering.

10. Sug‘urta bozorini tartibga solish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi farmon va qarorlarini bilasiz?

4-mavzu. SUG‘URTA BOZORIDA TALAB VA TAKLIF HAMDA NARXNING SHAKLLANISHI

4.1. Sug‘urta bozorida sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talab va uni shakllantirish muammolari.

4.2. Sug‘urta bozorida o‘ziga xos tovar bo‘lgan sug‘urta mahsulotlariga taklifni qaror toptirish mexanizmi.

4.3. Sug‘urta bozorida talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash. Sug‘urta mahsulotlariga talabni rag‘batlantirish usullari.

4.1. Sug‘urta bozorida sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talab va uni shakllantirish muammolari

Sug‘urta bozorida sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabni o‘rganish va uni shakllantirish sug‘urtalovchilarning marketing faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bo‘linmalari orqali amalga oshiriladi. Sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabni o‘rganishda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

- sug‘urta bozorida real va salohiyatli sug‘urtalanuvchilar mavjud bo‘ladi;

- salohiyatli sug‘urtalanuvchining real sug‘urtalanuvchiga aylanishida sug‘urta mahsulotining shaffofligi ta‘sir ko‘rsatadi;

- shaffof mahsulot o‘z navbatida talabni keltirib chiqaradi.

Salohiyatli sug‘urtalanuvchi deganda sug‘urta mahsulotini sotib olishga ishtiyoqi bor hamda bu tovarni sotib olish uchun unda pul mablag‘i ham mavjud bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. Salohiyatli sug‘urtalanuvchi sug‘urtalovchi bilan shartnoma tuzib, sug‘urta polisiga ega bo‘lganda real sug‘urtalanuvchiga aylanadi. Bozorning muhim omili sifatida talab xaridorning to‘lovga qobiliyat-liligini bildiradi. Talabni amalga oshirish, ko‘p jihatdan mijozning motivatsiyasiga bog‘liq.

Sug‘urta mahsulotini sotish orqali mijozning talabini qondirish murakkab jarayon hisoblanadi. Salohiyatli sug‘urtalanuvchi sug‘urta

bozoriga kirib sug'urtaning ancha-muncha qiyin shartlari bilan tanishar ekan va sug'urta kompaniyasi xodimining maxsus tushuntirishlariga qaramay, uni nima ekanligini, unga qanday naf keltirishini tushunmasdan sug'urta mahsulotini xarid qilish bo'yicha o'zining fikriga shubha bilan qaraydi.

Gap shundaki, sug'urta shartnomalari va qoidalari, haqiqatda, tijoratga asoslangan sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida namoyon etish bilan birga ko'pdan ko'p cheklovlar va istisnolarga boy. Bu cheklov va istisnolarning mohiyati, aksariyat holatlarda, sug'urtalanuvchi uchun tushunarsiz bo'lib qoladi. Ayrim sug'urta kompaniyalari sug'urta qoidalari va shartnoma shartlarini mijoz uchun tushunish juda qiyin bo'lgan tilda bayon etadi. Natijada salohiyatli mijozda qat'iy fikr tug'iladi: sug'urta bitimi haqqoniy emas, sug'urta kompaniyasi – aldoqchi. Mijozdan darhol xizmat haqi sifatida sug'urta mukofoti to'lashni talab etadi, evaziga qandaydir qog'oz, ya'ni sug'urta polisi beriladi. Polisda esa qandaydir sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, qaysidir holatda kelishilgan shartlarni bajarsa, sug'urta qoplamasi to'lanishi qayd etiladi. Boz ustiga, polisda sug'urtalanuvchiga sug'urta hodisasi sodir bo'lgandan keyin ham qaysi holatlarda sug'urta qoplamasi to'lanmasligi ifodasini topadi. Shu bois, sug'urtalanuvchida mazkur hujjatga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ladi.

Bularning hammasiga ayrim sug'urta kompaniyalarining insofsizligini qo'shadigan bo'lsak, ko'pchilik shaxslarda sug'urtaga bo'lgan qiziqish so'nadi. Ajablanarlisi shundaki, salohiyatli sug'urtalanuvchi sug'urta polisini olishi zahoti o'zining xotirjamligi va tinchligi uchun sug'urtalovchi javob berishiga ruhiy jihatdan tayyor bo'lmaydi. Balki u xotirjamlik va tinchlik uchun sug'urta kompaniyasida juda katta moliyaviy mablag' borligini bilmas. Ikkinchidan, sug'urtalanuvchi sug'urta qoplamasini real olishini obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra «bo'lmagan narsa» qabilida tushunadi. Bayon etilganlar o'z-o'zidan sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabni butunlay yo'qqa chiqarishi mumkin.

Sug'urtalanuvchida o'zining mulkiy manfaatlarini himoya etilishi nuqtayi nazaridan sug'urta mahsulotiga talab bo'ladi. Bozorda sug'urtalanuvchiga u to'laydigan pul hisobiga olinadigan iste'mol qiymatiga ega tovar kerak. Faqat shunday tovargina iste'molchining qonuniy mulkiy manfaatini har xil tasodifiy hodisalardan himoya etadi. Bunda tovarning qancha pul turishi sug'urtalanuvchi uchun unchalik

ahamiyatli emas. Biroq tovarning narxi keskin oshirilgan bo'lsa, bu sug'urtalanuvchida salbiy fikrlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Sug'urtalanuvchi uchun qulay yoki past narx unda talabni shakllantirishi mumkin.

Sug'urtalanuvchilar to'lov qobiliyatining pastligi va sug'urta mahsuloti narxining yuqoriligi, yuridik va jismoniy shaxslarda sug'urta to'g'risidagi salbiy fikrlarning mavjudligi talabga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

Shunday salohiyatli sug'urtalanuvchilar topilishi mumkinki, ularda sug'urta mahsulotini sotib olish uchun yetarli miqdorda pul mablag'lari mavjud, ammo ular o'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urta yo'li bilan himoyalash mumkinligi haqida bilmaydilar.

Sug'urta mahsulotiga talabni shakllantirishda sug'urta fani, davlat va jamiyatning vazifalari nimalardan iborat:

- odamlarda ularning qonuniy mulkiy manfaatlarini sug'urtalashga ongli talabni uyg'otish. Buning uchun aniq misollar, statistik ma'lumotlar yordamida jamiyatda hech kim tabiiy va boshqa tasodifiy holatlardan butkul xalos bo'lgan emas;

- yuridik va jismoniy shaxslarda sug'urta uchun pul mablag'ini topish bo'yicha ongli talabni shakllantirish. Sug'urtaga sarflanayotgan xarajat – bu oddiy xarajat emas, balki fuqarolar, tadbirkorlar va davlatning zaruriy xarajati.

- talab o'sishini xayol qilayotgan sug'urtalovchilar sug'urta mahsulotining shaffof emasligi, to'g'ridan to'g'ri u tomonidan bildirilayotgan taklif ochiq-oydin emasligini yaxshi bilishi lozim. Mijozlarga sug'urta mahsulotini taklif etar ekan, sug'urtalovchi shu narsani yoddan chiqarmasligi kerakki, mahsulot xuddi avtomashina, kiyim-kechak kabi shaffof bo'lishi shart. Bu murakkab vazifa, ammo biz uni hal etmasdan, fuqarolarning sug'urta savodxonligini oshirmasdan sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabni o'stira olmaymiz.

4.2. Sug'urta bozorida o'ziga xos tovar bo'lgan sug'urta mahsulotlariga taklifni qaror toptirish mexanizmi

Talab nuqtayi nazaridan sug'urta mahsulotining o'ziga xos xususiyatlari, ko'p jihatdan, mazkur mahsulotga taklif qanday shakllanayotganiga chambarchas bog'liq. Sug'urta mahsulotlariga talabning asosida pul mablag'lari yotgan bo'lsa, taklif asosida mahsulot yotadi. Sug'ur-

talovchilarning haqiqiy talabgor sugʻurtalanuvchilarning mulkiy manfaatlarini sugʻurtalashga boʻlgan ehtiyojini qanoatlantirishga qodir sugʻurta mahsulotlarini ishlab chiqishga yoʻnaltirilgan faoliyati taklif deyiladi.

Sugʻurta bozorida oʻziga xos tovar boʻlgan sugʻurta mahsulotiga taklifni ragʻbatlantirishning 2 ta usuli mavjud boʻlib, ular ustavdan kelib chiqqan holda va tijorat faoliyati bilan bogʻlangan. Chindan ham sugʻurta kompaniyalarining Ustavida shu narsa aniq yozib qoʻyiladiki, faoliyatni amalga oshirishdan asosiy maqsad yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoyalash. Ikkinchi usul ixtiyoriy sugʻurta turlariga oid boʻlib, kompaniyaning maqsadi tijorat asosida foyda olish. Bu yerda bir-biriga zid holatlarni koʻrish mumkin. Bir tomondan, sugʻurta hodisalari sodir boʻlganda sugʻurta polisi egasiga yetkazilgan zararni qoplab berish, ikkinchi tomonidan tadbirkorlik faoliyatidan foyda koʻrish. Sugʻurta qoplamalarini toʻlash sugʻurtalovchi xarajatlari tarkibida asosiy oʻrinni egallaydi. Tabiiyki, sugʻurtalovchi foydani koʻpaytirish maqsadida xarajatlarni kamaytirishga harakat qiladi. Sugʻurtalanuvchilar esa yetkazilgan zararni toʻliq qoplanishini talab qiladi.


Xaridorga taklif etilayotgan sugʻurta mahsulotining eng katta kamchiligi bu tovarning tashqi va ichki koʻrinishi hisoblanadi. Sugʻurtalovchi bozorga taklif etayotgan tovar har doim yagona nomoddiy shaklga va ikkita moddiy shaklga ega boʻladi. Ulardan bittasi tovarda doimiy oʻz oʻrniga ega, ikkinchisi ahyon-ahyonda ishtirok etadi. Buni quyidagi chizmada shunday aks ettirish mumkin.

Sugʻurta tovari isteʼmol qiymatining nomoddiy foydaliligi har doim buyum koʻrinishida emas. Bu sugʻurtalanuvchining mulkiy manfaatlarini sugʻurtalash orqali xotirjamligini taʼminlashdan iborat. Sugʻurtalovchi oʻz tovari isteʼmol qiymatining bu qismini koʻz bilan koʻrib boʻladigan darajada xaridorga yetkazib berolmaydi. Sugʻurta mahsulotini sotib oluvchi bozorda sugʻurtalovchining unga bergan vaʼdasiga ishonishi, shu bois unga pul toʻlashi lozim.

Sugʻurta tovari isteʼmol qiymatining moddiy foydaligi sugʻurta hodisalari sodir boʻlishi natijasida yetkazilgan zararining pul mablagʻlari shaklida sugʻurtalanuvchiga toʻlanishida namoyon boʻladi.

Sugʻurta tovarining qiymati bozor bahosining pul shakliga ega boʻlib, u sugʻurta mukofotidir.

Sugʻurta mahsulotini sotish taklifi, deganda sugʻurtalovchining quyidagi faoliyati tushuniladi:



3-chizma.

- sug'urta bozoriga ko'rinmaydigan tovarni olib chiqish;
- uni ishlab chiqish uchun buyurtma olish;
- tovarni xaridor uchun ishlab chiqish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda sug'urtalovchi o'zi ishlab chiqqan mahsulotni namoyish eta olmaydi. Ya'ni sug'urta mahsulotini sanoat mahsulotlari kabi vitrinada joylashtirish imkoniyatiga ega emas.

Sug'urta mahsulotini salohiyatli mijozlarga taklif etar ekan, sug'urtalovchi uning hamma jihatlarini oddiy va ravon tilda bayon etishi hamda uning tarkibi va tuzilishi, asosiy shartlarini o'zida mujassamlashtirgan taqdimot tayyorlashi kerak. Shuningdek, sug'urtalovchi kompaniyaning moliyaviy natijasi, sug'urta zaxiralari, ustav kapitali miqdori bo'yicha axborotlarni keng xalq ommasiga yetkazish uchun ko'proq televideniye, radio orqali chiqish qilishi talab etiladi.

4.3. Sug'urta bozorida sug'urta «mahsuloti» narxini shakllantirish va unga talab hamda taklifning ta'siri

Ma'lumki, sug'urta mahsuloti o'ziga xos tovar bo'lib, bozorda sotiladi. Sug'urta mahsulotining narxi talab va taklif asosida shakllanadi. Sug'urta tarifi - bu sug'urta riskining bahosi bo'lib, sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavkadir. Sug'urta tarifi (brutto-tarif) ikki qismdan iborat: netto-tarif va netto-tarifga yuklama. Netto-tarif sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan

xarajatlarini ifodalaydi. Netto-tarifga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. Shaxsiy sug'urta bo'yicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Sug'urtada tarif siyosati deganda sug'urta operatsiyalarini zararsiz amalga oshirilishini va sug'urtalanuvchilarning manfaati yo'lida sug'urta tariflarini belgilash, aniqlash, tartibga solish va tabaqalashtirish bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan sug'urta tashkilotlarining maqsadli faoliyati tushuniladi. Sug'urtada tarif siyosati quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

➤ Netto-mukofotlar va sug'urta qoplamasi o'rtasidagi ekvivalentlik. Har bir sug'urta turi bo'yicha netto-stavka zararlarning ehtimol tutilgan miqdoriga maksimal darajada to'g'ri kelishi zarur.

➤ Sug'urtalanuvchilarning asosiy qismi uchun sug'urta tarifi miqdorining qulayligi. Tarif stavkalarining yuqori darajada belgilanishi sug'urta ishining rivojlanishi uchun to'siq bo'ladi.

➤ Sug'urta tarifi stavkalarining barqarorligi. Agar uzoq yillar mobaynida tarif stavkalari o'zgarmasa, bu holat sug'urtalovchining nufuzini oshiradi. Sug'urta summalarining zararlilik ko'rsatkichi kamaysa, sug'urtalanuvchilarning manfaati uchun sug'urta tarifi stavkasini o'zgartirmasdan javobgarlik hajmini ko'paytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

➤ Sug'urta operatsiyalarining rentabelligini ta'minlash.

Sug'urta bozori o'ziga xos iqtisodiy munosabatlarni qamrab olib, ushbu munosabatlarning asosiy ishtirokchilari sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urta bozorining o'ziga xos tovari sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlaridir. Har qanday tovar singari sug'urta xizmati ham o'zining qiymati va iste'mol qiymatiga ega.

Sug'urta xizmatining iste'mol qiymati sug'urta himoyasini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta himoyasi shartnoma asosida yetgan zararning qoplamasi yoki hayot sug'urtasi shartnomasida sug'urta ta'minotini to'lashda moddiy ko'rinish kasb etadi.

Sug'urta xizmatining qiymati (yoki narxi) sug'urtalanuvchi to'laydigan sug'urta mukofotida ifodalanadi. Sug'urta mukofoti shartnoma

tuzilganda belgilanib, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnoma muddati davomida o'zgarmay qoladi.

Sug'urta mukofotining hajmi quyidagilarga yetarli bo'lishi zarur:

- sug'urta muddati davomida kutilayotgan da'volarni qoplashga;
- sug'urta zaxiralarini shakllantirishga;
- sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini qoplash;
- ma'lum darajadagi foyda hajmini ta'minlash.

Sug'urta xizmatining narxi bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha narxlar singari talab va taklifdan kelib chiqib tebranib turadi. Sug'urta xizmati narxining quyi chegarasi shartnomalar bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari va sug'urta qoplamalarining farqiga sug'urta kompaniyasining xarajatlari qo'shilganiga teng. Sug'urta xizmati narxining quyi chegarasida sug'urta kompaniyasi hech qanday daromadga erishmaydi. Sug'urta xizmati narxining yuqori chegarasi esa bozordagi sug'urta xizmatiga bo'lgan talab darajasidan kelib chiqib shakllanadi.

Ma'lumki, sug'urta tariflari asosida sug'urta mukofotlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 942-moddasi sug'urta mukofoti tushunchasini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, jumladan, unda quyidagilar haqida to'xtalib o'tilgan. Sug'urta mukofoti deganda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi tushuniladi. Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti miqdorini belgilashda sug'urta obyekt va sug'urta xavfi xususiyati hisobga olingan holda o'zi tomonidan ishlab chiqilgan, sug'urta puli birligidan undiriladigan mukofotni aniqlaydigan sug'urta tariflarini qo'llashga haqli.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda sug'urta mukofotining miqdori davlat sug'urta nazorati organlari tomonidan joriy etilgan yoki tartibga solinadigan sug'urta tariflariga muvofiq belgilanadi. Agar sug'urta shartnomasida sug'urta mukofotini bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, shartnomada navbatdagi sug'urta badallarini belgilangan muddatlarda to'lamaslik oqibatlari ko'rsatib qo'yilishi mumkin. Agar sug'urta hodisasi to'lash muddati o'tkazib yuborilgan navbatdagi sug'urta badali to'lanishidan oldin yuz bergan bo'lsa, sug'urtalovchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'voni yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta puli miqdorini sug'urta mukofotining o'ziga to'langan qismiga mutanosib

summada cheklashga va muddati o'tkazib yuborilgan sug'urta badali summasini hisobga olishga haqli.

Sug'urta mukofoti o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'lib, uning har bir tarkibiy qismi kompaniyaning ma'lum bir funksiyasini amalga oshirishni ta'minlaydi. Sug'urta mukofotining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar: netto-mukofot, sug'urta kompaniyasi xarajatlarini qoplash yuklamasi, foyda yuklamasi.

Netto-mukofot zararlarni qoplash uchun mo'ljallanadi. Sug'urta mukofotining mazkur qismini hisoblashning o'ziga xos xususiyati shundaki, sug'urta zararlarining qancha bo'lishini oldindan aniqlashning imkoni yo'q. O'tgan davrlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida kelgusida kutiladigan zararni aniqlash va ularni taqsimlanishini hisoblash hamda natijada, netto-mukofotining summasini keltirib chiqarish mumkin, lekin mazkur summa zararlarni to'liq qoplash ehtimolining yuqoriligini ta'minlay olmaydi. Shu narsa ma'lumki, izchil ma'lumotlar asosida hisoblangan kutilayotgan zarar summasi 50% holatlarda o'zini oqlamagan. Buning natijasida sug'urtalovchilar deyarli ikki yilda bir marta mazkur holat natijasida zarar ko'rish holatlari mavjud bo'ladi. Mijozlarga sug'urta qoplamasini kafolatlash maqsadida netto-mukofotga zaralar yuklamasi qo'shiladi.

Zaralar yuklamasini hisoblashdan asosiy maqsad kutilayotgan zararlardan haqiqiy zarar ortib ketishi holatlarini olidini olish hisoblanadi. Bundan tashqari, zarar yuklamasi kutilayotgan zararining noto'g'ri hisoblanishi holatlarida zararlilikning oshib ketishi xavfini kamaytiradi.

Sug'urta kompaniyasining xarajatlarini qoplash yuklamasi sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini qoplash uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari sug'urta tashkiloti to'laydigan soliqlar, masalan, mol-mulk solig'i ham sug'urta mukofotining tarkibiga kiritilishi zarur.

Sug'urta mukofotini hisoblashda chegirmalar kompaniyaning investitsiya daromadi evaziga amalga oshirilishi mumkin. Lekin bu har doim ham amalga oshirilavermaydi. Mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar barcha zararlarni qoplash va foyda olishning manbayi hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Sugʻurta kompaniyalarida sugʻurta mahsulotlariga boʻlgan talabni qaysi tarkibiy tuzilma oʻrganadi?
2. Sugʻurta mahsulotlariga talabni oʻrganishda nimalarga eʼtiborni qaratish lozim?
3. Salohiyatli sugʻurtalanuvchi deganda nimani tushunasiz?
4. Salohiyatli sugʻurtalanuvchi qaysi holatlarda real sugʻurtalanuvchiga aylanadi?
5. Sugʻurta mahsulotlariga boʻlgan talabning susayishiga qanday omillar taʼsir koʻrsatadi?
6. Sugʻurta mahsulotiga talabni rivojlantirish uchun nima ishlar qilish kerak, deb oʻylaysiz?
7. Bozorda sugʻurta mahsulotiga taklif qanday shakllanadi?
8. Sugʻurta mahsulotiga taklifni ragʻbatlantirish usullari haqida gapirib bering.
9. Sugʻurta mahsuloti nima uchun «koʻrinmas» tovar sifatida namoyon boʻladi?
10. Sugʻurta mahsulotining isteʼmol qiymati mazmunini yoriting.
11. Bozorda sugʻurta mahsulotiga narx qanday shakllanadi?

5-mavzu. O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORINING PROFESSIONAL ISHTIROKCHILARI VA ULARGA UMUMIY TAVSIF¹

5.1. Sug‘urtalovchi – milliy sug‘urta bozorining asosiy professional ishtirokchisi sifatida.

5.2. Sug‘urta syurveylari, aktuariylari va ularning faoliyat yo‘nalishlari.

5.3. Adjuster va assistans tashkilotlari hamda ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar.

5.1. Sug‘urtalovchi – milliy sug‘urta bozorining asosiy professional ishtirokchisi sifatida

Ma‘lumki, sug‘urtalovchi har qanday sug‘urta bozorida, jumladan, hududiy sug‘urta xizmatlari bozorida ham asosiy subyekt hisoblanadi. Sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarning nomlanishi turli adabiyotlarda turlicha nomlanadi. Dastlabki paydo bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari sug‘urta jamiyati deb atalgan. Keyinchalik, sug‘urta tashkiloti, sug‘urta kompaniyasi va sug‘urtalovchi nomlari shakllandi. Sug‘urta tashkiloti, sug‘urta kompaniyasi, sug‘urtalovchi degan atamalar bir xil ma‘noni anglatishini yoddan chiqarmaslik zarur. Mavjud ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, qonunchilik hujjatlarida ko‘proq «Sug‘urtalovchi» degan tushuncha qo‘llanilsa, o‘quv va ilmiy adabiyotlarda «sug‘urta tashkiloti», «sug‘urta kompaniyasi» degan atamalar ko‘p qo‘llaniladi. Masalan, S.V.Ermasov, N.B.Ermasova muallifligida nashr etilgan «Страхование» o‘quv qo‘llanmasida «Sug‘urta kompaniyasi» degan tushuncha ishlatilgan.²

Sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar sug‘urta tashkiloti, deb ataladi. Bu tushunchaga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 925-moddasida quyidagicha tarif berilgan: «Tijorat tashkilotlari hisoblangan va tegishli turdagi sug‘urtani amalga

¹ Izoh: Sug‘urta agentlari, sug‘urta brokerlari va qayta sug‘urta brokerlari faoliyati alohida mavzuda yoritilgan.

² Ермасов С.В., Ермасова Н.Б. Страхование: учебное пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. – 462 с.

oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslar, agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, sug'urtalovchilar sifatida sug'urta shartnomalarini tuzishi mumkin».¹ Ko'rinib turibdiki, sug'urtalovchi, ya'ni sug'urta tashkiloti maqomiga ega bo'lish uchun, albatta, faoliyat tijorat asosida tashkil etilishi lozim. Ya'ni sug'urtalovchining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan. Sug'urtalovchi yuridik shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Hozirgi kunda sug'urtalovchilar yuridik shaxs sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tishlari shart. Bu haqda «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunning 11-moddasida shunday deyilgan: «Sug'urtalovchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi».² Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, sug'urtalovchi Adliya vazirligida sug'urtalovchi sifatida emas, balki yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tadi. Ammo bu sug'urtalovchi sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini oldi degan ma'noni anglatmaydi. Sug'urtalovchi sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun qonunda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani olishi kerak.

Sug'urta tashkilotlariga qo'yiladigan talablar, ularga litsenziya berish va ularning faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, 2002-yilning 28-mayida amaliyotga joriy etilgan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunning 6-moddasida sug'urtalovchi, ya'ni sug'urta tashkilotiga quyidagicha tushuncha berilgan: «Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs sug'urtalovchi deb hisoblanadi. Sug'urtalovchi sug'urta hodisalari yuzaga kelishini bartaraf etish va oldini olishga oid chora-tadbirlarni maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda va shartlarda moliyalashtirishga haqli. Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Quyidagilar bundan mustasno:

– maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati;


¹ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. –T.: Adolat, 1996. 413-b.

² O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2002-yil 28-may.

– sugʻurta sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bogʻliq faoliyat;

– sugʻurta agenti sifatidagi sugʻurta vositachiligi.

Hozirgi paytda respublikamizda faoliyat yuritayotgan sugʻurta tashkilotlari qaysi sugʻurta sohasiga ixtisoslashganligiga qarab ikkiga boʻlinadi. Buni chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin.



4-chizma.

Maʼlumki, sugʻurta tashkilotlari oʻz xizmatlarini sotishda sugʻurta agentlari tarmogʻidan keng foydalaniladilar. Yuqorida qayd etilgan qonunning 9-moddasida sugʻurta agenti haqida quyidagi soʻzlar keltirilgan: «Sugʻurtalovchining nomidan va topshirigʻiga binoan sugʻurta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish boʻyicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sugʻurta agenti hisoblanadi»¹. Sugʻurtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sugʻurta agenti boʻla olmaydilar. Sugʻurtalovchilar oʻzlari vakolat bergan sugʻurta agentlarining restrlarini yuritishlari lozim.

Sugʻurta tashkilotlari sugʻurta qildiruvchi, sugʻurtalangan shaxs va naf oluvchi, ularning sogʻligi holati, shuningdek, bu shaxslarning mulkiy ahvoli toʻgʻrisidagi oʻz kasb faoliyati natijasida oʻzi olgan maʼlumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Sugʻurta tashkilotlari turli tashkiliy-huquqiy shakllarda tuzilishi mumkin. «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 11-moddasida sugʻurtalovchilar qonunlarda nazarda tutilgan barcha tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilishi nazarda tutilgan. Sugʻurtalovchilar qaysi mulkchilik shaklida tuzilmasin, ularning ustav kapitaliga boʻlgan talab bir xil darajada oʻrnatilgan. Maʼlumki, sugʻurtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Sugʻurtalov-

¹ Oʻzbekiston Respublikasining «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonuni. // «Xalq soʻzi» gazetasi, 2002-yil 28-may.

chi ustav fondining kamida to‘qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag‘laridan shakllantiriladi. Sug‘urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag‘lardan va boshqa jalb qilingan mablag‘lardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Sug‘urtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sug‘urtalovchining muassislari tomonidan to‘langan bo‘lishi kerak.

Sug‘urta tashkilotlarining faoliyati boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidan keskin farq qiladi. Shu sababli ularning faoliyati litsenziyalanadi.


Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug‘urtalovchiga hayotni sug‘urta qilish sohasida yoxud umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urtalovchi umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug‘urta sohasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasno. Umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urtalovchi hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Litsenziyada sug‘urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug‘urta turlari (klasslari) ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida» 2008-yil 21-maydagi 872-sonli qaroriga asosan sug‘urtalovchilar uchun ustav kapitali eng kam miqdoriga yangi talablar o‘rnatildi. Quyidagi chizmada ana shu yangi talablar keltirilgan.

Majburiy sug‘urta sohasida faoliyat yurituvchi sug‘urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdori 1500,0 ming yevro ekvivalentidagi summada, faoliyati faqat qayta sug‘urtadan iborat bo‘lgan qayta sug‘urtalovchilar uchun esa ustav kapitalining eng kam miqdori 4000,0 yevro ekvivalentidagi summada belgilandi.



5-chizma.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatni amalga oshirish chog'ida turli tashkilot va idoralardan axborot olish huquqiga ega. Bu O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunning 25-moddasida qat'iy belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra: huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, shuningdek, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari va boshqa tashkilotlar sug'urtalovchilarning so'roviga ko'ra sug'urta hodisalarining yuz berishi sabablari va holatlari to'g'risidagi hamda sug'urta to'voni miqdorlari sug'urtalovchi tomonidan aniqlanishi maqsadida yetkazilgan zarar to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va xulosalarni taqdim etishlari shart. Maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchilar yoki sug'urta brokerlaridan qabul qilingan pul mablag'lari va majburiyatlarining miqdorlari haqidagi axborotni, shuningdek, boshqa axborotni o'z vakolati doirasida talab qilib olishga haqli. Bunday axborotni talab qilib olish yozma ravishda, so'rov sabablari ko'rsatilgan holda amalga oshirilmog'i lozim.

Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidan tubdan farq qilishiga qaramasdan amaldagi qonunchilikka muvofiq ular turli tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilishi mumkin. Chunonchi, 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunda «Sug'urtalovchilar qonunlarda nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarda tuziladi» deb qayd etilgan.¹

2013-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda 33 ta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatadi. Ularning 2 tasi hayot sug'urtasida, 31 tasi umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta xizmatlarini ko'rsatadi.²

¹ O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni. – «Xalq so'zi», 2002-yil 28-may.

² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

Davlat ro'yxatiga olingan va sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega sug'urta tashkilotlarining aksariyati aksionerlik sug'urta tashkiloti maqomiga ega. Ularning ayrimlari ochiq, ayrimlari esa yopiq aksionerlik jamiyati shaklida tashkil etilgan.

5.2. Sug'urta syurveyerlari, aktuariylari va ularning faoliyat yo'nalishlari

Sug'urta bozorining jadal rivojlanishi, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyojning yil sayin oshib borishi tufayli bozorning sug'urtalovchilar hamda ularning mijozlari bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslarga sug'urta faoliyati bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan sug'urta syurveyerlari, aktuariylar kabi yangi muassasalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Syurveyer inglizcha «surveyor» so'zidan olingan bo'lib, bu tushuncha O'zbekiston sug'urta bozorida 1997-yildan qo'llanilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 618-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risidagi Nizom»da sug'urta syurveyerining vakolatlari, huquq va majburiyatlari o'z ifodasini topdi. Shu yili O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi va unda sug'urta bozorining professional ishtirokchilari qatori sug'urta syurveyerlari faoliyat yo'nalishlarining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Mazkur qonunning 9⁶ va 9⁷-moddalarida sug'urta syurveyerining huquq va majburiyatlari aniq ko'rsatib qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Sug'urta syurveyeri quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

– sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

– sug'urta shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

– tekshirilayotgan sug'urta obyektini bo'yicha xulosa tuzish.

Sug'urta ekspertizasini o'tkazishga vakolatli mutaxassislarning (ekspertlarning) ish tartibi sug'urta syurveyeri tomonidan belgilanadi.

Sugʻurta syurveyeri oʻz faoliyatini sugʻurtalovchi (sugʻurta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Sugʻurta syurveyeri:

– sugʻurtalovchi sifatida sugʻurta va qayta sugʻurta qilish operatsiyalari oʻtkazishga;

– sugʻurta boʻyicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

– sugʻurtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Sugʻurta syurveyeri ishining natijalari boʻyicha hisobot taqdim etiladi, sugʻurtalovchi (sugʻurta qildiruvchi) bu hisobotdan sugʻurta (qayta sugʻurta qilish) shartnomasi tuzish chogʻida foydalanishi mumkin.

Sugʻurta syurveyerining hisobotida koʻrsatilgan xulosalar mustaqil sugʻurta ekspertizasi jarayonida qayta koʻrib chiqilishi mumkin.

Sugʻurta syurveyeri:

– xizmatlar koʻrsatiladigan sugʻurtalovchini (sugʻurta qildiruvchini) erkin tanlashga;

– sugʻurta obyektini oʻrganish uchun sugʻurta qildiruvchidan (sugʻurtalovchidan) zarur axborotni soʻrash va olishga;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, faoliyati sugʻurta obyektlariga daxldor boʻlgan boshqa tashkilotlardan zarur maʼlumotlarni soʻrash va olishga haqli.

Sugʻurta syurveyeri qonun hujjatlariga va oʻzi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.

Sugʻurta syurveyeri:

sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sugʻurta ekspertizasi oʻtkazish uchun taraflar taqdim etgan hujjatlarning saqlanishini taʼminlashi;

mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan maʼlumotlarning maxfiyligini saqlashi shart.

Sugʻurta syurveyeri zimmasida qonun hujjatlariga va oʻzi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham boʻlishi mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimiz sugʻurta bozorida bir nechta syurveyer tashkilotlari faoliyat koʻrsatmoqda.

«Aktuar» atamasi «aktuariy» tushunchasi bilan uzviy bogʻlangan va inglizcha «actuaru», lotincha «actuarmus» soʻzlaridan olingan boʻlib, hisobchi, tez yozuvchi degan maʼnolarni anglatadi. Aktuariy sugʻurta

kompaniyalarida ishlaydigan mutaxassis bo‘lib, u sug‘urta turlari bo‘yicha tarif stavkalarini hisoblash usullarini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ma‘lumki, sug‘urta tariflari sug‘urtalovchilarning moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat ko‘rsatishlarida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Xo‘sh shunday ekan, rivojlanishning hozirgi bosqichini boshidan kechirayotgan milliy sug‘urta kompaniyalarimiz sug‘urta tariflarini ishlab chiqishda aktuar hisob-kitoblarning usullaridan qanchalik foydalanishmoqda?

Respublikamizda aktuar hisob-kitoblarni mukammal biladigan mutaxassislar yetarli mi? Sug‘urta tariflarini ishlab chiqishda aktuar hisob-kitoblardan foydalanish hozirgi sug‘urta kompaniyalari uchun qanchalik samara beradi?

Avvalo, yuqorida sanab o‘tilgan savollarga javob berishdan oldin aktuar hisob-kitoblarning mazmun-mohiyati xususida biroz to‘xtalib o‘tsak.

Aktuar hisob-kitoblar o‘zida statistik va iqtisodiy-matematik usullar asosida tarif stavkalarini hisoblash tizimini mujassamlashtiradi. Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urtalanuvchiga ko‘rsatiladigan xizmatlarning tannarxini hisoblash aktuar hisob-kitob kalkulyatsiyasi, deb ataladi. Aktuar hisob-kitob kalkulyatsiyasi shartnomadagi sug‘urta to‘lovlarini aniqlash imkonini beradi.

Aktuar hisob-kitoblar sug‘urtaning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, amalga oshiriladi:

- sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishining ehtimollik xususiyatiga ega ekanligi va ularning baholanishi. Bu sug‘urta mukofotlarining hajmiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi;

- sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urtalanuvchiga ko‘rsatiladigan xizmatlarning to‘liq tannarxi sug‘urta shartnomasida ko‘rsatiladigan sug‘urta mukofotlari summasida o‘z aksini topadi;

- sug‘urtalovchining sug‘urta zaxiralarining optimal hajmini aniqlash va shakllantirishning zarurligi;

- sug‘urta hodisasi ro‘y berishi natijasida yuzaga keladigan qisman yoki umumiy zararlarning mavjudligi;

- sug‘urta risklarining guruhlariga ajratilishi.

Sug‘urta faoliyatida aktuar hisob-kitoblarning vazifalari quyidagilardan iborat:¹

- jami sug‘urta hajmida risk guruhlari klassifikatsiyasini o‘rganish;


¹ И.Т.Балабанов, А.И.Балабанов «Страхования» Москва изд-во «Питер» 2004 г.

- sug'urta hodisasi ro'y berishining matematik ehtimolligini hisoblash;
- sug'urtalash jarayonini tashkil etishda kerakli xarajatlarning matematik asoslanganligi;
- sug'urtalovchilarning zaxira fondini shakllantirishning matematik asoslanganligi.

Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta mukofotlarini investitsiya maqsadlarida ishlatishda foiz normalarini aniqlash;

Aktuar hisob-kitoblarning nazariy asoslari XVII asrda D.Graund, Ya. De Vitt va E.Galley kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda hozirgi paytda ancha takomillashtirilgan.

Sug'urta tarmoqlariga ko'ra aktuar hisoblar shaxsiy sug'urta bo'yicha hisob-kitoblar, mol-mulk sug'urtasi va javobgarlik sug'urtasi bo'yicha aktuar hisob-kitoblarga guruhlanadi. Vaqt ko'rsatkichlari esa reja asosidagi hisob-kitoblarga guruhlanadi. Bu hisob-kitoblar kelajakda ushbu sug'urta turini amalga oshirishda sug'urtalovchiga tayanch bo'ladi.



6-chizma. Aktuar hisob-kitoblar turlari klassifikatsiyasi

Shuning uchun bu aktuar hisob-kitob turi kelgusidagi hisob-kitob deb ham ataladi.

Rejali aktuar hisob-kitoblar yangi sug'urta turini joriy qilish vaqtida risklar kuzatuvi bo'yicha ko'rsatkichlar mavjud bo'lmagan taqdirda qo'llaniladi.

Aktuar hisob-kitoblar turlari klassifikatsiyasi yuqoridagi chizmada keltirilgan.

Bunday holatda sug'urta kompaniyasi tomonidan mazkur sug'urta turiga o'xshash sug'urta turlari bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalar natijalari asos qilib olinadi. Ma'lum bir muddat (uch yildan kam bo'lmasligi kerak) o'tgandan so'ng olingan statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi va rejali aktuar hisob-kitoblarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Boshqaruv xususiyatlariga ko'ra aktuar hisob-kitoblar respublika miqyosida aktuar hisob-kitoblar, viloyatlar miqyosida aktuar hisob-kitoblar va ma'lum bir sug'urta kompaniyasi miqyosidagi aktuar hisob-kitoblarga bo'linadi. Respublika miqyosida aktuar hisob-kitoblar respublikadagi sug'urta bozoriga tegishli, viloyatlar miqyosidagi esa viloyat xususiyatlariga ko'ra ishlab chiqiladi, shu bilan birgalikda har bir sug'urta kompaniyasi o'z zaxira fondiga ko'ra aktuar hisob-kitoblarni ishlab chiqadi.

Aktuar hisob-kitoblarni yuritishda sug'urta statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Sug'urta statistikasi sug'urta ishining umumlashgan yakuniy ko'rsatkichlarini qayta ishlash usullarini, sug'urta operatsiyalarining takrorlanish tizimini o'rganishni o'zida mujassamlashtiradi. Sug'urta statistikasining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

N-sug'urta obyektlari soni;

L-sug'urta hodisalari soni ;

M-sug'urta hodisasi ro'y berganda zararlangan obyektlar soni;

P-yig'ilgan sug'urta badallari summasi-S;

B-to'lab berilgan sug'urta qoplamasi summasi;

C-jami sug'urta obyektlari sug'urta summasi;

Cm-jami sug'urta jamlanmasidan zararlangan obyektga to'g'ri keladigan sug'urta summasi-Sz.

Sug'urta amaliyotida yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarning tahlili qo'llaniladi. Tahlil jarayonida quyidagi ko'rsatkichlar hisobi yuritiladi:

➤ sug'urta hodisalarining uzluksizligi;

- zararlilik koefitsiyenti;
- bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keladigan o'rtacha sug'urta summasi;
- risk yuki;
- zararlilik normasi;
- zarar og'irligi;
- zarar davriyligi.

Sug'urta hodisalarning uzluksizligi (R_c) bir sug'urta obyektiga to'g'ri keladigan sug'urta hodisalari soniga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$R_c = L/N$$

Bu yerda R_s -sug'urta hodisalarning uzluksizligi;

L -sug'urta hodisalari soni (donada);

N -sug'urta obyektlari soni (donada).

Zararlik koefitsiyenti (K_u) yoki zarar koefitsiyenti jami sug'urta jamlanmasi summasiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_u = V/St$$

Bu yerda K_u -zararlilik koefitsiyenti;

V -to'lab berilgan sug'urta qoplamasi summasi (sumda);

St -jami sug'urta jamlanmasi summasidan zararlangan obyekt summasiga to'g'ri keladigan sug'urta summasi (so'mda).

Bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keladigan o'rtacha sug'urta summasi jami sug'urta jamlanmasidan bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keluvchi sug'urta summasini sug'urta hodisasi natijasida zararlangan obyektlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$S = St/t$$

Bu yerda S -bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keluvchi o'rtacha sug'urta summasi (so'mda);

St -jami sug'urta jamlanmasidan bitta zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keluvchi sug'urta summasi (so'mda);

t -sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida zararlangan sug'urta obyektlari soni (donada).

Risk yuki (Tr) bir zararlangan sug'urta obyektiga to'g'ri keluvchi o'rtacha sug'urta summasini bir sug'urta obyektining o'rtacha sug'urta summasiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Tr = St/S = St/t : S/N = St \cdot N : S \cdot t$$

Bu yerda Tr -risk yuki.

Zararlik normasi yoki qoplama koefitsiyenti (N_u) to'lab berilgan

sugʻurta qoplamasini yigʻilgan sugʻurta badallari summasiga boʻlish va foizini aniqlash orqali hisoblanadi:

$$Nu=V/R \times 100\%$$

Bu yerda Nu-zararlik normasi (foizda);

V-toʻlab berilgan sugʻurta qoplamasi summasi (soʻmda);

R-yigʻilgan sugʻurta badallari summasi (soʻmda).

Zarar ogʻirligi (Tu) yoki zarar hajmi risk ogʻirligi va zararlik koeffitsiyentini koʻpaytirish orqali aniqlanadi:

$$Tu=K_u \times T_r = V / S_t \times S_t \times N / S_t = V \times N / S_t$$

Bu yerda Tu-zarar ogʻirligi.

Zararning davriyligi (Ru) sugʻurta hodisalari davriyligini risk koeffitsiyentiga boʻlish orqali aniqlanadi:

$$Ru=R_s \times K_k = L / N \times t / L = t / N$$

Bu yerda Ru-zararning davriyligi;

t-sugʻurta hodisasi roʻy berishi natijasida zararlangan obyektlar soni;

N-sugʻurta obyektlari soni.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, sugʻurta tashkiloti tomonidan sugʻurtalash, oʻzaro sugʻurtalash va qayta sugʻurtalash operatsiyalarini amalga oshirishda har qanday sugʻurta turi boʻyicha tariflar hisob-kitobi aktuar hisob-kitoblarga tayanilgan holda aniq sugʻurta obyektining qiymatiga nisbatan hisoblab chiqiladi. Umuman aktuar hisob-kitoblar yordamida sugʻurta xizmati hamda sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurtalanuvchiga koʻrsatiladigan xizmatning qancha turishi aniqlanadi.

Hozirgi vaqtda Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta kompaniyalari tomonidan sugʻurta tariflarini ishlab chiqishda va sugʻurta zaxiralarini shakllantirishda aktuar hisob-kitoblarning zamonaviy uslublaridan foydalanish qoniqarli darajada emas. Aksariyat sugʻurta kompaniyalari sugʻurta tariflarini ishlab chiqishda aktuar hisob-kitoblardan umuman foydalanmaydi. Bunga asosiy sabablardan biri respublikamizda aktuar hisob-kitoblar metodologiyasining yaratilmaganligi va mutaxasislarning kamligidir.

Sugʻurta bozoridagi mavjud vaziyat tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, sugʻurtalovchilar mijozlarni jalb etish uchun sunʼiy ravishda sugʻurta xizmatlari narxini pasaytirmoqda, yaʼni demping narxni qoʻllamoqdalar.

Bu usul qisqa muddatda sugʻurta kompaniyasi uchun foydaliday tuyuladi, ammo alal-oqibat bunday usulni qoʻllagan sugʻurtalovchilar toʻlov qobiliyatlarini yoʻqotishlari va mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajara olmasliklari mumkin.

Aktuar hisob-kitoblarni sugʻurta faoliyatida, aniqroq qilib aytganda sugʻurta tariflarini ishlab chiqishda tatbiq etish sugʻurtalovchilarning toʻlov qobiliyatlarini mustahkamlash nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Zero, sugʻurtalovchilarning moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat koʻrsatishi, toʻlov qobiliyatining mustahkamligi-sugʻurtalanuvchilarning manfaatlarini himoya qilishning kafolatidir.

Oʻzbekiston Respublikasining «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunining 9⁴ va 9⁵ –moddalarida aktuariylarning huquq va majburiyatlari koʻrsatib oʻtilgan.

Aktuariy quyidagilarni oʻz ichiga oladigan aktuar xizmatlari koʻrsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir:

sugʻurta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sugʻurta majmuyi boʻyicha zarar yetkazilishining takroriylikni va ularning oqibatlari ogʻirligi darajasini belgilash;

sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) zarur sugʻurta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

sugʻurtalovchining investitsiyalar sifatida toʻplangan badallardan foydalanishida kapital qoʻyilma normasi va netto-stavka miqdori oʻrtasidagi bogʻliqlikning tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga koʻmaklashadigan tarzda aniqlash;

sugʻurta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sugʻurta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

sugʻurtaning (qayta sugʻurta qilishning) har bir turi boʻyicha tarif stavkalarini sugʻurtalovchilar uchun ularni oʻtkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) daromadlarini sugʻurtaning (qayta sugʻurta qilishning) har xil turlari boʻyicha rejalashtirish.

Aktuariy sugʻurtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq faqat aktuar xizmatlari koʻrsatadi.

Aktuariy, agar u aktuar tashkilot shtatida turgan bo'lsa yoki aktuar tashkilot tomonidan u bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzilgan taqdirda, aktuar xizmatlari ko'rsatishga jalb etilishi mumkin.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko'rsatganlik, tijorat yoki boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilot zarar ko'rishiga olib kelgan o'zga xatti-harakatlar natijasida yetkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar bo'ladi.

Aktuar xizmatlari ko'rsatish uchun aktuariy maxsus vakolatli davlat organi belgilagan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olishi shart.

Yuridik shaxs bo'lgan aktuariy o'z shtatida aktuariy malaka sertifikatiga ega bo'lgan kamida bitta aktuariyga ega bo'lishi kerak.

Aktuariy:

– sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;

– sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

– sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Aktuariy faoliyati natijalari hisobot tarzida rasmiylashtiriladi.

Aktuariy hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Aktuariy quyidagi huquqlarga ega:

– aktuar xizmatlari ko'rsatiladigan sug'urtalovchini (qayta sug'urtalovchini) erkin tanlash;

– aktuar xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan axborot sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, aktuar xizmatlari ko'rsatishni rad etish;

– boshqa aktuariylarni va o'zga mutaxassislarni aktuar xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

Aktuariy qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Aktuariy:

– sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– aktuar xizmatlari ko'rsatish chog'ida olingan axborotning maxfiylikiga rioya etishi;

– aktuar xulosasida aktuar hisob-kitoblarning kamchilik faktlarini va ularni bartaraf etishga doir takliflarni aks ettirishi shart.

Aktuariy zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

5.3. Adjaster va assistans tashkilotlari hamda ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar

«Adjaster» tushunchasi inglizcha «adjuster» so'zidan olingan bo'lib, uning asosiy mohiyati sug'urta hodisalari sodir bo'lganda uning ro'y berish sabablarini o'rganish, tahlil etish va yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Xalqaro amaliyotda adjaster xizmatlaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Bizning respublikamizda adjaster xizmatlarini ko'rsatish 2008-yildan yo'lga qo'yilgan.

2007-yilda amaldagi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunga adjasterlarning faoliyatini huquqiy tartibga solishni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi.

Adjaster sug'urtalovchining (sug'urta qildiruvchining) topshirig'i bo'yicha quyidagi xizmatlarni ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

– sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

– sug'urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;

– sug'urta obyektining shikastlanish sabablarini va sug'urta hodisasi mavjudligini aniqlash;

– sug'urta hodisasi mavjud bo'lgan taqdirda – sug'urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;

– to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'lovi summasini aniqlash;

– sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi bo'yicha xulosa tuzish.

Adjaster o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Adjaster:

– sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;

– sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

– sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Adjaster xizmati ko'rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiylashtirilib, undan sug'urtalovchi zararlarning o'rnini qoplash va nizolarni hal qilish chog'ida foydalanishi mumkin.

Adjasterning hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Adjaster quyidagi huquqlarga ega:

– adjaster xizmatlari ko'rsatiladigan sug'urtalovchini (sug'urta qildiruvchini) erkin tanlash;

– sug'urta voqeasini (sug'urta hodisasini) o'rganish uchun sug'urta qildiruvchidan (sug'urtalovchidan) zarur axborotni so'rash va olish;

– sug'urta hodisasi yuz berganidan so'ng sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

– o'zi sug'urta obyektini sirdan (zarur hollarda – texnika vositalarini qo'llagan holda) ko'zdan kechirganligi to'g'risidagi dalolatnomani rasmiylashtirish;

– faoliyati sug'urta obyektlariga daxldor bo'lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan yuridik ahamiyatga molik zarur ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish.

Adjaster qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Adjaster:

– sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug'urta hujjatlarining saqlanishini ta'minlashi;

– mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarning maxfiylikini saqlashi;

– sug'urta hodisasiga taalluqli ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish uchun chora-tadbirlar ko'rish shart.

Adjaster zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda dastlabki assistans tashkiloti 2000-yilda «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi muassisligida «O'zbekinvest Assistans» nomi bilan tuzilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi yuridik va jismoniy shaxslarga tibbiy, yuridik xizmatlarini ko'rsatishdan iborat. Tibbiy assistans sug'urta kompaniyalarining mijozlariga tibbiy maslahatni tashkil etish, ambulatoriya va turg'un tibbiy yordam ko'rsatish, sug'urta hodisasi sodir bo'lgan joyda tez tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkillashtirish, dori-darmonlarni yetkazib berishdan iborat. Tibbiy assistans xizmati tarkibiga boshqa tibbiy yordam ko'rsatish turlari ham kirishi mumkin.

Texnik assistans sug'urtalangan avtotransport vositasi yo'l-transport

hodisasi sodir bo'lishi oqibatida shikastlanganda uni avtomobil transportlarini tuzatish va ta'mirlash ustaxonalariga olib borish hamda avtomobillarni ta'mirlash bilan bog'liq xizmatlarni o'z ichiga oladi. Yuridik xizmat esa mijozlarning murojaatlari asosida uning vakili sifatida sudda mijozning manfaatlarini himoya qilish, sug'urta hodisalari sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan zararlarni tartibga solish, adjaster va syurveyer xizmatlarini ham ko'rsatadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunida assistans xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlarning huquq va majburiyatlari o'z aksini topgan. Ular quyidagilardan iborat:

Assistans sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek, ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Assistans o'z faoliyatini sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Assistans xizmatlariga sug'urta qildiruvchilar (sug'urtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sug'urtalovchilar tomonidan haq to'lanadi.

Assistans:

- sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;
- sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;
- sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Assistans quyidagi huquqlarga ega:

- assistans xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha sug'urtalovchilar bilan mustaqil ravishda shartnoma tuzish;
- assistans xizmatlari ko'rsatilishi uchun zarur bo'lgan barcha axborot sug'urtalovchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, assistans xizmatlari ko'rsatishni rad etish;
- tegishli mutaxassislarni assistans xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

Assistans qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Assistans:

- sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug‘urta qildiruvchilardan (sug‘urtalangan shaxslardan) sug‘urta voqealari (sug‘urta hodisalari) to‘g‘risidagi xabarlar kecha-kunduz qabul qilinishini tashkil etishi va sug‘urta shartnomasi doirasida, taqdim etilgan sug‘urta polisi asosida sug‘urta qildiruvchilarga (sug‘urtalangan shaxslarga) zarur yordam ko‘rsatishi;

– sug‘urta hodisalarini ko‘rib chiqish va tartibga solish chora-tadbirlarini ko‘rishi shart.

Assistans zimmasida qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda «Bovar Service», «Global Assist», «Insurance Assist Group», «O‘zbekinvest Assistans» assistans xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniyalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi sifatida sug‘urtalovchiga davlat tomonidan qanday talablar belgilangan?

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida sug‘urtalovchiga qanday ta’rif berilgan?

3. Sug‘urtalovchiga sug‘urta faoliyatidan tashqari yana qanday faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsat berilgan?

4. Salohiyatli sug‘urtalanuvchi qaysi holatlarda real sug‘urtalanuvchiga aylanadi?

5. Sug‘urta tashkilotlarini tuzishda ularning tashkiliy-huquqiy shakllari qanday bo‘lishi lozim?

6. Sug‘urta tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalashdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad nima?

7. Sug‘urta syurveyeri deganda nimani tushunasiz?

8. Sug‘urta syurveyerining huquq va majburiyatlari haqida gapirib bering.

9. Sug‘urta bozorida aktuariylarning o‘rni qanday bo‘lishi kerak?

10. Sug‘urta aktuariylarining asosiy vazifalari to‘g‘risida to‘xtalib o‘ting.

11. O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonunida aktuariylar haqida qanday normalar o‘z aksini topgan?

12. Sug‘urta adjasteri deganda nimani tushunasiz?

13. Adjasterlar faoliyati davlat organlari tomonidan litsenziyalanadimi?

6-mavzu. O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDAGI YIRIK SUG‘URTA KOMPANIYALARI FAOLIYATI TAHLILI

6.1. «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi va uning milliy sug‘urta bozorida tutgan o‘rni.

6.2. «O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi va uning faoliyat yo‘nalishlari.

6.3. «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining milliy sug‘urta bozori rivojlanishidagi ahamiyati.

6.1. «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi va uning milliy sug‘urta bozorida tutgan o‘rni

O‘zbekistonda moliyaviy tizimning shakllanib borishi va xalqaro amaliyotda foydalaniladigan moliyaviy zarardan ishonchli himoya qilishni rivojlantirishda qo‘yilgan o‘ziga xos qadamlardan biri 1994-yilda «O‘zbekinvest» milliy sug‘urta kompaniyasining tashkil etilishidir.

Eksport o‘rishini rag‘batlantirish, o‘zbekistonlik eksportchilarni sug‘urta himoyasiga olish va mahalliy mahsulotlarni xalqaro texnologiyalar, tovarlar va xizmatlar bozoriga kompleks marketing uslublari vositasida kirib borishini ta‘minlashi maqsadida, kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 18-fevraldagi farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 28-fevraldagi qarori bilan «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi etib qayta tashkil etilgan.

Kompaniyaning ustav jamg‘armasi 60 mln AQSh dollari miqdorida belgilangan (ta‘sischilar tomonidan: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 50 mln AQSh dollari va Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki 10 mln AQSh dollari kiritilgan).

«O‘zbekinvest» oldiga respublika hukumati tomonidan qo‘yilgan asosiy vazifa - xorijiy investorlar va milliy eksport qiluvchilarni investitsiya hamda tadbirkorlik faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin

bo'lgan qaltisliklardan ishonchli sug'urta kafolatlari bilan ta'minlashni hal etish quyidagilarni nazarda tutadi:

- xorijiy hamkorlar tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi siyosiy va tijorat risklaridan chet eldagi milliy eksport qiluvchilarning iqtisodiy manfaatlarini kompleks sug'urta himoyasi bilan ta'minlash;

- eksport kreditlarining xalqaro tamoyillarga binoan texnologiya, tovar va xizmatlar eksportini moliyalashtirish uchun kreditlar ajratadigan O'zbekiston Respublikasining rezident tijorat banklariga sug'urta himoyalarini taqdim etish;

- texnologiya, tovar va xizmatlar xalqaro bozorining rivojlanish istiqbollarini va holatini kompleks marketing tahlilini tashkil etish, milliy ishlab chiqaruvchilarning eksport imkoniyatlarini o'rganish va texnologiya tovar hamda xizmatlarni xalqaro bozorlarda taqdim etish strategiyasini ishlab chiqish;

- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga kapital qo'yilmalarni amalga oshirayotgan xorijiy investorlarning mulkiy va shaxsiy manfaatlarini kompleks sug'urta himoyasi bilan ta'minlash.

«O'zbekinvest» kompaniyasi qayta tashchkil etilganidan boshlab xalqaro bozorda faolroq qatnashish maqsadida 1997-yil Bern Ittifoqining Praga Klubiga a'zolikka kirdi.

Praga klubi Bern Ittifoqi doirasidagi tuzilma bo'lib, uning asosiy vazifasi yangi va o'sib borayotgan kredit agentliklari tomonidan eksport krediti va investitsiyalarga sug'urta xizmatlari ko'rsatilishida ko'maklashish hisoblanadi. Praga Klubining a'zolari ma'lum darajagacha rivojlangandan so'ng Bern Ittifoqiga a'zo bo'ladilar. Bunday maqsadga erishish uchun «O'zbekinvest» tomonidan keng miqyosdagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan Bern Ittifoqi a'zolarining har yilda bo'lib o'tadigan uchrashuvida faol qatnashib keladi va bu uchrashuvlar jarayonida boshqa a'zolar bilan o'zaro hamkorlik to'g'risida turli xil shartnomalarni imzolamoqda.

Hozirgi kunda mamlakat sug'urta bozorida o'zining tegishli obro'siga va mavqeyiga ega bo'lgan «O'zbekinvest» kompaniyasi o'tgan davrlarda shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'tdi hamda ayni paytda u bozor sharoitida ishlash bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega, barqaror moliyaviy potensialni yaratish va rivojlantirish hamda ishchanlik faoliyatini kengaytirish borasidagi to'plangan ulkan bilim va ko'nikmalarga ega. Shu bilan birga kompaniya faoliyatini rivojlantirish

uchun ulkan potesial mavjud. Bu potensial uning xizmatlar turini, sifatini va hajmini oshirishdagi imkoniyatlaridadir.

Bunday imkoniyatlar nimalarga asoslanishi ilmiy tahlil etilsa, quyidagilar ayon bo'ladi:

Ma'lumki, O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirishdagi muhim yutuqlaridan biri sug'urtada bozor munosabatlarini shakllantirish, davlat sug'urtasi monopoliyasiga barham berish va sug'urta sektori mavqeyini ko'tarish bo'ldi. Bu davlat boshqaruv organlari tomonidan sug'urtani mamlakat bozor infratuzilmasining asosiy qismlaridan biri, deb biluvchi faol siyosatining mahsulidir.

Sug'urta bozorining rivojlanib borishi mamlakat iqtisodiyotidagi ijobiy o'zgarishlar, valuta siyosatining erkinlashuvi va tashqi iqtisodiy aloqalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan qonunchilik-me'yoriy asoslarni takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Mustaqil mamlakatimizda sug'urta bozorining shakllanishida o'ziga xoslik bor. Yirik milliy kompaniya bo'lgan «O'zbekinvest»ning hamda davlat kapitali ishtirokidagi boshqa ixtisoslashgan kompaniyalarning tashkil etilishi mamlakatda sug'urta biznesi rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'ldi va O'zbekistonni xalqaro moliyaviy hamjamiyatiga kirib borishi uchun qulay sharoitlar yaratdi. Shu sababli sug'urta bozorining yetakchilaridan biri bo'lgan «O'zbekinvest» kompaniyasi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishidagi erishilgan yutuqlarga tayangan holda o'zining biznes faoliyatini yanada rivojlantirish uchun mustahkam asosga ega.

Tashkil qilinishining asosiy maqsadiga amal qilgan holda, «O'zbekinvest» mijozlarga jahon andozalariga mos keluvchi xizmatlar ko'rsatadigan, yetakchi o'zbek sug'urtalovchilaridan biri bo'lib, mahalliy sug'urta bozorida yangi bo'lgan mahsulotlarni yaratish va joriy qilishda ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdi. Eng asosiysi, kompaniya o'zining faoliyati davomida keng xalq ommasi, hamkorlari va mijozlarining ishonchini qozondi.

Bozorning moliyaviy infratuzilmasini shakllantirish umumdavlat ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish sug'urta bozoridagi o'zining o'rnini mustahkamlash borasidagi maqsadli siyosatni olib borishi tufayli 2004-yil hamda 2005-yil yakuniga ko'ra kompaniyaga Saipro reyting agentligi tomonidan uzA+«Yuqori ishonchlilik darajasi» reytingi berildi, bu bilan kompaniyaning yuqori moliyaviy barqarorligi tasdiqlandi.

Hozir shuni mamnuniyat bilan aytish mumkinki, «O'zbekinvest»

sugʻurta bozorida maʼlum raqobat afzalliklari butun respublika boʻyicha distribyuterlik tizimiga egaligi, kerakli axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari mavjudligi, savdo markasining potensial sugʻurtalanuvchilar ichida tanilganligi hamda moliyaviy barqaror va ishonchli kompaniya sifatidagi obroʻsi borligidadir.

Kompaniya ixtisoslashgan tuzilmalar tarmogʻini kengaytirish siyosatini olib borib, sugʻurtalash jarayoni hamda mijozlarga xizmat koʻrsatish jarayoni bilan bogʻliq rivojlangan va moslashuvchan tashkiliy tuzilmani shakllantirdi. Bular jumlasiga «Sugʻurta olami» sugʻurta biznesi oʻquv markazi, viloyatlardagi va Qoraqalpogʻiston Respublikasidagi hududiy filiallar tizimi, London shahridagi «Oʻzbekinvest Interneshnl» qoʻshma korxonasi, toʻrtta ixtisoslashgan shoʻba korxonalar: «Oʻzbekinvest Eksinform» Marketing agentligi, «Oʻzbekinvest Assistans» Servis agentligi, «Oʻzbekinvest Sarmoyalari» investitsiya kompaniyasi va «Oʻzbekinvest Hayot» shoʻba sugʻurta kompaniyasi kiradi.

«Oʻzbekinvest» tashkil qilingan vaqtdan boshlab, yangilikni joriy qiluvchi kompaniya sifatida tanildi. Yangilikni joriy etish kompaniya marketing faoliyatining turli bosqichlarida namoyon boʻlmoqda: bozor ehtiyojlariga javob beradigan, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish; bozorda oʻziga munosib oʻrinni tanlab olish va egallab turish; biznes maqsadiga erishish uchun yangi marketing kommunikatsiyalarini topish, ishlatish va boshqalar shular jumlasidansir.

Kompaniya hozirgi zamon marketing kommunikatsiyalarini ishlatib oʻzining mavqeyini koʻrsatish maqsadiga yoʻnaltirilgan reklama axborot ishlarini jamoat ichida olib borgan mahalliy bozordagi sugʻurta kompaniyalaridan eng birinchisi boʻldi. Shuni aytish lozimki, berilayotgan reklamalar keng xalq ommasida sugʻurta haqida ijobiy fikr hosil qilish, sugʻurtaga ishonch uygʻotishga yoʻnaltirilgan.

Har qanday tashkilot tomonidan taklif etilayotgan xizmatlarning yuqori sifatli boʻlishi uning biznesdagi muvafaqqiyatining hayotiy zarur sharti hisoblanadi. 2003-yil dekabr oyida RWTUV (Germaniya) sertifikatlash tashkiloti tomonidan oʻtkazilgan sertifikatsion audit yakunlariga koʻra, «Oʻzbekinvest»ning sifatni boshqarish tizimi xalqaro ISO 9001:2000 standartiga toʻgʻri kelishi eʼtirof etildi va jahonning barcha mamlakatlarida tan olingan TUV CERT sertifikatini oldi.

Sifatni boshqarish tiziminig asosiy vazifasi xizmatlar sifatini isteʼmolchilar talabiga javob beradigan darajaga yetkazish, uni barqaror

ushlab turish va buning natijasida mijozlar mamnunligining o'sishi va sug'urta bozoridagi raqobatda ustunlikka erishishdan iborat.

Shu bilan birga bunday sertifikatning mavjudligi kompaniya jahonning yetakchi sug'urta tashkilotlarining ishonchini qozonishi uchun va «O'zbekinvest»ning xalqaro sug'urta bozoriga yanada integratsiyalashuviga yordam beradi.

Xizmatlarning ishonchliligini ta'minlash uchun har qanday sug'urta kompaniyasi kabi «O'zbekinvest» kompaniyasi ham qaltislik darajasini kamaytirish haqida qayg'uradi. Ma'lumki, qaltisliklarni qayta sug'urtalash, amalga oshirilayotgan sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. «O'zbekinvest» tomonidan mahalliy qayta sug'urtalash bozorini rivojlantirish borasida va xalqaro sug'urtalash hamda qayta sug'urtalash bozorini faol o'zlashtirish bo'yicha ilk qadamlar qo'yilgan. Bu kompaniyaga Yevropa Ittifoqi, AQSh, MDH, Boltiqbo'yi, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarning sug'urta va qayta sug'urtalash kompaniyalari, eksport-kredit agentliklari bilan bevosita hamkorlik o'rnatishga imkoniyat yaratdi.

Moliyaviy barqarorlik va mijozlar manfaatini himoya qilishning maksimal ishonchliligiga erishishga sug'urta qoplamasi taqdim etish muddatlarini optimallashtirish, ularning ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini samarali boshqarish yordam bermoqda. Bunday optimal obyektiv yondashish natijasida kompaniya o'zining uzoq yillik faoliyati davomida hamkorlari himoyasining ishonchli kafolati imijini saqlab kelmoqda.

Kompaniyaning investitsiya faoliyati sug'urta zaxiralarini joylash-tirish masalasini inflatsiya darajasiga nisbatan yuqoriroq bo'lgan daromadlilikka erishib, yuqori likvidlikni hamda tizimli va narx qaltisliklarini taqsimlashni ko'zda tutadi. Albatta, bunday yondashuv o'zining samarasini beradi.

Hozirgi kunda «O'zbekinvest» bozordagi eng yirik sug'urtalovchi bo'lib, katta imkoniyatlarga ega. Kompaniya davlat organlari tomonidan tashkil qilinadigan ishchi guruhlar tarkibida qonuniy va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ko'p yo'nalishli va o'zaro tanilganlik asosida olib borilishi o'zining samarasini beradi. Qayta sug'urtalash operatsiyalarini rivojlantirish, sug'urta ishini tashkil etish tajribasini o'rganish, xodimlarni o'qitish tizimi asosini yaratib

borib, kompaniya tashkil etilgan davrlardan beri turli mamlakatlardagi 50 dan ortiq moliyaviy tashkilotlar bilan ikki tomonlama bitimlar tuzilgan. Bu esa kompaniyaning chet elliklar uchun O‘zbekiston bozorida ishonchli va istiqbolli hamkori sifatida tan olinganligining isbotidir.

Kompaniya amalga oshirayotgan sug‘urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash maqsadida jahonning tanilgan va yetakchi Marsh, AON, Willis sug‘urta brokerlari va Myunxen, Syurix, Alyans qayta sug‘urta jamiyatlari bilan faol ish olib bormoqda.

Sug‘urta to‘liq ishonchga asoslangan soha. Shu sababli, sug‘urta mahsuloti hayot davrining barcha bosqichlarida mijozlar bilan muloqotda bo‘lgan mutaxassis xodimlar yuqori mahoratli bo‘lishligi taqozo qilinadi. Kompaniyada kadrlarni tayyorlash, o‘qitish, o‘rgatish bo‘yicha samarali tizim yo‘lga qo‘yilgan. Buning natijasida kompaniyaning uzluksiz rivojlanishiga erishiladi. Kompaniya oldiga davlat tomonidan qo‘yilgan vazifalarni bajarishda kompaniya yosh jamoasining g‘ayrati, shijoati va yuksak kasbiy mahorati asosiy kafolatlardan biridir.

Mamlakat miqyosida tashkil qilingan kompaniyaning hududiy filiallarining har biri o‘zining hududida sug‘urtaga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish bilan bir qatorda, aholining sug‘urta haqidagi tushunchasini shakllantirishda, ularda sug‘urtaga ishonchni oshirishda o‘z hissasini qo‘shadi. Hududiy filiallar tizimi, ulardagi xodimlarning mahorati, xizmat ko‘rsatishning yuqori sifati kompaniyaning mahalliy bozordagi tutgan o‘rnini mustahkamlashga nufuzli mijozlarning ishonchini qozonishga kafolat bo‘ladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki sug‘urta biznesini ilmiy tashkil etish: tashkilotning o‘ziga xosligi va tutgan o‘rnini aniqlab olish; biznesni yuritishda yangilikni doimo kiritib borish; raqobatdagi o‘z afzalliklarini doimo izlash, topish va foydalanish; har bir mijozning talablariga qarab ish ko‘rish, bozor munosabatlari rivojlanib borayotganda o‘z samarasini berishini isbotlaydi.

Ayni paytda, «O‘zbekinvest» o‘zini respublikada sug‘urta madaniyatini rivojlantiruvchi milliy sug‘urta kompaniyasi vazifasini bajarayotgan ijtimoiy yo‘nalishdagi tashkilot deb hisoblaydi. Shu sababli kompaniya mamlakatda sug‘urta madaniyatini shakllantirishda faol o‘rin egallab, milliy sug‘urta bozorida amalga oshirilayotgan barcha asosiy loyihalarda ishtirok etib kelmoqda. Respublikada sug‘urtani rivojlantirishda, sug‘urtaning afzalliklari va aholining sug‘urta madaniyatini oshirishni targ‘ib qilish maqsadida zamonaviy PR-kommunikatsiyalar-

dan foydalangan holda to‘g‘ridan to‘g‘ri reklama aksiyalarini o‘z ichiga oluvchi keng ko‘lamli reklama-axborot tadbirlarini o‘tkazishni davom ettirmoqda.

6.2. «O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi va uning faoliyat yo‘nalishlari

Mamlakatimizda olib borilgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish natijasida, hamda sug‘urta xizmatlari sohasini samarali rivojlantirishni ta‘minlash, dehqonchilik mahsuloti yetishtiruvchilarni va aholini sug‘urta yuli bilan himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida» 1997-yil 25-fevraldagi № PF-1713-sonli farmoniga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi 1997-yil 6-martdagi 125-sonli qaroriga muvofiq «O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi tuzildi.

Mazkur farmonda kompaniya faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari mulki va mahsulotining sug‘urta himoyasini ta‘minlash;
- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarning to‘lov layoqatini o‘rganish, qishloq xo‘jaligi korxonalariga ishlab chiqarishni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligida loyihalarni amalga oshirish uchun tijorat banklari tomonidan kreditlarni qoplashga sug‘urta kafolatlarini berish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bo‘yicha ishlarni bajarishga bo‘naklanadigan mablag‘larning qaytarilishini sug‘urtalash.

Yuqorida qayd etilgan Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq «O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash uchun 1998-yildan boshlab uning sug‘urta fondini to‘ldirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan. To‘g‘ri, dastlabki vaqtlarda hosil sug‘urtasining zararlilik darajasi yuqori bo‘lganligi sababli budjet mablag‘lari jalb etildi. Biroq 2002-yildan boshlab «O‘zagrosug‘urta» kompaniyasi o‘z faoliyatini budjet mablag‘larini jalb etmasdan amalga oshirmoqda. Shuni ta‘kidlash lozimki, kompaniyaning ustav fondida davlat ishtirok etsada, davlatning taqsimlanmagan daromad qismi ushbu maqsadlarga yo‘naltirilmoqda.

«O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga va qishloq aholisiga sug‘urta himoyasini taqdim etuvchi, respublikada asosiy sug‘urta kompaniyasi bo‘lib qolmoqda. 2013-yilning 1-yanvar holatiga kompaniyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda direksiyalari mavjud. Shuningdek, Toshkent shahrida «Poytaxt sug‘urta» sho‘ba korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Butun respublika bo‘ylab kompaniyaning 172 ta bo‘limlari joylarda yuridik va jismoniy shaxslarga keng qamrovli sug‘urta xizmat turlarini taklif etmoqda. Bugungi kunda kompaniya qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun ixtiyoriy sug‘urtalashning 100 dan ziyod turlarini taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-apreldagi № PQ-325 va 2007-yil 21-maydagi №PQ-640 qarorlari bilan kompaniyaga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va qishloq aholisini sug‘urtalashning quyidagi zamonaviy turlarini joriy etish hisobiga ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlari turi va hajmini oshirish vazifasi topshirilgan:

- sug‘urta mukofotining bir qismini dotatsiyalash bilan hosilni sug‘urtalash;
- qoramolni sug‘urtalash;
- qishloq xo‘jaligi texnikasini sug‘urtalash;
- sug‘urtalashning shaxsiy turlari.

Bundan tashqari, «O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan paxta xomashyosi va don yetishtirish uchun fermer xo‘jaliklariga imtiyozli kredit ajratadigan tijorat banklarining tadbirkorlik xatarlarini sug‘urta qiladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun kredit resurslardan foydalanish imkoniga ega bo‘lishning muhim sharti bu – kafolatli sug‘urta himoyasining mavjudligidir. Bundan tashqari sug‘urta fermer xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligiga ko‘maklashadi, binobarin, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning samaradorligini oshiradi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalash va davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va don yetishtirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlarning qaytarilmasligini kamaytirish, shuningdek, ekinlar holati monitoringini o‘tkazish uchun agronomlarni yollash tartibi ishlab chiqildi va ijro etish uchun hududiy bo‘linmalarga tarqatildi.

Qishloq joylarda sugʻurta madaniyati darajasini oshirish maqsadida «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi tomonidan qishloq xoʻjaligi sugʻurtasi, sugʻurta sohasida oʻtkazilayotgan islohotlarning maqsadlarini targʻib etish va tushuntirish, sugʻurta mahsulotlarining sifati va miqdori toʻgʻrisida batafsil maʼlumotlarni berish borasida rejalashtirilgan ishlar olib borilmoqda. Kompaniyaning faoliyatini targʻibot-tashviqot qilish, ommaviy axborot vositalari, respublika va mahalliy gazeta va jurnallarida maqolalar chop etish, radio va televideniya maxsus eshittirishlarda ishtirok etish orqali amalga oshirilmoqda.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi agrar sektorni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash sohasida maxsus hukumat agenti funksiyasini bajarmoqda. Kompaniya faoliyat sohalaridan biri qishloq xoʻjaligi ekinlarining joriy holatini oʻrganishdir. Bu oʻz navbatida qishloq xoʻjaligi ekinlarini yetishtirish boʻyicha ishlar, davlat ehtiyojlari uchun sotib olinadigan qishloq xoʻjaligi mahsuloti uchun hisob-kitob qilish boʻyicha Fond tomonidan ajratiladigan imtiyozli mablagʻlar hisobiga tijorat banklari orqali moliyalashtirish jarayonida, tijorat banklariga ekinlar holatining muntazam monitoringi natijalariga koʻra obyektiv vaziyatlar tufayli kam hosil olish xatari yuzaga kelganda fermer xoʻjaliklarini moliyalashtirishni vaqtida toʻxtatish imkonini beradi. Bu imtiyozli resurslarni oqilona ishlatish imkonini beradi, shuningdek, kam hosil olish xatari yuzaga kelgan holda qishloq xoʻjaligi korxonalarining tijorat banklariga ortiqcha qarzdor boʻlishining oldini oladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-martdagi 125-sonli va 2002-yil 383-sonli qarorlarini bajarish maqsadida «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi tomonidan davlat ehtiyojlari uchun qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini sotib olish uchun ajratilayotgan maqsadli mablagʻlarning ishlatilishi ustidan monitoring oʻtkazish boʻyicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, barcha hududlarda ekin maydonlarini tayyorlash, ekinlarning unib chiqishi, oʻsish jarayoni, gidrometeorologik maʼlumotlardan tortib to davlatga sotishgacha boʻlgan sifati va miqdori maʼlumotlari toʻplanadi. Toʻplangan maʼlumot kelgusi yilda hosil qanday boʻlishi va hisoblash dasturi asosida qanday daromad olish mumkinligini aniq oldindan aytib berish mumkin.

Mazkur axborot qishloq xoʻjaligida oʻrtacha muddatli loyihalarni baholashda muvaffaqiyatli qoʻllanishi va sugʻurta himoyasi bilan birga

investitsiyalarga ma'lum daromadni kafolatlashi mumkin, bu esa qishloq xo'jaligiga va qayta ishlash jarayoniga xususiy kapitalni jalb etishga asos bo'ladi.

Agrosug'urtani amalga oshiruvchi kompaniyalar butun sug'urta sektori uchun qo'yida tutilgan soliq imtiyozlaridan foydalanishi mumkin. Xususan, 2008-yilning 1-iyunidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2008-yil 21-maydagi PQ-872-sonli qaroriga muvofiq sug'urtalovchilarga, dividendlar va foizlar ko'rinishida olingan daromaddan olingan foyda solig'ini to'lashda soliq imtiyozi berildi. Soliq imtiyozi natijasida bo'shab qolgan pul mablag'lari hududiy bo'linmalarni, birinchi navbatda, qishloq joylarda agentlik tarmoqlarini keng rivojlantirishga, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga maqsadli yo'naltirilishi belgilab qo'yilgan edi. Mazkur imtiyoz qishloq joylarda sug'urta infratuzilmasini rivojlantirishga va agrosug'urtada raqobatning kuchayishiga ko'maklashdi.

Qonunchilikda sug'urta xizmatlarining bir qismini davlat budjetidan bevosita moliyalashtirishni amalga oshirish imkonini beruvchi me'yor mavjud: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli qarori bilan Moliya vazirligi va «O'zagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasiga zamonaviy sug'urta turlarini, jumladan sug'urta mukofotining bir qismini dotatsiyalash bilan hosilni sug'urta qilishni joriy etish hisobiga ko'rsatilayotgan sug'urta turlari va hajmini oshirish vazifasi topshirilgan. Biroq amalda mazkur me'yor hali qo'llanmayapti.

Shuni ta'kidlash lozimki, birorta mamlakatda agrosektorda sug'urtaning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va xatarlarni boshqarishning samarali tizimi mavjud emas. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash doim budjetdan mablag' ajratilishini talab etadi.

6.3. «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining milliy sug'urta bozori rivojlanishidagi ahamiyati

O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan yirik sug'urta kompaniyalari qatoriga «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini ham kiritish mumkin. Mazkur kompaniya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 14-martdagi «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi

144-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy vazifasi O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslariga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat.

«Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi umumiy sug‘urta tarmog‘ining 17 klassi bo‘yicha sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish huquqini beruvchi litsenziyaga ega.

Kompaniya ochiq aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil etilgan va 2013-yilning 1-yanvar holatiga uning ustav kapitali 8,2 mlrd so‘mga teng. Dastlab «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining aksionerlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, «Asaka bank» va «Ipak Yo‘li bank»laridan iborat bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ular safiga Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Aloqa bank kabi nufuzli korxonalar va moliya muassasalari kelib qo‘shildi. Bu o‘z navbatida, kompaniyaning investitsiyaviy nuqtayi nazardan jozibador ekanligini tasdiqlaydi.

«Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi respublikaning turli mintaqalarida keng qamrovli filial va bo‘limlariga ega bo‘lishiga qaramay, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining tumanlarida hamda yirik shaharlarida sug‘urta xizmatlarini sotish imkoniyatiga ega bo‘limlar tashkil etish ishini davom ettirmoqda. Jumladan, 2013-yilning 1-yanvar holatiga, kompaniya tizimiga kiruvchi 131 ta mintaqaviy bo‘linmalar, shu jumladan, 15 ta filial, 38 ta bo‘lim va 78 ta agentlik yuridik hamda jismoniy shaxslarga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatmoqda. 1000 ga yaqin sug‘urta agentlari korxonalar, tashkilot va jismoniy shaxslarga sug‘urta mahsulotlarini sotmoqdalar.

Kompaniya o‘z faoliyatini boshlagan davrda, ya‘ni 1997-yilda majburiy va ixtiyoriy sug‘urtaning 25 ta turini amalga oshirgan bo‘lsa, 2012-yil oxiriga kelib uning soni 80 taga yaqinlashdi. Keskin raqobat sharoitida kompaniyani rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermoqda. Kompaniya mamlakat miqyosida sug‘urta mukofotlarini to‘plash bo‘yicha mana o‘n yildirki kuchli beshtalik tarkibidan mustahkam o‘rin egallab kelmoqda.

«Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi majburiy sug‘urtaning aytarli barcha turlarini amalga oshirish huquqiga ega. Ayniqsa, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish sohalarida kompaniya va uning bo‘linmalari samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.

«Kafolat» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi qayta sugʻurta orqali koʻpgina xorijiy kompaniyalar bilan yaqin hamkorlik aloqalarini oʻrnatgan. Xususan, «VTA» ESK (Latviya), «Ингосстрах» ochiq aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi (Rossiya) bilan qayta sugʻurtalash faoliyatini amalga oshirish boʻyicha shartnomalar tuzgan.

Sugʻurta faoliyati bilan bir qatorda «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi investitsiya faoliyatini ham amalga oshirmoqda. Kompaniyaning vaqtincha boʻsh turgan mablagʻlari qimmatli qogʻozlarga, bank depozitlariga joylashtirilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Dastlab «Oʻzbekinvest» kompaniyasi nechanchi yilda va qanday nom bilan tuzilgan?

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi farmoniga asosan «Oʻzbekinvest» milliy sugʻurta kompaniyasi «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi sifatida qayta tashkil etilgan?

3. «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasining asosiy taʼsischilari kimlar va kompaniya ustav kapitalida ularning ulushi qanday?

4. Hukumat tomonidan «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi oldiga qanday vazifalar qoʻyilgan?

5. «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi qachondan beri Bern Ittifoqiga aʼzo hisoblanadi?

6. «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasining yutuqlari haqida nimalarni bilasiz?

7. «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi qaysi shoʻba korxonalarining taʼsischisi hisoblanadi?

8. «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasining xalqaro faoliyati toʻgʻrsida nimalarni bilasiz?

9. «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi qachon va qaysi hujjat asosida tuzilgan?

10. «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi qanday tashkiliy-huquqiy asoslarda tashkil etilgan?

11. «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasining asosiy faoliyat yoʻnalishlari, taʼsischilari haqida soʻzlab bering.

12. «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi qachon tashkil etilgan?

7-mavzu. MAHALLIY SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORI

7.1. Mahalliy sug‘urta xizmatlari bozori rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari.

7.2. Sug‘urtalovchilarning filiallari va bo‘limlari – mahalliy sug‘urta bozorining asosiy subyektlari sifatida.

7.3. Mahalliy sug‘urta xizmatlari bozori rivojlanishida majburiy sug‘urtaning roli.

7.1. Mahalliy sug‘urta xizmatlari bozori rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari

2008-yil 21-aprelda O‘zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida», 2009-yil 17 martda «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi qonunlarning qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi tufayli jamiyatda sug‘urtaning nufuzi oshdi. Eng muhimi, aholining sug‘urta tizimiga bo‘lgan ishonchi yanada oshdi. 2010-yil 26-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida» 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli qarori sug‘urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Mazkurga qarorga asosan 2011-2015-yillarda sug‘urta sohasini rivojlantirish bo‘yicha rejalar belgilab olindi. Ulardan eng asosiysi respublika hududlarida sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati so‘ngi yillarda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan qator farmon va qarorlarni qabul qildi. Ana shu farmon va qarorlarning hududiy sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirishidagi ahamiyatini inobatga olgan holda ularning mazmun-mohiyatiga atroflicha to‘xtalib o‘tishni lozim deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli qaroriga asosan «O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasini 2006-2010-yillarda rivojlantirish dasturi» tasdiqlandi.¹ Mazkur dasturga binoan, mamlakat hududlarida sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish ko‘lami va hajmini ko‘paytirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. Eng muhimi, 2006-yil 1-apreldan boshlab ayrim boshqa xizmatlar qatori sug‘urta xizmatlari ko‘rsatayotgan sug‘urta tashkilotlari uch yil muddatga daromad (foyda) solig‘i va yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etildi.

Shubhasiz, O‘zbekiston sug‘urta bozori, jumladan hududiy sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2007-yilning 10-aprelida qabul qilingan 618-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qaror asosida «2007–2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturi» ma’qullandi va unda «aholi va yuridik shaxslarni, ayniqsa biznesni sug‘urtalash sohasida, shuningdek, qishloq joylarda sug‘urtalovchi alohida bo‘linmalar va sug‘urta agentlari sonini ko‘paytirish hisobiga sug‘urta xizmatlari bilan qamrab olish darajasini oshirish»² dolzarb vazifa ekanligi belgilandi. Shuningdek, qarorda 2007–2010-yillarda sug‘urta kompaniyalari va ularning alohida bo‘linmalarini hamda sug‘urta agentlari sonini oshirish hisobiga aholi va yuridik shaxslarning, ayniqsa qishloq joylardagi aholining sug‘urta xizmatlari bilan to‘liq qamrab olinishini nazarda tutuvchi chora-tadbirlar belgilab olingan edi.

Hududiy sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida 2010-yilgacha bo‘lgan davrda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2007-yil 21-mayda qabul qilingan PQ-640-sonli qarori alohida o‘rin egallaydi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ushbu qarorga binoan «O‘zbekiston Respublikasida 2007–2010-yillarda xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning yangilangan asosiy parametrlari» tasdiqlandi. O‘zbe-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli qarori.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2007-yilning 10-aprelida qabul qilingan 618-sonli qarori.

kiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli qarorining 7-bandida koʻzda tutilgan soliq imtiyozlari sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari xizmatlariga ham tatbiq etildi. Yaʼni sugʻurta bozorining ishtirokchilari – sugʻurta agentlari, akturiylar, adjasterlar va syurveyerlar 2010-yilga qadar foyda va yagona soliq toʻlashdan ozod etildi.

Yuqorida qayd etilgan Prezident qarorlarining amaliy natijasi oʻlaroq, 2011-yilga kelib, sugʻurta kompaniyalarining soni 34 taga, hududiy boʻlinmalar soni 892 taga yetdi. Buni quyidagi jadval maʼlumotlaridan ham koʻrish mumkin.

7-jadval


2006–2010-yillarda hududiy sugʻurta xizmatlari bozori rivojlanishining asosiy koʻrsatkichlari¹

t/r	Koʻrsatkichlar	2006	2007	2008	2009	2010
1	Sugʻurta kompaniyalari soni	27	27	31	33	34
2	Hududiy boʻlinmalar soni	410	465	689	817	892
3	Sugʻurta agentlari soni	2872	3384	4999	6909	6700

Jadval maʼlumotlaridan yaqqol koʻrinib turibdiki, 2006-2010 yillarda sugʻurta kompaniyalari va ularning hududiy boʻlinmalari sonining muntazam oʻsib borish tendensiyasi kuzatilgan. Chunonchi, 2006-yilda mamlakatimizda jami 27 ta sugʻurta kompaniyasi va ularning 410 ta hududiy boʻlinmalari faoliyat koʻrsatgan boʻlsa, 2010-yilga kelib ularning soni mos ravishda 34 ta va 892 tani tashkil etgan. Bunga koʻp jihatdan 2008-yilda joriy etilgan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish va 2009-yilda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish tizimining amaliyotga tatbiq etilganligi taʼsir koʻrsatdi. Chunki ushbu majburiy sugʻurta turlarini amalga oshirish huquqini beruvchi asosiy shartlardan biri – sugʻurtalovchining mamlakatimizning barcha hududlarida oʻz filiallariga ega boʻlishi zarurligining belgilanganligi boʻldi.

Tahlil etalayotgan davrda bosh ofisi Toshkent shahrida joylashgan sugʻurta kompaniyalarining hududiy boʻlinmalari soni ham keskin oshganligini koʻrish mumkin. Masalan, 2006-yilda hududiy boʻlinmalar soni 410 tani tashkil etgan boʻlsa, 2010-yilga kelib ularning soni 892 taga yetgan. Bu holat quyida keltirilgan diagrammada yanada yorqinroq tasvirlangan (5-diagramma).

¹ Jadval Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



5-diagramma. 2006–2010-yillarda hududiy sug'urta xizmatlari bozori subyektlarining o'zgarish dinamikasi¹


Diagrama ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2010-yilda har bir sug'urta kompaniyasiga o'rtacha 26 tadan hududiy bo'linma to'g'ri kelgan. 2006-yilda bu ko'rsatkich 15 tani tashkil etgan. Ya'ni tahlil etilayotgan yillarda har bir sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan o'rtacha hududiy bo'linmalar sonida ijobiy o'zgarish yuz bergan.

Agar mamlakatimizning barcha hududlarida mavjud 34 ta sug'urta kompaniyasidan 9 tasi o'z filiallariga ega bo'lsa, har bir sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan hududiy bo'linmalar soni ancha yuqori bo'lishi oydinlashadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, 2005-yilda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha to'plangan yalpi sug'urta mukofotlari tarkibida Toshkent shahrining ulushi 80 foizdan yuqori bo'lgan. Ammo yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sug'urta bozorini rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan davlat dasturlari asosida so'ngi 5 yil davomida hududiy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish, respublika mintaqalarida sug'urta kompaniyalarining keng tarmoqlangan bo'limlarini tashkil etish yuzasidan e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi.

Buning natijasida, 2010-yilga kelib O'zbekiston bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari tarkibida hududlarning ulushi sezilarli darajada oshdi. Bu haqda quyidagi diagrammada ma'lumotlar keltirilgan.

¹ Diagramma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



6-diagramma. 2006–2010-yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozori bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari tarkibida hududlarning ulushi¹

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2006-yilda O‘zbekiston sug‘urta bozori bo‘yicha to‘plangan yalpi sug‘urta mukofotlari tarkibida hududlarning ulushi 30 foizni tashkil etgan. Agar buni raqamlarda ifodalaydigan bo‘lsak, tahlil etilayotgan davrda yalpi sug‘urta mukofotlari hajmi 49,7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning 14,9 mlrd so‘mi mamlakat hududlariga to‘g‘ri kelgan. 2009-yilda jami sug‘urta mukofotlari tarkibida hududlarning ulushi 42,3 foizni yoki 61,8 mlrd so‘mga teng bo‘lgan. Ammo diagrammada keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, 2010-yilda hududlarning sug‘urta mukofotlarini to‘plash bo‘yicha faolligi 2009-yilga nisbatan biroz pasaygan. Ya‘ni 2010-yilda hududiy sug‘urta bozorlarida to‘plangan sug‘urta mukofotlari hajmi yalpi sug‘urta mukofotlarining 40 foizini tashkil etgan.

Agar 2010-yilda O‘zbekiston sug‘urta bozori bo‘yicha to‘plangan sug‘urta mukofotlari miqdori 175,0 mlrd so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, uning 40 foizi, ya‘ni 70,0 mlrd so‘mi sug‘urta kompaniyalarining hududiy bo‘linmalari (Toshkent shahridan tashqari) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Qayd etganimizdek, 2010-yilda respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalarining hududiy bo‘linmalari soni 892 taga yetdi. Agar ularni hududlar kesimida tahlil etadigan bo‘lsak, umumiy holat quyidagi ko‘rinishni oladi (8-jadval).

¹ Diagramma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2006–2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha sug‘urtalovchilar bo‘linmalarining taqsimlanish dinamikasi¹

Respublika hududlari	2006	2007	2008	2009	2010
Toshkent shahri	37	47	77	76	78
Toshkent viloyati	36	35	63	69	75
Farg‘ona viloyati	38	41	61	71	78
Samarqand viloyati	37	41	56	66	74
Andijon viloyati	36	40	52	63	69
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	30	37	48	63	66
Buxoro viloyati	30	33	48	61	65
Qashqadaryo viloyati	29	31	47	64	70
Surxondaryo viloyati	31	37	47	57	58
Namangan viloyati	27	26	44	54	57
Xorazm viloyati	20	25	38	47	48
Navoiy viloyati	24	28	37	42	44
Jizzax viloyati	18	23	36	43	46
Sirdaryo viloyati	17	21	35	41	45
Jami:	410	465	689	817	892

Jadval ma’lumotlaridan ma’lumki, sug‘urta kompaniyalarining hududiy bo‘linmalari soni jihatidan Toshkent shahri, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari respublikamizda yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda mavjud sug‘urta bo‘linmalari soni 375 tani yoki hududiy bo‘linmalar jami sonining 42 foizini tashkil etgan. Sug‘urta kompaniyalarining hududiy bo‘linmalari soni bo‘yicha oxirgi beshtalik tarkibiga Namangan, Xorazm, Navoiy, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini kiritish mumkin. Ushbu viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan jami sug‘urta kompaniyalari bo‘linmalari soni 240 tani yoki umumiy miqdorning 26,9 foizini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida hududiy sug‘urta xizmatlari bozori rivojlanishining umumiy tendensiyalarini aniqlashda quyida keltirilgan jadval ma’lumotlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi (9-jadval).

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O‘zbekiston sug‘urta bozori bo‘yicha to‘plangan jami sug‘urta mukofotlari tarkibida hududlarning ulushi¹
(mln so‘m)

Hududlar	2006	2007	2008	2009	2010
Toshkent shahri	33757,7	50441,4	57656,8	84299,7	104400,0
Toshkent viloyati	2444,7	3165,2	4526,6	8327,7	10509,6
Andijon viloyati	1645,3	2501,0	3645,9	7889,4	7511,8
Farg‘ona viloyati	1692,5	2520,9	3548,2	7451,1	8143,2
Samarqand viloyati	1344,3	2009,0	2931,0	7158,9	6820,8
Buxoro viloyati	1739,0	3189,7	2576,0	6574,5	6542,4
Qashqadaryo viloyati	1201,9	1648,6	2301,0	3798,6	6751,2
Surxondaryo viloyati	1068,6	1723,9	2153,0	3506,4	3897,6
Namangan viloyati	1121,3	1416,0	1978,3	4236,9	4872,0
Navoiy viloyati	884,5	1241,7	1632,2	2629,8	3271,2
Xorazm viloyati	790,1	1070,2	1552,5	3214,2	3480,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	783,6	1119,6	1423,2	2775,9	4036,8
Sirdaryo viloyati	782,1	845,1	1087,0	2191,5	2157,6
Jizzax viloyati	447,0	681,2	1003,4	2045,4	1531,2
Jami	49 702,6	73 573,5	88 015,1	146100,0	173925,4

Jadval ma’lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatib turibdiki, tahlil etilayotgan yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozori bo‘yicha to‘plangan sug‘urta mukofotlari hajmi yuksak sur‘atlar bilan rivojlangan. 2006-yilda respublika sug‘urta bozori bo‘yicha jami 49702,6 mln so‘m sug‘urta mukofotlari to‘plashga erishilgan bo‘lsa, 2010-yil yakunlari bo‘yicha bu ko‘rsatkich 173925,4 mln so‘mga yoki 3,5 martaga oshgan. Bu o‘z navbatida respublika hududiy sug‘urta xizmatlari bozorida ham sug‘urta mukofotlari tushumi ko‘payganligidan dalolat beradi.

Agar jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni respublika hududlari miqyosida tahlil etadigan bo‘lsak, Toshkent shahri bu borada tengi yo‘q yetakchi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Masalan, 2006-yilda O‘zbekiston sug‘urta bozori bo‘yicha to‘plangan sug‘urta mukofotlarining 33757,7 mlrd so‘mi yoki 67,0 foizi Toshkent shahrida joylashgan sug‘urta kompaniyalari va ularning bo‘linmalari hissasiga to‘g‘ri keladi.

¹ Jadval O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bu tendensiya tahlil etalayotgan 2007–2010-yillarda ham kuzatilgan. Mamlakat sugʻurta bozorida Toshkent shahrining muhim va salmoqli oʻrin tutishini bir qator omillar bilan tushuntirish mumkin.

Birinchiidan, Toshkent shahrida biznes muhit, ishlab chiqarish va savdo operatsiyalari, transport va qurilish-montaj ishlari respublikamizning boshqa hududlariga qaraganda kuchli rivojlangan. Ikkinchiidan, mamlakatimizda faoliyat koʻrsatayotgan barcha sugʻurta kompaniyalarining bosh ofislari Toshkent shahrida joylashgan. Tabiiyki, bu holat misol uchun, «Oʻzbekiston havo yoʻllari» Milliy aviakompaniyasi, «Oʻzbekiston temir yoʻllari» Davlat aksiyadorlik temir yoʻl kompaniyasi kabi mijozlar bilan yirik miqdordagi sugʻurta shartnomalarini tuzishga asos boʻladi.

Tan olish lozimki, respublikamiz hududlarida faol sugʻurta xizmatlarini koʻrsatayotgan sugʻurta kompaniyalari tarkibiga «Oʻzagrosugʻurta», «Oʻzbekinvest» va «Kafolat» sugʻurta kompaniyalarini kiritish mumkin. Shuni eʼtiborga olgan holda mazkur kompaniyalarning hududiy faoliyatiga toʻxtalib oʻtishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

7.2. Sugʻurtalovchilarning filiallari va boʻlimlari – mahalliy sugʻurta bozorining asosiy subyektlari sifatida

2013-yil 1-yanvar holatiga Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatayotgan barcha sugʻurta kompaniyalarining bosh ofisi Toshkent shahrida joylashgan boʻlib, ular respublika mintaqalari doirasida sugʻurta xizmatlarini filial va boʻlimlari orqali amalga oshiradilar. Hozirgi kunda aksariyat sugʻurta kompaniyalari Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida oʻz filiallariga ega. Qoidaga koʻra, filiallar yuridik shaxs maqomiga ega emas. Filiallar faoliyatini soliqqa tortish nuqtayi nazaridan ular mahalliy soliq organlarida roʻyxatdan oʻtadilar va ularga tegishli hisobotlarni taqdim etib boradilar.

Shunisi eʼtiborliki, filial tomonidan qabul qilingan barcha majburiyatlar boʻyicha javobgarlik sugʻurta kompaniyasi zimmasiga yuklanadi. Filiallar oʻz faoliyatini kompaniya tomonidan berilgan ishonchnoma asosida tashkil etadi va bosh kompaniyaga hisobot beradi. Filial faoliyatini tashkil etish jarayonida bosh kompaniya ishtirok etadi, zarur pul mablagʻlari bilan taʼminlaydi, yaʼni filial faoliyatini toʻlaqonli yoʻlga qoʻyish uchun shart-sharoit yaratiladi. Kompaniya filialga

muayyan miqdordagi mulkka egalik qilish va pul mablag'lariga ega bo'lish imkoniyatini beruvchi vakolat beradi.

Sug'urta kompaniyasining filialiga rahbarlikni bosh kompaniya rahbari tomonidan tayinlanadigan direktor boshqaradi. Direktor vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda uning funksiyasini direktor o'rinbosari bajaradi. Filialning tarkibiy tuzilishi va shtatlar sonini direktor taqdimnomasiga ko'ra sug'urta kompaniyasi bosh direktori tasdiqlaydi.

Odatda, filiallarning asosiy vazifasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan sug'urta mahsulotlarini sotish, mahalliy sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil etish va shu asosda istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash, agentlik tarmoqlarini yaratish va kengaytirish hisobiga mahalliy sug'urta xizmatlari bozori infratuzilmasini rivojlantirishdan iborat bo'ladi. Shuningdek, filiallar bosh kompaniya tomonidan tasdiqlangan qoidalar, namunaviy sug'urta shartnomalari va polislari asosida yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzadi. Mazkur shartnomalar doirasida sug'urta qildiruvchilar tomonidan to'langan sug'urta mukofotlari tushumini nazorat qiladi.

Filiallar mahalliy sug'urta xizmatlari bozorida o'z mahsulotlarini sotar ekanlar, bu borada sug'urta qildiruvchilarni sohaga oid ma'lumotlar va yangiliklar bilan tanishtirish lozim. Ayniqsa, mijozlarga sug'urta tarif stavkalari asosida sug'urta mukofotlarini hisoblash, sug'urta hujjatlarini rasmiylashtirish va ularning saqlanishida amaliy ko'mak beradilar. Shuningdek, filiallar joylarda bosh kompaniya bilan kelishgan holda sug'urta hodisalari sodir bo'lish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan ogohlantirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish, sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va sug'urta qoplamasini to'lash to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga egadir.

Sug'urta kompaniyasining filiallari faoliyati ustidan umumiy nazoratni bosh kompaniya rahbari amalga oshiradi. Kompaniya bosh rahbari filial to'g'risidagi nizomni, uning tarkibiy tuzilishi va shtatini tasdiqlaydi, filial direktori bilan mehnat shartnomasini imzolaydi. Filial direktori filial to'g'risidagi nizom va kompaniya rahbari tomonidan berilgan ishonchnomaga muvofiq filial ishini tashkil etadi va nazorat qiladi.

Sug'urta kompaniyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi filial direktorlari filialning joriy faoliyatini tashkil etish bilan birga filial xodimlarini ishga qabul qilish va ularni ishdan bo'shatish huquqiga ega. Unga berilgan vakolatlar

doirasida filial direktori davlat hokimiyati idoralari, korxonalar va tashkilotlarda kompaniya nomidan ish yuritadi. Sugʻurta shartnomalari va boshqa xoʻjalik faoliyatini amalga oshirishda zarur boʻladigan shartnomalarni imzolash filial direktori tomonidan amalga oshiriladi. Bosh kompaniya bilan kelishgan holda filial direktori joylarda sugʻurta agentliklari va boʻlinmalarini tuzadi va oʻrnatilgan tartibda ularni tugatish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi.

Sugʻurta kompaniyasi filiallarining faoliyati bosh kompaniyaning Ichki auditi xizmati tomonidan belgilangan muddatlarda auditdan oʻtkaziladi. Ayrim sugʻurta kompaniyalari oʻz filiallari xodimlarining malakasini oshirish maqsadida doimiy asosda faoliyat koʻrsatuvchi oʻquv kurslarini tashkil etadilar. Masalan, «Oʻzbekinvest» eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi, «Oʻzagrosugʻurta» va «Kafolat» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyalarida oʻquv markazlari mavjud boʻlib, ularda hududiy filiallar va boʻlinmalarining xodimlari oʻz malakalarini oshiradi.

7.3. Mahalliy sugʻurta xizmatlari bozorining rivojlanishida majburiy sugʻurtaning roli

Maʼlumki, majburiy sugʻurta ijtimoiy himoya tizimining muhim boʻgʻinlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning bozor shart-sharoitlari asosida rivojlanishida sugʻurtaning majburiy turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, majburiy sugʻurta oʻzida nafaqat ijtimoiy himoya elementlarini namoyon etadi, balki bozor munosabatlari xos boʻlgan jihatlarni ham ifodalaydi. Amaliyotda majburiy sugʻurtaning ikki turi uchraydi. Birinchisi, bevosita mijozlarning toʻlagan sugʻurta mukofotlari hisobidan amalga oshiriladigan majburiy sugʻurta, ikkinchisi sugʻurta mukofoti toʻlovi davlat budjeti mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladigan majburiy davlat sugʻurtasi.

Majburiy sugʻurtaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini eʼtiborga olgan holda 2008-yil 21-aprelda «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.¹ Qonun 41 ta moddadan iborat boʻlib, unda mazkur qonunning maqsadi, asosiy tushunchalar, majburiy sugʻurtaning asosiy prinsiplari, majburiy sugʻurtani amalga

¹ «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi qonuni. Oʻzbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari toʻplami. –T.: Adliya vazirligi, 2008-yil 17-son.

oshirish shartlari va tartibi, sugʻurta hodisalari boʻyicha zararning oʻrnini qoplash, kompensatsiya toʻlovlari, majburiy sugʻurta boʻyicha toʻlovlarni kafolatlash kabi boblar mavjud. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur qonunning 41-moddasida «Ushbu qonun rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran olti oy oʻtganidan keyin kuchga kiradi», deb koʻrsatib oʻtilgan edi.¹

Qonun qabul qilingandan soʻng uni amalga oshirishni taʼminlashga qaratilgan Hukumat qarorini qabul qilishga zarurat tugʻildi va 2008-yilning 26-iyunida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»gi 141-sonli qaror qabul qildi. Mazkur qarorga asosan «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish qoidalari» tasdiqlandi.² Shuningdek, qarorda Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasini tashkil etish va uning asosiy vazifalari koʻrsatib oʻtilgan. Eng muhimi, mazkur qaror asosida majburiy sugʻurtani amalga oshirish huquqini olish uchun sugʻurtalovchilarga muayyan talablar belgilandi. Ular quyidagilardan iborat:

- Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish huquqini olish uchun sugʻurtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori qonun hujjatlarida belgilangan meʼyordan kam boʻlmasligi kerak.

- Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish huquqini olish uchun sugʻurtalovchilar Qoraqalpogʻiston Respublikasida, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida majburiy sugʻurta shartnomalarini tuzish, jabrlanuvchi (uning merosxoʻri yoki huquqiy vorisi)ning sugʻurta toʻlovlari toʻgʻrisidagi talablarini koʻrib chiqish va sugʻurta toʻlovlarini amalga oshirish vakolati berilgan oʻz filiallariga va boshqa alohida boʻlinmalariga ega boʻlishi shart.

Davlat tomonidan majburiy sugʻurtani amalga oshirishda sugʻurtalovchilarga nisbatan bunday talabning oʻrnatilishi bejiz emas, albatta. Buni shu bilan izohlash mumkinki, majburiy sugʻurta butun Oʻzbekiston hududini qamrab oladi va yoʻl-transport hodisasi mamla-

¹ «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari toʻplami. –T.: Adliya vazirligi, 2008-yil, 17-son.

² Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 141-sonli qarori. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari toʻplami. –T.: Adliya vazirligi, 2008-yil, 26-27-son.

katimizning qaysi joyida sodir bo'lishidan qat'iy nazar, yuridik yoki jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zarar, transport vositalari egasining fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urtalovchi tomonidan jabrlanuvchiga zarar qoplab berilishi lozim.

«UzReport.com» internet portali ma'lumotlariga ko'ra, 2011-yilda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha jami 40,0 mlrd so'm miqdorida sug'urta mukofotlari kelib tushgan bo'lib, bu o'tgan yilning tegishli ko'rsatkichidan 18,6 foizga ko'pdir. Yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash uchun vakolatli sug'urtalovchilar tomonidan jami 6,2 mlrd so'm sug'urta qoplamalari to'langan.

Ta'kidlash joizki, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishni joriy qilish kutilgan natijani berdi. Mustaqil tahlilchilarning fikriga ko'ra, majburiy sug'urtaning amaliyotga joriy etilishi mamlakat miqyosida sug'urtaning aholi barcha qatlamlari orasiga kirib borishiga va shu orqali sug'urta madaniyatini oshishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, majburiy sug'urtani amaliyotga joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishi oqibatida jabrlangan shaxslarni ijtimoiy himoyasini kafolatlaydigan samarali tizimni shakllantirish edi. Tabiiyki, o'tgan yillar tajribasi qo'yilgan maqsad naqadar to'g'ri ekanligini ko'rsatdi.

Bugungi kunda mamlakat hududlari sug'urta bozori rivojlanishi uchun g'oyat katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, bozorda o'z mavqeyi va nufuzini mustahkamlamoqchi bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha mamlakat hududlarida o'z bo'linmalarini tashkil etishga va ularning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga katta e'tibor qaratishlari zarur. Shuningdek, aholining turli axborot manbalari, xususan, «Internet» global tarmog'i orqali sug'urta faoliyatiga oid axborotlar olish imkoniyati kengaydi. 2009-yildan boshlab respublikamizda «Sug'urta» jurnalining chop etilishi, «UzReport.com» internet portalida O'zbekiston sug'urta bozorida sodir bo'layotgan yangiliklarni muntazam e'lon qilib borilishi sug'urta bozorining umumiy holati bilan bog'liq axborotlarning foydalanuvchilar tomonidan olinishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ammo mamlakatimiz hududlarida sug'urta bozori va uning rivojlanishi bilan bog'liq axborotlar yetarli emas. Shuni e'tiborga olgan holda sug'urtalovchilarning mintaqaviy filiallari

faoliyatiga doir ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Nazorat uchun savollar

1. Mahalliy sug'urta xizmatlari bozori, deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat tomonidan mahalliy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun nima ishlar qilindi?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli qarorining mahalliy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishdagi ahamiyati nimada?
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2007-yilning 10-aprelida qabul qilingan 618-sonli qarorida mahalliy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan edi?
5. Sizning nazaringizda qaysi hududlarda sug'urta bozori nisbatan kuchli, qaysi hududlarda sust rivojlangan? Bunga asosiy sabablarni keltiring.
6. Mahalliy sug'urta bozorlarida asosiy professional ishtirokchilar kimlar?
7. Sug'urta kompaniyalarining hududlardagi filiallari faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
8. Sug'urta kompaniyasi va uning filiallari o'rtasidagi munosabat qanday hujjatlar asosida tartibga solinadi?
9. Mahalliy sug'urta xizmatlari bozorining rivojlanishida so'ngi yillarda joriy etilgan majburiy sug'urta turlarining roli qanday?

8-mavzu. O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA VOSITACHILIK FAOLIYATI

- 8.1. Sug‘urta bozorida vositachilarning tutgan o‘rni va ahamiyati.***
- 8.2. Sug‘urta agenti haqida tushuncha va uning asosiy vazifalari.***
- 8.3. Sug‘urta brokeri va uning faoliyatini litsenziyalash tartibi.***

8.1. Sug‘urta bozorida vositachilarning tutgan o‘rni va ahamiyati

Sug‘urta vositachilari sug‘urta xizmatlarining sug‘urta kompaniyasi tomonidan iste‘molchi tomonga harakatlanishida, shuningdek, sug‘urta shartnomasini tuzish, bajarish, takomillashtirish va bekor qilish bosqichlarida sug‘urta xizmatlari iste‘molchisiga maslahat yordamini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadilar. Sug‘urta vositachilari faoliyatining muhim jihatlari – sug‘urta xizmatlarini harakatlantirish va xizmat iste‘molchilariga maslahat yordami ko‘rsatish vazifalarini hisobga olib, vositachilarning ikki toifasi to‘g‘risida gapirish mumkin. Ularning yuridik maqomidan o‘z faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishidan kelib chiqqan holda, yuqorida ko‘rsatilgan vazifalar ko‘proq yoki kamroq namoyon bo‘ladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonunining 5-moddasida sug‘urta brokeri, qayta sug‘urta brokeri va sug‘urta agenti sug‘urta vositachilari hisoblanadilar, deb ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonunida sug‘urtalovchilar sug‘urta agenti sifatida vositachilik faoliyatini amalga oshirishlariga yo‘l qo‘yilishi ta‘kidlangan. Sug‘urta brokerlarini davlat ro‘yxatiga olish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi va ular qonunchilikda belgilangan barcha tashkiliy-huquqiy shakllarda tuzilishi mumkin. Sug‘urta agentlari esa yuridik shaxs maqomiga ega tashkilot tuzish yoki jismoniy shaxs sifatida vositachilik faoliyatini amalga oshirishlari mumkin. Ikkala holatda ham sug‘urta agentlari sug‘urtalovchi bilan agentlik bitimlarini tuzishlari talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta vositachilarining faoliyati quyidagi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi:

- O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 413-sonli qarori.

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 28-yanvardagi 19-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida davlat ro‘yxatiga olingan «Sug‘urta agentlari to‘g‘risidagi Nizom».

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2010-yil 10-noyabrda tasdiqlangan «Sug‘urtalovchilarning sug‘urta vositachilari bilan o‘zaro munosabatini tartibga soluvchi namunaviy qoidalar».

Sug‘urta vositachilarining faoliyati sug‘urta shartnomalarini tuzish va uning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha faoliyatni tashkil etishdan iborat.

8.2. Sug‘urta agenti haqida tushuncha va uning asosiy vazifalari

O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonunining 9-moddasi «Sug‘urta agenti» deb ataladi hamda unda sug‘urta agentining vazifalari aniq belgilab berilgan.¹ Sug‘urtalovchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug‘urta agenti hisoblanadi. Sug‘urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug‘urta agenti bo‘la olmaydilar. Sug‘urta agenti o‘z faoliyatini sug‘urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi.

Sug‘urta agenti faqat o‘zi bilan topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzgan sug‘urtalovchi reyestriga kiritilganidan keyin o‘z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Sug‘urta agenti:

- sug‘urta agentining tegishli turdagi sug‘urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lmagan sug‘urtalovchilar nomidan sug‘urta shartnomalari tuzishiga;

- agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududida sug‘urta bo‘yicha sug‘urta agentining O‘zbekiston Respubli-

¹ O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»ni qonuni (qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan birga). 2002- yil 5-aprel.

kasi hududida belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan chet el sug'urta tashkilotlari nomidan sug'urta shartnomalari tuzish bilan bog'liq bo'lgan vositachilik faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi. Sug'urta agenti – jismoniy shaxs o'z nomiga, to'lovlar naqd pullar bilan amalga oshirilganida esa yaqin qarindoshlari (otasi, onasi, xotini, eri, o'g'li, qizi, opa-singillari va aka-ukalari) nomiga sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlar yozishga, shuningdek, o'z foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga va bunda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish ko'rishga haqli emas.

Sug'urta agenti quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida sug'urtaning har qanday turi, shu jumladan, majburiy sug'urta turlari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

- sug'urtaga qabul qilinayotgan sug'urta tavakkalchiligini baholashda, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovini to'lashda va sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofotini to'liq hajmda hamda sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lashida zarur ko'mak ko'rsatish;

- sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek, sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar olish;

- sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

- sug'urta qildiruvchidan qabul qilib olinayotgan tavakkalchiliklar to'g'risida sug'urtalovchiga to'liqroq axborot berish maqsadida barcha uchun ochiq bo'lgan manbalardan tavakkalchilik va sug'urta qildiruvchi to'g'risida sug'urta qildiruvchining shaxsiy hayotiga aralashmagan holda ma'lumotlar to'plash.

Sug'urta agenti qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta agenti:

- sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

- sug'urta shartnomasi tuzishda va sug'urta to'voni to'lashda hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirishga ko'maklashishi;

- sug'urta tariflari, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug'urta shartlari haqida litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdor-

lari, sug'urta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek, sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida axborotga ega bo'lishi;

- sug'urta shartnomasini rasmiylashtirishda sug'urta qildiruvchi to'g'risida zarur axborotga ega bo'lishi, unga sug'urta tavakkalchiligini pasaytirish va sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan aniq tadbirlarni amalga oshirishni taklif etishi;

- sug'urta qildiruvchilarning so'roviga ko'ra ularga sug'urtaning amaldagi shartlari to'g'risida axborot berishi;

- sug'urta shartnomalarini belgilangan tartibda tuzishi va yangi muddatga o'z vaqtida qayta rasmiylashtirishi;

- tuzilgan sug'urta shartnomalari va olingan sug'urta mukofotlari summalari hisobini belgilangan shaklda yuritishi;

- sug'urta hujjatlarining saqlanishini ta'minlashi;

- mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etgan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi;

- sug'urta shartnomasining amal qilish muddati mobaynida tavakkalchilik shart-sharoitlarining jiddiy ravishda o'zgarishiga taalluqli axborotni sug'urtalovchi o'z vaqtida olishini, shuningdek, sug'urta e'tirozlari yuzaga kelganda hamda ularni tartibga solish jarayonida sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida axborotning o'z vaqtida almashinishini ta'minlashi;

- tegishli bitim mavjud bo'lgan taqdirda, sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan sug'urta to'lovlari to'lanishini tashkil etishi shart.

Sug'urta vositachilarining faoliyati ikkita asosiy vazifani bajarishga qaratilgan – sug'urta xizmatlarini sug'urtalovchidan iste'molchi tomoniga harakatlantirish va xizmat iste'molchilariga maslahat yordami ko'rsatish. Agentning huquqiy maqomini hisobga olgan holda uning faoliyati aynan birinchi vazifani bajarish bilan ajralib turadi, holbuki, hayotni sug'urtalash xizmatlarini harakatlantirayotgan chog'ida agent vositachilik vazifalari bilan bir qatorda maslahat xizmatini ham ko'rsatadi. Bunda hayotni sug'urtalashga oid sug'urta mahsulotlarini harakatlantirishni tashkil etish tajribasida sug'urta maslahatchisi tushunchasining ishlatilishi odatdagi hol, faqat bu o'z huquqiy maqomiga ko'ra sug'urta agenti bo'lib, maqsadga erishish yo'lidagi faoliyatida maslahat berishdan ham bir vosita sifatida foydalanadi, zarur darajada mahorat va malakaga ega bo'lsa, ehtimoldagi iste'molchining

sug'urta mahsulotini xarid qilish bo'yicha talablarini va maylini aniqlab olish, unga nihoyatda mos keladigan xizmat turini hamda sug'urta shartnomasini tuzish, o'zgartirish (takomillashtirish) va bekor qilish shartlarini tavsiya etish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Yuridik shaxs bo'lgan sug'urta agentlari bu – ko'pincha, asosiy faoliyat turi sifatida sug'urta vositachiligidan boshqa faoliyat bilan shug'ullanadigan, ammo o'z mijozlari bazasi mavjudligi sababidan o'z tovarlari, ishlari, xizmatlari bilan bir qatorda sug'urta xizmatlarini ham tavsiya qiluvchi kompaniyalar yoki maklerlik agentliklaridir. Yuridik shaxs – agentlar sifatida ish yurituvchi birinchi turdagi kompaniyalarga misol tariqasida sayyohlik agentliklarini, avtosalonlarni va avtota'mirlash ustaxonalarini (avtoservislarni), notarius idoralarini, adliya (advokatlik) byurolarini va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Ikkinchi turdagi kompaniyalar – bu mazkur kompaniya joylashgan mamlakat qonunchiligida ko'zda tutilgan muayyan tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilgan yuridik shaxslar (xorijiy korporatsiya) bo'lib, aynan sug'urta kompaniyalariga agentlik tariqasida sug'urta vositachiligi xizmatlarini ko'rsatish maqsadida tuziladi.

Sug'urta agentini mukofotlash, qoidaga ko'ra, qayd etilgan stavkalar (masalan, foizlarda) asosida bajariladi va sotilgan sug'urta xizmatlari hajmiga bog'liq bo'ladi.

Xorijiy va Rossiya tajribasida agentlik tarmoqlarini tuzishning uchta asosiy andozasi mavjud bo'lib, sug'urtalovchi ulardan alohida-alohida ham, muayyan jamlikda ham foydalanishi mumkin:

a) oddiy yoki gorizontol andoza, bunda sug'urta kompaniyasi barcha va har bir agentning faoliyatini nazorat qilib turadi, bundan tashqari, sug'urta kompaniyasi o'zining shtatdagi xodimlari vositasida agentlar uchun o'quv mashg'ulotlari va doimiy maslahat ishini tashkil etadi;

b) piramidasimon andoza, bunda sug'urta kompaniyasi bosh agentlar bilan shartnoma tuzadi, ular esa o'z navbatida, bitta-ikkita va undan ham ko'proq kichik agentliklar pog'onasini tashkil etishga haqli. Tajribada 4 – 7 pog'onali ana shunday andozalar uchraydi. Komission mukofot bunday andozada barcha pog'onalarga taqsimlanadi, bunda pog'ona yuqorilashgani sayin agentning mukofot stavkasi shunchalik pasayib boradi. Shuningdek, pog'ona qanchalik yuqori bo'lsa, pastdagilarga baland darajada turuvchi bunday agentning polislar sotish ishiga mayli shunchalik kam bo'ladi, chunki unga nisbatan pastda turuvchi tizim uning uchun xuddi shu ishni bajarib berish uchun tuzilgandek tuyuladi;

d) ko'p pog'onali andoza, bunda sug'urtalanuvchi, sug'urta xizmatini sotib olar ekan, o'zi ham agentga aylanadi va boshqa ehtimoldagi iste'molchilarga sug'urta mahsulotlarini sotish huquqini qo'lga kiritadi.

Tajribada agentlarning ikki turini uchratish mumkin, «bog'langan» yoki «tegishli» agentlar va mustaqil agentlar. Avvalgilari faqat bitta sug'urtalovchining manfaatlariga vakolatli bo'lsa, ikkinchilari ikkita yoki undan ko'proq sug'urta kompaniyalarining sug'urta mahsulotini, shu jumladan, turli sug'urta kompaniyalarining bir xil mahsulotlarini harakatlantirish vakolatini olgan bo'lishlari mumkin.

Agentlarning birinchi turi sug'urta xizmatlarini harakatlantirishning Yevropadagi tajribasiga xos, ikkinchisi esa – amerikacha. «Tegishli» agent (tied agent) Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sug'urta xizmatlarini sotishning ana'naviy tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Sug'urta vositachilari to'g'risidagi Yevropa Direktivasi (77/92/EES) direktivalarning birinchi avlodini boshlab bergan sug'urta sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlar toifasiga kiradi. U Yevropada sug'urta xizmatlarini sotish tizimining rivojlanishi uchun kuchli turtki bo'lib xizmat qildi va Yevropa Ittifoqida agentlar va brokerlarning vositachilik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish erkinligi uchun zamin yaratib berdi. Ammo YeI sug'urta faoliyatini tartibga solishga oid adabiyotlarda keyingi vaqtda sug'urta kompaniyalarining mazkur sotish kanalidan voz kechishga intilishi kuchayib borayotganligi ta'kidlanmoqda, bunda voz kechish uchun quyidagi sabablar vaj bo'lib xizmat qilmoqda:

a) agentlik tarmog'ini saqlash xarajatlarining yuqori darajada ekanligi;

b) agentlarning sug'urta kompaniyasi bilan munosabatlarda ham, sug'urta xizmatlarining iste'molchilari bilan bo'lgan munosabatlarda ham tez moslanuvchanlik xususiyatiga ega emasligi. Bundan tashqari, agentlarning maslahat va ekspert o'tkazish salohiyatlari ancha cheklanganligi ta'kidlanadi, bu esa, xususan, sotuv tarmog'i keng yoyilgan hayotni sug'urtalash bo'yicha sug'urta mahsulotlarini harakatlantirishda nihoyatda muhim omil hisoblanadi.

Sug'urta xizmatlarini sotishning muqobil yo'nalishlarini xorijiy sug'urta kompaniyalari to'g'ridan to'g'ri sotuv resurslarida, shuningdek, banklar va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlik qilishda deb hisoblamodalar.

Iste'molchi telefon orqali sug'urta kompaniyasiga murojaat

qilishidan foydalanib sug'urta mahsulotini sotish, Internet yordamida sug'urta mahsulotlarini sotib olish va hokazo to'g'ridan to'g'ri sotuv usulini amalga oshirishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Shu orqali sug'urta kompaniyalari sug'urta mahsulotlarini harakatlantirishga, ayniqsa, ommaviy sug'urta mahsulotlari bo'yicha o'z xarajatlarini optimallashtiradilar.

Sug'urta mahsulotlarini bank orqali tarqatishning strategiyasi quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi:

a) *bancassurance* deb nom olgan bank sug'urtasi, yoki bankka qo'shimcha kredit resurslarini, shuningdek, uning o'zi bevosita taqdim etmaydigan xizmatlarni jalb etish imkonini beradigan usul bo'lib, ipoteka kreditlari polisini, hayotni sug'urtalash, jumladan, hayotni kredit orqali sug'urtalash polisini, baxtsiz hodisalar sug'urtasi polisini sotish kabilardan kelib chiqadigan xatarlardan sug'urtalash chog'ida to'g'ri keladi;

b) *assurfinanse* deb nom olgan – assyurfinans yoki sug'urtalovchi tomonidan moliyaviy xizmatlarning taqdim etilishini ko'zda tutish;

d) *aralash strategiya* – bank sug'urtasi va assyurfinans vositalarini qo'shib olib borish usuli *allfinanse* deb ataladi va o'zida banklar bilan sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi, xuddi shuningdek, moliya xizmatlarini ko'rsatuvchi barcha subyektlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib borayotganini aks ettiradi.

Banklar va sug'urta kompaniyalarining o'zaro hamkorligining: sug'urta xizmatlarini bank mahsulotlariga kiritish, fundirlashgan sug'urta trastidan, sug'urta depozit jamg'armasidan foydalanish, bankning jismoniy va yuridik shaxslarga kredit ajratish dasturiga sug'urtalovchi xizmatlarini ham kiritish kabi boshqa shakllari ham mavjud.

Shunday qilib, bank (yoki boshqa moliya institutlari) va sug'urta kompaniyalari birgalikda aholining ehtiyojlarini taqdim etilayotgan xizmatlar hajmiga ko'ra ham, narxiga ko'ra ham to'liqroq mos keladigan moliya mahsulotini ishlab chiqish va bozorga chiqarish imkoniyatiga ega.

8.3. Sug'urta brokeri va uning faoliyatini litsenziyalash tartibi

Sug'urta brokerlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunning 7-moddasi orqali huquqiy tartibga solinadi. Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga

binoan sugʻurta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish boʻyicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sugʻurta brokeri hisoblanadi. Sugʻurta brokerining faoliyati sugʻurta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qoʻshib olib borilishi mumkin emas, qayta sugʻurta brokerining faoliyati bundan mustasno. Sugʻurta brokeri sugʻurtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas. Sugʻurta brokeri oʻzi bilan sugʻurta qildiruvchi oʻrtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar koʻrsatadi.

Bundan tashqari, «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunning 8-moddasida qayta sugʻurta brokerining faoliyat yoʻnalishlari boʻyicha huquqiy normalar keltirilgan. Oʻz nomidan va qayta sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sugʻurtalovchining topshirigʻiga binoan qayta sugʻurta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish boʻyicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sugʻurta brokeri hisoblanadi. Qayta sugʻurta brokeri sugʻurtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas. Qayta sugʻurta brokeri oʻzi bilan sugʻurta qildiruvchi oʻrtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar koʻrsatadi.

Sugʻurta va qayta sugʻurta brokerlari quyidagi huquqlarga ega:

– sugʻurtaning (qayta sugʻurta qilishning) har qanday turi boʻyicha vakolatlar doirasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

– sugʻurta (qayta sugʻurta qilish) shartnomasi tuzilgan taqdirda, sugʻurtalovchini (qayta sugʻurtalovchini) tanlash;

– sugʻurtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondining miqdorlari, sugʻurta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar toʻgʻrisida, shuningdek, sugʻurtalovchining toʻlovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa koʻrsatkichlar haqida maʼlumotlar olish;

– ekspert va maslahat xizmatlari koʻrsatish.

Sugʻurta va qayta sugʻurta brokerlari qonun hujjatlariga hamda oʻzlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishlari mumkin.

Sugʻurta va qayta sugʻurta brokerlari:

– sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sugʻurta shartnomasini tuzish va ijro etish boʻyicha toʻliq, ishonchli hamda xolisona axborotni mijozlarning soʻrovlariga koʻra taqdim etishi;

– mijozning tijorat sirini va boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi shart.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlarining zimmasida qonun hujjatlariga hamda o'zlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Broker quyidagi hollarda vositachilik faoliyatini olib borishga haqli emas:

– agar sug'urta brokerlari ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnomaga ega bo'lmasa;

– sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyati uning uchun yagona, beistisno faoliyat turi bo'lib hisoblanmasa;

– uning sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyati xorijiy sug'urtalovchi foydasiga olib borilayotga bo'lsa;

– u sug'urta tashkilotining kapitali qatnashchisi bo'lib hisoblansa, aksiyalar yoki qatnashuvning boshqa shakllariga egalik qilayotgan bo'lsa.

Broker shuningdek, xatarni sug'urta tashkiloti belgilariga ega bo'lmagan (masalan, sug'urta himoyasi talab qilinadigan sug'urta turi bo'yicha faoliyat olib borish litsenziyasi mavjud bo'lmagan)sug'urta kompaniyalariga joylashtirishga haqli emas.

Broker sug'urta sohasida vositachilik faoliyatini olib borishi munosabati bilan ko'rsatishi mumkin bo'lgan xizmatlari ko'lami nuqtayi nazaridan, faqat vositachigina bo'lib qolmay, u sug'urtalanuvchining, qayta sug'urtalanuvchining, hatto sug'urtalovchining ham maslahatchisidir. Aynan u yoki bu sug'urta turi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borishi, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug'urta dasturlari samaradorligi nuqtayi nazaridan tekshirishi va ulardan sug'urta qoplamasi, sug'urtalash narxi, qoplash geografiyasi jihatidan va hokazo eng optimalini tanlab olishi mumkin. U sug'urta hodisasi sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda, sug'urtalanuvchining sug'urta talablarining qondirilishida, turli xildagi ekspertizalarning o'tkazilishida ishtirok etishi mumkin, shuningdek, u talablarning qondirishini hal etish uchun talofat komissiyasining, syurveynerning va boshqa mutaxassislarning jalb etilishini tashkil etishi mumkin.

Broker tor ma'noda ham, keng ma'noda ham faqat ma'naviy jihatdan javobgar bo'lishi mumkin degan fikr mavjud. Ammo bunga to'liq qo'shib bo'lmaydi. Broker o'zi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ish yuritadi, bunday shartnomada esa,

brokerning shartnomaviy talablarni bajarmagani uchun javobgarligini ko'zda tutuvchi qoidalar kiritilishi mumkin. Qolaversa, vositachilik xizmatini ko'rsatuvchi broker sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi vositachi bo'lib harakat qilar ekan, bozorning malakali qatnashchisi sifatida ham javobgarlikka ega. Shunday qilib, broker o'zining sug'urta vositachiligi faoliyati davomida yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari tufayli mijozga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kasbiy javobgarligi yuzasidan ham sug'urta shartnomasi tuzishi mumkin.

Ayni chog'da faqat moddiy emas, balki ma'naviy jihatdan ham g'arb davlatlaridagi sug'urta va qayta sug'urta brokerlariga yuklatilgan javobgarlik darajasi shunchalik yuqoriki, bu narsa ularning ishdagi obro'-e'tiborlariga, demakki, ularning sug'urta bozorida muvaffaqiyatli ishlashlariga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu sababli ularning ko'pchiligi mijoz ba'zi qiyinchiliklarga ko'ra vaqtinchalik navbatdagi sug'urta badalini to'lay olmaydigan holatlar uchun maxsus zaxira tashkil etib qo'yadilar. Shubhasiz, bu kabi o'zaro qo'llab-quvvatlash sug'urtalanuvchi tomonidan suiiste'mol qilinmaydi, chunki uning sof vijdonli sug'urtalanuvchi sifatidagi obro'-e'tiboriga putur yetadi.

Qisqacha aytganda, brokerning bozorning boshqa subyektlari oldidagi javobgarligi borasidagi huquqiy maqomi quyidagilardan iborat. Sug'urta brokeri topshiriq bergan sug'urtalanuvchining oldida xatarlarni ishonchli sug'urta kompaniyasida joylashtirilishi, sug'urta holati sodir bo'lgan taqdirda qoplama bilan ta'minlanishi, shuningdek, mijozga yetkazib berilayotgan mijozning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarning to'la va haqqoniyligi uchun javobgarlikka ega. Broker shuningdek, sug'urta kompaniyasi oldida ham o'zi yetkazib berishi lozim bo'lgan sug'urtalash obyektlari va xatar darajasi to'g'risidagi va keyingi barcha muhim o'zgarishlar to'g'risidagi axborotlarning haqqoniyligi uchun ham javobgardir. Bundan tashqari broker sug'urta nazorati idoralariga qonunchilikka binoan o'zi yetkazib berishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun ham javobgar bo'lib hisoblanadi.

Shunga qaramay, ta'sis hujjatlarida broker faoliyatining rang-barangligi ko'zda tutilishi mumkin. Masalan, sug'urtalash bo'yicha mijozlarni qidirib topish va jalb etish; sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish; sug'urta to'lovini olish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish; mijozning topshirig'iga binoan sug'urta yoki qayta shartnomasi bo'yicha sug'urta

xatarini joylashtirish; ekspert va maslahat xizmatlarini ko'rsatish; sug'urta xatarini baholash; ko'rilgan zararni baholash va sug'urta to'lovlari miqdorini aniqlash bo'yicha talofat komissiyalari xizmatini tashkil etish kabilar.

Yuridik shaxs bo'lgan brokerlar shuningdek, sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta badallarini inkassatsiya qilish va sug'urta to'lovlarini tashkil etish (sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan) amalga oshirishlari mumkin. Sug'urta brokeri sug'urtalanuvchining topshirig'iga ko'ra xatarni bitta sug'urta shartnomasi asosida bitta sug'urta tashkilotida ham, bir necha sug'urta tashkilotida ham joylashtirishi mumkin.

Sug'urta brokeri mustaqil vositachi o'laroq, sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra sug'urta shartnomasini o'z nomidan imzolash huquqiga ega emas. U amalda muayyan sug'urtalovchining (muayyan sug'urtalovchilarning) sug'urta xizmatini sotish bilan shug'ullanadi. Yoxud muayyan sug'urtalanuvchiga (muayyan sug'urtalanuvchilarga) maqbul keladigan sug'urta xizmatini tanlab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrda qabul qilingan «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 413-sonli qarori asosida sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining faoliyatini litsenziyalash tartibi tasdiqlangan.

Sug'urta brokerlari litsenziya olish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

– yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni mo'ljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi (uning bir qismi) ko'rsatilgan litsenziya berish to'g'risida ariza;

– yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning va uning ro'yxatdan o'tkazilgan ta'sis hujjatlarining nusxalari;

– litsenziya talabgorining rahbari va bosh buxgalterining sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan malaka talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjatlar (so'rovnoma, oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomning yoxud vakolatli davlat organining xorijiy ta'lim muassasasida olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning ekvivalentligini

e'tirof etish to'g'risidagi guvohnomasining notarial tasdiqlanan nusxalari hamda mehnat daftarchasi);

– litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

– ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma'lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar).

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi. Ushbu bandning «a» va «b» kichik bandlarida ko'rsatilgan hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi, litsenziya talabgorining rahbari tomonidan tasdiqlangan sug'urta qoidalari (shartlari) bundan mustasno.

Nazorat uchun savollar

1. Sug'urta vositachiga ta'rif bering.
2. Sug'urta vositachilari tarkibiga sug'urta bozorining qaysi professional ishtirokchilari kiradi?
3. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunida sug'urta vositachiligi haqida nimalar ko'rsatib o'tilgan?
4. Sug'urta brokeri deganda nimani tushunasiz?
5. Sug'urta brokerining huquq va majburiyatlari xususida to'xtalib o'ting.
6. Sug'urta brokerining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Sug'urta brokerlarining faoliyati nima uchun litsenziyalanadi?
8. Sug'urta agentining vositachilik faoliyatidagi o'rniga baho bering.
9. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunida sug'urta agentlari haqida qanday yuridik me'yorlar mavjud? Ularning mazmunini tushuntirib bering.
10. Sug'urtalovchi va sug'urta agenti o'rtasidagi munosabatlar qanday hujjat asosida tartibga solinadi?
11. Sug'urta agentining sug'urta brokeridan farqi nimada?
12. Qayta sug'urta brokeri tushunchasiga ta'rif bering.

9-mavzu. SUG‘URTA BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

9.1. Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv zarurligi.

9.2. Sug‘urta faoliyatining maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tartibga solinishi.

9.3. Sug‘urtalovchilar faoliyatini litsenziyalashning o‘ziga xos xususiyatlari.


9.4. Sug‘urta faoliyatini soliq orqali tartibga solish.

9.1. Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv zarurligi

Sug‘urta tashkilotlarining faoliyati boshqa turdagi xujalik subyektlari faoliyatidan keskin farq qiladi. Chunki ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta‘minlashda va sug‘urta hodisalari ro‘y berganda yetkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat sug‘urtalovchilar zimmasiga alohida mas‘uliyat yuklaydi va shuning uchun ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog‘i zarur.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko‘rsatishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug‘urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi. Masalan, Buyuk Britaniyada sug‘urta ishini Savdo va sanoat departamenti, Yaponiyada Moliya vazirligining sug‘urta bo‘limi, AQShda esa maxsus sug‘urta komissariatlari nazorat qilib boradi. Davlat bunday nazorat ishini olib borar ekan, avvalo, mamlakatning sug‘urta sohasiga taalluqli qonunlariga hamda boshqa me‘yoriy hujjatlariga asoslanadi. Sug‘urta va qayta sug‘urtalash kompaniyalari, sug‘urtaga ixtisoslashgan vositachilar davlat sug‘urta nazoratining obyektlari hisoblanadi.

Sug‘urta faoliyatini nazorat qilishni shartli ravishda 3 ta turga bo‘lish mumkin (7 -chizma).



7-chizma. Sug'urta faoliyatini nazorat qilish turlari

Chizmada ko'rsatilganidek, sug'urta nazorati maxsus vakolatli davlat organi, soliq organlari, alohida qonunlar asosida majburiy sug'urtalashni joriy qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziyalar berish sug'urta nazorati xizmatining eng asosiy vazifalaridan biridir. Litsenziya berish jarayonida sug'urta nazorati sug'urtalovchining bo'lajak faoliyatini dastlabki tekshiruvdan o'tkazadi. Ya'ni nizom jamg'armasi va o'z mablag'larining holati hamda bu mablag'larning tashkilot zimmasidagi majburiyatlariga o'zaro nisbati ko'rib chiqiladi. Sug'urta faoliyatiga litsenziya berishning zaruriyati sug'urtaning o'z mohiyatidan kelib chiqishini unutmazlik kerak. Chunki sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lashi lozim. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi organning bu boradagi ishlari nafaqat sug'urtalanuvchilar manfaatiga mos tushadi, balki butun davlatning manfaatlari yo'lida ham xizmat qiladi.

E'tirof etish lozimki, bugungi kunda mamlakatda sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya berish tartibi ishlab chiqilgan. Sug'urta tashkilotiga beriladigan litsenziyada bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan bir nechta sug'urta turlarini o'z ichiga oluvchi sug'urta klasslari ko'rsatiladi. Bundan tashqari, sug'urta kompaniyasi ishlab chiqqan biznes-rejada sug'urta tarifi stavkalarining to'g'ri hisoblanishiga alohida e'tiborni qaratish zarur. Negaki, noto'g'ri hisob-kitob qilingan tarif pirovard natijada, sug'urta tashkilotini moliyaviy beqarorlikka yoki to'lov qobiliyatining yomonlashuviga olib keladi. Faqat sug'urta kompaniyalarini emas, balki sug'urta brokerlari faoliyatini ham litsenziyalashning joriy etilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchi oldidagi majburiyatini bajara olmay qolganda, davlat sug'urta nazorati xizmati,

mijozlarning manfaatini ko'zda tutadigan choralar ko'rishi kerak. Bozorda ko'plab sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi, tabiiyki, bu holat potensial mijozlarni jalb qilish uchun ular o'rtasidagi raqobatni ham kuchayishiga olib keladi. Natijada raqobatga bardosh bermagan ba'zi sug'urta kompaniyalari «sug'urta maydonidan» chiqib ketadi. Bunga jahon tajribasidan ham misollar keltirish mumkin. Jumladan, 2008-yil boshida AQShda 103 ta fuqarolar hayotini sug'urtalashga ixtisoslashgan kompaniyalar to'lov qobiliyatini yo'qotgan, deb e'lon qilindi¹. Qizig'i shundaki, bu kompaniyalar ichida moliyaviy jihatdan ishonchli bo'lgan «Ekzekyutiv Layf Inshuerans» kompaniyasi ham bor. Mutaxassislar tomonidan uning aktivi bir necha milliard AQSh dollariga baholangan. Bu yerda shunday o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Xo'sh, xalqaro sug'urta bozorida kuzatilgan yuqoridagidek holat ro'y bermasligi uchun davlat qanday chora-tadbirlar ko'rishi mumkin?

Birinchidan hukumat o'zining tegishli nazorat organi orqali sug'urta kompaniyalari tomonidan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni talablarining qat'iy bajarilishini, shu jumladan, sug'urta zaxiralarini to'g'ri joylanishini nazorat qilib borishi muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, endi shakllanayotgan O'zbekiston sug'urta bozoriga moliyaviy jihatdan mustahkam xorijiy sug'urta kompaniyalarining kirib kelishini tartibga solish kerak. Negaki, bu holat mahalliy sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni bankrot bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari o'z zimmasiga olgan majburiyatlari hajmiga qarab, ma'lum foiz ajratish yo'li bilan markazlashgan sug'urta jamg'ar-masini tashkil etsalar, maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu jamg'arma mablag'lari qiyin holatga tushib qolgan sug'urta tashkilotlariga beriladigan yoki ular bankrot deb e'lon qilinganda majburiyatlarini bajarishi uchun xizmat qiladi. Bizningcha, bu jamg'arma davlat sug'urta nazorati xizmati tomonidan, sug'urtalovchilar uyushmasi vakillarini jalb qilgan holda boshqarilishi lozim.

Mustaqillik yillari sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat qilish tizimi shakllantirildi va rivojlanmoqda. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat qilishning asosiy usullaridan biri ular tomonidan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini tekshirishdir.

Qoidaga ko'ra nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi har yili respublika bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, sug'urta

¹ www.allinsurance.ru.

kompaniyalari faoliyatini tekshirish bo'yicha reja grafisini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Ushbu grafikka asosan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, sug'urta kompaniyalari faoliyati ikki yilda kamida bir marta tekshiruvdan o'tkaziladi. Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra kichik korxonalar, mikrofirmalar hamda fermer va dehqon xo'jaliklarining faoliyati uch yilda bir marta tekshiriladi. Tasdiqlangan reja grafik asosida boshqa tekshiruvchi davlat organlari bilan bir qatorda Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi vakillari ham ikki yilda bir marta sug'urta kompaniyalari faoliyatini tekshirishdan o'tkazadi.

Bunda asosiy etibor Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hamda o'rnatilgan tartibda Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olingan sug'urta faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarga sug'urta tashkilotlari to'liq va to'g'ri rioya etilishini tekshirishga qaratilgan.

2013-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan sug'urta faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan:

- 2008-yilning 20-noyabrida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatiga olingan.

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 26-dekabr-dagi 120-sonli buyrug'i bilan «Biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlari to'g'risidagi nizom» tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 28-yanvarda 1891-son bilan davlat ro'yxatidan olingan.

- 2009-yilning 7-aprelidagi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'iga asosan «Aktuar xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida Nizom» tasdiqlangan va 2009-yilning 26-iyunida Adliya vazirligida 1975-son bilan davlat ro'yxatiga olingan.

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 28-yanvardagi 19-sonli buyrug'i bilan «Sug'urta agentlari to'g'risidagi Nizom» tasdiqlangan va Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002-yil 27-noyabr 413-sonli qarori bilan bir qator me'yoriy-huquqiy

hujjatlar tasdiqlangan. Jumladan, «Sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarining faoliyatini litsenziyalash toʻgʻrisida Nizom» hamda «Sugʻurta faoliyati klassifikatori» yuqorida qayd etilgan hukumat qarori asosida tasdiqlangan. Shuningdek, 2007-yil 10-aprelda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 618-sonli qaroriga asosan ham bir qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. «Sugʻurta bozori professional ishtirokchilari toʻgʻrisida»gi nizom mazkur qaror asosida tasdiqlangan. Koʻrinib turibdiki, sugʻurta faoliyatini tartibga solivchi meʼyoriy-huquqiy hujjatlarning bir qismi vakolat doirasida hukumat tomonidan, bir qismi Moliya vazirligi tomonidan unga berilgan vakolat doirasida qabul qilingan.

Sugʻurta faoliyatini nazorat qilishning turlaridan biri majburiy sugʻurtani joriy etish hisoblanadi. Mustaqillik yillari Respublikamizda majburiy sugʻurta tizimini isloh qilish boʻyicha ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilgan. Xususan, 1993-yil 23-dekabrda Vazirlar Mahkamasining 603-sonli qaroriga asosan fuqarolarga tegishli mol-mulklarning majburiy sugʻurtasi joriy etildi. Shu bilan bir qatorda, 1993-yil 23-dekabrda Vazirlar Mahkamasining 612-sonli qaroriga asosan parvozlarda qatnashuvchi uchuvchilar va texnik xodimlarning majburiy sugʻurtasi joriy etildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 9-apreldagi 179-sonli qaroriga muvofiq kreditlar qaytarilishi va dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish boʻyicha ishlarni oʻtkazish uchun avans tariqasida beriladigan mablagʻ qaytarilishi hamda fyuchers kontraktlari boʻyicha qishloq xoʻjaligi korxonalari javobgarligini majburiy sugʻurtalash hayotga tatbiq etilgan. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 25-martdagi 132-sonli «Meva-sabzovat mahsulotlari, sut va chorva mahsulotlari xarid qilishga shartnomalar boʻyicha hisob-kitoblar oʻz vaqtida qilinishi uchun ishlab chiqaruvchilarning javobgarligini majburiy sugʻurtalash toʻgʻrisida»gi qaroriga muvofiq ushbu sugʻurta turi joriy etildi. Biz yuqorida mustaqillik yillari majburiy sugʻurtaning bir necha turlari amalga oshirilganligini koʻrdik. Bu sugʻurta turlarining hammasi 2002-yilda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 413-sonli qarori asosida bekor qilingan.

Hozirgi kunda majburiy sugʻurtaning quyidagi turlari amalga oshirilmoqda.

1. Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 27-iyundagi 379-sonli qaroriga

muvofiq «Umumiy foydalaniladigan havo, temir yo‘l, ichki suv va avtomobil transport yo‘lovchilarining majburiy sug‘urtasi» amaliyotga joriy etilgan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi 38-sonli qarori asosida harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning oddiy askarlar hamda boshliqlarning tarkibiga kiruvchi shaxslar majburiy sug‘urtasi joriy etilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat soliq organlari xodimlarining majburiy sug‘urtasi to‘g‘risida» 1994-yil 10-dekabrda 631-sonli qarori soliq organlari xodimlari majburiy davlat sug‘urtasi Respublika budjeti hisobiga amalga oshiriladi. Bu sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta so‘mmasining miqdori eng kam oylik ish haqining 80 baravarini tashkil etadi.

4. 2008-yil 22-oktabrdan mamlakatimizda «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi qonun kuchga kirdi va amaliyotga joriy etildi.

5. 2009-yil 16-oktabrdan «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida» qonun amaliyotga joriy etildi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, sug‘urta faoliyatini nazorat qilishning zarurligi sug‘urta xizmati iste‘molchilari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.


9.2. Sug‘urta faoliyatining maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tartibga solinishi

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilgan islohotlar sug‘urta tizimini tubdan o‘zgartirdi. Yuridik va jismoniy shaxslarga keng qamrovli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida turli mulkchilik shaklidagi sug‘urta tashkilotlari vujudga keldi. 1993-yil 6-mayda «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi sug‘urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishda muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur qonunni amaliyotga joriy etish bo‘yicha qabul qilingan Oliy Majlis qaroriga asosan uch oy muddatda Davlat sug‘urta nazorati organi tashkil etilishi lozim edi. Ammo bu davlat organi 1998-yilga qadar tashkil etilmadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish to‘g‘risida» 1998-yil 8-iyuldagi 286-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligiga davlat sug'urta nazorati funksiyasi yuklatildi va shu munosabat bilan uning markaziy apparatida Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi.

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasiga rahbar O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadi. Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasining faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining tegishli o'rinbosari muvofiqlashtirib boradi. Hozirgi paytda Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tashkiliy tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega.



8-chizma.

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasiga sug'urta faoliyati masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida davlat boshqaruv organlari, yuridik shaxslar va ularning birlashmalari uchun bajarilishi majburiy bo'lgan normativ hujjatlar qabul qilish huquqi berilgan. Ushbu inspeksiya O'zbekiston sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha quyidagi vazifalarni bajaradi:¹

- sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) yagona davlat reyestrini yuritish;
- sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish;
- sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va kiritish;
- buxgalteriya hisobi va hisoboti tashkil etilishining bir xilligini ta'minlash.

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan bo'lib, u yuridik shaxs maqomiga ega emas. O'z faoliyatini Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan

¹ «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida» Vazirlar Mahkamasi qarori. –T.: Hukumat qarorlari to'plami, 1998-yil 7-son.

reja asosida tashkil etadi. Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi oʻziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib quyidagi funksiyani bajaradi:

- sugʻurtalovchilar tomonidan Oʻzbekiston Respublikasining sugʻurta toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini va ular hisobotining ishonchligini, shuningdek, ular uchun toʻlovga qodirlikning belgilangan koʻrsatkichlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari taʼminlanishini tekshirish;

- oʻz vakolatlari doirasida sugʻurtalovchilar ishini uslubiy taʼminlash;

- sugʻurtalash qoidalari (shartlari) boʻyicha takliflar tayyorlash va sugʻurtaning majburiy turlari boʻyicha sugʻurta tariflarini belgilash;

- sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini amalga oshirishga doir sugʻurta munosabatlarining barcha qatnashchilari tomonidan bajarilishi majburiy boʻlgan normativ hujjatlar va uslubiy materiallarni ishlab chiqish;

- sugʻurta faoliyati masalalari boʻyicha qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va ularni vazirlik rahbariyatning koʻrib chiqishi uchun kiritish;

- sugʻurta tashkiloti tugatilgan taqdirda sugʻurtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish;

- respublikada sugʻurta faoliyatining ahvoli va rivojlanish tamoyillarini tahlil etish;

- sugʻurta faoliyati boʻyicha mutaxassislarning kasb-hunar tayyorgarligi va ularni qayta tayyorlash tadbirlarini amalga oshirish va hokazolar.

2002-yilning 5-aprelida yangi tahrirdagi «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasining vazifa va funksiyalari qayta koʻrib chiqildi.

«Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni-ning 10-moddasi «Maxsus vakolatli davlat organi» deb atalib, unda bunday organ vakolatiga ega boʻlgan Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasining huquqlari keltirilgan. Ular quyidagilardan iborat:

Maxsus vakolatli davlat organi:¹

– ijro etilishi majburiy boʻlgan toʻlovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar boʻyicha sugʻurtalovchilar majburiyatlarining yoʻl qoʻyiladigan eng koʻp yoki eng kam miqdorini va majburiyatlar jaming yoʻl qoʻyiladigan koʻp yoki

¹ «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni. // «Xalq soʻzi» gazetasi, 2002-yil 28-may.

eng kam miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sugʻurtalovchilarning toʻlovga qobiliyatini aks ettiruvchi axborotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

– sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etishini, toʻlovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari bajarilishini nazorat qiladi;

– sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarining sugʻurta faoliyatini litsenziyalaydi;

– sugʻurtalovchilar tomonidan hisob-kitobni yuritish, sugʻurta zaxiralarining mablagʻlarini shakllantirish va joylashtirishga oid hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi;

– sugʻurtalovchining ijro etuvchi organi rahbarlariga va bosh buxgalteriga qoʻyiladigan ijro etilishi majburiy boʻlgan malaka talablarini belgilaydi;

– sugʻurtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning shakli, tartibi va muddatlarini belgilaydi;

– qonun hujjatlariga muvofiq sugʻurta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshiradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish toʻgʻrisida ijro etilishi majburiy boʻlgan koʻrsatmalar kiritadi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini toʻliq yoki ayrim sugʻurta turlariga (klasslariga) nisbatan toʻxtatib qoʻyadi, shuningdek, ularning amal qilishini tugatadi;

– har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida sugʻurta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyat toʻgʻrisida yillik hisobotlarni, shuningdek, sugʻurta bozorining moliya yili mobaynidagi faoliyati toʻgʻrisida statistika maʼlumotlarini eʼlon qiladi;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi va uning xodimlari sugʻurta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek, sugʻurta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emas.

«Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida» qonunining qabul qilinishi va sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasining vakolatlari kengayganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

«Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu hukumat qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining «Sugʻurta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» 1998-yil 8-iyuldagi 286-sonli qaroriga tegishli oʻzgartirishlar kiritildi.¹ Ilgari mavjud boʻlgan «Sugʻurta tashkilotlarini nazorat qilish boʻlimi» «sugʻurta faoliyatini litsenziyalash va nazorat qilish boʻlimi» degan yangi nom oldi.

Yangi qonun talablaridan kelib chiqqan holda quyidagilar Davlat inspeksiyasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- bajarilishi majburiy boʻlgan toʻlov layoqati normalarini va ularni aniqlash tartibini, alohida tavakkalchiliklar boʻyicha sugʻurtalovchilarning majburiyatlari cheklangan yoʻl qoʻyiladigan miqdorini hisoblab chiqish metodikasini hamda majburiyatlarning jami miqdorini, sugʻurtalovchilarning toʻlovga layoqatliligi boʻyicha axborot berish tartibi va muddatlarini belgilash;

- sugʻurta bozorining professional qatnashchilari tomonidan sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, toʻlovga layoqatlilikning belgilangan normativlarini va ularning moliyaviy barqarorligiga qoʻyiladigan boshqa talablarni taʼminlash;

- sugʻurtalovchilar tomonidan sugʻurta zaxiralari mablagʻlari shakllantirilishi va joylashtirilishi boʻyicha hisobot yuritish tartibini, hisobotlar tuzishni belgilash;

- sugʻurtalovchining ijro etuvchi organi rahbariga va bosh buxgalterga qoʻyiladigan bajarilishi majburiy boʻlgan malaka talablarini belgilash;

- sugʻurtalovchilar tomonidan moliyaviy hisobot berilishi shakllari, tartibi va muddatlarini belgilash;

- sugʻurtalovchilar tomonidan sugʻurta zaxiralari hosil qilish va joylashtirish tartibi va shartlarini belgilash;

- sugʻurtalovchilar tomonidan sugʻurta hodisalari boshlanishining oldini olish va ogohlantirish boʻyicha tadbirlar mablagʻ bilan taʼminlanishi tartibi va shartlarini belgilash;

- qonun hujjatlariga muvofiq sugʻurta bozori professional qatnashchilarining faoliyatini tekshirish va aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish toʻgʻrisida bajarilishi majburiy boʻlgan koʻrsatmalar berish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sugʻurtalovchilar va

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarori.

sugʻurta brokerlari litsenziyalari amal qilishini toʻliq yoxud sugʻurtaning ayrim turlari (darajalari)ga nisbatan toʻxtatib turish, shuningdek, ularning amal qilishini toʻxtatish;

- har bir moliyaviy yil tamom boʻlgandan keyin olti oy oʻtgach sugʻurta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish boʻyicha faoliyat toʻgʻrisidagi yillik hisobotlarni, shuningdek, moliyaviy yil mobaynida sugʻurta bozorining faoliyati toʻgʻrisidagi statistika maʼlumotlarini eʼlon qilish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi oʻziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- sugʻurtalovchilar tomonidan sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilinishini va ularning hisobotlari ishonchliligini, shuningdek, ular uchun belgilangan toʻlovga layoqatlilik koʻrsatkichlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari taʼminlanishini tekshirish;

- sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarining sugʻurta faoliyatini litsenziyalash;

- oʻz vakolatlari doirasida sugʻurtalovchilar ishini metodik taʼminlash;

- sugʻurtaning majburiy turlari boʻyicha sugʻurta qilish qoidalari (shartlari) va sugʻurta tariflari belgilash boʻyicha takliflar tayyorlash;

- Davlat inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab sugʻurta munosabatlarining barcha qatnashchilari tomonidan bajarilishi majburiy boʻlgan sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini amalga oshirish boʻyicha normativ hujjatlar va metodik materiallarni ishlab chiqish;

- sugʻurta faoliyati masalalari boʻyicha qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va ularni koʻrib chiqish uchun vazirlik rahbariyatiga kiritish;

- sugʻurtalovchilar tugatilgan va qayta tashkil etilgan taqdirda sugʻurta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilish;

- respublikada sugʻurta faoliyati rivojlanishining holati va tendensiyalarini tahlil qilish;

- sugʻurta faoliyati boʻyicha mutaxassislarni kasbga tayyorlash va ularni qayta tayyorlashga doir tadbirlarni amalga oshirish, sugʻurta faoliyati masalalari boʻyicha seminarlar va konferensiyalar tashkil etish;

- ommaviy axborot vositalari orqali sugʻurta faoliyati masalalari boʻyicha axborot-tushuntirish ishlari olib borish;

- o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha fuqarolarning takliflari va so‘rovlarini ko‘rib chiqish;

- noshirlik faoliyatini amalga oshirish.

Xulosa o‘rnida qayd etish lozimki, sug‘urtalovchilar faoliyatini litsenziyalash sug‘urta tashkilotlari faoliyati ustidan dastlabki nazoratni amalga oshirishning muhim vositasi bo‘lib hisoblanadi. Shunday ekan litsenziyalash tartibini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish va uni istiqbolda takomillashtirish sug‘urta jamoatchiligi oldidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

9.3. Sug‘urtalovchilar faoliyatini litsenziyalashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yili chop etilgan «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarida moliya-bank tizimini mustahkamlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, unda «Jahon iqtisodiy inqirozi kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatdan yaxshilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi»,¹ deb qayd etib o‘tilgan. Sug‘urta faoliyatini milliy bank-moliya tizimining ajralmas bir bo‘lagi sifatida tasavvur qilsak, asarda bayon etilgan g‘oyalar sug‘urta tashkilotlari faoliyatini yanada mustahkamlash borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini kun tartibiga qo‘yganligiga guvoh bo‘lamiz.

To‘g‘ri, respublikamizda sug‘urta tashkilotlarining barqaror faoliyat ko‘rsatishlari uchun ularning mijozlari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish uchun muayyan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonunining 15-moddasida sug‘urta faoliyatini litsenziyalash masalalari ko‘rsatib o‘tilgan.² Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug‘urtalovchiga hayotni sug‘urta qilish sohasida yoxud umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga

¹ Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. / T.: O‘zbekiston, 2009. 27-28-betlar.

² O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni. // Xalq so‘zi, 2002-yil 28-may.

oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasno. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Litsenziyada sug'urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» qaroriga asosan sug'urta faoliyati klassifikatori tasdiqlangan. Unda hayotni sug'urta qilish tarmog'i 4 ta klassdan, umumiy sug'urta tarmog'i 17 ta klassdan iborat ekanligi ko'rsatilgan. Quyidagi jadvalda sug'urta klasslarining mazmuni va ularga qo'yiladigan talablar keltirilgan.

10-jadval

Sug'urta faoliyati klassifikatori¹

1. Hayotni sug'urta qilish tarmog'i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami: - sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; - sug'urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek, sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno
II klass	Nikoh va tug'ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami
IV klass	Sog'liqni sug'urta qilish	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga etguniga qadar belgilanishi sharti bilan

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida». 2002-yil 27-noyabrda 413-sonli qarori.

		baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo‘qotganda sug‘urta summolari to‘lanishini ta‘minlovchi hayotni sug‘urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko‘rsatilgan sug‘urta davri sug‘urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin emas
--	--	---

2. Umumiy sug‘urta tarmog‘i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug‘urta qilish shartlari bo‘yicha talablar
I klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog‘liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; d) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo‘qotish, shu jumladan, ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq II klass va IV klass bo‘yicha sug‘urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug‘urta qilingan shaxsga sug‘urta ta‘minotining belgilab qo‘yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to‘lanishini ta‘minlovchi sug‘urta turlari jami
II klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug‘urta qilish	Sug‘urta ta‘minotining belgilab qo‘yilgan pul summasi to‘lanishini yoki kasallik yoki sog‘liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug‘urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta‘minlovchi sug‘urta turlari jami, biroq hayotni sug‘urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo‘yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
III klass	Yer usti transport vositalarini sug‘urta qilish	Transport vositalari, o‘ziyurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo‘l tarkibi bundan mustasno, yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta‘minlovchi sug‘urta turlari jami
IV klass	Harakatlanadigan temir yo‘l tarkibini sug‘urta qilish	Harakatlanadigan temir yo‘l tarkibi yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta‘minlovchi sug‘urtaning turlari jami
V klass	Aviatsiya sug‘urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta‘minlovchi sug‘urtaning turlari jami

VI klass	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
VII klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
VIII klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yerosti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (III va VII klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
IX klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	VIII klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (III va VII klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
X klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	Yer usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XI klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XII klass	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XIII klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	X, XI va XII klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XIV klass	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami


XV klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XVI klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (XVII klassda ko'rsatilgandan tashqari); d) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
XVII klass	Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to'xtatib turilishi uning yangi sug'urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan, amaldagi sug'urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo'ladi. Bunda sug'urtalovchi ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majbur. Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi ariza bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug'urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to'xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyatiga o'tadi. Muvaqqat ma'muriyat sud qaror chiqargunga qadar bo'lgan davrda o'z faoliyatini amalga oshiradi. Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining hisoboti maxsus vakolatli davlat organiga hamda sug'urtalovchini tugatish to'g'risida maxsus vakolatli davlat organining arizasi yo'llangan sudga taqdim etiladi. Sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyati o'z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, sug'urtalovchining boshqaruv xarajatlari (ma'muriy xarajatlari), sug'urtalovchiga tushayotgan pullarni hisobga yozish va ilgari tuzilgan

sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta hodisalari yuz berganda sugʻurta tovonini (sugʻurta pulini) toʻlash bilan bogʻliq hollar bundan mustasno. Sugʻurtalovchi muvaqqat maʼmuriyatining ishlash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi. Ushbu modda-ning qoidalari sugʻurtalovchining arizasiga binoan litsenziya bekor qilingan hollarga, shuningdek, uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki taʼsis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sugʻurtalovchining boshqaruv organi qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoxud tugatili- shiga taalluqli emas.

Sugʻurtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» 2002-yil 27-noyabrda qabul qilgan qaroriga koʻra, sugʻurta kompaniyalari ustav kapitaliga talablar qoʻyildi.¹ Ular quyidagilardan iborat:




9-chizma.

Sugʻurtalovchi ustav fondining kamida toʻqson foizi muassislarning pul mablagʻlaridan shakllantiriladi. Sugʻurtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablagʻlardan va boshqa jalb qilingan mablagʻlardan foydalanishga yoʻl qoʻyilmaydi. Sugʻurtalovchining ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar sugʻurtalovchining muassislari tomonidan toʻlangan boʻlishi kerak. Sugʻurta kompaniyalari ustav fondining eng kam miqdori: qayta sugʻurta qilish faoliyatiga ixtisoslashayotgan sugʻurtalovchilar uchun (agar faoliyat mavzusi faqat qayta sugʻurta qilish boʻlsa) – 2 mln AQSh dollariga teng summada belgilandi. Majburiy sugʻurta faoliyatini amalga oshiruvchi

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrda 413-sonli «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» qarori.

sugʻurtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 500 ming AQSh dollariga teng miqdordagi summada belgilandi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, 2007-yil 10-aprelda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 618-sonli «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» 618-son qaroriga muvofiq, sugʻurta kompaniyalari ustav kapitali eng kam miqdoriga yangi talab oʻrnatildi.¹ Unga koʻra:



10-chizma.

Qayta sugʻurta qilish faoliyatiga ixtisoslashayotgan sugʻurtalovchilar uchun (agar faoliyat mavzusi faqat qayta sugʻurta qilish boʻlsa) – 3 mln AQSh dollariga teng summada belgilandi. Majburiy sugʻurta faoliyatini amalga oshiruvchi sugʻurtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 1,0 mln AQSh dollariga teng miqdordagi summada belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining yuqorida koʻrsatib oʻtilgan qarori bilan «Sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarining sugʻurta faoliyatini litsenziyalash toʻgʻrisida nizom tasdiqlandi. Unga koʻra, sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarining sugʻurta faoliyatini litsenziyalash Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilgan yuridik shaxslar sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarining sugʻurta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talabgorlari boʻlishlari mumkin. Sugʻurtalovchi va sugʻurta brokerining sugʻurta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning amal qilish muddati qoidaga koʻra, cheklanmaydi. Litsenziyaning amal qilishi litsenziya berilgan kundan boshlanadi.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi 618-sonli «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada icloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» qarori.

Sugʻurta tashkilotlari litsenziya olishlari uchun quyidagi talab va shartlarga javob berishlari zarur:

- Oʻzbekiston Respublikasining sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya qilish;

- sugʻurta faoliyatini amalga oshirishda olingan axborotlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq maxfiyligini taʼminlash;

- litsenziyalovchi organ talabiga koʻra sugʻurta faoliyatini amalga oshirishga doir qonun hujjatlarida belgilangan axborotlarni taqdim etish;

- litsenziya talabgori rahbari oliy maʼlumotga hamda sugʻurta sohasida kamida ikki yillik ish stajiga ega boʻlishi;

- litsenziya talabgori (litsenziat) rahbari boshqa sugʻurta tashkilotlarida rahbar lavozimini egallashga haqli emas.

a) sugʻurtalovchilar uchun:

ustav fondining qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdori-ning mavjud boʻlishi;

b) sugʻurta brokerlari uchun:

- sugʻurta brokerining sugʻurta faoliyatini amalga oshirishda shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini taʼminlash;

- sugʻurta shartnomasining litsenziat mijozi uchun qulay shartlarda tuzilishi va bajarilishi;

- sugʻurtalashga doir vositachilik faoliyatini asosiy faoliyat turi sifatida amalga oshirish.

Litsenziya olish uchun sugʻurta kompaniyasi litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) sugʻurtalovchilar uchun:

- yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, yuridik shaxs amalga oshirishni moʻljallayotgan litsenziyalanadigan faoliyat turi hamda koʻrsatib oʻtilgan faoliyat turi amalga oshiriladigan muddat koʻrsatilgan litsenziya berish toʻgʻrisida ariza;

- yuridik shaxsning davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

- rahbar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar (oliy maʼlumot toʻgʻrisidagi diplom nusxasi va mehnat daftarchasidan koʻchirma);

- litsenziya talabgori tomonidan litsenziya talabgorining arizasi litsenziyalovchi organ tomonidan koʻrib chiqilganligi uchun yigʻim toʻlanganligini tasdiqlovchi hujjat;

– ustav fondining belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan ustav kapitali to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (bank ma’lumotnomasi, mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari va boshqa hujjatlar);

– sug‘urta faoliyatining iqtisodiy asoslanishi, unga sug‘urtalash operatsiyalarini rivojlantirish prognozini, ehtimol tutilgan qayta sug‘urtalash bitishuvlari rejasini, sug‘urta zaxiralarining hisob-kitob rejasini o‘z ichiga oluvchi litsenziyalanayotgan sug‘urta klassi bo‘yicha biznes-reja kiradi;

– sug‘urtalashning litsenziya talab qilinadigan turlari bo‘yicha qoidalar (shartlar), litsenziyada quyidagilar bo‘ladi: sug‘urtalash subyektlari doirasini belgilash va sug‘urta shartnomasi tuzish bo‘yicha cheklashlar, sug‘urta obyektlarini belgilash, sug‘urta hodisalari ro‘yxatini belgilash – ushbu holatlar ro‘y berganda sug‘urtalovchining sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha majburiyatlari paydo bo‘ladi, masalan, mol-mulk zararlanganda sug‘urtalovchi bu zararni qoplaydi: sug‘urta mukofotlari tariflari (stavkalari), sug‘urtalashning eng ko‘p (eng kam) muddati, sug‘urta shartnomalarini tuzish va sug‘urta mukofotlarini to‘lash tartibi, tomonlarning sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘zaro majburiyatlari va sug‘urta shartnomalari bo‘yicha to‘lovni rad etishning mumkin bo‘lgan holatlari sug‘urta shartnomasi bo‘yicha e’tirozlarni ko‘rib chiqish tartibi. Qoidalarga sug‘urta shartnomalari namunalari ilova qilinishi kerak. Litsenziya talabgori rahbari tomonidan tasdiqlangan sug‘urtalash qoidalari (shartlari) ikki nusxada taqdim etiladi, ularning betlari tikilgan va raqamlangan bo‘lishi kerak. Faoliyat turi faqat qayta sug‘urta qilishdan iborat bo‘lgan litsenziya talabgorlari mazkur bandeda ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlarni taqdim etadilar, sug‘urtalash qoidalari (shartlari)ga oid xatboshi bundan mustasno.

Litsenziya talabgorining arizasi ko‘rib chiqilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida yig‘im undiriladi. Ariza ko‘rib chiqilganligi uchun yig‘im summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o‘tkaziladi. Litsenziya talabgori berilgan arizadan voz kechgan taqdirda to‘langan yig‘im summasi qaytarilmaydi.

Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini litsenziyalash ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi (1- ilovaga qarang). Ilovada keltirilgan sxemadan ko‘rinib turibdiki, sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini

litsenziyalash jarayoni 6 ta bosqichni o'z ichiga olib, dastlab litsenziya talabgori zarur hujjatlarni tayyorlaydi va uni ko'rib chiqish uchun Moliya vazirligiga taqdim etadi. Keyingi bosqichda hujjatlar Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi va ko'rib chiqish uchun ekspert komissiyaga beriladi. Ekspert komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni batafsil o'rganib chiqib, sug'urtalovchiga yoki sug'urta brokeriga litsenziya berish yoxud litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda sug'urta nazorati davlat organiga yuklatilgan sug'urta faoliyatini litsenziyalash vakolati, pirovardida, barcha sug'urtalanuvchilarning, ya'ni sug'urta kompaniyalari mijozlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bunday tizimning yaratilganligi nafaqat sug'urtalanuvchilarning, balki davlatning manfaatlariga mos keladi.

9.4. Sug'urta faoliyatini soliq orqali tartibga solish

Tijorat asosida faoliyat ko'rsatuvchi barcha xo'jalik yurituvchilar kabi sug'urta tashkilotlari ham soliq qonunchiligida belgilangan soliqlarni to'laydi. Ma'lumki, davlat soliqlardan iqtisodiyotni tartibga soluvchi mexanizm sifatida keng foydalanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillari respublikamizda mustaqil soliq tizimi shakllandi va u doimo takomillashtirilib borilmoqda.

Mustaqillik yillari davlatimiz tomonidan bozor munosabatlari talablariga mos milliy sug'urta tizimini shakllantirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada bugungi kunda yuridik va jismoniy shaxslarga keng ko'lamli sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga qodir moliya sektorining muhim bo'g'ini vujudga keldi.

Hozirgi kunda sug'urta tashkilotlari davlat budjetiga quyidagi soliqlarni to'laydilar:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 3) mol-mulk solig'i;
- 4) yer solig'i;
- 5) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

Bizga ma'lumki, Soliq kodeksida boshqa xo'jalik yurituvchi sub-

yektlar bilan bir qatorda soliqlarga tenglashtirilgan boshqa majburiy to'lovlarni ham to'laydilar:

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:

yagona ijtimoiy to'lov;

fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;

3) davlat boji;

4) bojxona to'lovlari.

Sug'urta tashkilotlari soliq to'lovchi sifatida quyidagi huquqlarga ega:

– davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

– o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

– soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

– Soliq Kodeksida, boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

– soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;

– Soliq Kodeksida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash;

– soliq solish obyektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

– soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

– soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

– davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining Soliq kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

– davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

– davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararining o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to‘lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek, vakilning ishtirok etishi soliq to‘lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to‘lovchi vakillarining mazkur soliq to‘lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to‘lovchining harakati (harakatsizligi) deb e‘tirof etiladi.

Sug‘urta tashkilotlarining soliq to‘lovchi sifatidagi majburiyatlari quyidagilardan iborat:

– o‘z soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajarishi;

– qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

– davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

– soliq tekshiruvlari o‘tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish, to‘lash bilan bog‘liq hujjatlar hamda ma‘lumotlarni taqdim etishi;

– davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek, mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida sug‘urta tashkilotlarining

daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, sug'urta tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlari quyidagilar kiradi:

1) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari). Bunda birgalikda sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari) sug'urtalovchining (birgalikda sug'urta qiluvchining) daromadlari tarkibiga faqat uning birgalikda sug'urta qilish shartnomasida belgilangan sug'urta mukofotidagi ulushi miqdorida qo'shiladi;

2) avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug'urtaviy texnik zaxiralarni kamaytirishning (qaytarishning) qayta sug'urta qiluvchilarning sug'urta zaxiralaridagi ulushi o'zgarishi hisobga olingan holdagi summalari;

3) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha pul mukofoti, shuningdek, qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha tantemalar (foydadan olinadigan haq);

4) qayta sug'urta qilishga o'tkazilgan tavakkalchilik bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining o'rnini qayta sug'urta qiluvchilar tomonidan qoplash summalari;

5) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha mukofotlar deposiga hisoblangan foizlar summalari;

6) sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslarga nisbatan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan, qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan daromadlari;

7) sug'urta agenti, broker, vositachi xizmatlarini ko'rsatganlik uchun mukofot;

8) sug'urta bozorining professional ishtirokchilariga xizmatlar ko'rsatganlik uchun sug'urtalovchi tomonidan olingan pul mukofoti;

9) sug'urta xizmatlari ko'rsatishdan va qo'shimcha sug'urta faoliyatidan olingan boshqa daromadlar.

Shubhasiz, sug'urta tizimida erishilgan yutuqlarning asosida mazkur tizim uchun yaratilgan qulay muhit, birinchi galda, soliq imtiyozlari muhim o'rin tutadi. 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni sug'urta yo'li bilan himoya qiluvchi «Madad» sug'urta agentligining tashkil etilishi va uni soliqlar hamda qonunchilikda nazarda tutilgan majburiy to'lovlardan uch yil muddatga ozod etilishi sohani rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan berilgan dastlabki soliq imtiyozi edi.

Sug'urtaning iqtisodiyot rivojlanishida nechog'li ahamiyat kasb etishi hisobga olingan holda 1997-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va mazkur kompaniya hamda uning hududiy sho'ba korxonalari daromaddan olinadigan soliqdan va mulk solig'idan besh yil muddatga ozod etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-fevraldagi farmoni bilan «O'zagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi. Ushbu kompaniya va uning hududiy bo'linmalari ham daromad va mulk soliqlarini to'lashdan besh yil muddatga ozod etildi.

O'zbekistonda milliy sug'urta tizimi rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda sug'urta xizmatlari sohasida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni nazarda tutgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 31-yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoniga binoan 2002-yilning 1-yanvaridan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha sug'urta kompaniyalari daromad (foyda) solig'i to'lashdan uch yil muddatga ozod etildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli «O'zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, 2006-yil 1-apreldan sug'urta tashkilotlari uch yil muddatga daromad solig'i to'lashdan ozod etildi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida ta'kidlan-ganidek, mulk sug'urtasi va uzoq muddatli hayotni sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari summalari yuridik shaxslarning foyda va jismoniy shaxslarning daromad solig'iga tortilmaydi

Yuqoridagilarni umumlashtirish asosida xulosa qilish mumkinki, davlatimizning sug'urta sohasini bosqichma-bosqich, uzluksiz rivojla-nishini ta'minlash bo'yicha joriy etgan soliq imtiyozlari, pirovardida, sug'urta tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda, ularning respublika mintaqalarida agentlik tarmoqlari va bo'linmalarini keng miqyosda shakllantirish uchun katta imkoniyat yaratdi. Bularning hammasi istiqbolda sug'urtalovchilar o'rtasida raqobat muhitini yanada kengaytirish barobarida, korxonalar va aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabini to'laroq va sifatli qondirishga zamin hozirlashi tabiiy.

Nazorat uchun savollar

1. Sugʻurta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi nimalarda namoyon boʻladi?
2. Sugʻurta bozorini davlat tomonidan tartibga solish shakllari haqida gapirib bering.
3. Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta faoliyatini nazorat qilish qaysi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?
4. Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi ilk marta qachon va qaysi davlat organi huzurida tashkil etilgan?
5. Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi zimmasiga qanday vazifalar yuklatilgan?
6. Oʻzbekistonda majburiy sugʻurtaning qanday turlari amal qiladi?
7. Maxsus vakolatli davlat organi sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qanday normativ hujjatlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan?
8. Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasining tarkibiy tuzilishi toʻgʻrisida gapirib bering.
9. Sugʻurta bozorini tartibga solishda soliq xizmatining oʻrni qanday?
10. Sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlari faoliyatini litsenziyalash shartlarini yoritib bering.

10-mavzu. O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA MONOPOLIYA VA RAQOBAT MASALALARI

10.1. Sug‘urta bozorida monopoliya holatlarining yuzaga kelishi va uning obyektiv hamda subyektiv sabablari.

10.2. Sug‘urta bozorida duopoliya va oligopoliya. Ularning ayrim sug‘urta mahsulotlari bo‘yicha vujudga kelish holatlari.

10.3. Sug‘urta bozorida sog‘lom va nosog‘lom raqobat: uning mezonlari.

10.1. Sug‘urta bozorida monopoliya holatlarining yuzaga kelishi va uning obyektiv hamda subyektiv sabablari

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgunga qadar, ya‘ni 1991-yilgacha mamlakatimizda sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish ushbu sohada yakka-yagona bo‘lgan Davlat sug‘urta organlari (Госстрax) tomonidan amalga oshirilgan. Sug‘urta tizimida mutlaqo raqobat muhiti mavjud bo‘lmagan. 1993-yili joriy etilgan «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonunda majburiy sug‘urta turlarini amalga oshirish faqat davlat sug‘urta organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan edi. Bu holat ayrim, ayniqsa, xorijiy investitsiya ishtirokida tuzilgan sug‘urta kompaniyalari tomonidan e‘tirozlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Shu bois, 1994-yili mazkur qonunga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritildi va unga ko‘ra majburiy sug‘urta turlarini tegishli litsenziyaga ega barcha sug‘urta tashkilotlari amalga oshirishlari ko‘rsatildi.

Ta‘kidlash lozimki, jamiyatning barcha jabhalarida amalga oshirilgan islohotlar tufayli sug‘urta tarmog‘ida monopolistik holatni oldini olish va uni bartaraf etish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Birinchidan, sug‘urta kompaniyalari qonunchilikda nazarda tutilgan barcha mulkchilik shakllariga asoslangan holda tashkil etilishiga ruxsat berildi, ikkinchidan yuridik hamda jismoniy shaxslarga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda barcha sug‘urtalovchilarga va ularning mijozlariga teng sharoitlar yaratildi.

2002-yil 5-aprelda qabul qilingan «Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunning 24-moddasida monopolistik faoliyatga yoʻl qoʻyilmasligi aniq koʻrsatib qoʻyilgan. Xususan, qonunda sugʻurta bozorida raqobatni cheklash yoki bartaraf etishga, bir sugʻurtalovchilarga boshqalariga qaraganda asossiz afzalliklar berilishiga yoki olinishiga, sugʻurta qildiruvchilar va boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga qaratilgan faoliyatga yoʻl qoʻyilmaydi, deb qayd etilgan. Shuningdek, unda sugʻurtalovchilar va sugʻurta vositachilariga oʻz uyushmalari (ittifoqlari) va boshqa birlashmalaridan sugʻurta bozorini monopollashtirishga qaratilgan bitimlarga erishish yoʻlida foydalanish taqiqlanishi belgilangan.

Shunday boʻlishiga qaramay, sugʻurta bozorida monopolistik holatlarning namoyon boʻlish holatlari mavjud. Jumladan, qishloq xoʻjalik tovar ishlab chiqaruvchilariga sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish, koʻp yillar davomida, sobiq davlat sugʻurta organlari negizida tashkil etilgan «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi tomonidan amalga oshirilib kelindi. Bu albatta, mazkur kompaniya qishloq xoʻjalik sohasida sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha monopolistik ekanligini anglatmaydi. Boshqa sugʻurta kompaniyalari ham qishloq xoʻjalik korxonalarini va qishloq joylarda aholi mol-mulki, salomatligini sugʻurtalash huquqiga ega. Ammo boshqa sugʻurta kompaniyalarining qishloq xoʻjalik sugʻurtasiga kirib kelishi uchun infratuzilma obyektlari yetarli emas. Qolaversa, ushbu tarmoqda sugʻurta hodisasi sodir boʻlish ehtimolining yuqori darajada ekanligi ham sugʻurtalovchilarning qishloq xoʻjalik sugʻurtasi bilan shugʻullanishlariga ehtiyotkorlik bilan yondashishlarini talab etadi.

2007-yilda «Mikrokreditbank» muassisligida «Agro invest sugʻurta» sugʻurta kompaniyasining tashkil etilishi qishloq xoʻjalik risklarini sugʻurtalash bozorida biroz boʻlsada raqobat muhitining shakllanishiga turtki boʻldi. Hozirgi kunda mazkur sugʻurta kompaniyasi respublikamizning barcha mintaqalarida oʻz filiallariga ega boʻlib, «Mikrokreditbank»ning joylardagi filial va boʻlimlari bilan yaqin hamkorlikda fermer va dehqon xoʻjaliklariga ularning mulkiy manfaatlarini sugʻurtalash boʻyicha xizmat koʻrsatmoqda.

2013-yil 1-yanvar holatiga respublikamizning aksariyat qishloq tumanlarida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslarga sugʻurta xizmatlarini koʻrsatish «Oʻzagrosugʻurta» Davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasining tuman boʻlimlari tomonidan amalga oshirilayapti.

Boshqa sug'urta kompaniyalarining filiallari asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlarida joylashganligi sababli ular tumanlar miqyosida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega emas. Vaziyatga shu nuqtayi nazardan baho beradigan bo'lsak, tumanlar darajasida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha «O'zagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi monopolist hisoblanadi. Bunday holatning yuzaga kelishiga mazkur kompaniya aybdor emasligini alohida qayd etishimiz kerak.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 52-bobi, 961-moddasida majburiy davlat sug'urtasi bevosita sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida unda ko'rsatilgan davlat sug'urta tashkilotlari yoki davlatning boshqa tashkilotlari (sug'urtalovchilar) tomonidan amalga oshiriladi, deb ko'rsatilgan. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrda qabul qilingan «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 413-sonli qarori asosida majburiy davlat sug'urtasini amalga oshirish huquqi «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasiga berildi. Hozirgi paytda O'zbekistonda harbiy xizmatchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslarning majburiy davlat sug'urtasi va davlat sud ekspertlarining hayoti va sog'lig'ini davlat tomonidan majburiy sug'urtasi o'tkaziladi. Mazkur sug'urta turlarini yagona sug'urta kompaniyasi – «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tomonidan o'tkazilishi, sirdan qaraganda, alohida olingan sug'urta mahsulotini sotish bo'yicha monopolistik holatni yuzaga keltirgandek ko'rinadi. Bunga sabab shuki, ushbu sug'urta turini «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasidan tashqari, birorta kompaniya o'tkazishga haqli emas. Biroq harbiy xizmatchilar va ularga tenglashtirilgan shaxslarni majburiy davlat sug'urtasining ijtimoiy ahamiyati nechog'li katta ekanligini e'tiborga olsak, bejizga bu sug'urta turi davlat kompaniyasiga berilmaganligi ravshan bo'ladi.

10.2. Sug'urta bozorida duopoliya va oligopoliya.

Ularning ayrim sug'urta mahsulotlari bo'yicha vujudga kelish holatlari

Sug'urta bozorida duopoliya va oligopoliya holatlarining yuzaga kelishi kuzatiladi. *Duopoliya* deganda bozorda faqat ikkita kompaniyaning faoliyat yuritishi tushuniladi. O'zbekiston sug'urta

bozorida duopoliya holatlari mavjud. Buni oldingi bo'limda ta'kidlaganimizdek, qishloq xo'jalik korxonalarini sug'urtalash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan «O'zagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi va «Agro invest sug'urta» sug'urta kompaniyasi misolida ham ko'rish mumkin. Shuningdek, aviatsiya sug'urtasida ham duopoliya holatlarini ko'rish mumkin. Har yili «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi mulkiy manfaatlarini sug'urtalash bo'yicha tender e'lon qiladi va unda g'olib chiqqan kompaniyaga aviakompaniyaning mulkiy manfaatlarini sug'urtalash vakolati beriladi.

Oligopoliya bozor tuzilishining shakllaridan biri bo'lib, unda sug'urta kompaniyalarining soni kam, biroq iste'molchilarning soni esa ko'p bo'ladi. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda, bozor hajmining 75 foizi yoki undan katta qismi bir nechta sug'urta kompaniyalari hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, «Temir yo'llari sug'urta» sug'urta kompaniyasi tomonidan temir yo'l tarmog'iga qarashli korxonalarining katta qismi sug'urta himoyasiga olingan. Ayrim sug'urta kompaniyalari temir yo'l transportiga tegishli boshqa mulkiy manfaatlarni sug'urtalash bilan shug'ullanadi. Ya'ni mazkur tarmoqqa sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hajmining 75 foizidan ortig'i 3-4 ta sug'urta kompaniyasi hissasiga to'g'ri keladi.

2002-yil 5-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunida sug'urta 2 ta sohadan iborat ekanligi ko'rsatilgan: umumiy sug'urta tarmog'i; hayotni sug'urtalash tarmog'i. Umumiy sug'urta tarmog'ida monopolistik holatlarni uchratish bilan bir qatorda kuchli raqobat muhiti mavjud bo'lgan holatlarni ham uchratish mumkin. Biroq hayotni sug'urtalash bo'yicha dastlabki kompaniya 2003-yil dekabr oyida «O'zbekinvest Hayot» nomi bilan tuzilgan bo'lsada, bunday kompaniyalarning soni hanuzgacha sezilarli ravishda ko'paygan emas. 2009-yil «Alfa invest» sug'urta kompaniyasining muassisligida hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan «Alfa Life» sug'urta kompaniyasi tashkil etildi. Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sug'urta bozorida hayotni sug'urtalash segmentida atigi 2 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Agar bozorda muayyan sug'urta mahsulotini faqat 2 ta sug'urta kompaniyasi sotayotgan bo'lsa, bu holat bozorda oligopoliya shakllanganligini anglatadi. Ammo hayotni sug'urtalash bo'yicha mahsulotlarni xarid qiladigan iste'molchilar soni kamligini e'tiborga oladigan bo'lsak, mijozlar o'rtasida raqobat muhiti unchalik vujudga kelmaganligini ko'rish mumkin.

10.3. Sug'urta bozorida sog'lom va nosog'lom raqobat: uning mezonlari

Mamlakatimizda davlat tomonidan sug'urta sohasida raqobat muhitini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buni nafaqat sug'urta kompaniyalarining soni yoki ular tomonidan yig'ib olinayotgan sug'urta mukofotlari hajmida, balki aholi o'rtasida sug'urtaga bo'lgan qiziqish va ishonchning ortib borishida ko'rish mumkin. Sog'lom raqobat har qanday sohaning harakatlantiruvchi kuchi, taraqqiyotning asosi bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, so'ngi yillarda turli tashkilot, muassasa va korxonalar tomonidan o'z mulkiy manfaatlarini sug'urtalash bo'yicha tenderlarning o'tkazilishi sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobatning kuchayishiga sabab bo'layapti. Masalan, 2012-yilda mazkur aviakompaniya tomonidan o'tkazilgan tenderda «Asiainsurance» sug'urta kompaniyasi g'olib chiqdi va unga mazkur tarmoqni sug'urtalash huquqi berildi.

2012-yil 6-yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi qonunining qabul qilinishi moliya bozorlarida, shu jumladan, sug'urta bozorida sog'lom raqobatni ta'minlash, nosog'lom raqobatning oldini olish hamda monopolistik holatlarga barham berish bo'yicha ishlarni samarali amalga oshirishda muhim omil bo'ldi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mazkur qonun qabul qilingunga qadar respublikamizda sug'urta bozorida insofsiz raqobat, monopolistik holatni oldini olish va bartaraf etishni nazarda tutuvchi alohida qonun hujjatlari mavjud emas edi. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonuni faqat tovar bozorlarida yuzaga keladigan monopoliya holatlarini oldini olish va shu asosda raqobatni rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Bu qonunning talablari moliya bozori, xususan sug'urta bozori uchun tatbiq etilmagan. Tabiiyki, bu holat ma'lum ma'noda sug'urta sohasida raqobat holatini tahlil etish, monopoliyani oldini olish ishlarini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi qonunida raqobat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «raqobat – xo'jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki

cheklaydi». Darhaqiqat, raqobat sugʻurta kompaniyalarini doimo oʻz faoliyatlarini takomillashtirib borishga, yuridik va jismoniy shaxslarga sugʻurta xizmatlarini yuqori saviyada va sifatli koʻrsatishga daʼvat etadi.

Bozor sharoitida ayrim sugʻurta kompaniyalari ustun mavqega ega boʻlish imkoniyatiga ega boʻlishi mumkin. Bunday imkoniyatdan oʻz manfaatlari yoʻlida foydalanish, boshqa raqobatchi kompaniyalarning bozorga kirishiga toʻsqinlik qilish holatlariga chek qoʻyish masalalari ham yuqoridagi qonunda oʻz aksini topgan. Xususan, qonunning 6-moddasida ustun mavqe va uning oqibatlari haqida yuridik normalar mujassamlashgan. Ustun mavqe tovar yoki moliya bozorida xoʻjalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xoʻjalik yurituvchi subyektlarga bogʻliq boʻlmagan holda unga oʻz faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi taʼsir koʻrsatish, tegishli bozorga boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holatidir. Tovar bozorida qaysi xoʻjalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tovarining ulushi: 1) ellik va undan ortiq foizni tashkil etsa; 2) oʻttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda boʻlib, bunda quyidagi shartlar: xoʻjalik yurituvchi subyektning tovar bozoridagi ulushi kamida bir yil mobaynida barqaror boʻlib turishi; tovar bozorida boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorda boʻlib turishi; ushbu bozorga yangi xoʻjalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) kirishiga imkoniyat boʻlishi shartlari belgilangan boʻlsa, shu xoʻjalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining mavqeyi ustun mavqe deb eʼtirof etiladi. Moliya bozorida xoʻjalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyini eʼtirof etish tartibi va shartlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Har bir davlatning tovar va moliya bozorlarida yuzaga keladigan monopol holatlar, raqobatning rivojlanishiga xalaqit beruvchi omillar maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan oʻrganilib va tegishli choralar koʻrib boriladi. Bizning respublikamizda bunday vakolat Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasining «Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qoʻmitasini tashkil etish toʻgʻrisida» 2012-yil 13-noyabrdagi PF-4483-sonli farmoniga asosan tashkil etilgan shu nomdagi davlat qoʻmitasiga berilgan. Ushbu davlat qoʻmitasi tugatilayotgan Oʻzbekiston

Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi negizida tashkil etildi.

«Raqobat to‘g‘risida»gi qonunning 9-moddasida raqobat sohasidagi vakolatli organning vazifalari keltirilgan. Monopoliyaga qarshi organ tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi vakolatli organdir. Monopoliyaga qarshi organ tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning raqobatga qarshi harakatlarini, insofsiz raqobatni cheklash va ularning oldini olishga hamda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining g‘ayriqonuniy harakatlariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan davlat siyosatini amalga oshiradi.

Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining:

– faoliyatning biror-bir sohasida yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etishga cheklovlar joriy etishi, shuningdek, faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishni yoki muayyan tovarlar ishlab chiqarishni man etishi, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno;

– shartnomalar tuzishda ustunlik berish, sotib oluvchilarning muayyan doirasiga tovarlarni birinchi navbatda realizatsiya qilish, moliyaviy mablag‘larning manbalarini tanlash va ulardan foydalanish yo‘nalishlarining afzalligi to‘g‘risida xo‘jalik yurituvchi subyektga ko‘rsatmalar berishi, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno;

– ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo‘yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berishi;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olishi, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

– xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga oqibatda raqobat cheklanishi mumkin bo‘lgan tarzda aralashishi;

– o‘z vazifalarini xo‘jalik yurituvchi subyektlarning vazifalari bilan qo‘shib bajarishi;

– ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilashi taqiqlanadi.

Alohida hollarda, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tabiiy ofatlar, halokatlarning oqibatlarini tugatish hamda epidemiyalarning oldini olish maqsadida ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan hujjatlar qabul qilishi va harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining tovar yoki moliya bozorining normal faoliyat ko'rsatishiga, raqobatni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi hamda iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsituvchi harakatlariga, shu jumladan:

- narxlarni yoki tariflarni oshirishga, pasaytirishga, saqlab turishga;
- tegishli bozorni hududiy prinsip bo'yicha, realizatsiya qilish yoki xaridlar hajmi bo'yicha, tovarlarning xillari bo'yicha yoxud tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari doirasi bo'yicha bo'lib olishga;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozorga kirishini cheklashga yoki ularni bozordan chetlatishga olib keladigan kelishib olingan harakatlari va bitimlariga yo'l qo'yilmaydi.

Yuridik shaxslar birlashmalarining xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatiga pirovard natijada raqobatni cheklab qo'yadigan yoki cheklab qo'yishi mumkin bo'lgan tarzda aralashishi taqiqlanadi.

Yuqorida qayd etilgan barcha yuridik normalar to'liq moliya bozorining muhim segmentlaridan biri sug'urta sohasi uchun amal qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. 1991-yillari sug'urta sohasida davlat monopoliyasiga barham berish uchun nima ishlar qilindi ?
2. Sug'urta bozorini monopollashtirishga qarshi qanday choralar ko'rildi?
3. Sug'urta bozorida monopol holat deganda nimani tushunasiz?
4. Sug'urta bozorining qaysi segmentlarida sug'urta kompaniyalarining yoki ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarining monopol holati yuzaga kelayapti?
5. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunida sug'urta bozorini monopollashtirishga qarshi kurashish to'g'risida qanday normalar mujassamlashgan?

6. O‘zbekiston sug‘urta bozorida duopoliya ko‘rinishlari mavjudmi? Agar mavjud bo‘lsa bunga amaliy misollar keltiring.

7. Oligopoliya deganda nimani tushunasiz va u milliy sug‘urta bozorida namoyon bo‘layaptimi?

8. Sug‘urta bozorida sog‘lom raqobatni ta‘minlash uchun davlat tomonidan qanday chora-tadbirlar ko‘rilgan?

9. Nosog‘lom raqobat deganda nimani tushunasiz? Unga misollar keltiring.

10. O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risida»gi qonuni qachon qabul qilingan?

11. «Raqobat to‘g‘risida»gi qonunning mazmun-mohiyati va sug‘urta bozorida raqobatni ta‘minlashdagi ahamiyati xususida atroflicha so‘zlab bering.

11-mavzu. O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA ISTE‘MOLCHILARNING MANFAATLARINI HIMOYA QILISH

11.1. Sug‘urta bozori iste‘molchilarining manfaatlarini himoya qilishda Davlat sug‘urta nazorati organlarining o‘rni.

11.2. Sug‘urta shartnomalarida iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish masalalarining aks ettirilishi.

11.3. Sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishni standartlashtirish orqali iste‘molchilarning manfaatlarini muhofaza qilish.

11.1. Sug‘urta bozori iste‘molchilarining manfaatlarini himoya qilishda Davlat sug‘urta nazorati organlarining o‘rni

Sug‘urta bozori murakkab integratsiyalashgan shaklda rivojlanuvchi tizim bo‘lib, sug‘urtalovchilar, sug‘urta qildiruvchilar, sug‘urta xizmatlari, sug‘urta vositachilari, sug‘urtalovchilar uyushmalari va iste‘molchilar hamda sug‘urta infratuzilmasi, ularni davlat tomonidan tartibga solish institutlari tizimini tashkil etuvchi komponentlar bo‘lib hisoblanadi. Bir tomondan, sug‘urta bozori – bu sotuvchi va xaridorlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi, ya‘ni sug‘urta bozorining subyektlari o‘rtasida oldi-sotdi obyekti bo‘lgan sug‘urta himoyasi, sug‘urta qoplamasi, sug‘urta mahsulotini sotish va sotib olish jarayonida vujudga keladigan munosabatdir. Boshqa tomondan, sug‘urtani xizmatlar sohasiga kiritish mumkin, chunki sug‘urta birinchidan, qiymatga (sug‘urta mukofoti) va iste‘mol qiymati (sug‘urta himoyasi) ga ega. Sug‘urta tegishli foydali samara keltiradi, ya‘ni davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoyasini ta‘minlaydi.

Shuni alohida ta‘kidlash mumkinki, sug‘urtalash jarayonida moddiy buyum shaklidagi mahsulot yaratilmaydi. Bayon etilganlarni hisobga olib xulosa qilish mumkinki, sug‘urta to‘la-to‘kis xizmatlar ko‘rsatish sohasiga taalluqlidir. Ayni chog‘da, sug‘urtada moliyaviy xizmatlarga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarni ajratish mumkin. Bu xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- aksariyat hollarda xizmatning moddiy emasligi;

- xizmatning vaqt birligida o'lanishi;
- ayrim hollatlarda xizmatning moddiylashishi;
- xizmatning mulk sifatida sotish imkoniyatining yo'qligi.

Bizning nazarimizda, bozorga xos sug'urta munosabatlarining predmeti bo'lib, qonun asosida aniqlanadigan moliyaviy xizmat hisoblanadi.

Hayotni jamg'arib borish yo'li bilan sug'urta qilishning klassik turlarida sug'urtani moliyaviy xizmatlar bozoriga to'liq kiritish uchun asoslar yetarli. Ammo sug'urtaning riskli turlarida sug'urta hodisasi ro'y bermagan taqdirda, xizmat ko'rsatilgan yoki xizmat ko'rsatilmaganligini baholash ancha murakkab hisoblanadi. Ya'ni boshqacha so'z bilan ifodalanganda, sug'urta qildiruvchi tomonidan xizmat haqi to'langan, ya'ni bir tomon, shartnoma bo'yicha olgan majburiyatini bajaragan, ikkinchi tomonning o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarilganligini faqat sug'urta qoplamalarining o'z vaqtida to'langanligi bilan tekshirish mumkin. Sug'urta qildiruvchi sug'urta kompaniyasidan ishonchni sotib oladi.

Ayrim ekspertiza xulosalariga ko'ra, sug'urta sohasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun quyidagi sabablar mavjud:

1. Majburiy sug'urta turlarining mavjudligi. Bunda sug'urta shartnomalari ommaviy ravishda tuziladi. Bu, o'z navbatida, sug'urta shartnomasini tuzgan fuqarolarda sug'urta qonunchiligi bo'yicha yetarli miqdorda tasavvurga ega bo'lmaslik holatlarini keltirib chiqaradi.

2. Sug'urta juda murakkab tovar hisoblanadi, iste'molchi bu tovar haqida, uning sifati va tovar unga qanchalik zarurligini aniqlashi boshqa tovarlarga nisbatan anchayin qiyin kechadi.

3. Sug'urtalovchilarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajara olmaslik riskidan sug'urta mahsuloti iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishning obyektiv zarurligi.

4. Iste'molchining sug'urta sohasidagi dunyoqarashlarini kengaytirish imkoniyatlarini ta'minlash, ya'ni sug'urta bozori subyektlarining ochiq-oydinligini va shaffofligini ta'minlash. Sug'urta mahsuloti iste'molchilarning manfaatlarini yetarli darajada himoya qila oladigan qonunchilik bazasi hozircha Rossiya Federatsiyasida ham mavjud emas. Rossiya Federatsiyasining sug'urta nazorati davlat organi, sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni bajarishni ta'minlash maqsadida sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq normativlarni ishlab chiqish yordamida sug'urta

mahsuloti iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni o'zining asosiy vazifasi deb biladi.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy xizmat iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishning mutlaq zarurligi «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunning 28-moddasida o'z aksini topgan. Bu moddada moliyaviy xizmatlar ijrochisi o'zining bankrot bo'lish yoki tugatilish holati bo'yicha iste'molchi oldidagi javobgarligini sug'urta qildirishlari shart ekanligi ko'rsatilgan.

Mamlakatimizda mavjud iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik, iste'molchi – fuqaro va tovarlarini unga sotgan yoki xizmat ko'rsatgan tashkilotlar va korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Fuqaroning iste'molchi toifasiga kiritishdagi asosiy belgilardan biri iste'molchining tovar va xizmatlarni foyda olish maqsadida emas, balki shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun sotib olishi hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda ta'kidlash kerakki, ushbu qonunda xizmat, shu jumladan, «moliyaviy xizmat» tushunchalari bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas. Bundan tashqari moliyaviy xizmat to'g'risida ham bu qonunda aniq tushuncha berilmagan.

Ammo moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning asosida fuqarolik – huquqiy munosabatlarga xos o'xshashliklarni ko'rish mumkin. Masalan, moliyaviy xizmatlar bozori ishtirokchilari bozorda xizmatlar ko'rsatishda tegishli shartnomalardan foydalanadilar hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining qoidalari bilan tartibga solinadigan pullik xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma doirasidan tashqariga chiqmaydilar.

Shu bilan bir qatorda qayd etish lozimki, sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish quyidagi xususiyatlarga ega.

Quyida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari to'liq maromiga yetmagan. O'z huquqlarini himoyalash mexanizmidagi noaniqliklar sug'urta mahsuloti iste'molchilarning sug'urtalovchilarga nisbatan ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lishlariga sabab bo'lmoqda.

Sug'urta sohasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish tor tushuncha bo'lib, uning ortida amaldagi qonunchilikka asosan norma-larga muvofiq sug'urta xizmatlarini xarid qilishda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq huquqiy me'yor tizimi turibdi.

Bunday himoya ijtimoiy-huquqiy munosabatlar doirasida (qonunchilik hujjatlari, sugʻurta faoliyati ustidan nazorat, monopoliyaga qarshi qonunchilik) va fuqarolik-huquqiy munosabatlari hamda nizolarni sudgacha va sudlarda koʻrib chiqish doirasida qonuniy tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimida isteʼmolchilar huquqlarini qonunchilik yoʻli bilan tartibga solish, davlat tomonidan isteʼmolchini zaif tomon sifatida tan olgandagina amalga oshiriladi. Sugʻurtalovchilar bilan shartnoma munosabatlariga kirishganda, davlat shartnoma shakllari shakllanishining boshqa usul va imkoniyatlariga hamda uni ijrosini taʼminlash bilan bogʻliq vakolatlariga ega boʻlishi mumkin.

Aynan shu sababli sugʻurta qildiruvchining davlat tomonidan himoya qilinishini taʼminlashda, unga yaʼni isteʼmolchiga shartnoma munosabatlarida qatnashuvchi zaif tomon sifatida qarab, unga qoʻshimcha huquqlar berish, aksincha sugʻurtalovchilarga qoʻshimcha majburiyatlarni yuklash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

11-jadval

«Isteʼmolchilarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida»gi qonunda sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilarining huquqlarini himoya qilinishining amaldagi holati

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) hamda ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) toʻgʻrisida haqiqiy va toʻliq maʼlumotni olish.	Sugʻurta qonunchiligida ochiq maʼlumotlar, jumladan moliyaviy hisobotni eʼlon qilish boʻyicha talab belgilangan. Ammo shartnoma tuzilgunga qadar isteʼmolchilarga taqdim etilishi lozim boʻlgan maʼlumotlar roʻyxati koʻrsatilmagan.
Tovarlarni erkin tanlash va sifati	Sugʻurta xizmatining sifati tushunchasi keltirilmagan.
Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsizligi	Sugʻurta xizmatining xavfsizligi boʻyicha tushuncha mavjud emas
Sotib olingan tovardagi kamchiliklar, inson hayoti va sogʻligi uchun xavfli boʻlgan tovarlarni sotib olish natijasida isteʼmolchiga yetkazilgan moddiy va maʼnaviy zararlarining toʻliq qoplanishi	Sugʻurta xizmati koʻrsatuvchining harakat qilmasligi natijasida isteʼmolchiga yetkazilgan zararlar isbotlangan taqdirda qoplanish mumkin.
Qonun bilan himoyalangan yoki isteʼmolchilarning buzilgan huquqlarini himoya qilish uchun sudga va boshqa vakolatli davlat organlariga murojat qilish	Amalga oshirilgan
Isteʼmolchilarning jamoat tashkilotlarini tashkil etish	Amalga oshirilmagan

Shunday qilib davlat shartnoma munosabatlarida ishtirok etayotgan tomonlarning tengligini ta'minlaydi. Odatda, shartnoma doirasida zaif tomonga imtiyozli shartlar sug'urta shartnomasini tuzishda, unga o'zgartirish kiritish yoki bekor qilishda imtiyozlar berish yo'li bilan, shuningdek, zaif tomonga qo'shimcha huquqlar yoki sug'urtalovchiga qo'shimcha majburiyatlarni yuklash orqali beriladi. Bundan tashqari, shartnomaviy munosabatdagi kuchli tomonning javobgarligini oshirish usuli bilan ham iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish mumkin.

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning asosiy maqsadi sug'urta mahsuloti iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Sug'urta nazorati davlat organining barcha faoliyati, ya'ni sug'urtalovchilarning sug'urta faoliyatini nazorat qilish va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularning amalda qo'llanilishi ustidan nazorat o'rnatish kabilarni sug'urta mahsuloti iste'molchilarining huquq va manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilinishining choralari sifatida qabul qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati Davlat inspeksiyasi sug'urta mahsuloti iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish borasida quyidagi vakolatlarga ega:

- sug'urta munosabatlarida fuqarolarning huquqlari buzilgan taqdirda ularning murojaatlarini o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish;
- aholining sug'urta bo'yicha axborot bilan ta'minlanganligi va sug'urta madaniyatini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda ko'maklashish;
- sug'urtalovchilar faoliyatining ochiq-oydinligini ta'minlash;
- sug'urta bozori infratuzilmasining rivojlanishiga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasining to'g'ridan to'g'ri vazifasi ekanligi ko'rsatilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2010-yil 25-iyunda tasdiqlangan va vazirlikning rasmiy saytida e'lon qilingan «2009-yilda O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish bo'yicha hisobot»da qayd etilishicha, 2009-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan respublika fuqarolarining 46 ta shikoyat

xati, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning sugʻurta masalalari boʻyicha 100 dan ortiq yozma murojaatlari koʻrib chiqilgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda ularga javob berilgan.¹ Bundan tashqari Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasining mutaxassislari sugʻurta qildiruvchilarning daʼvolari boʻyicha sud jarayonlarida mutaxassis sifatida ishtirok etganlar.

Taʼkidlash lozimki, sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilarining murojaatlari, asosan quyidagi masalalarga taaalluqli boʻlgan:

- sugʻurta qildiruvchilarga sugʻurta qoplamasini toʻlashda sugʻurta qilish qoidalari normalarining sugʻurtalovchilar tomonidan qoʻllanilishining haqqoniyligi;
- sugʻurtalovchilar bilan boʻlgan munosabatda yuzaga kelgan alohida savollar boʻyicha tushuntirishlar berish;
- sugʻurtalovchilar tomonidan sugʻurta daʼvolarini koʻrib chiqish protsedurasi;
- transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish va ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish boʻyicha masalalar.

Sugʻurta boʻyicha aholining savodxonligini va sugʻurta madaniyatini oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan 2010-2011-yillarda faol targʻibot va tushuntirish ishlari olib borildi. Xususan, ommaviy axborot vositalari orqali sugʻurta bozorining rivojlanishi boʻyicha maqolalar eʼlon qilindi.

2010-yili Moliya vazirligi huzuridagi Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish borasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Masalan, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki vakillari bilan qator uchrashuvlar oʻtkazildi. Natijada Davlat sugʻurta nazoratining potensialini oshirish va sugʻurta bozorini tartibga solish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishni asosiy maqsad qilib qoʻygan loyiha tayyorlandi va amalga oshirildi. Shuningdek, Yaponiyaning hayot sugʻurtasini rivojlantirish boʻyicha «FALIA» fondi va hayot sugʻurtasini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda sugʻurtaning dolzarb yoʻnalishlari boʻyicha seminarlar tashkil etildi.

Rossiya sugʻurta nazorati Federal xizmatining maʼlumotlariga qaraganda, 2007-yilning birinchi yarim yilligida sugʻurta nazorati organiga kelib tushgan shikoyatlar soni 34 foizga oshgan. Sugʻurta

¹ www.mf.uz.

mahsuloti iste'molchilaridan kelib tushgan shikoyatlarning aksariyat qismi, ya'ni 60 foizga yaqini, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishga to'g'ri kelgan. Rossiya davlat sug'urta nazorati organi sobiq rahbari I.Lomakin-Rumyansevning fikricha, sug'urta qildiruvchilardan kelib tushayotgan shikoyatlar sonining ko'payishiga asosiy sabab, fuqarolar «qayerga yozishni yaxshi biladi» va shartnomaviy munosabatlarning amalga oshishi bo'yicha yuzaga kelayotgan ziddiyatlarning oshishidir. Ekspertlarining hisoblashicha, bu fikrga unchalik qo'shilib bo'lmaydi. Sug'urta mahsuloti iste'molchilarining shikoyatlari sonining ko'payishi, sug'urta qildiruvchilarning savodxonlik darajasi va aholi o'rtasida sug'urtaning ommalashib borayotganligidan darak beradi.

Sug'urtalovchilarning xatti-harakatiga nisbatan shikoyatlar sonining oshayotganligi sug'urta bozorining rivojlanish darajasini va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmining holatini ko'rsatadi. Majburiy sug'urta turlarining joriy etilishi munosabati bilan sug'urta mahsuloti iste'molchilarining soni va murojaatlarning geografiyasi kengayadi. Bunday sharoitda Sug'urta nazorati davlat organi resurslarning cheklanganligi sababli, sug'urta mahsuloti iste'molchilarining huquqlarini to'g'ridan to'g'ri himoya qilishga texnik imkoniyatlari yetarli bo'lmaydi.

Sug'urta nazorati davlat organining, bevosita sug'urta qildiruvchilarning manfaatlarini davlat tomonidan himoyasini ta'minlash bilan bog'liq faoliyati ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- sug'urtalovchi faoliyati ustidan to'g'ridan to'g'ri davlat nazorati unga sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berishda, sug'urta qonunchiligi hujjatlari buzilgan taqdirda esa, litsenziyani vaqtiincha to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilishda amalga oshiriladi;

- normativ va metodik hujjatlarni qabul qilish yo'li bilan sug'urtalovchilar faoliyatini tartibga solish;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq sug'urta zaxiralarini joylashtirish, ularning to'lov qobiliyati va umuman, sug'urtalovchi ustidan nazorat qilish.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan dunyoning barcha davlatlarida sug'urta faoliyatini litsenziyalash faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish sifatida qaraladi va bu o'z navbatida, sug'urta mahsuloti iste'molchisiga shunday kafolat beradiki, litsenziyalangan tadbirkorlik faoliyati qonuniy yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilayapti va u

litsenziyalanayotgan faoliyatga nisbatan qonunchilikda oʻrnatilgan barcha talablarga javob beradi. Sugʻurtalovchilarning toʻlov qobiliyatini tartibga solish ham sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Buning sababi shundaki, toʻlov qobiliyati mustahkam boʻlgandagina sugʻurtalovchi shartnoma boʻyicha mijoz oldida oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarni bajaradi.

Sugʻurta faoliyatini nazorat qilishning amaldagi mexanizmi, umuman, xalqaro amaliyot talablariga mos keladi. Ammo bu masalada tartibga solishning samaradorligini oshirishning muayyan imkoniyatlari mavjud. Xalqaro amaliyotning koʻrsatishicha, sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilarining manfaatlarini himoya qilish boʻyicha qanchalik himoya mexanizmlari va har xil nazorat choralari qoʻllanilishiga qaramasdan, sugʻurta kompaniyalarining toʻlovga qobiliyatsiz boʻlib qolgan holatlari uchraydi. Holbuki, Oʻzbekiston Respublikasining «Isteʼmolchilarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida»gi qonunida moliyaviy xizmatlar ijrochisining isteʼmolchilar oldida bankrot boʻlish yoki tugatilish holatidan javobgarligini sugʻurta qilish majburiyati belgilangan. Ammo mazkur qonunning bu talabi hozircha amalga oshmagan.

Yuqorida qayd etganimizdek, sugʻurtalovchi bankrot boʻlgan holatlarda sugʻurta qildiruvchilar talablarini qanoatlantirishda ustun huquqqa egadirlar. Shu bilan bir qatorda taʼkidlash lozimki, bankrot boʻlgan sugʻurtalovchining sugʻurta portfelini boshqa sugʻurtalovchiga berish protsedurasi muammoligicha qolmoqda. Vaholanki, xorij tajribasida bunday amaliyot keng qoʻllaniladi.

11.2. Sugʻurta shartnomalarida isteʼmolchilarning huquqlarini himoya qilish masalalarining aks ettirilishi

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarining ishtirokchisi sifatida sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilarining davlat tomonidan himoyalanişining asosiy usullaridan biri ularning qonuniy huquqlarini amalga oshirishni taʼminlovchi, ijro etilishi majburiy boʻlgan imperativ normalarning oʻrnatilishi hisoblanadi. Bu norma sugʻurta mahsuloti isteʼmolchisiga sugʻurta xizmati, sugʻurta qoplamalarini toʻlash shartlari toʻgʻrisida, shuningdek, sugʻurta kompaniyasining taʼsis etilishi va uning faoliyatiga doir boshqa maʼlumotlarni hamda sugʻurta shartnomalarining ochiq-oydinligini taʼminlash boʻyicha toʻliq va atroflicha maʼlumotlarni

taqdim etish masalasini qonun yo‘li bilan o‘rnatishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta sohasida iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish borasida shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjatlari tarkibiga Fuqarolik kodeksining 52-bob va «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonunni kiritish mumkin. Ular sug‘urta mahsuloti iste‘molchilariga shartnomaviy munosabatlarda imperativ normalarni belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 52-bobi, 927-moddasida sug‘urta shartnomalari yozma ravishda tuzilishi ko‘rsatilgan. Bu talabni bajarmaslik shartnomani haqiqiy emas, deb topish uchun asos bo‘ladi. Shuningdek, ushbu kodeksning 929-moddasida sug‘urta shartnomasining muhim shartlari qayd etilgan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- sug‘urta obyekti bo‘lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to‘g‘risida;
- yuz berishi ehtimol tutilib sug‘urta amalga oshirilayotgan voqea (sug‘urta hodisasi)ning xususiyati to‘g‘risida;
- sug‘urta puli miqdori to‘g‘risida;
- sug‘urta to‘voni miqdorini aniqlash tartibi to‘g‘risida, agar shartnomada uni sug‘urta pulidan oz miqdorda to‘lash mumkinligi nazarda tutilgan bo‘lsa;
- sug‘urta mukofotining miqdori va uni to‘lash muddati (muddatlari) to‘g‘risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to‘g‘risida.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi tuzishda sug‘urta qildiruvchi bilan sug‘urtalovchi o‘rtasida quyidagilar to‘g‘risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug‘urtalangan shaxs to‘g‘risida;
- sug‘urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug‘urta amalga oshirilayotgan voqea (sug‘urta hodisasi)ning xususiyati to‘g‘risida;
- sug‘urta puli miqdori to‘g‘risida;
- sug‘urta mukofotining miqdori va uni to‘lash muddati (muddatlari) to‘g‘risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to‘g‘risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug‘urta shartnomasi sug‘urta qildiruvchi, sug‘urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan

shartlarni o'z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o'rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo'llaniladi.

Fuqarolik kodeksining 931-moddasiga ko'ra, sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sug'urtalovchiga xabar qilishi shart. Sug'urta shartnomasi (polisi)ning standart shaklida, sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida yoki yozma so'rovda sug'urtalovchi tomonidan oldindan aniq aytib qo'yilgan holatlar muhim deb hisoblanadi. Agar sug'urta shartnomasi sug'urtalovchining qandaydir savollariga sug'urta qildiruvchining javoblari bo'lmagan holda tuzilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tegishli holatlar sug'urta qildiruvchi tomonidan ma'lum qilinmaganligiga asoslanib, keyinchalik shartnomani bekor qilishni yoxud uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi. Agar sug'urta shartnomasi tuzilganidan keyin ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar to'g'risida sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga bila turib yolg'on ma'lumot berganligi aniqlansa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va ushbu kodeksning 123-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan oqibatlar qo'llanilishini talab qilishga haqli. Agar sug'urta qildiruvchi aytib qo'ymagan holatlar o'tib ketgan bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida qayd etilganidek, sug'urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi. Quyidagilar shunday holatlar jumlasiga kiradi, chunonchi:

- sug'urtalangan mol-mulkning yuz bergan sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lishi;
- tadbirkorlik xavfini yoki ana shu faoliyat bilan bog'liq fuqaroviy javobgarlik xavfini sug'urtalagan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini belgilangan tartibda to'xtatishi.

Sug'urta shartnomasi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha muddatidan oldin bekor bo'lganda, sug'urtalovchi sug'urta mukofotining bir qismini sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish huquqiga ega.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi), agar voz kechish paytiga kelib

sug'urta hodisaning yuz berish ehtimoli ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yo'qolmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasidan muddatidan ilgari voz kechgan taqdirda, sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qaytarib berilmaydi.

Mulkiy sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) va sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida aytib qo'yilgan o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi.

Sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilingan sug'urtalovchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishga haqli. Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasining shartlari o'zgartirilishiga yoki sug'urta mukofotiga qo'shimcha to'lashga e'tiroz bildirsa, sug'urtalovchi ushbu kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq shartnomani bekor qilishni talab etishga haqli. Sug'urta qiluvchi yoxud naf oluvchi ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatini bajarmagan taqdirda, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini bekor qilishni va shartnomani bekor qilish tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab etishga haqli.

Sug'urtalovchi, agar sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar bo'lmasa, sug'urta shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqli emas. Shaxsiy sug'urtada, sug'urta shartnomasining amal qilishi davrida ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan sug'urta xavfining o'zgarishi oqibatlari, agar ular shartnomada to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsagina, yuzaga kelishi mumkin.

Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi yuz bergani o'ziga ma'lum bo'lganidan keyin bu haqda darhol sug'urtalovchini yoki uning vakilini xabardor qilishi shart. Agar shartnomada xabar qilish muddati va (yoki) usuli nazarda tutilgan bo'lsa, bu shartlashilgan muddatda va shartnomada ko'rsatilgan usulda

qilinishi lozim. Agar naf oluvchi o'zining foydasiga tuzilgan shartnoma bo'yicha sug'urta tovoniga bo'lgan huquqdan foydalanish niyatida bo'lsa, ayni shunday majburiyat naf oluvchi zimmasida bo'ladi. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatning bajarilmasligi sug'urtalovchiga, agar sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganini o'z vaqtida bilganligi, yoxud bu haqda sug'urtalovchida ma'lumotlar yo'qligi uning sug'urta tovonini to'lash majburiyatiga ta'sir etmasligi isbotlanmasa, sug'urta tovonini to'lashni rad etish huquqini beradi. Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar, agar sug'urtalangan shaxsning vafoti yoki uning sog'lig'iga zarar yetkazilishi sug'urta hodisasi bo'lsa, tegishli suratda shaxsiy sug'urta shartnomasiga nisbatan qo'llaniladi. Bunda sug'urtalovchini xabardor qilishning shartnomada belgilanadigan muddati yigirma kundan kam bo'lishi mumkin emas.

Sug'urtalovchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) sug'urta tovonini yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lashni quyidagi hollarda rad etishga haqli, chunonchi:

- sug'urta shartnomasining amal qilishi sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar, shu jumladan, ushbu kodeksning 948- va 950-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha bekor qilinganda;

- sug'urta shartnomasi ushbu kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaganda;

- sug'urtalovchi ushbu kodeksning 951–954-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha sug'urta tovonini yoki sug'urta puli to'lashdan ozod qilinganda;

- sug'urtalovchi ushbu kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sug'urta shartnomasini haqiqiy emas deb topish to'g'risida yoxud sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta hodisasi holatlarini tekshirib ko'rishga yoki yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashga to'sqinlik qilgani tufayli sug'urta shartnomasini bekor qilish to'g'risida da'vo qo'zg'atganida. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) ular sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni so'rab murojaat etganlaridan keyin o'n besh kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etishiga qarshi unga nisbatan sud da'vo qo'zg'atish yo'li bilan e'tiroz bildirilishi mumkin.

11.3. Sug'urta xizmatlari ko'rsatishni standartlashtirish orqali iste'molchilarning manfaatlarini muhofaza qilish

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 26-dekabrda 120-son buyrug'i bilan «Biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlari to'g'risidagi nizom» tasdiqlangan. Bu Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 28-yanvarda 1891-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlarini belgilaydi.

Ta'kidlash lozimki, biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlarini ko'rsatish deganda, tadbirkorlik xavflarini sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta himoyasini taqdim etish tushuniladi. Mazkur Nizom bilan belgilangan yagona talablar biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlarini taqdim etayotgan sug'urtalovchilar uchun majburiydir. Biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlari ko'rsatishning standartlari standart tushunchalar va sug'urta xizmatlari ko'rsatishning standart shartlaridan iboratdir. Sug'urta xizmatlari ko'rsatishning standartlari, agar qonun hujjatlarida yoki sug'urta shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda qo'llaniladi.

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urtalovchi iste'molchiga (tadbirkorlik xavfini sug'urtalash shartnomasini tuzmoqchi bo'lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorga) quyidagilar haqida haqqoniy va to'liq axborotni taqdim etishi shart:

- a) sug'urtalovchi haqida (oshkora axborotni);
- b) sug'urtalovchi nomidan va topshirig'iga binoan faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta vositachilari (sug'urta agentlari) haqida (agar iste'molchi tomonidan bunday talab mavjud bo'lgan taqdirda);
- d) sug'urta xizmati, ya'ni uning narxi (sug'urta mukofoti), qoplamasi, shartlari, xizmatning maqsadlari, tavakkalchilik omillari, kafolatlar, maxsus istisnolari va hokazo haqida;
- e) sug'urta xizmatining iste'molchi uchun afzalliklari va kamchiliklari haqida;
- f) sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchining majburiyatlari haqida;

g) sug'urta mukofotlari (badallari) va mablag'larning kutilayotgan qaytarilishi haqida (qo'llanilishi mumkin bo'lganda);

h) sug'urta da'volarini hal etish tartibi va sug'urta shartnomasining boshqa shartlari haqida.

Sug'urtalovchi taqdim etayotgan axborot barcha muhim shartlar (pozitsiyalar) bo'yicha aniq va ravshan, yanglishtirmaydigan, oson tushuniladigan va yozma shaklda yoki tegishli elektron tashuvchilarda bo'lishi shart.

Sug'urtalovchi:

– O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lgan sug'urta xizmatlarini taqdim etishi;

– sug'urta xizmatlarini, hatto ular amalga oshirilishining o'ziga xos shartlariga ega bo'lgan holatlarda ham, Nizomning talablariga muvofiq ko'rsatishi;

– o'z xodimlarining barcha ishlarini qonun hujjatlariga muvofiq-ligini ta'minlashi;

– ko'rsatilayotgan xizmatlar haqida to'liq ma'lumot, shuningdek, sug'urta shartlaridagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida axborot taqdim etishi;

– iste'molchining talablariga aynan mos keluvchi sug'urta xizmatlarini tanlashga yordam berishi;

– sug'urta hodisasi yuz berganda, sug'urta tovonini o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashi;

– o'z ishidagi xatolarni so'zsiz tuzatishi hamda sug'urta qildiruvchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqishi shart.

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi-ning 929-moddasida nazarda tutilgan sug'urta shartnomasining muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishilishi hamda ular sug'urta shartnomasida aniq va ravshan bayon etilishi shart. Sug'urta shartnomasi yanglishtiruvchi tasvirlovchi harakatlar yoki ta'riflardan xoli bo'lishi shart. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urtalovchi qonun hujjatlarida va yoki umum qabul qilingan amaliyotda nazarda tutilgan sug'urta qildiruvchi oldidagi qaysidir majburiyatini yoki javobgarligini istisno qilish yoki cheklashga intilib, qaysidir me'yorni asossiz ravishda dalil qilib ko'rsatishga haqli emas. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta-lovchining qaysidir savollariga sug'urta qildiruvchining javoblari bo'lmagan holda tuzilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tegishli holatlar sug'urta

qildiruvchi tomonidan ma'lum qilinmaganligiga asoslanib keyinchalik shartnomani bekor qilishni yoxud uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Sug'urtalovchilar sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va hal etish tizimini yaratishlari va qo'llab-quvvatlashlari shart. Sug'urtalovchilar sug'urta da'volarini o'z vaqtida va odilona hal etishlari shart. Sug'urta da'volarini samarali va tez hal etish mumkin bo'lgan sug'urta da'volarini va nizolarni hal etishning sodda va obyektiv jarayoni mavjud bo'lishi, ushbu jarayon aniq va oson tushuniladigan bo'lishi lozim. Sug'urtalovchi sug'urta da'volarini ko'rib chiqishning muqobil mexanizmi sifatida o'zidan mustaqil bo'lgan tashkilotga (masalan, Assistans xizmati yoki adjasterlarga) murojaat qilishga haqli.

Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan voqea sodir bo'lganligi to'g'risida xabarni va ushbu voqeaga aloqador hujjatlarni olgandan keyin uch bank kuni bo'lgan muddatdan kechiktirmay yetkazilgan zararlarning sabablari va miqdorlarini aniqlash uchun ahamiyatga ega bo'lgan qo'shimcha hujjatlarni so'rashga haqli. Agar sug'urtalovchi voqeani sug'urta hodisasi deb tan olsa, u sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuzishi, unda sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga to'lashi lozim bo'lgan sug'urta tovonining miqdorini ko'rsatishi va sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgan kundan boshlab besh bank kuni bo'lgan muddatdan kechiktirmay sug'urta tovonini to'lashi shart. Voqea sug'urta hodisasi deb tan olinmasa, sug'urta qildiruvchi zararlarni qoplash talabi bilan murojaat etgan kundan boshlab o'n besh kun bo'lgan muddatdan kechiktirmay sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchiga rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan xabarnomani yo'llashi shart.

Sug'urta shartnomalari va biznes sohasi uchun sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa hujjat aylanmasida (ish xatlarida, zararlarni hal etish hujjatlarida va sh.k.) foydalaniladigan asosiy atamalar va ta'riflarning turlicha talqin etilishini oldini olish maqsadida, quyidagi standart tushunchalar qo'llaniladi:

- **aylanma** – sug'urta qildiruvchi tomonidan sotilgan va yetkazib berilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) uchun sug'urta qildiruvchiga to'lanilayotgan (siylovlar chegirilgan holda) va to'langan pul mablag'lari;

- **biznesning to'xtashi** – sug'urta qildiruvchining odatdagi faoliyatini yuritishiga to'sqinlik qiladigan tashqi va ichki omillar bilan bog'liq ravishda tadbirkorlik faoliyatining to'xtashi;

- **joriy xarajatlar** – sugʻurtalangan faoliyatning toʻxtashi davrida sugʻurta qildiruvchining muqarrar ravishda davom etayotgan xarajatlari;

- **kontragent** – sugʻurta qildiruvchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kiruvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

- **kontrakt** – sugʻurta qildiruvchi va kontragent oʻrtasida haq evaziga tuzilgan tovarlarning oldi-sotdi (xizmatlar koʻrsatish, ish bajarish) shartnomasi;

- **kutish davri** – kontraktida koʻrsatilgan toʻlov sanasidan boshlab hisoblanadigan, sugʻurta shartnomasida kelishilgan voqea natijasida sodir boʻlgan zararni qoplashgacha oʻtishi lozim boʻlgan ketma-ket kalendar kunlari soni;

- **sugʻurta shartnomasi** – yozma kelishuv boʻlib, unga koʻra sugʻurtalovchi kelishuvda shartlashilgan haq (sugʻurta mukofoti) evaziga kelishuvda nazarda tutilgan voqea (sugʻurta hodisasi) sodir boʻlganda sugʻurta qildiruvchiga sugʻurta tovonini toʻlash majburiyatini oladi;

- **sugʻurtalangan faoliyat** – mahsulot ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish, ish bajarish va (yoki) isteʼmolchilarga tovar sotish boʻyicha sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan sugʻurta qildiruvchining xoʻjalik faoliyati (biznesi);

- **sugʻurtalovchi javobgarligining limiti** – sugʻurta shartnomasida belgilanadigan pul miqdori boʻlib, uning chegarasida har bir alohida yoki barcha sugʻurta hodisalari boʻyicha sugʻurta tovonining miqdori belgilanadi;

- **sugʻurta davri** – sugʻurtalovchi sugʻurta shartnomasi amalda boʻlgan davrda sodir boʻlgan sugʻurta hodisalari boʻyicha majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladigan davr;

- **sugʻurtalovchi** – umumiy sugʻurta sohasining tegishli klasslari boʻyicha sugʻurtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega boʻlgan va sugʻurta shartnomasiga muvofiq sugʻurta tovonini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti boʻlgan yuridik shaxs;

- **sugʻurta qildiruvchi** – sugʻurtalovchi bilan sugʻurta shartnomasini tuzgan, sugʻurta shartnomasida kelishilgan sugʻurta mukofotini (sugʻurta toʻlovini) toʻlovchi va sugʻurtalovchi bilan aniq sugʻurta munosabatlariga kiruvchi har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

- **sugʻurta polisi** – sugʻurta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi va sugʻurta qildiruvchiga u sugʻurta mukofotini yoki uning birinchi qismini toʻlagandan keyin beriladigan hujjat;

- **sug'urta summasi** – sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchining kelishuviga muvofiq belgilanadigan pul mablag'lari miqdori bo'lib, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini undan oshmagan miqdorda to'lash majburiyatini oladi;

- **sug'urta hodisasi** – sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan va u sodir bo'lishi bilan sug'urtalovchining sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lovini amalga oshirish majburiyati kelib chiqadigan yuz bergan voqea;

- **sug'urta mukofoti** – sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi;

- **sug'urta tovonini** – sug'urtalovchi sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta qildiruvchi ko'rgan zararlarini sug'urta summasidan oshmagan miqdorda to'laydigan pul mablag'lari miqdori;

- **standart aylanma** – zarar ko'rishdan bevosita avvalgi o'n ikki oyga teng qoplama to'lashning eng ko'p davriga to'g'ri keladigan mablag'lar aylanmasi;

- **sug'urta hududi** – sug'urta amalda bo'ladigan hudud. Sug'urta shartnomasi sug'urta hududida sodir bo'lgan hodisalarga nisbatan amalda bo'ladi;

- **tegishli ravishda tovarlarni jo'natish (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish)** – kontraktning shartlari va muddatlariga muvofiq kontragentga tovarlarni jo'natish (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish), bunda:

a) *jo'natilgan tovarlar* (ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) kontragent tomonidan kontrakt shartlari va muddatlariga muvofiq qabul qilib olingan;

b) *tovarlar* (xizmatlar, ishlar) sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda jo'natilgan (ko'rsatilgan, bajarilgan);

d) tovarlar (xizmatlar, ishlar) kontrakt valutasiga sotilgan (ko'rsatilgan, bajarilgan);

e) *tadbirkorlik xavfi* – tadbirkorning kontragentlari o'z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarga ko'ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o'zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi;

f) *foydaning yo'qotilishi* – sug'urta qildiruvchi sug'urtalangan faoliyatidan biznesi to'xtashi davrida olishi mumkin bo'lgan foyda;

g) *franshiza* – sugʻurta shartnomasida nazarda tutilgan, sugʻurtalovchi tomonidan qoplanmaydigan sugʻurta qildiruvchi zararlarining bir qismi. Franshiza ham sugʻurta summasidan foizlar koʻrinishida, ham aniq summada oʻrnatilishi, hamda shartli va shartsiz boʻlishi mumkin. Shartli franshiza oʻrnatilganda, sugʻurtalovchi franshiza miqdoridan koʻp boʻlmagan zarar uchun javobgarlikdan ozod boʻladi. Shartsiz franshiza oʻrnatilganda esa, sugʻurtalovchining javobgarligi zarardan franshiza miqdorini chegirib qolgan holda aniqlanadi.

Shuningdek, sugʻurta shartnomalarida vaqt koʻrinishidagi franshiza (vaqt franshizasi), yaʼni zarar sodir boʻlgan paytdan boshlanib, belgilangan vaqt oʻtishi bilan tugaydigan vaqt oraligʻi oʻrnatilishi ham mumkinki, bu vaqt oraligʻi davomida koʻrilgan zararlar qoplanmaydi.

Sugʻurta shartnomasi sugʻurta qildiruvchining quyidagi hujjatlar ilova qilingan yozma arizasi asosida tuziladi:

a) sugʻurta qildiruvchi faoliyatining qonuniyligini belgilaydigan hujjatlar (ushbu turdagi faoliyat bilan shugʻullanish uchun ruxsatnoma, litsenziya va b.);

b) sugʻurta himoyasi soʻralayotgan kontrakt (shartnoma, bitim) nusxasi (zarurat boʻlganda);

d) sugʻurtalovchiga tavakkalchilik darajasini baholashga imkon beruvchi boshqa hujjatlar.

Sugʻurtalovchi taqdim etilgan hujjatlar asosida sugʻurta shartnomasini tuzish imkoniyati toʻgʻrisida qaror qabul qiladi. Sugʻurtalovchi sugʻurta qildiruvchi tomonidan xabar qilingan, sugʻurta shartnomasiga aloqador maʼlumotlarni tekshirishga haqli. Xususan, sugʻurtalovchi yoki uning vakillari sugʻurta qildiruvchining kontragenti bilan kontrakt munosabatlariga aloqador hujjatlarni yoki ularning nusxalarini tekshirish huquqiga ega.

Sugʻurta shartnomasi tuzilgandan soʻng ariza uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Bir yil davomida amalda boʻladigan bir nechta (qator) kontraktlarga nisbatan Bosh sugʻurta shartnomasini tuzishda sugʻurta mukofotlarini tegishli kontraktlar sugʻurtalashga qabul qilinishi bilan toʻlashga yoʻl qoʻyiladi. Bosh sugʻurta shartnomasi quyidagi shartlarga amal qilinganda tuzilishi mumkin:

a) kontraktlar bir xil turda boʻlishi lozim (savdo-sotib olish yoki vositachilik yoki sh.k.);

b) kontragentlar tarkibi Bosh sugʻurta shartnomasi amalda boʻlgan

muddatda doimiy bo'lishi va uni tuzishdan oldin sug'urtalovchiga ma'lum bo'lishi lozim.

Sug'urta qildiruvchining talabiga binoan sug'urtalovchi Bosh sug'urta shartnomasining ta'sir doirasida bo'ladigan alohida kontraktlar bo'yicha sug'urta polislarini berishi shart. Sug'urta polisining mazmuni Bosh sug'urta shartnomasiga nomuvofiq bo'lgan taqdirda, sug'urta polisi afzal ko'riladi.

Tavakkalchilik darajasi o'zgarganda qoplanayotgan tavakkalchiliklarning tavsifidan kelib chiqib, sug'urtalovchi maxsus ishlab chiqilgan tariflarni qo'llashga haqli. Sug'urtalovchidan sug'urta tovonni talab etilganda sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini va zararning miqdorini tasdiqlovchi hujjatlarni yoki ularning nusxalarini, yoki boshqa dalillarni (kontrakt, yuk hujjatlari, hisob-fakturalar, to'lov hujjatlari, sug'urta qildiruvchi va debitor o'rtasidagi yozishmalarni, ushbu zararga tegishli boshqa hujjatlarni) hamda voqeaning sodir bo'lish sabablaridan kelib chiqib boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Sug'urta tovonining miqdorini aniqlashda arizada ko'rsatilgan daromadni olish uchun sug'urta qildiruvchi ko'rgan chora-tadbirlari va shu maqsadda amalga oshirgan tayyorgarliklarini tasdiqlovchi hujjatlar sug'urtalovchi tomonidan inobatga olinadi va o'rganib chiqiladi (sug'urta qildiruvchi tomonidan tovarlar, uskunalar (qarzdordan butlovchi qismlarni olishni hisobga olgan holda) va shokazoyetkazib berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnomalari (kontraktlari), yangi uskunalarni o'rnatish bo'yicha tayyorgarlik ishlarini olib borilishi va boshqa shu kabi dalillar).

Agar sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lmasa, sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchidan tushuntirishlar va tegishli qo'shimcha hujjatlarni (buxgalteriya, bank hujjatlarini va b.), shu jumladan, dalolatnomalar hamda auditorlik va baholovchi tashkilotlarning xulosalarini so'rashga, zarur hollarda esa, sodir bo'lgan voqeaning tafsilotlari, sug'urta qildiruvchining ololmagan daromadlarning (yo'qotish) sabablari va miqdorini ekspert baholash uchun mutaxassislarni (ekspertlarni) jalb qilishga, shuningdek, sodir bo'lgan voqeaning tafsilotlarini va zararning miqdorini aniqlash bo'yicha boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqli.

Sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda tegishli ravishda jo'natilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) uchun

sug'urtalovchi tomonidan zararni qoplash bo'yicha talablar zarar yuz bergan paytdan boshlab uch yil mobaynida qabul qilinadi. Sug'urta qildiruvchi zararni keltirib chiqargan voqeaning sodir bo'lganligi haqida xabar qilganda, sug'urtalovchi sug'urta da'vosini ko'rib chiqish va sodir bo'lgan voqeaning turi, sabablari va tafsilotlarini batafsil o'rganib chiqish uchun o'z xodimini yoki boshqa shaxsni yuborishga haqli. Sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchining vakiliga sodir bo'lgan voqeaning turi, sabablari va tafsilotlarini o'rganib chiqish imkoniyatini ta'minlashi yoki zararni keltirib chiqargan voqea sodir bo'lganligini tasdiqlovchi video-, fotomateriallarni va boshqa hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Sug'urta hodisasining sodir bo'lishi munosabati bilan jinoiy ish, fuqarolik sud ishi yoki ma'muriy jazolar qo'llash haqida ish qo'zg'atilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tegishli summalarni to'lash to'g'risidagi qarorning qabul qilinishini mutasaddi idoralar tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar kechiktirishga haqli. Sodir bo'lgan voqea, zararlar hajmi va sug'urta to'voni miqdori bo'yicha tomonlar o'rtasida kelishmovchiliklar bo'lmasa, sug'urtalovchi to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'voni miqdori ko'rsatilgan sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani (sug'urta dalolatnomasini) tuzadi.

Tomonlar sug'urta shartnomasi yoki tomonlarning moliyaviy ahvoriga tegishli ma'lumotlarni nashr etish, boshqa usul bilan uchinchi shaxslarga oshkor qilish huquqiga ega emaslar. Sug'urta shartnomasini tuzish va ijro etish jarayonida yuzaga keladigan barcha bahs va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal etilishi, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etilishi lozim.

Nazorat uchun savollar

1. Sug'urta bozorining iste'molchilari kimlar?
2. Sug'urta bozori iste'molchilarining haq-huquqlari qanday tarzda himoyalanaadi?
3. Sug'urta bozori iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishda davlat sug'urta nazorati organining vazifalari nimalardan iborat?
4. Sug'urta nazorati davlat organi sug'urta bozori iste'molchilarining huquqlarini himoyalash maqsadida qanday tadbirlarni amalga oshiradi?
5. Sug'urta bozori iste'molchilarining huquqlarini himoyalash

bo'yicha «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunda nimalar deyilgan?

6. Sug'urta mahsuloti iste'molchilarining shikoyatlari, murojaatlari va noroziliklari ko'proq qaysi yo'nalishlarga qaratilgan?

7. Sug'urtalovchilarning xatti-harakatlariga nisbatan shikoyatlarning ko'payishi nimani anglatadi?

8. Sug'urta shartnomalarida iste'molchilarning huquqlari qanday yo'llar bilan ta'minlanadi?

9. Sug'urta xizmatlarini standartlashtirish orqali sug'urta bozori iste'molchilarining huquqlari qanday himoya qilinadi?

12-mavzu. XALQARO SUG‘URTA BOZORI

12.1. Xalqaro sug‘urta bozori va uning jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi o‘rni.

12.2. Xalqaro sug‘urta bozori rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar: sug‘urta mukofotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, sug‘urta mukofotlarining aholi jon boshiga taqsimoti va boshqalar.

12.3. Xalqaro sug‘urta bozorini tartibga soluvchi institutlar, me‘yorlar va standartlar.

12.1. Xalqaro sug‘urta bozori va uning jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi o‘rni

XX asr oxirlarida jahon siyosiy va iqtisodiy tizimida ro‘y bergan o‘zgarishlar, shak-shubhasiz globalizatsiya jarayonlarining shakllanishiga va kengayishiga turtki bo‘ldi. Sobiq Ittifoq davlatlarida ma‘muriy-buyruqbozlik va rejali iqtisodiyotdan voz kechilishi hamda bozor munosabatlariga asoslangan rivojlanish yo‘lini tanlash nafaqat MDH doirasida yangicha shakl va mazmunga mos integratsiyasini, balki xalqaro miqyosda savdo-iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalarning taraqqiy etishiga olib keldi. Bu holat, o‘z navbatida, dunyo mamlakatlari moliyakredit, jumladan sug‘urta tizimlarining xalqaro darajada o‘ziga xos bozorining shakllanishi va rivojlanishiga imkoniyat yaratdi.

Jahon iqtisodiy tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi hali-hanuz alohida-alohida olingan davlatlar yoki davlatlarning mintaqaviy birlashmalari (Shimoliy Amerika bitimi, Yevropa Ittifoqi va shu kabilar) iqtisodiy tizimlari bilan uzviy bog‘liq. Bundan tashqari, jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga ayrim davlatlarning butun budjeti darajasida pul mablag‘lari aylanmasiga ega transmilliy ishlab chiqarish korporatsiyalari, banklar jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar jahon iqtisodiyotining tez rivojlanib borayotgan segmentlaridan biri xalqaro sug‘urta bozoriga ham tegishlidir. Xalqaro sug‘urta bozorida globallashtiruv jarayonlari alohida davlatlar

tomonidan bu sohada qabul qilingan qonunlarni xalqaro norma va standartlarga muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatayapti.

Xalqaro sug'urta bozorining rivojlanishi quyidagi omillar bilan bog'liq:

- xalqaro iqtisodiy munosabatlar, eksport-import operatsiyalari bo'yicha yuzaga kelayotgan risklarning sug'urta himoyasiga olinishi;

- ayrim davlatlar yirik sug'urta kompaniyalarining boshqa davlatlar sug'urta bozorlarida qo'shma kompaniyalar va filiallar tashkil etish yo'li bilan ishtirok etishi;

- qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik;

- o'zaro tajriba almashish va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida turli kelishuv va shartnomalarning imzolanishi. Ularda xalqaro konferensiyalar uyushtirish, kadrlar malakasini oshirish kabi tadbirlarning ko'zda tutilishi va boshqalar.

Xalqaro sug'urta bozori va unda faoliyat ko'rsatayotgan yirik transmilliy sug'urta kompaniyalari jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Masalan, 2011-yilda jahon miqyosida eng yirik hisoblangan 20 ta sug'urta kompaniyalari tomonidan 1,015 trln AQSh dollari miqdorida sug'urta mukofotlari to'plangan. Sug'urta kompaniyalari tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlarining katta qismi zaxiralarda to'planishini inobatga olsak, sug'urtalovchilarning investitsion jarayonlardagi ishtiroki yuqori ekanligi namoyon bo'ladi.

2012-yil boshlarida jahonning eng yirik 20 ta sug'urta kompaniyasi yalpi biznesi hajmi 8,46 trln AQSh dollari miqdorida aktivlarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Mazkur aktivlarning 5,26 trln AQSh dollari nisbatan daromad keltiradigan obyektlarga joylashtirilgan. 2011-yil ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro sug'urta bozorida eng yuqori investitsiya mablag'lariga ega kompaniya Fransiyaning «AXA» sug'urta guruhi hisoblanadi. Uning investitsiya portfeli 780,0 mlrd AQSh dollarini, aktivi esa – 941,0 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi. Shuningdek, 2011-yilda eng yuqori hajmdagi investitsiya portfeliga ega kompaniyalar tarkibiga AQShning «MetLife» va «Nippon Life Insurance» sug'urta kompaniyalari ham kirgan. Ikkala kompaniya ham hayotni sug'urtalashga ixtisoslashgan bo'lib, umumiy sug'urta sohasida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalariga nisbatan aktivlarning katta qismi investitsiya obyektlariga yo'naltirilgan.

12.2. Xalqaro sug'urta bozori rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar: sug'urta mukofotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, sug'urta mukofotlarining aholi jon boshiga taqsimoti va boshqalar

Xalqaro sug'urta bozorining rivojlanishini ifodalovchi shunday ko'rsatkichlar borki, bu ko'rsatkichlarga asoslanib u yoki bu davlatning xalqaro sug'urta bozorida tutgan o'rniga, mavqeyiga baho beriladi. Aslida xalqaro sug'urta bozori Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi sug'urta bozorlaridan tarkib topgan. Yevropa Ittifoqi sug'urta bozorining xalqaro sug'urta bozoridagi roli nisbatan yuqori bo'lganligi sababli mazkur qit'ada sug'urta bozori rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz.

Yevropa Ittifoqi sug'urta bozori dunyoda shiddat bilan rivojlanib borayotgan bozorlardan biri hisoblandi. 2008-yilda boshlangan va bugungi kunda ham davom etib kelayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Yevropa Ittifoqi sug'urta bozori rivojlanishiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Shunday bo'lishiga qaramay, yevropa sug'urta bozori jahonning yirik sug'urta bozori sifatidagi mavqeyini saqlab qolgan. 2008-yil ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak, Yevropa sug'urta bozorining jahon sug'urta bozoridagi ulushi 41,1 foizni tashkil etgan.

12-jadval

Qit'alarning jahon sug'urta bozoridagi salmog'i (foizda)¹

t/r	Qit'alar	2005	2006	2007	2008
1	Amerika	37,4	36,3	34,6	34,0
2	Yevropa	37,5	39,6	42,8	41,1
3	Osiyo	22,2	21,1	19,7	21,9
4	Okeaniya	1,2	1,6	1,7	1,8
5	Afrika	1,7	1,4	1,2	1,2
Jahon bo'yicha		100,0	100,0	100,0	100,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2005–2008-yillarda jahon miqyosida to'plangan sug'urta mukofotlarining salmoqli qismi Yevropa qit'asiga to'g'ri kelgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda Yevropa qit'asi bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlarining katta qismi, shubhasiz, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning

¹ www.sigma.com.

sugʻurta bozorlariga toʻgʻri keladi. Bu yerda Buyuk Britaniya sugʻurta bozorining nafaqat Yevropa qitʻasi sugʻurta bozoriga, balki dunyo sugʻurta bozorining rivojlanishiga qoʻshayotgan hissasini eʼtirof etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yevropa sugʻurta bozorining markazida, shubhasiz, Buyuk Britaniya sugʻurta bozori turadi. Buyuk Britaniya jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Keyingi oʻn yil mobaynida jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga Buyuk Britaniya sanoatining qoʻshayotgan hissasi sezilarli darajada kamaygan, uning tovarlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi tushib ketgan boʻlsada, Buyuk Britaniyaning moliya-kredit tizimi hamon dunyoda yetakchi oʻrinlardan birini egallab kelmoqda.

Sugʻurta kompaniyasi uzoq muddatli sugʻurta shartnomalarini tuzish yoʻli bilan aholidagi vaqtincha boʻsh mablagʻlarini sugʻurta fondiga jalb etadi. Xuddi shunday, ular korxonalar va banklar bilan ham mol-mulk sugʻurtasi boʻyicha shartnomalar tuzib, katta miqdorda sugʻurta fondini shakllantiradi. oʻz navbatida, sugʻurta kompaniyasi bu fondning mablagʻlarini iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yoʻnaltiradi.

Bozor munosabatlari asosida faoliyat koʻrsatayotgan sugʻurta kompaniyalari Buyuk Britaniya iqtisodiyotining muhim strategik sohasi hisoblanadi. 2008-yilda sugʻurta kompaniyalari tomonidan yigʻilgan sugʻurta mukofotlari umumiy 157,5 mlrd funt sterlingni tashkil etdi. Bu yalpi ichki mahsulotning 12,5 foizi demakdir. Shuni alohida taʼkidlash zarurki, yigʻib olingan sugʻurta mukofotlarining deyarli 45 foizi sugʻurta kompaniyalarining chet mamlakatlarda olib borgan sugʻurta operatsiyalariga toʻgʻri keladi. Buyuk Britaniya toʻlov balansini strukturasi tahlil qiladigan boʻlsak, valuta tushumlarining 50 foizi sugʻurta mukofotlari hisobiga toʻgʻri kelganligini koʻramiz. Buyuk Britaniya sugʻurta kompaniyalari jahonning 43 ta mamlakatida sugʻurta operatsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

Buyuk Britaniyada sugʻurta ishini faol rivojlanishiga quyidagi omillar taʼsir qilgan, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Birinchidan, bu yerda tadbirkorlikni erkin yuritish uchun hukumat yoki qonunchilik tomonidan eng kam nazorat tizimi joriy qilingan. Bu holat, soʻzsiz Buyuk Britaniyada faoliyat koʻrsatayotgan xorijiy sugʻurta kompaniyalari uchun ham tatbiq etiladi. Hozirgi paytda Buyuk Britaniya sugʻurta bozorida xorijiy mamlakatlarning 150 ga yaqin kompaniyalari sugʻurta operatsiyalarini amalga oshirmoqda. Ikkinchidan, jahon miqyosida

erishilayotgan tijorat bitimlarining anchagina qismi Angliya hissasiga to'g'ri keladi. Agar tuzilgan bitimlarning ijrosi bo'yicha e'tirozlar kelib chiqadigan bo'lsa, sug'urta kompaniyalari darhol bunga sug'urta qoplamasini to'lashadi. Bu, o'z navbatida, biznesni xalqaro darajada rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O'nlab yillar davomida Buyuk Britaniyada, hamma uchun qulay bo'lgan soliqqa tortish tizimi shakllangan. Amaldagi soliqqa tortish tizimi yirik miqdordagi zaxira jamg'armalarini shakllantirishini va ularni investitsiya qilishni rag'batlantiradi.

Buyuk Britaniya milliy sug'urta kompaniyalari o'zlarining chet mamlakatlardagi bo'lim va filiallari orqali xalqaro sug'urta bozorlarida ishtirok etmoqda. Xorijiy mamlakat sug'urta kompaniyalarini Buyuk Britaniya bozorlariga intilishi, Londonda xalqaro ahamiyatga molik sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish va transmilliy kompaniyalarga xizmat ko'rsatish kabi qiziqishlari bilan bog'liq. Yuqorida qayd etganimizdek, sug'urta kompaniyalari yig'gan sug'urta mukofotlarining katta qismi ularning chet mamlakatlarda olib borgan operatsiyalari hisobidan shakllanadi. Masalan, «Royyal Inshurens» kompaniyasi sug'urta mukofotlarining 68,4 foizi tashqi manbalardan kelib tushgan. Shuningdek, «Kommersial Yunion» va «Jeneral eksident» kompaniyalarining 60 foizga yaqin sug'urta mukofotlari xorijiy mamlakatlardan (asosiy qismi AQSh va Kanadadan) kelib tushgan.

Buyuk Britaniyada sug'urtaga aholining hurmat bilan qarashini 13-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2008-yilda alohida mamlakatlar doirasida milliy sug'urta bozorlari bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlarini aholi jon boshiga taqsimlaganda dunyoda birinchi o'rinni Shveysariya davlati egallab turibdi. Bu davlatda bir yilda bitta fuqaroning sug'urtaga sarflagan xarajatlari o'rtacha 5740,2 AQSh dollarini tashkil etgan. Uning katta qismi, ya'ni 3308,6 AQSh dollari hayotni sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta polislarini sotib olishga sarflangan. Qolgan qismi umumiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta polislarini sotib olishga sarflangan.

Shveysariyaning «svissre» qayta sug'urtalash kompaniyasi tomonidan nashr etiladigan va dunyoda sug'urta sohasida rasmiy ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha yetakchi nashrlardan biri «Sigma» jurnalida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, aholi jon boshiga keladigan eng ko'p to'g'ri sug'urta mukofotlari bo'yicha reytingda

Buyuk Britaniya ikkinchi o‘rinni egallagan. Jadvalda keltirilganidek, 2008-yilda bu mamlakat fuqarosi bir yilda sug‘urta kompaniyalariga o‘rtacha 4484,4 AQSh dollari miqdorida sug‘urta mukofotlari to‘lagan. Bu sug‘urta mukofotlarining 71,1 foizi yoki 3190,4 AQSh dollari hayot sug‘urtasiga to‘g‘ri keladi.

13-jadval

Ayrim rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan sug‘urta mukofotlarining aholi jon boshiga taqsimoti¹
(AQSh dollari, 2008-y.)


t/r	Mamlakatlar	Jami	Hayot sug‘urtasi	Umumiy sug‘urta
1	Shveytsariya	5740,2	3308,6	2431,6
2	Buyuk Britaniya	4484,4	3190,4	1294,0
3	Irlandiya	3921,2	2590,7	1330,6
4	Yaponiya	3825,4	3044,4	831,0
5	AQSh	3790,2	1718,0	2072,2
6	Daniya	3684,8	2342,3	1342,5
7	Fransiya	3218,7	2150,2	1058,5
8	Finlandiya	3133,5	2461,0	672,5
9	Germaniya	2285,2	1021,2	1264,0
10	Kanada	2206,2	926,1	1280,1
11	Gonkong	2174,6	1835,9	338,7
12	Tayvan	1909,0	1494,6	414,4

Darhaqiqat, Buyuk Britaniya sug‘urta bozorida hayotni sug‘urta qilish nisbatan taraqqiy etgan. Buni quyidagi diagramma ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkin.

Diagramma ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2008-yili Buyuk Britaniyaning hayotni sug‘urta qilish bozorida ulushi 14 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Buyuk Britaniya dunyoda AQSh va Yaponiyadan keyingi o‘rinda turibdi.

Agar diagramma ma‘lumotlariga diqqat bilan e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, hayotni sug‘urta qilish Yevropa Ittifoqiga a‘zo boshqa davlatlarda ham yuqori darajada rivojlanganligini ko‘ramiz. Masalan, Fransiya davlatining hayotni sug‘urta qilish bozoridagi ulushi 7 foizni tashkil etgan. Germaniyada esa bu ko‘rsatkich 5 foizga teng bo‘lgan.

¹ www.sigma.com.



7-diagramma. Jahon miqyosida hayotni sug'urta qilish bozorida ayrim davlatlarning ulushi¹

Sug'urta kompaniyalari vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larni, asosan sanoat, transport, savdo va boshqa aksiyadorlik kompaniyalarni rivojlanishiga yo'naltiradilar, 2004-yil ma'lumotlariga qaraganda Buyuk Britaniya sug'urta kompaniyalari London Fond birjasida ro'yxatga olingan jami aksiyadorlik kompaniyalarining 22 foiz aksiyalarini sotib olgan. Sug'urtalovchilarning o'z mablag'larini bu investitsiya obyektiga katta miqdorda sarf etishini shu bilan tushuntirish mumkinki, aksiyalar yuqori darajada foyda keltiradilar hamda sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik kompaniyasining yirik miqdordagi aksiyasini sotib olib, ushbu kompaniya ustidan nazorat o'rnatishi mumkin. Ammo shu bilan bir qatorda, aksiyaning kursi pasayib ketishi bilan sug'urta kompaniyalari katta zarar ko'rishi mumkin.

Shuni ta'kidlash zarurki, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda yaratilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida ham sug'urta mukofotlarining ulushi yuqori ko'rsatkichlarga ega. Bu haqda quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ham bilib olish mumkin.

¹ www.sigma.com.


Ayrim rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi salmog‘i,¹ %
(2008-y.)

t/r	Mamlakatlar	Salmog‘i, %
1	Tayvan	14,13
2	Buyuk britaniya	12,50
3	Shveysariya	11,76
4	Yaponiya	10,47
5	Niderlandiya	9,93
6	Janubiy Koreya	9,71
7	AQSh	9,44
8	Fransiya	9,42
9	Gongkong	9,03
10	Finlandiya	8,77
11	Singapur	7,50
12	Kanada	7,09

Ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2008-yilda alohida davlatlar miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulotlar tarkibida sug‘urta mukofotlarining ulushi bo‘yicha jahonda eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri – Yevropa Ittifoqiga a’zo davlat Buyuk Britaniyaga to‘g‘ri kelgan. Ya’ni bu davlatda 2008-yilda yaratilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida sug‘urta mukofotlarining ulushi 12,50 foizni tashkil etgan. Shuningdek, sug‘urta mukofotlarining yalpi ichki mahsulotlagi salmog‘i bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Shveysariya (11,76 foiz), Niderlandiya (9,93 foiz), Fransiya (9,42 foiz) va Finlandiyada (8,77 foiz) kuzatilgan. E’tibor bilan qarasa, dunyoda alohida mamlakatlar yalpi ichki mahsulotlari tarkibida milliy sug‘urtalovchilar tomonidan to‘plangan sug‘urta mukofotlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan 12 ta davlatning 5 tasi yoki 41,7 foizi Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarga to‘g‘ri keladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Yevropa Ittifoqi sug‘urta bozori jahonda eng taraqqiy etgan bozorlardan biridir.

Agar 2008-yilda dunyo miqyosida umumiy sug‘urta bozori bo‘yicha to‘plangan sug‘urta mukofotlarining alohida davlatlar kesimida tahlil etadigan bo‘lsak, bunda ham Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning o‘rni katta ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

¹ www.sigma.com.



8-diagramma. Jahon miqyosida umumiy sug'urtalash bozorida ayrim davlatlarning ulushi¹

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, 2008-yilda jahon miqyosida umumiy sug'urta bozori bo'yicha eng ko'p to'plangan sug'urta mukofotlari bo'yicha reytingda AQShdan keyingi o'rin Yevropa Ittifoqi davlatlariga tegishlidir. Masalan, jahon umumiy sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlarining qariyb 6 foizi Buyuk Britaniyaga, 5 foizi Fransiyaga to'g'ri kelgan. Germaniya esa bu ko'rsatkich bo'yicha Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar ichida birinchi o'rinni egallagan. Bu bejizga emas, albatta. Yevropa sug'urta bozorida Germaniya sug'urtalovchilari katta rol o'ynaydi.

Buni quyidagi jadval ma'lumotlari ham ko'rsatib turibdi.

Xalqaro sug'urta bozorida «Koloniya» (Germaniya), «Kyoln qayta sug'urtalash jamiyati» (Germaniya) va Shveytsariya qayta sug'urtalash jamiyati o'z nufuziga ega va ishonchli hamkor sifatida katta obro'e'tibor qozongan.

¹ www.sigma.com.

**Jahondagi eng yirik 10 ta qayta sug'urta kompaniyalari
to'plagan sug'urta mukofotlari reytingi (2007-yil)
(mln AQSh dollari)**

Reyting	Kompaniya nomi	Sof qayta sug'urta mukofotlari	Mamlakat
1	Munich Reinsurance Co.	\$30,292.9	Germany
2	Swiss Reinsurance Co.	27,706.6	Switzerland
3	Berkshire Hathaway Re	17,398.0	U.S.
4	Hannover Rueckversicherung AG	10,630.0	Germany
5	Lloyd's (1)	8,362.9	U.K.
6	SCOR SE	7,871.7	France
7	Reinsurance Group of America, Inc.	4,906.5	U.S.
8	Transatlantic Holdings Inc.	3,952.9	U.S.
9	Everest Reinsurance Co.	3,919.4	Bermuda
10	PartnerRe Ltd.	3,757.1	Bermuda
(1) Represents an aggregation of all syndicates participating at Lloyd's. Source: Standard & Poor's.			

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2007-yilda Germaniya-ning Munich Reinsurance Co. Qayta sug'urta kompaniyasi tomonidan 30,3 mlrd AQSh dollari miqdorida sug'urta mukofotlari to'plagan va shu yili xalqaro reytingda birinchi o'rinni egallagan. Ikkinchi o'rinda qarorgohi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan Swiss Reinsurance Co. Qayta sug'urta kompaniyasi egallagan.

Standart&Poorss xalqaro reyting agentligining ma'mulotiga asosan 1 yanvar 2004-yil holatiga ro'yxatdan o'tgan 214 ta reytinga ega qayta sug'urtalash jamiyatlari mavjud. Ushbu qayta sug'urtalash jamiyatlarining hayot va mulkiy qayta sug'urtalash bo'yicha jami yalpi mukofot 89,9 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Swiss Re qayta sug'urtalash jamiyatining ma'lumotiga asosan jahon qayta sug'urtasi bozorida jami yalpi mukofoti 124 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan Germaniyaning ulushi 27 %; AQSh – 24 %, Angliya, Fransiya, Italiya va Yaponiyaning ulushi 34 % ni va qolgan davlatlarning ulushi 15 %ni tashkil etdi

Germaniyada sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. XVIII asrning birinchi yarmida tashkil topgan «Salamandra» va yong'inga qarshi sug'urta tashkilotlari

nafaqat Germaniya hududida, balki uning tashqarisida ham faoliyat ko'rsatganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Bugungi kunda Yevropaning barcha mamlakatlarida mavjud bo'lgan avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish Germaniyada 1940-yilda joriy etilgan edi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2008-yilda nemis sug'urta tashkilotlari tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari miqdori mamlakat yalpi ichki mahsulotining 6,9 foizini tashkil etgan. Bu Yevropa mintaqasida joylashgan ba'zi davlatlar, masalan: Ispaniya, Norvegiya va boshqalarning tegishli ko'rsatkichlaridan baland. Sug'urta mukofotlarini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan salmog'i bo'yicha Germaniya Yevropada 15 o'rinni egallaydi. Germaniyada bir kishiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti miqdori 2285,2 AQSh dollarini tashkil etadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar, nemis sug'urta tashkilotlari Yevropa miqyosida va dunyoning boshqa mamlakatlarida ko'plab filial va vakolatxonalarga ega bo'lgan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng esa, ular ichki bozorda sug'urta xizmatlarini ko'rsata boshlagan. Faqat o'tgan asrning 70-yillariga kelib, nemis sug'urta tashkilotlari chet mamlakatlarda filiallar tashkil etishga kirishdi.

Germaniya sug'urta bozorida xorijiy sug'urta kompaniyalarining ulushi doimo yuqori bo'lib kelganligini alohida ta'kidlash zarur. Agar 1974-yilda mamlakatda 49 ta chet mamlakatlarga tegishli sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2008-yilga kelib ularning soni bir necha baravar oshgan. Shuningdek, so'ngi yillarda nemis sug'urta tashkilotlari xalqaro sug'urta bozorda mustahkam o'rinish olish maqsadida o'z filiallari va vakolatxonalari sonini ko'paytirdi. 2008-yilda dunyoning 17 ta mamlakatida Germaniya sug'urta tashkilotlari 130 ta bo'lim va filiallarga ega bo'lgan.

Germaniyadagi eng yirik sug'urta tashkilotlaridan biri – «Alyans Aktsiengezelshaft xolding» kompaniyasidir. U dunyodagi kuchli 20 ta sug'urta tashkilotlari jumlasiga mansub. Ushbu sug'urta tashkiloti 1890 yilda tashkil topgan bo'lib, u 1910-yillardayoq yirik sug'urta tashkilotiga aylandi. O'tgan asrning 20-30-yillarida «Alyans» guruhi (ba'zi adabiyotlarda uni qisqacha shunday nom bilan atashadi) bir nechta sug'urta tashkilotlarini o'z tarkibiga qo'shib oladi va hozirgi paytda ham bu jarayon davom etmoqda. Guruh nemis sug'urta bozoridagi 18 ta kompaniyaning nazorat aksiyalari paketiga ega.

«Alyans» guruhi uy hayvonlaridan tortib zamonaviy havo laynerlarini va atom elektr stansiyalarini ham sugʻurtalashga qodir.

Nemis sugʻurta bozorida faoliyat koʻrsatayotgan yana bir katta va nufuzli tashkilotlardan biri – «Myunxener Ryuk» qayta sugʻurta qilish kompaniyasidir. U dunyodagi eng yirik 10 ta qayta sugʻurtalovchi kompaniyalar qatoriga kiradi. «Myunxener Ryuk» 1880-yili tashkil etilgan. Hozirgi paytda kompaniya dunyoning 135 ta mamlakatida oʻz faoliyatini olib boradi.

Taʼkidlash lozimki, hozirgi paytda Germaniya sugʻurta tashkilotlari bir qator muammolarga roʻpara kelayotganligiga qaramasdan, nemis sugʻurta bozori Yevropa mamlakatlari ichida katta nufuzga ega. 2008-yil maʼlumotlariga qaraganda, Germaniya sugʻurta tashkilotlari jami 191,0 mlrd dollar miqdorida sugʻurta mukofotlarini yigʻishga muvaffaq boʻlishgan.

Germaniyada hayot sugʻurtasi nisbatan taraqqiy etgan. Negaki, bu yerda hayot sugʻurtasi boʻyicha toʻlangan sugʻurta mukofotlari daromad soligʻiga tortishda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadi.

Yevropa sugʻurta tizimining, shu jumladan, Germaniya sugʻurta tizimining xarakterli xususiyatlaridan biri aholi turmush tarzi va uning atrof-muhitga taʼsiri bilan bogʻliq xavf-xatarning paydo boʻlishidir. Keyingi 4 yilga moʻljallangan istiqbolni bashorat qilish, Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida katta yoshdagi aholi qatlamining jadal surʼatlarda koʻpayib borayotganligini koʻrsatgan. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga aʼzo 18 ta Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida 65 va undan yuqori yoshdagi aholi qatlami 2030-yil oxirlariga borib 50,0 mln dan 70,0 mln ga koʻpayadi. Bu mehnatga yaroqli aholi sonining keskin kamayib ketishiga olib keladi. Vaziyatning bunday tus olishi baʼzi Yevropa mamlakatlarida, masalan Germaniyada pensiya yoshidagi fuqarolarni sugʻurtaviy himoyaga olishning yangi turlarini ishlab chiqish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

12.3. Xalqaro sugʻurta bozorini tartibga soluvchi institutlar, meʼyorlar va standartlar

Xalqaro sugʻurta bozorining jadal surʼatlar bilan rivojlanishi turli xalqaro tashkilotlar va muassasalarning vujudga kelishiga olib keldi. Xalqaro sugʻurta bozorida roʻy berayotgan oʻzgarishlar alohida davlatlarning sugʻurta sohasida amalga oshirayotgan faoliyati BMTning YUNKTAD tashkiloti, Butunjahon savdo tashkiloti, Sugʻurta

nazoratchilarining xalqaro assotsiatsiyasi, Kredit sug'urtasi bo'yicha xalqaro assotsiatsiya, O'zaro sug'urtalash jamiyatlarining xalqaro assotsiatsiyasi, sug'urta va qayta sug'urta brokerlarining xalqaro assotsiatsiyasi, sug'urta tadqiqotlari xalqaro assotsiatsiyasi, aviatsiya sug'urtasi bo'yicha xalqaro ittifoq va boshqalar tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Mazkur xalqaro tashkilotlar ichida Sug'urta nazorati organlarining xalqaro assotsiatsiyasi (International Association of Insurance Supervision, IAIS) muhim o'rin tutadi. Assotsiatsiya 1994-yilda tashkil etilgan bo'lib, 2013-yil 1-yanvar holatiga unga a'zo davlatlar va yurisdiksiyalar soni 180 taga yetdi. Yurisdiksiya tushunchasi mamlakatlar, o'z sug'urta qonunchiligiga ega shtatlar, provinsiya va boshqa hududlarga nisbatan qo'llaniladi.

Sug'urta nazorati organlari xalqaro assotsiatsiyasining asosiy vazifasi sug'urta nazorati sohasidagi xalqaro tajribani o'rganish, sug'urta nazorati bo'yicha standartlar, me'yorlar ishlab chiqishdan, qolaversa, sug'urta nazorati milliy organlari o'rtasida tajriba almashish masalalaridan iborat.

1999-yildan boshlab assotsiatsiya o'z safiga sug'urta bozorining professionallarini kuzatuvchi sifatida taklif eta boshladi. Hozirgi kunda sanoat va professional assotsiatsiyalar, sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilar assotsiatsiyalarining 100 dan ortiq vakillari assotsiatsiyada kuzatuvchi sifatida ishtirok etmoqda. Assotsiatsiyaga ma'muriy qo'mita rahbarlik qiladi va uning a'zolari turli qit'alar, davlat vakillaridan tashkil topgan. Assotsiatsiyada 3 ta qo'mita faoliyat ko'rsatadi va ular quyidagilardan iborat: texnik qo'mita, ijroiya va budjet qo'mitalari.

Sug'urta nazorati organlari xalqaro assotsiatsiyasi 1999-yil dekabrda «Sug'urtani amalga oshirish prinsiplari»ni ishlab chiqdi. Jami 9 ta prinsipni o'z ichiga oladi va ular quyidagilardan iborat:

1. Yaxlitlik.
2. Aniqlik, harakatchanlik.
3. Aql va zakovat bilan ish tutish.
4. Iste'molchilar uchun ma'lumotlarning ochiq-oydinligi.
5. Iste'molchilar to'g'risida ma'lumotlar.
6. Manfaatlarning qarama-qarshiligi.
7. Nazorat qiluvchi organlar bilan munosabati.
8. Da'volar.
9. Boshqaruv va nazorat.

«Sugʻurtani amalga oshirish prinsiplari»ning kirish qismida quyidagi jumlar keltirilgan: «Sugʻurta nazoratini amalga oshiruvchi barcha organlarning bosh vazifasi sugʻurtalovchilar ishini yuritish va moliyaviy barqarorligining yuqori standartlarini taʼminlovchi rejimni oʻrnatishdan iborat». Sugʻurta bozori aksariyat ishtirokchilarida sugʻurta mahsulotini tushunish va baholashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ular sugʻurtalanuvchi tomonidan toʻlangan sugʻurta mukofoti evaziga shartnomada koʻrsatilgan risklar sodir boʻlishi natijasida paydo boʻlgan zararlarni sugʻurtalovchi tomonidan qoplanishini nazarda tutuvchi kontrakt majburiyatini qabul qiladi. Shu tufayli, sugʻurtalanuvchilarga shartnoma tuzilishidan oldin sugʻurta mahsulotining mazmuni, sifati toʻgʻrisida toʻliq va ishonchli maʼlumot berilishi kerak.

Sugʻurta nazorati organlari assotsiatsiya tomonidan ishlab chiqilgan prinsiplar sugʻurtalovchi, vositachilar va isteʼmolchilar oʻrtasidagi munosabatlarni yaxshilashga, binobarin, sugʻurtalanuvchilarning sugʻurtaga boʻlgan ishonchini mustahkamlashda muhim omil boʻladi. Prinsiplarning amaliyotda qoʻllanilishi nazorat qiluvchi organlar oldidagi vazifalarning soddalashuviga imkoniyat yaratadi. Mazkur prinsiplar sugʻurtalovchilar va sugʻurta vositachilari uchun moʻljallangan.

Birinchi prinsipga muvofiq sugʻurtalovchilar va vositachilar sof va toʻgʻri ishlashlari shart. Ikkinchi prinsipga asosan sugʻurta mahsulotini yetkazib beruvchilar sugʻurta mahsulotini isteʼmolchiga yetkazishning barcha jarayonlarida eʼtibor bilan professional harakat qilishi lozim. Uchinchi prinsipga binoan sugʻurtalovchi va vositasi oʻz biznesini amalga oshirishda ishni aql va zakovot bilan tashkil etishi zarur. Toʻrtinchi prinsip sugʻurtalovchi va vositachilar isteʼmolchilarga sugʻurta bilan bogʻliq qanday maʼlumotlar boʻlsa, hammasini yetkazishi, shu tariqa sugʻurta mahsulotining shaffofligini taʼminlashi lozim. Beshinchi prinsip sugʻurtalovchi va vositachilar sugʻurta shartnomasini tuzish va maslahat berishdan oldin sugʻurta mahsuloti isteʼmolchisidan zarur maʼlumotlarni olishga harakat qilishi lozim. Oltinchi prinsip: sugʻurtalovchi va vositachilar manfaatlar qarama-qarshiligidan imkon qadar yiroq boʻlishi shart. Yettinchi prinsip: sugʻurtalovchi va vositachilar oʻzlarining nazorat qiluvchi organlari bilan ochiq va oʻzaro hamkorlik qilish yoʻli bilan munosabatda boʻlishi kerak. Sakkizinchi prinsip: sugʻurtalovchilar va vositachilar daʼvolarni tartibga solish hamda ularni qayta ishlash tizimiga ega boʻlishi lozim. Toʻqqizinchi prinsip: sugʻurtalovchi va vositachilar oʻz ishlarini samarali tashkil etishi va nazorat qilishi zarur.

2003-yil oktabrida Sugʻurta nazorati organlarining xalqaro assotsiatsiyasi «Sugʻurta va metodologiyaning asosiy prinsiplari»ni tasdiqladi. Mazkur hujjatda sugʻurta nazorati samaradorligini oshirishning muhim prinsiplari va ularni qoʻllash boʻyicha tushuntirishlar keltirilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 8-sentabrdagi «Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sugʻurta nazoratchilari xalqaro uyushmasiga kirishi toʻgʻrisida» 202-sonli qaroriga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mazkur xalqaro tashkilotga aʼzo boʻldi. Hozirgi paytda Moliya vazirligi huzuridagi Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi xodimlari Sugʻurta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasining yigʻilishlarida ishtirok etib kelmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. «Xalqaro sugʻurta bozori» tushunchasiga taʼrif bering.
2. Xalqaro sugʻurta bozorining rivojlanishiga qanday omillar taʼsir koʻrsatgan?
3. Xalqaro sugʻurta bozorida faoliyat koʻrsatayotgan eng yirik 20 ta sugʻurta kompaniyasining faoliyati haqida soʻzlab bering.
4. Xalqaro sugʻurta bozorining rivojlanish darajasining asosiy koʻrsatkichlarini izohlab bering.
5. Xalqaro sugʻurta bozorida Yevropa sugʻurta bozorining oʻrni qanday?
6. Xalqaro sugʻurta bozorining ravnaq topishida Buyuk Britaniya sugʻurta bozori qanday rol oʻynaydi?
7. Xalqaro sugʻurta bozorida faoliyat koʻrsatayotgan eng yirik 10 ta qayta sugʻurta kompaniyasi faoliyati toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
8. Germaniyada sugʻurta biznesining rivojlanishi va uning xalqaro sugʻurta bozoriga taʼsiri haqida gapirib bering.
9. Xalqaro sugʻurta bozorini tartibga soluvchi asosiy tashkilotlarni sanab bering.
10. Sugʻurta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasi qachon tuzilgan va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
11. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sugʻurta nazoratchilarining xalqaro assotsiatsiyasiga qachon aʼzo boʻlgan?

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi **52-bob. Sug‘urta**

914-modda. Ixtiyoriy va majburiy sug‘urta

Sug‘urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug‘urta qildiruvchi) sug‘urta tashkiloti (sug‘urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug‘urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Shaxsiy sug‘urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi.

Qonunda ko‘rsatilgan shaxslarga sug‘urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkini yoxud o‘zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o‘z hisobidan yoxud manfaatdor shaxslar hisobidan sug‘urta qilish (majburiy sug‘urta) majburiyati qonun bilan yuklangan hollarda sug‘urta ushbu bobning qoidalariga muvofiq shartnomalar tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Majburiy sug‘urtada sug‘urta qildiruvchi sug‘urtalovchi bilan sug‘urtaning ushbu turini tartibga soladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzishi shart.

Qonunda fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkini davlat budjeti mablag‘lari hisobidan majburiy sug‘urta qilish hollari (davlat majburiy sug‘urtasi) nazarda tutilishi mumkin.

915-modda. Mulkiy sug‘urta shartnomasi

Mulkiy sug‘urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug‘urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug‘urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug‘urta hodisasi) sodir bo‘lganda boshqa tarafga (sug‘urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo‘lsa, o‘sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug‘urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug‘urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog‘liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug‘urta puli) doirasida to‘lash (sug‘urta to‘voni to‘lash) majburiyatini oladi.

Mulkiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha quyidagilar sug‘urtalanishi mumkin:

- muayyan mol-mulkning yo‘qotilishi (nobud bo‘lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;
- fuqarolik javobgarligi xavfi – boshqa shaxslarning hayoti,

sogʻligʻi yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar boʻyicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek, shartnomalar boʻyicha javobgarlik xavfi;

– tadbirkorlik xavfi – tadbirkorning kontragentlari oʻz majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bogʻliq boʻlmagan vaziyatlarga koʻra bu faoliyat shart-sharoitlarining oʻzgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

916-modda. Sugʻurtalashga yoʻl qoʻyilmaydigan manfaatlar

Gʻayriqonuniy manfaatlarni sugʻurtalashga yoʻl qoʻyilmaydi.

Qimor, lotereyalar va garov oʻyinlarida ishtirok etishda koʻriladigan zararni sugʻurtalashga yoʻl qoʻyilmaydi.

Garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin boʻlgan xarajatlarni sugʻurtalashga yoʻl qoʻyilmaydi.

Sugʻurta shartnomalarining ushbu modda birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlariga zid boʻlgan shartlari oʻz-oʻzidan haqiqiy emas.

917-modda. Mol-mulkni sugʻurta qilish

Mol-mulk uning asralishidan qonun hujjatlariga yoki shartnomaga asoslangan manfaatga ega boʻlgan shaxs (sugʻurta qildiruvchi yoki naf oluvchi) foydasiga, uning mulkdori, mol-mulkka nisbatan boshqa ashyoviy huquqqa ega boʻlgan shaxs, ijarachi, pudratchi, saqllovchi, vositachi va boshqa shu kabilar foydasiga sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalanishi mumkin.

Sugʻurtalangan mol-mulkning asralishidan sugʻurta qildiruvchida va naf oluvchida manfaat boʻlmagan paytda tuzilgan mol-mulkni sugʻurta qilish shartnomasi haqiqiy emas.

Naf oluvchi foydasiga mol-mulkni sugʻurta qilish shartnomasi naf oluvchining ismi yoki nomi koʻrsatilmadan tuzilishi mumkin. Bunday shartnoma tuzilganda sugʻurta qildiruvchiga egasining nomi koʻrsatilmagan polis beriladi. Bunday shartnoma boʻyicha huquqlarni amalga oshirishda bu polisni sugʻurtalovchiga taqdim etish zarur.

918-modda. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni sugʻurta qilish

Boshqa shaxslarning hayoti, sogʻligʻi yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurta qildiruvchining oʻzining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin boʻlgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sugʻurtalanishi mumkin.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfi sugʻurtalangan shaxs

sugʻurta shartnomasida koʻrsatilishi lozim. Agar bu shaxs shartnomada koʻrsatilmagan boʻlsa, sugʻurta qildiruvchining oʻzining javobgarlik xavfi sugʻurtalangan hisoblanadi.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfini sugʻurta qilish shartnomasi, hatto shartnoma zarar yetkazilganligi uchun javobgar boʻlgan sugʻurta qildiruvchi yoki boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud shartnomada u kimning foydasiga tuzilgani koʻrsatilmagan taqdirda ham, zarar yetkazilishi mumkin boʻlgan shaxslar (naf oluvchilar) foydasiga tuzilgan deb hisoblanadi.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik uni sugʻurta qilish majburiy boʻlgani sababli sugʻurtalangan taqdirda, shuningdek, qonunda yoki bunday javobgarlikni sugʻurta qilish shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda sugʻurta shartnomasi oʻz foydasiga tuzilgan deb hisoblanuvchi shaxs zararni sugʻurta puli doirasida toʻlash toʻgʻrisida bevosita sugʻurtalovchiga talab qoʻyishga haqli.

919-modda. Shartnoma boʻyicha javobgarlikni sugʻurta qilish

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sugʻurta qilishga qonunda nazarda tutilgan hollarda yoʻl qoʻyiladi.

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha faqat sugʻurta qildiruvchining oʻzining javobgarlik xavfi sugʻurtalanishi mumkin. Ushbu talabga muvofiq boʻlmagan sugʻurta shartnomasi oʻz-oʻzidan haqiqiy emas.

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfi, bu shartnoma shartlariga koʻra sugʻurta qildiruvchi qaysi taraf oldida tegishli javobgarlikni zimmasiga olishi lozim boʻlsa, oʻsha taraf – naf oluvchi foydasiga, hatto sugʻurta shartnomasi boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud unda kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan taqdirda ham, sugʻurtalangan hisoblanadi.

920-modda. Tadbirkorlik xavfini sugʻurta qilish

Tadbirkorlik xavfini sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha faqat sugʻurta qildiruvchining oʻz tadbirkorlik xavfi va faqat uning foydasiga sugʻurtalanishi mumkin.

Sugʻurta qildiruvchi boʻlmagan shaxsning tadbirkorlik xavfini sugʻurta qilish shartnomasi oʻz-oʻzidan haqiqiy emas.

Sugʻurta qildiruvchi boʻlmagan shaxsning foydasiga tadbirkorlik xavfini sugʻurta qilish shartnomasi sugʻurta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi.

921-modda. Shaxsiy sug'urta shartnomasi

Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi.

Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar deb tan olinadi.

Sug'urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan, sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi faqat sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, shartnoma sug'urtalangan shaxsning da'vosi bo'yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo'rlari da'vosi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

922-modda. Majburiy sug'urta

Qonunda quyidagilarni sug'urta qilish majburiyati belgilab qo'yilishi mumkin:

- qonunda ko'rsatilgan boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulki ularning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimolini nazarda tutib;

- boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zining fuqaroviy javobgarligi xavfi.

Sug'urta qildiruvchi bo'lish majburiyati qonun bilan unda ko'rsatilgan shaxslar zimmasiga yuklanadi.

Qonunda majburiy sug'urtaning boshqa turlari ham belgilanishi mumkin.

Fuqaroga o'z hayoti yoki sog'lig'ini sug'urtalash majburiyati qonun bilan yuklatilishi mumkin emas.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki unda belgilangan tartibda xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida davlatga qarashli mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslarga bu mulkni sug'urtalash majburiyati yuklanishi mumkin.

Mol-mulkni sug'urta qilish majburiyati qonundan kelib chiqmaydigan, balki mol-mulkning egasi bilan tuzilgan shartnomaga yoki mol-mulkning mulkdori hisoblanuvchi yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga asoslangan hollarda, bunday sug'urta ushbu moddaning ma'nosi jihatidan majburiy hisoblanmaydi va ushbu kodeksning 924-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

923-modda. Majburiy sug'urtani amalga oshirish

Majburiy sug'urta bunday sug'urta qilish majburiyati yuklangan shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasi tuzishi vositasida amalga oshiriladi.

Majburiy sug'urta sug'urta qildiruvchi hisobidan amalga oshiriladi, yo'lovchilarni majburiy sug'urtalash bundan mustasno bo'lib, bu sug'urta qonunda nazarda tutilgan hollarda ularning o'z hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Majburiy sug'urtalanishi lozim bo'lgan obyektlar, ular sug'urtalanishga sabab bo'ladigan xavflar va sug'urta pulining eng kam miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

924-modda. Majburiy sug'urta to'g'risidagi qoidalarni buzish oqibatlari

Qonun bo'yicha foydasiga majburiy sug'urta amalga oshirilishi lozim bo'lgan shaxs, agar sug'urta amalga oshirilmagani unga ma'lum bo'lsa, sug'urta qildiruvchi sifatida zimmasiga sug'urtalash majburiyati yuklangan shaxs uni amalga oshirishini sud tartibida talab qilishga haqli.

Agar sug'urta qildiruvchi sifatida sug'urtalash majburiyati zimmasiga yuklangan shaxs uni amalga oshirmagan bo'lsa yoki sug'urta shartnomasini naf oluvchining ahvolini qonunda belgilangan shartlarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarda tuzgan bo'lsa, u sug'urta hodisasi yuz berganida basharti tegishli sug'urtalangan taqdirda sug'urta to'voni to'lashga asos bo'lishi kerak bo'lgan shartlarda javobgar bo'ladi.

925-modda. Sug'urtalovchi

Tijorat tashkilotlari hisoblangan va tegishli turdagi sug'urtani

amalga oshirishga litsenziyasi bo'lgan yuridik shaxslar, agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, sug'urtalovchilar sifatida sug'urta shartnomalarini tuzishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlariga qo'yiladigan talablar, ularga litsenziya berish va ularning faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi.

926-modda. Sug'urta shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning sug'urta qildiruvchi va naf oluvchi tomonidan bajarilishi

Naf oluvchi foydasiga sug'urta shartnomasi tuzish, shu jumladan, u sug'urtalangan shaxs bo'lganda ham, sug'urta qildiruvchini, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yoxud sug'urta qildiruvchining zimmasidagi majburiyatlar foydasiga shartnoma tuzilgan shaxs tomonidan bajarilmagan bo'lsa, ushbu shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Naf oluvchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini yoxud shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lashni talab qilganida sug'urtalovchi undan, shu jumladan, sug'urtalangan shaxs naf oluvchi bo'lgan taqdirda ham, sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni, shu bilan birga sug'urta qildiruvchining zimmasida bo'lgan, lekin u bajarmagan majburiyatlarni bajarishni talab qilishga haqli. Ilgari bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik oqibatlari xavfi naf oluvchining zimmasida bo'ladi.

927-modda. Sug'urta shartnomasining shakli

Sug'urta shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim.

Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi.

Sug'urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga uning yozma yoki og'zaki arizasiga binoan sug'urtalovchi imzolagan, sug'urta shartnomasining shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisi (shahodatnomasi, sertifikat, kvitansiyasi)ni topshirish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug'urtalovchidan ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug'urta mukofoti to'lash yoxud – sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib to'langanda – birinchi badalni to'lash orqali tasdiqlanadi.

Sug'urtalovchi shartnoma tuzish chog'ida sug'urtaning alohida

turlari bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ning o'zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo'llanishga haqli.

928-modda. Bosh polis bo'yicha sug'urtalash

Bir turdagi mol-mulk (tovarlar, yuklar va hokazoning) turli turkumlarini muayyan muddat davomida bir xildagi shartlarda muntazam sug'urtalash sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi bilan kelishuviga binoan bitta sug'urta shartnomasi – bosh polis asosida amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urta qildiruvchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'ladigan mol-mulkning har bir turkumi to'g'risida sug'urtalovchiga bunday polisda shartlashilgan ma'lumotlarni unda nazarda tutilgan muddatda, agar muddat nazarda tutilmagan bo'lsa – ular olinganidan keyin darhol xabar qilishi shart. Agar hatto bunday ma'lumotlarni olish paytigacha sug'urtalovchi to'lashi lozim bo'lgan zarar ko'rish ehtimoli o'tib ketgan bo'lsa ham, sug'urta qildiruvchi bu majburiyatdan ozod bo'lmaydi.

Sug'urta qildiruvchining talabiga binoan sug'urtalovchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'ladigan mol-mulkning alohida turkumlari bo'yicha sug'urta polislarni berishi shart.

Sug'urta polisining mazmuni bosh polisga nomuvofiq bo'lgan taqdirda, sug'urta polisi afzal ko'riladi.

929-modda. Sug'urta shartnomasining muhim shartlari

Mulkiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urta obyekti bo'lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to'g'risida;

- yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;

- sug'urta puli miqdori to'g'risida;

- sug'urta to'voni miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida, agar shartnomada uni sug'urta pulidan oz miqdorda to'lash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa;

- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;

- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o'z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o'rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo'llaniladi.

930-modda. Sug'urta shartnomasi shartlarini sug'urta qoidalari belgilab qo'yish

Sug'urta shartnomasini tuzish shartlari sug'urtalovchi yoxud sug'urtalovchilar birlashmasi tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan yoki tasdiqlangan tegishli turdagi sug'urtaning standart qoidalari (sug'urta qoidalari)da belgilab qo'yilishi mumkin.

Sug'urta qoidalarida mavjud bo'lgan va sug'urta shartnomasi (polisi) matniga kiritilmagan shartlar, agar shartnomada (polisda) shunday qoidalar qo'llanilishi to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan va qoidalarning o'zi shartnoma (polis) bilan bitta hujjatda yoki uning orqa tomonida bayon qilingan yoxud unga ilova qilingan bo'lsa, sug'urta qiluvchi (naf oluvchi) uchun majburiydir. Ilova qilingan taqdirda, shartnomani tuzish paytida sug'urta qildiruvchiga sug'urta qoidalari topshirilgani shartnomada yozuv bilan tasdiqlab qo'yilishi lozim.

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi sug'urta qoidalarining ayrim bandlarini o'zgartirish yoki chiqarib tashlash va qoidalarda bo'lmagan bandlarni shartnomaga kiritish to'g'risida kelishishlari mumkin.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) o'z manfaatlarini himoya qilib, sug'urta shartnomasida (polisida) ko'rsatib o'tilgan tegishli turdagi sug'urta qoidalarini, hatto agar bu qoidalar ushbu moddaga ko'ra uning uchun majburiy bo'lmasa ham, vaj qilib keltirishga haqli.

931-modda. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi taqdim etadigan ma'lumotlar

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi o'ziga

ma'lum bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sug'urtalovchiga xabar qilishi shart.

Sug'urta shartnomasi (polisi)ning standart shaklida, sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida yoki yozma so'rovda sug'urtalovchi tomonidan oldindan aniq aytib qo'yilgan holatlar muhim deb hisoblanadi.

Agar sug'urta shartnomasi sug'urtalovchining qandaydir savollariga sug'urta qildiruvchining javoblari bo'lmagan holda tuzilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tegishli holatlar sug'urta qildiruvchi tomonidan ma'lum qilinmaganligiga asoslanib keyinchalik shartnomani bekor qilishni yoxud uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Agar sug'urta shartnomasi tuzilganidan keyin ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar to'g'risida sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga bila turib yolg'on ma'lumot berganligi aniqlansa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va ushbu kodeks 123-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan oqibatlar qo'llanilishini talab qilishga haqli.

Agar sug'urta qildiruvchi aytib qo'ymagan holatlar o'tib ketgan bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

932-modda. Sug'urtalovchining sug'urta xavfini baholash huquqi

Mol-mulknii sug'urtalash shartnomasi tuzilayotganida sug'urtalovchi sug'urta qilinayotgan mol-mulknii ko'zdan kechirishga, zarurat bo'lganda esa uning haqiqiy qiymatini belgilash maqsadida baholashdan o'tkazishni tashkil etishga haqli.

(932-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 17-sentabrdagi O'RQ-257-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2010-y., 37-son, 315-modda)

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzilayotganida sug'urtalovchi sug'urta qilinayotgan shaxs sog'lig'ining haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirtirishga haqli.

Ushbu modda asosida sug'urtalovchi tomonidan sug'urta xavfini baholash boshqa holatni isbotlashga haqli bo'lgan sug'urta qildiruvchi uchun majburiy emas.

933-modda. Sugʻurta siri

Sugʻurtalovchi sugʻurta qildiruvchi, sugʻurtalangan shaxs va naf oluvchi, ularning sogʻligʻining holati toʻgʻrisidagi, shuningdek, bu shaxslarning mulkiy ahvoli toʻgʻrisidagi oʻz kasb faoliyati natijasida oʻzi olgan maʼlumotlarni oshkor qilishga haqli emas. Sugʻurta sirini buzganlik uchun sugʻurtalovchi buzilgan huquqlarning turi va buzish xususiyatiga qarab ushbu kodeksning 985, 1021 va 1022-moddalari qoidalariga muvofiq javobgar boʻladi.

934-modda. Sugʻurta puli

Mulkiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalovchi sugʻurta tovonini toʻlash majburiyatini oladigan yoki shaxsiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha toʻlash majburiyatini oladigan summa (sugʻurta puli) sugʻurta qildiruvchining sugʻurtalovchi bilan kelishuviga koʻra ushbu modda qoidalariga muvofiq belgilanadi.

Mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini sugʻurta qilishda, agar sugʻurta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, sugʻurta puli ularning haqiqiy qiymatidan (sugʻurta qiymatidan) oshmasligi lozim, quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

mol-mulk uchun – uning sugʻurta shartnomasini tuzish kuni turgan joyidagi haqiqiy qiymati;

tadbirkorlik xavfi – sugʻurta hodisasi yuz berganida sugʻurta qildiruvchi tadbirkorlik faoliyatidan koʻrishi mumkin boʻlgan zarar.

Shaxsiy sugʻurta shartnomalarida va fuqaroviy javobgarlikni sugʻurtalash shartnomalarida sugʻurta pulini taraflar oʻz ixtiyorlariga koʻra aniqlaydilar, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(934-moddaning uchinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil 21-apreldagi OʻRQ-156-sonli Qonuni tahririda – OʻR QHT, 2008-y., 17-son, 129-modda)

935-modda. Mol-mulkning sugʻurta qiymati

Sugʻurta shartnomasini tuzish paytida taraflarning kelishuviga koʻra aniqlanadigan, sugʻurta manfaati bilan bogʻlanadigan mol-mulk qiymati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, sugʻurta qiymati (sugʻurta bahosi) deb hisoblanadi.

Mol-mulkning shartnomada koʻrsatilgan sugʻurta qiymati ustida keyinchalik nizolashish mumkin emas, shartnoma tuzilgunga qadar sugʻurta xavfini baholash boʻyicha oʻz huquqidan foydalanmagan sugʻurtalovchi bu qiymat borasida bila turib chalgʻitilgan hol bundan mustasno.

936-modda. To‘liq bo‘lmagan mulkiy sug‘urta

Agar mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini sug‘urtalash shartnomasida sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo‘lsa, sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz berganida sug‘urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) u ko‘rgan zararni sug‘urta pulining sug‘urta qiymatiga bo‘lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplashi shart.

937-modda. Qo‘shimcha mulkiy sug‘urta

Agar mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi faqat sug‘urta qiymatining bir qismi miqdorida sug‘urtalangan bo‘lsa, sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) qo‘shimcha sug‘urta qilishga, shu jumladan, boshqa sug‘urtalovchida sug‘urta qilishga haqli, ammo barcha sug‘urta shartnomalari bo‘yicha umumiy sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan oshib ketmasligi lozim.

Ushbu modda birinchi qismining qoidalariga rioya etmaslik, ushbu kodeksning 938-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

938-modda. Sug‘urta qiymatidan ortiq miqdorda sug‘urta qilish oqibatlari

Agar sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfining sug‘urta puli sug‘urta qiymatidan ortiq bo‘lsa, shartnoma sug‘urta pulining sug‘urta qiymatidan ortiq bo‘lgan qismida o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi.

Bu holda sug‘urta mukofotining ortiqcha to‘langan qismi qaytarib berilmaydi.

Agar sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta mukofoti bo‘lib-bo‘lib to‘lansa va ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan holatlar aniqlangan paytgacha uning hammasi to‘lanmagan bo‘lsa, qolgan sug‘urta badallari sug‘urta puli miqdorini kamaytirishga mutanosib tarzda kamaytirilgan miqdorda to‘lanishi lozim.

Agar sug‘urta shartnomasidagi sug‘urta pulini oshirib yuborish sug‘urta qildiruvchi tomonidan aldashning oqibati bo‘lsa, sug‘urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va o‘ziga yetkazilgan zarar uning sug‘urta qildiruvchidan olgan sug‘urta puli summasidan ortiq miqdorda qoplanishini talab qilishga haqli.

939-modda. Qo‘shaloq sug‘urta

Ushbu Kodeksning 938-moddasida nazarda tutilgan qoidalar sug‘urta puli ayni bitta mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini ikki yoki bir necha sug‘urtalovchida sug‘urta qilish (qo‘shaloq sug‘urta) natijasida

sug'urta qiymatidan oshib ketgan taqdirda ham tegishincha suratda qo'llaniladi.

Mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi qo'shaloq sug'urta qilinganda har bir sug'urtalovchi sug'urta tovonini o'zi tuzgan shartnoma doirasida to'lashga majbur bo'ladi, biroq barcha sug'urtalovchilardan olingan sug'urta tovonlarining umumiy summasi haqiqiy zarardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Bunda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta tovonini istalgan sug'urtalovchidan u bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan sug'urta puli doirasida olishga haqli. Olingan sug'urta tovonni haqiqiy zararni qoplamagan taqdirda, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) etishmayotgan summani boshqa sug'urtalovchidan olishga haqli.

Yetkazilgan zarar boshqa sug'urtalovchilar tomonidan qoplangani sababli sug'urta tovonini to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilingan sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchiga sug'urta to'lovlarining tegishli qismini qilingan xarajatlarni chegirgan holda qaytarishi shart.

Ushbu modda qoidalari har bir sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs va naf oluvchi oldidagi o'z sug'urta majburiyatlarini, boshqa sug'urtalovchilar majburiyatlarini bajarganligidan qat'i nazar, mustaqil bajaradigan qo'shaloq shaxsiy sug'urtada qo'llanilmaydi.

940-modda. Turli xildagi sug'urta xavflaridan mulkiy sug'urta

Mol-mulk va tadbirkorlik xavfi turli xildagi sug'urta xavflaridan xoh bitta, xoh alohida sug'urta shartnomalari bo'yicha, shu jumladan, turli sug'urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta qilinishi mumkin.

Bunday hollarda barcha shartnomalar bo'yicha umumiy sug'urta puli miqdori sug'urta qiymatidan oshib ketishiga yo'l qo'yiladi va tegishli suratda ushbu kodeksning 939-moddasi qoidalari qo'llaniladi.

941-modda. Birgalikda sug'urta qilish

Sug'urta obykti bitta shartnoma bo'yicha bir necha sug'urtalovchi tomonidan o'rtada sug'urtalanishi mumkin (birgalikda sug'urta qilish). Agar bunday shartnomada sug'urtalovchilardan har birining huquq va majburiyatlari belgilanmagan bo'lsa, ular mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lash uchun sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) oldida solidar javobgar bo'ladilar.

Yirik va alohida yirik xavflarni o'rtada sug'urta qilish uchun birga-

likda sugʻurtalovchilar birgalikdagi faoliyat toʻgʻrisidagi shartnoma asosida oddiy shirkatlar (sugʻurta sherikchiligi) tuzishlari mumkin.

Birgalikda sugʻurtalovchilar oʻrtasida tegishli kelishuv boʻlgan taqdirda, ulardan biri sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi)ning oldida faqat oʻz ulushi uchun javobgar boʻlib qolgani holda, u bilan oʻzaro munosabatlarda barcha birgalikdagi sugʻurtalovchilar nomidan vakil boʻlishi mumkin.

942-modda. Sugʻurta mukofoti va sugʻurta badallari

Sugʻurta mukofoti deganda sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi) sugʻurta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sugʻurtalovchiga toʻlashi shart boʻlgan sugʻurta haqi tushuniladi.

Sugʻurtalovchi sugʻurta shartnomasi boʻyicha toʻlanishi lozim boʻlgan sugʻurta mukofoti miqdorini belgilashda sugʻurta obyekt va sugʻurta xavfi xususiyati hisobga olingan holda oʻzi tomonidan ishlab chiqilgan, sugʻurta puli birligidan undiriladigan mukofotni aniqlaydigan sugʻurta tariflarini qoʻllashga haqli.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda sugʻurta mukofotining miqdori davlat sugʻurta nazorati organlari tomonidan joriy etilgan yoki tartibga solinadigan sugʻurta tariflariga muvofiq belgilanadi.

Agar sugʻurta shartnomasida sugʻurta mukofotini boʻlib-boʻlib toʻlash nazarda tutilgan boʻlsa, shartnomada navbatdagi sugʻurta badallarini belgilangan muddatlarda toʻlamaslik oqibatlari koʻrsatib qoʻyilishi mumkin.

Agar sugʻurta hodisasi toʻlash muddati oʻtkazib yuborilgan navbatdagi sugʻurta badali toʻlanishidan oldin yuz bergan boʻlsa, sugʻurtalovchi mulkiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha toʻlanishi lozim boʻlgan sugʻurta toʻvoni yoki shaxsiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurta puli miqdorini sugʻurta mukofotining oʻziga toʻlangan qismiga mutanosib summada cheklashga va muddati oʻtkazib yuborilgan sugʻurta badali summasini hisobga olishga haqli.

943-modda. Sugʻurta shartnomasining haqiqiy emasligi

Sugʻurta shartnomasi quyidagi hollarda oʻz-oʻzidan haqiqiy emas:

– shartnoma tuzilayotgan paytda sugʻurta obyekt mavjud boʻlmasa;

– jinoiy yoʻl bilan qoʻlga kiritilgan, jinoyat narsasi hisoblanuvchi yoki musodara qilinishi lozim boʻlgan mol-mulk mulkiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalangan boʻlsa;

– shartnoma boʻyicha gʻayrihuquqiy manfaat sugʻurtalangan boʻlsa;

– sugʻurta shartnomasida sugʻurta hodisasi sifatida yuz berish ehti-

molligi va tasodifiylik belgilari bo'lmagan voqea nazarda tutilgan bo'lsa.

Sug'urta shartnomasi ushbu kodeksda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

944-modda. Sug'urtalangan shaxsni almashtirish

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchidan boshqa shaxsning javobgarligi sug'urtalangan hollarda, shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi bu shaxsni sug'urta hodisasi yuz berguncha istalgan vaqtda, sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilib, boshqa shaxsga almashtirishga haqli.

Shaxsiy sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urtalangan shaxs sug'urta qildiruvchi tomonidan shu sug'urtalangan shaxs va sug'urtalovchining roziligi bilangina boshqa shaxsga almashtirilishi mumkin.

945-modda. Naf oluvchini almashtirish

Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan naf oluvchini boshqa shaxsga, bu haqda sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilib, almashtirishga haqli. Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan shaxsning roziligi bilan tayinlangan naf oluvchini almashtirishga faqat shu shaxsning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Naf oluvchi sug'urta shartnomasi bo'yicha bironta majburiyatni bajarganidan yoki sug'urta tovonini yoxud sug'urta pulini to'lash to'g'risida sug'urtalovchiga talab qo'yganidan keyin u boshqa shaxs bilan almashtirilishi mumkin emas.

946-modda. Sug'urta qildiruvchini almashtirish

Mol-mulkni sug'urtalash shartnomasini tuzgan sug'urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda, sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari bu mol-mulkni meros tartibida qabul qilib olgan shaxsga o'tadi. Mulk huquqi o'tishining boshqa hollarida sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari, agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, sug'urtalovchining roziligi bilan yangi mulkdorga o'tadi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasini sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzgan sug'urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda, ushbu shartnoma bilan belgilanadigan huquq va majburiyatlar sug'urtalangan shaxsning roziligi bilan unga o'tadi. Sug'urtalangan shaxs sug'urta shartnomasi bo'yicha

majburiyatlarini bajarishi mumkin bo'lmasa, uning huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlariga muvofiq uning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qiluvchi shaxslarga o'tishi mumkin.

Agar sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilsa, bunday sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlarini uning vasiyi yoki homiysi oladi. Bunda sug'urta qildiruvchining uchinchi shaxslar oldidagi javobgarligi sug'urtasi uning muomala layoqati tugagan yoki cheklangan paytdan boshlab tugaydi.

Yuridik shaxs bo'lgan sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi davrida qayta tashkil etilganida uning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlari sug'urtalovchining roziligi bilan tegishli huquqiy vorisga ushbu kodeksda belgilangan tartibda o'tadi.

947-modda. Sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanishi

Sug'urta shartnomasi, agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki birinchi badal to'langan paytda kuchga kiradi.

Agar shartnomada sug'urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomada shartlashilgan sug'urta sug'urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan sug'urta hodisalariga nisbatan tatbiq etiladi.

948-modda. Sug'urta shartnomasining muddatidan ilgari bekor bo'lishi

Sug'urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi. Quyidagilar shunday holatlar jumlasiga kiradi, chunonchi:

- sug'urtalangan mol-mulkning yuz bergan sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lishi;

- tadbirkorlik xavfini yoki ana shu faoliyat bilan bog'liq fuqaroviy javobgarlik xavfini sug'urtalagan shaxsning tadbirkorlik faoliyatini belgilangan tartibda to'xtatishi.

Sug'urta shartnomasi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha muddatidan oldin bekor bo'lganda, sug'urtalovchi sug'urta mukofotining bir qismini sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish huquqiga ega.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi), agar voz kechish paytiga kelib

sug'urta hodisaning yuz berish ehtimoli ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yo'qolmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasidan muddatidan ilgari voz kechgan taqdirda, sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qaytarib berilmaydi.

949-modda. Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta xavfining ortishi oqibatlari

Mulkiy sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) va sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida aytib qo'yilgan o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi.

Sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilingan sug'urtalovchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishga haqli.

Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasining shartlari o'zgartirilishiga yoki sug'urta mukofotiga qo'shimcha to'lashga e'tiroz bildirsa, sug'urtalovchi ushbu kodeksning 28-bobida nazarda tutilgan qoidalariga muvofiq shartnomani bekor qilishni talab etishga haqli.

Sug'urta qiluvchi yoxud naf oluvchi ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatini bajarmagan taqdirda, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini bekor qilishni va shartnomani bekor qilish tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab etishga haqli.

Sug'urtalovchi, agar sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar yo'qolgan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqli emas.

Shaxsiy sug'urtada, sug'urta shartnomasining amal qilishi davrida ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan sug'urta xavfining o'zgarishi oqibatlari, agar ular shartnomada to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsagina, yuzaga kelishi mumkin.

950-modda. Sugʻurtalangan mol-mulkka boʻlgan huquqlarning boshqa shaxsga oʻtishi

Sugʻurtalangan mol-mulkka boʻlgan huquqlar sugʻurta shartnomasi tuzilganida manfaati nazarda tutilgan shaxsdan boshqa shaxsga oʻtganda ushbu shartnoma boʻyicha huquq va majburiyatlar mol-mulkka boʻlgan huquq qaysi shaxsga oʻtgan boʻlsa, oʻsha shaxsga oʻtadi, ushbu kodeksning 197- va 199-moddalarida koʻrsatilgan asoslar boʻyicha mol-mulkning majburiy olib qoʻyilishi hollari bundan mustasno.

Sugʻurtalangan mol-mulkka boʻlgan huquqlar oʻziga oʻtgan shaxs bu haqda sugʻurtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

951-modda. Sugʻurta hodisasi yuz bergani toʻgʻrisida sugʻurtalovchini xabardor qilish

Mulkiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurta qildiruvchi sugʻurta hodisasi yuz bergani oʻziga maʼlum boʻlganidan keyin bu haqda darhol sugʻurtalovchini yoki uning vakilini xabardor qilishi shart. Agar shartnomada xabar qilish muddati va (yoki) usuli nazarda tutilgan boʻlsa, bu shartlashilgan muddatda va shartnomada koʻrsatilgan usulda qilinishi lozim. Agar naf oluvchi oʻzining foydasiga tuzilgan shartnoma boʻyicha sugʻurta tovoniga boʻlgan huquqdan foydalanish niyatida boʻlsa, ayni shunday majburiyat naf oluvchi zimmasida boʻladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatning bajarilmasligi sugʻurtalovchiga, agar sugʻurtalovchi sugʻurta hodisasi yuz berganini oʻz vaqtida bilganligi, yoxud bu haqda sugʻurtalovchida maʼlumotlar yoʻqligi uning sugʻurta tovonini toʻlash majburiyatiga taʼsir etmasligi isbotlanmasa, sugʻurta tovonini toʻlashni rad etish huquqini beradi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalar, agar sugʻurtalangan shaxsning vafoti yoki uning sogʻligʻiga zarar yetkazilishi sugʻurta hodisasi boʻlsa, tegishli suratda shaxsiy sugʻurta shartnomasiga nisbatan qoʻllaniladi. Bunda sugʻurtalovchini xabardor qilishning shartnomada belgilanadigan muddati yigirma kundan kam boʻlishi mumkin emas.

952-modda. Sugʻurta hodidasidan koʻriladigan zararni kamaytirish

Mulkiy sugʻurta shartnomasida nazarda tutilgan sugʻurta hodisasi yuz berganida, sugʻurta qildiruvchi ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun oqilona va mumkin boʻlgan choralarni koʻrishi shart. Sugʻurta qildiruvchi bunday choralarni koʻrar ekan, agar oʻziga maʼlum qilingan boʻlsa, sugʻurtalovchining koʻrsatmalariga amal qilishi lozim.

Zararni kamaytirish maqsadida qilingan, sugʻurtalovchi qoplashi lozim boʻlgan xarajatlar, agar bunday xarajatlar zarur boʻlgan boʻlsa yoki sugʻurtalovchining koʻrsatmalarini bajarish uchun qilingan boʻlsa, tegishli choralar foydasiz boʻlib chiqsa ham, sugʻurtalovchi tomonidan qoplanishi lozim. Bunday xarajatlar sugʻurta summasining sugʻurta qiymatiga nisbatiga mutanosib ravishda, boshqa zararlarni qoplash bilan birgalikda ular sugʻurta pulidan oshib ketishi mumkinligidan qatʼi nazar, qoplanadi.

Sugʻurta qiluvchi ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun qasddan choralar koʻrmagani oqibatida koʻrilgan zararni qoplashdan sugʻurtalovchi ozod qilinadi.

953-modda. Sugʻurta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sugʻurtalangan shaxsning aybi bilan sugʻurta hodisasi yuz berishining oqibatlari

Agar sugʻurta hodisasi sugʻurta qildiruvchi, naf oluvchi yoki sugʻurtalangan shaxsning qasd qilishi oqibatida yuz bergan boʻlsa, sugʻurtalovchi sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlashdan ozod qilinadi, qasddan qilingan harakatlar ular tomonidan zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida, shuningdek, ushbu moddaning uchinchi va toʻrtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda sodir etilishi bundan mustasno.

Qonunda sugʻurta hodisasi sugʻurta qiluvchining yoki naf oluvchining qoʻpol ehtiyotsizligi oqibatida yuzaga kelganda sugʻurtalovchini mulkiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurta tovonini toʻlashdan ozod qilish yoki tovon miqdorini kamaytirish hollari nazarda tutilishi mumkin.

Sugʻurtalovchi sugʻurtalangan shaxsning hayoti yoki sogʻligʻiga zarar yetkazganlik uchun fuqaroviy javobgarlikni sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurta tovonini toʻlashdan, agar zarar sugʻurtalovchi uchun javobgar shaxsning aybi bilan yetkazilgan boʻlsa, ozod qilinmaydi.

Sugʻurtalovchi shaxsiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalangan shaxs vafot etgan taqdirda toʻlanishi lozim boʻlgan sugʻurta pulini toʻlashdan, agar uning vafoti oʻz joniga qasd qilish oqibatida roʻy bergan boʻlsa va bu vaqtgacha sugʻurta shartnomasi kamida ikki yil amal qilgan boʻlsa, ozod qilinmaydi.

954-modda. Sugʻurtalovchini sugʻurta tovonini va sugʻurta pulini toʻlashdan ozod qilish asoslari

Sugʻurtalovchi, agar qonunda yoki sugʻurta shartnomasida bosh-

qacha tartib belgilanmagan bo'lsa va sug'urta hodisasi quyidagilar oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, sug'urta tovonini va sug'urta pulini to'lashdan ozod qilinadi:

- yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zaharlanish ta'sirida;
- harbiy harakatlar, manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlar.

Agar mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo'yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo'q qilib tashlanishi oqibatida ko'rilgan zarar uchun sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi.

955-modda. Sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etish

Sug'urtalovchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) sug'urta tovonini yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lashni quyidagi hollarda rad etishga haqli, chunonchi:

– sug'urta shartnomasining amal qilishi sug'urta hodisasi yuz bergunga qadar, shu jumladan, ushbu kodeksning 948- va 950-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha bekor qilinganda;

– sug'urta shartnomasi ushbu kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaganda;

– sug'urtalovchi ushbu kodeksning 951 – 954-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha sug'urta tovonini yoki sug'urta puli to'lashdan ozod qilinganda;

– sug'urtalovchi ushbu kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sug'urta shartnomasini haqiqiy emas deb topish to'g'risida yoxud sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta hodisasi holatlarini tekshirib ko'rishga yoki yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashga to'sqinlik qilgani tufayli sug'urta shartnomasini bekor qilish to'g'risida da'vo qo'zg'atganida.

Sug'urtalovchining sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) ular sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni so'rab murojaat etganlaridan keyin o'n besh kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

Sug'urtalovchining sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etishga qarshi unga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atish yo'li bilan e'tiroz bildirilishi mumkin.

956-modda. Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lash

Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta puli, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy ta'minot bo'yicha, boshqa sug'urta shartnomalari bo'yicha yoki zararni qoplash tartibida sug'urta qildiruvchiga, sug'urtalangan shaxsga yoki naf oluvchiga tegishli summalardan qat'i nazar, shartnoma kimning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga to'lanadi.

Ushbu Kodeks 921-moddasining uchinchi qismi asosida shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlariga to'lanadigan sug'urta puli sug'urtalangan shaxsning merosi tarkibiga kirmaydi.

957-modda. Sug'urta qildiruvchining zarar qoplanishiga bo'lgan huquqlarining sug'urtalovchiga o'tishi (subrogatsiya)

Agar mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning sug'urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta tovonini to'lagan sug'urtalovchiga o'tadi. Biroq shartnomaning bila turib zarar yetkazgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi sug'urtalovchiga o'tishini istisno qiladigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqi uning tomonidan sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) va zarar uchun javobgar bo'lgan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi o'ziga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni sug'urtalovchiga berishi hamda barcha ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to'langan summasini qaytarishni talab qilishga haqli bo'ladi.

958-modda. Sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan huquqlarning sug'urtalovchiga o'tkazilishi

Mol-mulk sug'urta qilinganda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urtalovchining roziligi bilan

sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan o'z huquqlarini unga o'tkazishi va sug'urta tovonini sug'urta pulining to'liq hajmida olishi mumkin.

959-modda. Qayta sug'urta qilish

Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin.

Qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug'urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu bobning tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish borasida qo'llanishi lozim bo'lgan qoidalari tatbiq etiladi. Qayta sug'urta qilish shartnomasini tuzgan sug'urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo'yicha sug'urtalovchi keyingi shartnomada sug'urta qildiruvchi hisoblanadi.

Qayta sug'urta qilishda sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash uchun asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi oldida ushbu shartnoma bo'yicha sug'urtalovchi javobgar bo'lib qolaveradi.

Biroq asosiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanuvchi hisoblangan sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarining qayta sug'urta qilingan qismi qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchiga o'tadi.

Ikki yoki bir nechta qayta sug'urta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yo'l qo'yiladi. Bunday shartnomalarning har biri keyingi qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan asosiy sug'urta shartnomasi deb hisoblanadi.

960-modda. Ikki tomonlama sug'urta

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z mol-mulkklarini hamda ushbu kodeks 915-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan boshqa mulkiy manfaatlarini ikki taraflama asosda, buning uchun ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatlarida zarur mablag'larni birlashtirish yo'li bilan sug'urta qilishlari mumkin.

Ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatlari o'z a'zolarining mol-mulki hamda boshqa mulkiy manfaatlarini sug'urta qilishni amalga oshiradi va tijoratchi bo'lmagan tashkilot hisoblanadi.

Ikki tomonlama sug'urta qilish tashkilotlari tomonidan o'z a'zolarining mol-mulki va mulkiy manfaatlarini sug'urta qilish, agar

jamiyatning ta'sis hujjatlarida bunday hollarda sug'urta shartnomalari tuzish nazarda tutilmagan bo'lsa, bevosita a'zolik asosida amalga oshiriladi.

Ushbu bobning qoidalari, agar qonunda, tegishli jamiyatning ta'sis hujjatlarida yoki jamiyat belgilagan sug'urta qilish qoidalarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyati bilan uning a'zolari o'rtasidagi sug'urtaga doir munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Ikki tomonlama sug'urta qilish yo'li bilan majburiy sug'urtani amalga oshirishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

Ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyati sug'urtalovchi sifatida, agar uning ta'sis hujjatlarida sug'urta faoliyatini amalga oshirish nazarda tutilgan, jamiyatning o'zi tijorat tashkiloti shaklida tuzilgan, tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lsa va qonunda belgilangan boshqa talablarga javob bersa, jamiyatning a'zolari bo'lmagan shaxslarning manfaatlarini sug'urta qilishni amalga oshirishi mumkin.

Ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatining a'zosi bo'lmagan shaxslarning manfaatlarini sug'urta qilish jamiyat tomonidan sug'urta shartnomalari asosida ushbu bobning qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ikki tomonlama sug'urta qilish jamiyatlari huquqiy holatining xususiyatlari va ularning faoliyat yuritish shartlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

961-modda. Majburiy davlat sug'urtasi

Fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini va davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida qonunda hayot, sog'liq va mol-mulkning majburiy davlat sug'urtasi belgilab qo'yilishi mumkin.

Majburiy davlat sug'urtasi ana shu maqsadlar uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Majburiy davlat sug'urtasi bevosita sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida unda ko'rsatilgan davlat sug'urta tashkilotlari yoki davlatning boshqa tashkilotlari (sug'urtalovchilar) tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu bobning qoidalari, agar sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa va sug'urta bo'yicha mavjud munosabatlar mohiyatidan kelib chiqmasa, majburiy davlat sug'urtasiga nisbatan qo'llaniladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «SUG‘URTA FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA»GI QONUNI

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 4-5-son, 68-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 41-son, 405-modda; 2007-y., 37-38-son, 376-modda; 2008-y., 17-son, 129-modda; 52-son, 508-modda; 2009-y., 39-son, 423-modda; 2010-y., 50-son, 471-modda; 2012-y., 15-son, 165-modda)

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi sug‘urta faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Sug‘urta hamda sug‘urta faoliyati

Sug‘urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan shuningdek, sug‘urtalovchining boshqa mablag‘laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

(3-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Sug‘urta faoliyati deganda sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining sug‘urtani amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyati tushuniladi.

4-modda. Sug‘urta sohalari va turlari (klasslari)

Sug‘urta quyidagi sohalarga bo‘linadi:

hayotni sug‘urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va pul ta‘minoti bilan bog‘liq manfaatlarini sug‘urta

qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

5-modda. Sug'urta faoliyati subyektlari

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining subyektlari hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari, shuningdek, assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridir.

(5-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti sug'urta vositachilari hisoblanadilar.

6-modda. Sug'urtalovchi

Tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs sug'urtalovchi deb e'tirof etiladi.

Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirishga bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas, ushbu Qonunning 6¹-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(6-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

6¹-modda. Sug'urtalovchining huquq va majburiyatlari

Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta

(qayta sugʻurta qilish) shartnomalari tuzish;

oʻz majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sugʻurta qilish, shu jumladan, Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sugʻurta qilish; maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish;

qimmatli qogʻozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish. Bunda mazkur faoliyat turini amalga oshirish uchun sugʻurtalovchining litsenziya olishi talab qilinmaydi;

(6¹-moddaning birinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil 22-dekabrda OʻRQ-192-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan toʻldirilgan – OʻR QHT, 2008-y., 52-son, 508-modda)

sugʻurta (qayta sugʻurta qilish) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bogʻliq faoliyatni, shuningdek, sugʻurta agenti sifatida sugʻurta vositachiligini amalga oshirish;

sugʻurta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda moliyalashtirish;

sugʻurtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sugʻurta turlariga doir qoidalarni (shartlarni) qonun hujjatlariga muvofiq belgilash;

sugʻurta hodisasi roʻy berishining sabablari va holatlarini, shuningdek, sugʻurta tovonini (sugʻurta puli) miqdorini belgilash uchun zarur boʻlgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda soʻrash va olish;

(6¹-modda birinchi qismining toʻqqizinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2012 yil 11 apreldagi OʻRQ-323-sonli Qonuni tahririda – OʻR QHT, 2012 y., 15-son, 165-modda)

sugʻurta agentlari, sugʻurta va qayta sugʻurta brokerlari, sugʻurta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan tegishli shartnomalar tuzish;

sugʻurta tovonini (sugʻurta puli) toʻlashni qonun hujjatlarida va (yoki) sugʻurta (qayta sugʻurta qilish) shartnomasida belgilangan hollarda hamda tartibda rad etish, sugʻurta (qayta sugʻurta qilish) shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish;

(6¹-modda birinchi qismining oʻn birinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi OʻRQ-323-sonli Qonuni tahririda – OʻR QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sugʻurta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshiri-

shni, sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasi talablari va shartlarini bajarishi ustidan nazoratni sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirish;

chet el sug'urtalovchilariga syurveyer va adjaster xizmatlari ko'rsatish;

ilgari sug'urtalovchi tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olingan yoki sug'urta shartnomasini amalga oshirish natijasida uning ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni realizatsiya qilish yoki ijaraga berish;

O'zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va chet el reyting tashkilotlari reytinglarini olish;

o'zining alohida bo'linmalarini tashkil etish.

Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urtalovchi:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sug'urta faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning maxfiyligini qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta'minlashi;

o'zi vakolat bergan sug'urta agentlarining reyestrini yuritishi;

qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga binoan taqdim etishi;

sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda barcha zarur hisob-kitoblarni amalga oshirishi va sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lashi;

(6¹-modda uchinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

firmaning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan eri o'z-gargan taqdirda, bu haqdagi axborotni sug'urta qildiruvchilarga ushbu qonunda belgilangan tartibda yetkazishi;

sug'urta zaxiralarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda shakllantirishi hamda joylashtirishi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi;

maxsus vakolatli davlat organi belgilagan tartibda bir yilda kamida bir marta aktuar tashkilotni aktuar xizmatlar ko'rsatish uchun jalb etishi;

(6¹-modda uchinchi qismining o'ninchi xatboshisi O'zbekiston

Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

maxsus vakolatli davlat organi belgilagan shaklda, tartibda va muddatlarda yillik moliyaviy hisobotni e‘lon qilishi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart.

Sug‘urtalovchining zimmasida qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

(6¹-modda O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-108-sonli Qonuni bilan kiritilgan – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

7-modda. Sug‘urta brokeri

Sug‘urta qildiruvchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sug‘urta brokeri hisoblanadi.

Sug‘urta brokerining faoliyati sug‘urta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qo‘shib olib borilishi mumkin emas, qayta sug‘urta brokerining faoliyati bundan mustasnodir.

Sug‘urta brokeri sug‘urtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas.

Sug‘urta brokeri o‘zi bilan sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatadi.

(7-modda O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-108-sonli Qonuni asosida uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

8-modda. Qayta sug‘urta brokeri

O‘z nomidan va qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug‘urtalovchining topshirig‘iga binoan qayta sug‘urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug‘urta brokeri hisoblanadi.

Qayta sug‘urta brokeri sug‘urtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas.

Qayta sug‘urta brokeri o‘zi bilan sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatadi.

(8-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-108-sonli Qonuni asosida ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

8¹-modda. Sug'urta hamda qayta sug'urta brokerlarining huquq va majburiyatlari

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari quyidagi huquqlarga ega:

sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har qanday turi bo'yicha vakolatlar doirasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilgan taqdirda, sug'urtalovchini tanlash;

(8¹-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondining miqdorlari, sug'urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek, sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar olish;

ekspert va maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari qonun hujjatlariga hamda o'zlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasini tuzish va ijro etish bo'yicha to'liq, ishonchli hamda xolisona axborotni mijozlarning so'rovlariga ko'ra taqdim etishi;

(8¹-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

mijozning tijorat sirini va boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi.

(8¹-modda uchinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi;

firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli va (yoki) joylashgan yeri o'zgargan taqdirda, bu haqda maxsus vakolatli davlat organini va sug'urtalovchilarni xabardor qilishi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart;

(8¹-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuniga asosan beshinchi, oltinchi va ettinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlarining zimmasida qonun hujjatlariga hamda o'zlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(8¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-108-sonli Qonuni bilan kiritilgan – O'R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

9-modda. Sug'urta agenti

Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti hisoblanadi.

Sug'urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug'urta agenti bo'la olmaydilar.

Sug'urta agenti o'z faoliyatini sug'urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi.

Sug'urta agenti faqat o'zi bilan topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzgan sug'urtalovchi reyestriga kiritilganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Quyidagilarga:

sug'urta agentining tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan sug'urtalovchilar nomidan sug'urta shartnomalari tuzishiga;

agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta bo'yicha sug'urta agentining O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan chet el sug'urta tashkilotlari nomidan sug'urta shartnomalari tuzish bilan bog'liq bo'lgan vositachilik faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

Sugʻurta agenti – jismoniy shaxs oʻz nomiga, toʻlovlar naqd pullar bilan amalga oshirilganida esa yaqin qarindoshlari (otasi, onasi, xotini, eri, oʻgʻli, qizi, opa-singillari va aka-ukalari) nomiga sugʻurta shartnomalari boʻyicha hujjatlar yozishga, shuningdek, oʻz foydasiga sugʻurta shartnomalari tuzishga va bunda mazkur sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurta agenti sifatida ish koʻrishga haqli emas.

(9-moddaning uchinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi OʻRQ-108-sonli Qonuni asosida uchinchi–oltinchi qismlar bilan almashtirilgan – OʻR QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

9¹-modda. Sugʻurta agentining huquq va majburiyatlari

Sugʻurta agenti quyidagi huquqlarga ega:

sugʻurtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida sugʻurtaning har qanday turi, shu jumladan, majburiy sugʻurta turlari boʻyicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

sugʻurtaga qabul qilinayotgan sugʻurta tavakkalchiligini baholashda, sugʻurta hodisasi yuz berganda sugʻurta toʻlovini toʻlashda va sugʻurta qildiruvchining sugʻurta mukofotini toʻliq hajmda hamda sugʻurta shartnomasida belgilangan muddatlarda toʻlashida zarur koʻmak koʻrsatish;

sugʻurtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sugʻurta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar toʻgʻrisida, shuningdek, sugʻurtalovchining toʻlovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa koʻrsatkichlar toʻgʻrisida maʼlumotlar olish;

sugʻurta shartnomasi (sugʻurta polisi) tuzish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

sugʻurta qildiruvchidan qabul qilib olinayotgan tavakkalchiliklar toʻgʻrisida sugʻurtalovchiga toʻliqroq axborot berish maqsadida barcha uchun ochiq boʻlgan manbalardan tavakkalchilik va sugʻurta qildiruvchi toʻgʻrisida sugʻurta qildiruvchining shaxsiy hayotiga aralashmagan holda maʼlumotlar toʻplash.

Sugʻurta agenti qonun hujjatlariga va oʻzi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.

Sugʻurta agenti:

sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sugʻurta shartnomasi tuzishda va sugʻurta toʻvoni (sugʻurta puli)

to'lashda hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirishga ko'maklashishi;

(9¹-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahrida – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug'urta tariflari, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug'urta shartlari haqida, litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek, sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida axborotga ega bo'lishi;

sug'urta shartnomasini rasmiylashtirishda sug'urta qildiruvchi to'g'risida zarur axborotga ega bo'lishi, unga sug'urta tavakkalchiligini pasaytirish va sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan aniq tadbirlarni amalga oshirishni taklif etishi;

sug'urta qildiruvchilarning so'roviga ko'ra ularga sug'urtaning amaldagi shartlari to'g'risida axborot berishi;

sug'urta shartnomalarini belgilangan tartibda tuzishi va yangi muddatga o'z vaqtida qayta rasmiylashtirishi;

tuzilgan sug'urta shartnomalari va olingan sug'urta mukofotlari summalari hisobini belgilangan shaklda yuritishi;

sug'urta hujjatlarining saqlanishini ta'minlashi;

mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etgan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi;

sug'urta shartnomasining amal qilish muddati mobaynida tavakkalchilik shart-sharoitlarining jiddiy ravishda o'zgarishiga taalluqli axborotni sug'urtalovchi o'z vaqtida olishini, shuningdek, sug'urta e'tirozlari yuzaga kelganda hamda ularni tartibga solish jarayonida sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida axborotning o'z vaqtida almashinishini ta'minlashi;

tegishli bitim mavjud bo'lgan taqdirda, sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan sug'urta to'lovlari to'lanishini tashkil etishi shart.

Sug'urta agentining zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

9²-modda. Adjaster

Adjaster sug'urtalovchining (sug'urta qildiruvchining) va boshqa buyurtmachining topshirig'i bo'yicha quyidagi xizmatlarni ko'rsatuvchi,

o‘z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir:

(9²-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug‘urta hodisasi yuz berganidan keyin sug‘urta obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish;

sug‘urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;

sug‘urta obyektining shikastlanish sabablarini va sug‘urta hodisasi mavjudligini aniqlash;

sug‘urta hodisasi mavjud bo‘lgan taqdirda – sug‘urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;

to‘lanishi kerak bo‘lgan sug‘urta to‘lovni summasini aniqlash;

sug‘urta hodisasi bo‘yicha xulosa tuzish.

(9²-modda birinchi qismining ettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Adjaster o‘z faoliyatini sug‘urtalovchi (sug‘urta qildiruvchi) va boshqa buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

(9²-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Adjaster:

sug‘urtalovchi sifatida sug‘urta va qayta sug‘urta qilish operatsiyalari o‘tkazishga;

sug‘urta bo‘yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug‘urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Adjaster xizmati ko‘rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiylashtirilib, undan sug‘urtalovchi zararlarning o‘rnini qoplash va nizolarni hal qilish chog‘ida foydalanishi mumkin.

Adjasterning hisobotida ko‘rsatilgan xulosalar mustaqil sug‘urta ekspertizasi jarayonida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

9³-modda. Adjasterning huquq va majburiyatlari

Adjaster quyidagi huquqlarga ega:

adjaster xizmatlari ko‘rsatiladigan sug‘urtalovchini (sug‘urta qildiruvchini) va boshqa buyurtmachilarni erkin tanlash;

(9³-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug'urta voqeasini (sug'urta hodisasini) o'rganish uchun sug'urtalovchidan (sug'urta qildiruvchidan) va boshqa buyurtmachilardan zarur axborotni so'rash va olish;

(9³-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug'urta hodisasi yuz berganidan so'ng sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

o'zi sug'urta obyektini sirtdan (zarur hollarda – texnika vositalarini qo'llagan holda) ko'zdan kechirganligi to'g'risidagi dalolatnomani rasmiylashtirish;

sug'urta hodisasi ro'y berishining sabablari va holatlarini, shuningdek, sug'urta to'voni (sug'urta puli) miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;

(9³-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Adjaster qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Adjaster:

sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sug'urta hujjatlarining saqlanishini ta'minlashi;

mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi;

sug'urta hodisasiga taalluqli ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish uchun chora-tadbirlar ko'rishi.

(9³-modda uchinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

(9³-modda uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan oltinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Adjaster zimmasida qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

9⁴-modda. Aktuar tashkilot va aktuariy

(9⁴-modda O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot quyidagilarni o‘z ichiga oladigan aktuar xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxsdir:

(9⁴-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug‘urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug‘urta majmuyi bo‘yicha zarar yetkazilishining takroriylikni va ularning oqibatlari og‘irligi darajasini belgilash;

sug‘urtalovchining zarur sug‘urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

(9⁴-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug‘urtalovchining investitsiyalar sifatida to‘plangan badallardan foydalanishida kapital qo‘yilma normasi va netto-stavka miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko‘maklashadigan tarzda aniqlash;

sug‘urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug‘urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

sug‘urtaning (qayta sug‘urta qilishning) har bir turi bo‘yicha tarif stavkalarini sug‘urtalovchilar uchun ularni o‘tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

(9⁴-modda birinchi qismining ettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug'urtalovchining daromadlarini sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har xil turlari bo'yicha rejalashtirish.

(9⁴-modda birinchi qismining sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

aktuar hisob-kitoblarini amalga oshirish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish;

sug'urta bilan bog'liq boshqa aktuar xizmatlari ko'rsatish.

(9⁴-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuniga asosan to'qqizinchi va o'ninchi xatboshilar bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot shartnomaga muvofiq to'lov asosida faqat aktuar xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

Aktuariy maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko'rsatganlik, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilotning zarar ko'rishiga olib kelgan o'zga xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar bo'ladi.

Aktuar tashkilot o'z shtatida kamida bitta aktuariyga ega bo'lishi kerak.

(9⁴-moddaning ikkinchi – oltinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuniga asosan ikkinchi – beshinchi qismlar bilan almashtirilgan – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuariy:

sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;

sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Aktuariy faoliyati natijalari hisobot tarzida rasmiylashtiriladi.

Aktuariy hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

9⁵-modda. Aktuar tashkilotning huquq va majburiyatlari

(9⁵-modda O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

aktuar xizmatlari ko‘rsatiladigan sug‘urtalovchini va boshqa buyurtmachilarni erkin tanlash;

aktuar xulosasini tuzish uchun zarur bo‘lgan axborot sug‘urtalovchi va boshqa buyurtmachilar tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, aktuar xizmatlari ko‘rsatishni rad etish;

(9⁵-modda birinchi qismining birinchi, ikkinchi va uchinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

boshqa aktuar tashkilotlarni va o‘zga mutaxassislarni aktuar xizmatlari ko‘rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

(9⁵-modda birinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

(9⁵-modda ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot:

(9⁵-modda uchinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

aktuar xizmatlari ko‘rsatish chog‘ida olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi;

aktuar xulosasida aktuar hisob-kitoblarning kamchilik faktlarini va ularni bartaraf etishga doir takliflarni aks ettirishi.

(9⁵-modda uchinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko‘ra taqdim etishi shart.

(9⁵-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot zimmasida qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

(9⁵-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

9⁶-modda. Sug‘urta syurveyeri

Sug‘urta syurveyeri quyidagilar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi, o‘z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir:

sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish;

(9⁶-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

(9⁶-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

tekshirilayotgan sug‘urta obyektini bo‘yicha xulosa tuzish.

Sug‘urta ekspertizasini o‘tkazishga vakolatli mutaxassislarning (ekspertlarning) ish tartibi sug‘urta syurveyeri tomonidan belgilanadi.

Sug‘urta syurveyeri o‘z faoliyatini sug‘urtalovchi (sug‘urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Sug‘urta syurveyeri:

sug‘urtalovchi sifatida sug‘urta va qayta sug‘urta qilish operatsiyalari o‘tkazishga;

sug‘urta bo‘yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug‘urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Sug‘urta syurveyeri ishining natijalari bo‘yicha hisobot taqdim etiladi, sug‘urtalovchi (sug‘urta qildiruvchi) bu hisobotdan sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi tuzish chog‘ida foydalanishi mumkin.

Sugʻurta syurveyerining hisobotida koʻrsatilgan xulosalar mustaqil sugʻurta ekspertizasi jarayonida qayta koʻrib chiqilishi mumkin.

9⁷-modda. Sugʻurta syurveyerining huquq va majburiyatlari

Sugʻurta syurveyeri:

xizmatlar koʻrsatiladigan sugʻurtalovchini (sugʻurta qildiruvchini) erkin tanlashga;

sugʻurta obyektini oʻrganish uchun sugʻurta qildiruvchidan (sugʻurtalovchidan) zarur axborotni soʻrash va olishga;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, faoliyati sugʻurta obyektlariga daxldor boʻlgan boshqa tashkilotlardan zarur maʼlumotlarni soʻrash va olishga haqli.

Sugʻurta syurveyeri qonun hujjatlariga va oʻzi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.

Sugʻurta syurveyeri:

sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sugʻurta ekspertizasi oʻtkazish uchun taraflar taqdim etgan hujjatlarning saqlanishini taʼminlashi;

mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan maʼlumotlarning maxfiyligini saqlashi.

(9⁷-modda uchinchi qismining toʻrtinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi OʻRQ-323-sonli Qonuni tahririda – OʻR QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga koʻra taqdim etishi shart.

(9⁷-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi OʻRQ-323-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan toʻldirilgan – OʻR QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Sugʻurta syurveyeri zimmasida qonun hujjatlariga va oʻzi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham boʻlishi mumkin.

9⁸-modda. Assistans

Assistans sugʻurta qildiruvchilarga (sugʻurtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sugʻurtalovchilarga sugʻurta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar koʻrsatuvchi, shuningdek, ularga moliyaviy koʻmak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Assistans o‘z faoliyatini sug‘urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Assistans xizmatlariga sug‘urta qildiruvchilar (sug‘urtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sug‘urtalovchilar tomonidan haq to‘lanadi.

Assistans:

sug‘urtalovchi sifatida sug‘urta va qayta sug‘urta qilish operatsiyalari o‘tkazishga;

sug‘urta bo‘yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

sug‘urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

9^o-modda. Assistansning huquq va majburiyatlari

Assistans quyidagi huquqlarga ega:

assistans xizmatlari ko‘rsatilishi bo‘yicha sug‘urtalovchilar bilan mustaqil ravishda shartnoma tuzish;

assistans xizmatlari ko‘rsatilishi uchun zarur bo‘lgan barcha axborot sug‘urtalovchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, assistans xizmatlari ko‘rsatishni rad etish;

tegishli mutaxassislarni assistans xizmatlari ko‘rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

Assistans qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Assistans:

sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

sug‘urta qildiruvchilardan (sug‘urtalangan shaxslardan) sug‘urta voqealari (sug‘urta hodisalari) to‘g‘risidagi xabarlar kecha-kunduz qabul qilinishini tashkil etishi va sug‘urta shartnomasi doirasida, taqdim etilgan sug‘urta polisi asosida sug‘urta qildiruvchilarga (sug‘urtalangan shaxslarga) zarur yordam ko‘rsatishi;

sug‘urta hodisalarini ko‘rib chiqish va tartibga solish chora-tadbirlarini ko‘rishi.

(9^o-modda uchinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko‘ra taqdim etishi shart.

(9^o-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-

yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Assistans zimmasida qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

(9¹–9⁹-moddalar O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-108-sonli Qonuni bilan kiritilgan – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

10-modda. Maxsus vakolatli davlat organi

Sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi:

ijro etilishi majburiy bo‘lgan to‘lovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo‘yicha sug‘urtalovchilar majburiyatlarining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlar jaming yo‘l qo‘yiladigan ko‘p yoki eng kam miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sug‘urtalovchilarning to‘lovga qobiliyatini aks ettiruvchi axborotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etishini, to‘lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari bajarilishini nazorat qiladi;

sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini litsenziyalaydi;

sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari mablag‘larini shakllantirish hamda joylashtirish tartibi va shartlarini, shuningdek, bunday mablag‘lar hisobini yuritish hamda ular bo‘yicha hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi;

(10-moddaning ikkinchi qismi beshinchi xatboshi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

sug‘urtalovchining, sug‘urta brokerining hamda ular alohida bo‘linmalarining rahbariga va bosh buxgalteriga qo‘yiladigan malaka talablarini belgilaydi.

(10-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sugʻurtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning va eʻlon qilinadigan yillik moliyaviy hisobotning shaklini, shuningdek, uni taqdim etish hamda eʻlon qilish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

(10-moddaning ikkinchi qismi ettinchi xatboshi Oʻzbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi OʻRQ-108-sonli Qonuni tahririda – OʻR QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

qonun hujjatlariga muvofiq sugʻurta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshiradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish toʻgʻrisida ijro etilishi majburiy boʻlgan koʻrsatmalar kiritadi;

sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari, shu jumladan, belgilangan iqtisodiy normativlar sugʻurtalovchi tomonidan buzilganligi uchun sugʻurtalovchining ustav fondi eng kam miqdorining 0,1 foizigacha miqdorda belgilangan tartibda jarima soladi.

(10-moddaning ikkinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil 22-dekabrdagi OʻRQ-192-sonli Qonuniga asosan toʻqqizinchi xatboshi bilan toʻldirilgan – OʻR QHT, 2008-y., 52-son, 508-modda)

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini toʻliq yoki ayrim sugʻurta turlariga (klasslariga) nisbatan toʻxtatib qoʻyadi, shuningdek, ularning faoliyatini tugatish toʻgʻrisida sudga murojaat qiladi;

(10-modda ikkinchi qismining toʻqqizinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2006-yil 10-oktabrdagi OʻRQ-59-son Qonuni tahririda – Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari toʻplami, 2006-y., 41-son, 405-modda)

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, sugʻurtalovchilar va sugʻurta vositachilariga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq choralar va sanksiyalarni qoʻllaydi;

(10-moddaning ikkinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2009-yil 22-sentabrdagi OʻRQ-223-sonli Qonuniga asosan oʻn birinchi xatboshi bilan toʻldirilgan – OʻR QHT, 2009 y., 39-son, 423-modda)

har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida sugʻurta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyat toʻgʻrisida yillik hisobotlarni, shuningdek, sugʻurta bozorining moliya yili mobaynidagi faoliyati toʻgʻrisida statistika maʼlumotlarini eʻlon qiladi;

sugʻurtalovchilarning investitsiya faoliyatini amalga oshirish, shuningdek, sugʻurta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini sugʻurtalovchilar tomonidan moliyalashtirish tartibi hamda shartlarini belgilaydi;

aktuar xizmatlari koʻrsatish tartibini belgilaydi;

aktuariy malaka sertifikatini olish uchun oʻquv dasturlarini hamda malaka imtihonlari topshirish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, mazkur sertifikatni olish huquqi uchun malaka imtihoni oʻtkazadi;

belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikati beradi, uning amal qilishini tugatadi va uni bekor qiladi, malaka sertifikatiga ega boʻlgan aktuariylar reyestrini yuritadi;

(10-moddaning ikkinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi OʻRQ-108-sonli Qonuni asosida oʻn birinchi–oʻn toʻrtinchi xatboshilar bilan toʻldirilgan – OʻR QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

sugʻurta bozorining professional ishtirokchilaridan qonun hujjatlarida belgilangan axborotni soʻrab oladi.

(10-moddaning ikkinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi OʻRQ-323-sonli Qonuniga asosan oʻn ettinchi xatboshi bilan toʻldirilgan – OʻR QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi va uning xodimlari sugʻurta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek, sugʻurta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emaslar.

11-modda. Sugʻurta bozorining professional ishtirokchilarini tuzish va davlat roʻyxatidan oʻtkazish

Sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlari, shuningdek, sugʻurta bozorining yuridik shaxs boʻlgan boshqa professional ishtirokchilari qonunlarda nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarda tuziladi.

Sugʻurtalovchilar va sugʻurta brokerlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi, sugʻurta bozorining boshqa professional ishtirokchilarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish esa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qayta sug'urta brokerlari, adjasterlar, aktuar tashkilotlar, sug'urta syurveyerlari, assistanslar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin bir haftalik muddatda bu haqda maxsus vakolatli davlat organini yozma ravishda xabardor qiladi.

(11-modda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

(11-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

12-modda. Sug'urtalovchilarning ustav fondi

Sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

(12-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-dekabrda O'RQ-192-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2008-y., 52-son, 508-modda)

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi.

Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urtalovchining boshlang'ich ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar muassislar tomonidan shakllantirilgan bo'lishi va qonun hujjatlarida belgilangan ustav fondining eng kam miqdoridan kam bo'lmasligi kerak.

(12-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

13-modda. Sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining firma nomiga doir talablar

Sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining firma nomida ilgari tashkil etilgan sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining firma nomi bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o'xshash bo'lgan belgilar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining filiallari, shuningdek, unitar korxonalar shaklida boshqa sug'urtalovchilar tomonidan tashkil etilgan sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining firma nomlari mustasno.

(13-modda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

14-modda. Sug'urtalovchining firma nomini, tashkiliy-huquqiy shaklini yoki joylashgan manzilini o'zgartirish

Sug'urtalovchining firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan manzili o'zgargan taqdirda sug'urtalovchi bu haqda sug'urta qildiruvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali, o'z ijrosidagi bir yildan ortiq muddatli sug'urta shartnomalari bo'yicha esa yozma ravishda xabardor qilishi shart.

15-modda. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug'urtalovchiga yoxud hayotni sug'urta qilish sohasida, yoxud umumiy sug'urta sohasida, yoxud faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasno. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas. Faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi sug'urta shartnomalarini tuzishga haqli emas.

(15-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 16-dekabrda O'RQ-267-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2010-y., 50-son, 471-modda)

Litsenziyada sug'urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi.

16-modda. Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishi to'xtatib turilishining o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to'xtatib turilishi uning yangi sug'urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan,

amaldagi sug'urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo'ladi. Bunda sug'urtalovchi ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majburdir.

17-modda. Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishi tugatilishining o'ziga xos xususiyatlari

Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi ariza bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug'urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to'xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyatiga o'tadi. Muvaqqat ma'muriyat sud qaror chiqargunga qadar bo'lgan davrda o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining hisoboti maxsus vakolatli davlat organiga hamda sug'urtalovchini tugatish to'g'risida maxsus vakolatli davlat organining arizasi yo'llangan sudga taqdim etiladi.

Sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyati o'z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, sug'urtalovchining boshqaruv xarajatlari (ma'muriy xarajatlari), sug'urtalovchiga tushayotgan pullarni hisobga yozish va ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash bilan bog'liq hollar bundan mustasnodir.

Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining ishlash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning qoidalari sug'urtalovchining arizasiga binoan litsenziya bekor qilingan hollarga, shuningdek, uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchining boshqaruv organi qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoxud tugatilishiga taalluqli emas.

18-modda. Sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchilarni qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urtalovchi qayta tashkil etishga ruxsatnoma olish uchun maxsus

vakolatli davlat organiga tegishli ariza bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchi boshqaruv organining qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori;

tuzilayotgan sug'urtalovchining balansi va faoliyatining taxminiy moliyaviy natijalari;

qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shartnomasining loyihasi (qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda).

Sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishni o'tkazish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to'g'risida sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi hollarda sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berishni rad qilishga haqli, agar:

- sug'urtalovchilarni qayta tashkil etish natijasida ularning moliyaviy barqarorligiga doir talablar buzilishi mumkin bo'lsa;

(18-modda beshinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 16-dekabrda O'RQ-267-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2010-y., 50-son, 471-modda)

sug'urtalovchilarning qayta tashkil etilishi sug'urta bozorida raqobatning cheklanishiga yoki bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin bo'lsa;

sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berilishi so'rab taqdim qilingan hujjatlarda ishonchsiz ma'lumotlar bo'lsa yoxud bu hujjatlar qonun hujjatlariga nomuvofiq bo'lsa;

sug'urtalovchilarni qayta tashkil etish qonun hujjatlariga zid bo'lsa.

Qo'shib yuborish, bo'lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilganda sug'urtalovchi (sug'urtalovchilar) litsenziyasining amal qilishi tugatiladi. Qayta tashkil etish natijasida yangitdan tuzilgan sug'urtalovchilarga litsenziyalar berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qo'shib yuborish, bo'lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan davr uchun hamda yangitdan tuzilgan sug'urtalovchilar litsenziya olguniga qadar bo'lgan davrda ular yangi sug'urta shartnomalarini tuzishga, amaldagi sug'urta shartnomalarini uzaytirishga haqli emas, ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmlariga olingan, huquqiy vorislik tartibida o'zlariga o'tgan majburiyatlarni bajarish hollari bundan mustasno.

(18-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 16-dekabrda O'RQ-267-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2010-y., 50-son, 471-modda)

Qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda o'ziga boshqa sug'urtalovchi qo'shilayotgan sug'urtalovchi, agar qo'shib olish natijasida litsenziyaning shartlari o'zgarmasa, amaldagi litsenziyani saqlab qoladi.

O'zgartirish shaklida qayta tashkil etilganda sug'urtalovchining litsenziyasi qayta rasmiylashtiriladi.

(18-modda O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 16-dekabrda O'RQ-267-sonli Qonuniga muvofiq sakkizinchi qism bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2010-y., 50-son, 471-modda)

19-modda. Sug'urtalovchilarni tugatishning o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchi o'zining muassislari (ishtirokchilari) yoki sug'urtalovchining ta'xis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruv organi qaroriga binoan tugatilayotganda maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi talab qilinadi.

Muassislar (ishtirokchilar) yoxud sug'urtalovchining ta'xis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruv organi tomonidan tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan keyin sug'urtalovchi maxsus vakolatli davlat organiga tugatishga ruxsatnoma olish uchun ariza bilan yozma ravishda murojaat etgan holda quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi qaror;

majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanagacha bo'lgan, auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan balans hisoboti;

sug'urtalovchini tugatish muddatlari va shartlari ko'rsatilgan holdagi tugatish rejasini.

Sug'urtalovchini tugatishga ruxsatnoma olish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to'g'risida sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchini tugatish uchun ruxsatnoma berish bilan bir vaqtda sug'urtalovchining taqdim etilgan tugatish rejasiga o'zgartishlar kiritishga haqli.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi hollarda sugʻurtalovchini tugatishga ruxsatnoma berishni rad etishga haqli, agar:

tugatish natijasida sugʻurta qildiruvchilarning hamda sugʻurtalovchi kreditorlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilsa;

sugʻurtalovchini tugatishga ruxsatnoma berilishi uchun taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz maʼlumotlar boʻlsa yoki bu hujjatlar qonun hujjatlariga nomuvofiq boʻlsa.

20-modda. Tugatilayotgan sugʻurtalovchi kreditorlarining talablarini qanoatlantirish navbati

Tugatilayotgan sugʻurtalovchi kreditorlarining talablari tugatishni amalga oshirish bilan bogʻliq xarajatlar, shuningdek, tugatiladigan sugʻurtalovchining asosiy vazifalarini taʼminlash zaruratidan kelib chiqadigan xarajatlar toʻlanganidan soʻng quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda – hayotni sugʻurta qilish sohasida majburiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta qildiruvchilarning talablari;

ikkinchi navbatda – sugʻurta qildiruvchilarning boshqa majburiy sugʻurta shartnomalari boʻyicha talablari;

uchinchi navbatda – boshqa sugʻurta qildiruvchilarning (naf oluvchilarning) talablari;

toʻrtinchi navbatda – budjetga, budjetdan tashqari fondlarga toʻlovlarni nazarda tutuvchi toʻlov (ijro) hujjatlari boʻyicha talablar. Koʻrsatilgan talablar toʻliq qanoatlantirilgandan keyin ijtimoiy sugʻurta boʻyicha talablar hamda jinoyat yoki maʼmuriy huquqbuzarlik tufayli fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash boʻyicha talablari qanoatlantiriladi;

beshinchi navbatda – sugʻurtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

21-modda. Sugʻurtalovchining sugʻurta zaxiralari

Qabul qilingan sugʻurta majburiyatlari bajarilishini taʼminlash uchun sugʻurtalovchilar ham soʻmda, ham chet el valutasida toʻlangan sugʻurta mukofotlaridan maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda sugʻurta zaxiralarini shakllantiradilar hamda joylashtiradilar.

Sugʻurtalovchining sugʻurta zaxiralariga mos keluvchi aktivlari olib qoʻyilishi mumkin emas.

22-modda. Sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatining kafolatlari

Sug'urtalovchilar ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdordan va majburiyatlar jaminining yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdoridan ortiq majburiyatlarni o'z zimmalariga olishlari mumkin emas, ularning bu majburiyatlarni bajarish qobiliyati to'lovga qobiliyatlilik normativlariga va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablariga muvofiq qayta sug'urta qilingan hollar bundan mustasnodir. Sug'urtalovchilar O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilishga haqlidirlar.

(22-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

23-modda. Sug'urtalovchilar buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchilar, sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlari maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadilar.

24-modda. Monopolistik faoliyatga yo'l qo'yilmasligi

Sug'urta bozorida raqobatni cheklash yoki bartaraf etishga, bir sug'urtalovchilarga boshqalariga qaraganda asossiz afzalliklar berilishiga yoki olinishiga, sug'urta qildiruvchilar va boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga qaratilgan faoliyatga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilariga o'z uyushmalari (ittifoqlari) va boshqa birlashmalaridan sug'urta bozorini monopollash-tirishga qaratilgan bitimlarga erishish yo'lida foydalanish taqiqlanadi.

(24-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

25-modda. Axborot olish huquqi

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlar sug'urtalovchilarning va adjasterlarning so'roviga ko'ra sug'urta hodisalarining ro'y berishi sabablari hamda holatlarini, shuningdek, sug'urta tovonini (sug'urta puli) miqdorlarini sug'urtalovchi

va adjaster tomonidan aniqlash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni taqdim etishi shart.

(25-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Maxsus vakolatli davlat organi sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridan qabul qilingan pul mablag'lari va majburiyatlarining miqdorlari haqidagi axborotni, shuningdek, boshqa axborotni o'z vakolati doirasida talab qilib olishga haqli. Bunday axborotni talab qilib olish yozma ravishda, so'rov sabablari ko'rsatilgan holda amalga oshirilmog'i lozim.

(25-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Maxsus vakolatli davlat organi o'zi olgan axborotning sir tutilishiga rioya etishi shart, axborotning oshkor qilinishi qonunda ruxsat etilgan hollar bundan mustasno.

26-modda. Sug'urta siri

Sug'urta qildiruvchilar, sug'urtalangan shaxslar va naf oluvchilar, sug'urta qildiruvchilarning va sug'urtalangan shaxslarning sog'lig'i, sug'urtalangan mol-mulk, sug'urta puli, bank hisobvaraqlari mavjudligi, ushbu hisobvaraqlardagi pul qoldiqlari va pul harakati haqidagi ma'lumotlar oshkor qilinishi mumkin emas.

Sug'urta faoliyatini amalga oshirishning umumiy shartlari, tavsiya etilayotgan sug'urta bitimlari va operatsiyalarining ro'yxati, sug'urta tariflari, sug'urta turlari hamda muddatlari ochiq axborot bo'lib, sug'urta siri predmeti bo'lishi mumkin emas.

(26-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-108-sonli Qonuni asosida ikkinchi qism bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlar sug'urta qildiruvchi, shuningdek, sug'urtalangan shaxslar va naf oluvchilar o'zlariga taalluqli ma'lumotlarga doir yozma rozilik berganda uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi mumkin.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar sug'urta qildiruvchining roziligi olinmagan holda sug'urtalovchi tomonidan Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini

majburiy sugʻurta qilish boʻyicha toʻlovlarni kafolatlash jamgʻarmasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

(26-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil 21-apreldagi OʻRQ-156-sonli Qonuni asosida toʻrtinchi qism bilan toʻldirilgan – OʻR QHT, 2008-y., 17-son, 129-modda)

Ushbu moddaning birinchi qismida koʻrsatilgan maʼlumotlar toʻgʻrisidagi maʼlumotnomalar sugʻurta qildiruvchilarning roziligini olmagan holda sugʻurtalovchilar tomonidan sudga, prokurorga, qoʻzgʻatilgan jinoyat ishi mavjud boʻlgan taqdirda esa, surishtiruv va tergov organlariga, sudning undiruvni sugʻurta qildiruvchining mol-mulkiga qaratish yoki bu mol-mulkni xatlash haqidagi qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud boʻlgan taqdirda, sud ijrochilariga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

(26-moddaning beshinchi qismi Oʻzbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi OʻRQ-323-sonli Qonuni tahririda – OʻR QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Tuzilgan sugʻurta shartnomalari va amalga oshirilgan hisob-kitoblar toʻgʻrisidagi maʼlumotnomalar sugʻurta qildiruvchi jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda quyidagilarga beriladi:

sugʻurta qildiruvchi oʻz vasiyatnomasida koʻrsatgan shaxsga;

sud va notariusga – ularning ish yurituvda boʻlgan merosga oid ishlar boʻyicha sudning qarori yoki notariusning oʻz muhri bilan tasdiqlangan yozma soʻrovi asosida. Notariusning yozma soʻroviga sugʻurta qildiruvchi vafot etganligi toʻgʻrisidagi guvohnomaning nusxasi ilova qilingan boʻlishi kerak;

konsulga uning ish yurituvda boʻlgan merosga oid ishlar yuzasidan.

Sugʻurtalovchilar va sugʻurta vositachilari pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalar toʻgʻrisidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bogʻliq boʻlgan axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

(26-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2009-yil 22-sentabrdagi OʻRQ-223-sonli Qonuniga asosan ettinchi qism bilan toʻldirilgan – OʻR QHT, 2009-y., 39-son, 423-modda)

Tuzilgan sugʻurta shartnomalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kredit byurolariga taqdim etiladi.

(26-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi

O'RQ-323-sonli Qonuniga asosan sakkizinchi qism bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

27-modda. Chet el sug'urta tashkilotlarining faoliyati

Chet el sug'urta tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxslar – sug'urta bozori professional ishtirokchilarining muassislari (ishtirokchilari) bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

(27-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

28-modda. Nizolarni hal etish

Sug'urta faoliyati sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

29-modda. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2002-yil 5-aprel,

Sug‘urtaga oid atamalarning qisqacha izohli lug‘ati

Abandon – sug‘urta qildiruvchining sug‘urtalovchi hisobiga sug‘urta qilingan mol-mulkdan voz kechish huquqi. Sug‘urta qildiruvchi kema, avtomobil izsiz yo‘qolganda, ulardagi yuk to‘liq nobud bo‘lganligi yoxud zararlanganligi bois yuklarni belgilangan manzilga yetkazishning iloji bo‘lmagan holatda abandondan foydalanadi. Bunda sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta hodisalari natijasida yetkazilgan zarar to‘liq qoplab beriladi.

Aviatsiya sug‘urtasi – havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo‘qotilganda yoki shikastlanganda sug‘urta qoplamasi to‘lanishini ta‘minlovchi sug‘urtaning turlari jami. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrda qabul qilingan «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 413-son qarori bilan tasdiqlangan «Sug‘urta faoliyati klassifikatori»ning 5-klassi «Aviatsiya sug‘urtasi» deb nomlanadi.

Agentlik bitimi – sug‘urtalovchi va yuridik yoki jismoniy shaxs o‘rtasida tuzilgan shartnoma bo‘lib, unga ko‘ra yuridik yoki jismoniy shaxs sug‘urtalovchining nomidan va uning topshirig‘iga asosan sug‘urta shartnomalarini tuzadi yoxud sug‘urta polislarini sotadi.

Adjaster – sug‘urta hodisalari sodir bo‘lganda uning kelib chiqish sabablari, tavsifi va zarar miqdorini aniqlash bilan shug‘ullanadigan shaxs. O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunida adjasterlarning huquq va majburiyatlari aks ettirilgan.

Aktuariy – sug‘urta kompaniyasida tariflar, zaxiralar va majburiyatlarni hisob-kitob qilish bilan shug‘ullanadigan hamda matematik statistika va ehtimollar nazariyasining qonun-qoidalarini mukammal egallagan mutaxassis. O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunida aktuariylarning huquq va majburiyatlari aks ettirilgan.

Anderrayter – risklarni tahlil qilish natijasida obyektlarni sug‘urtaga olish yoki olmaslik bo‘yicha sug‘urtalovchi tomonidan berilgan vakolatga ega shaxs. U sug‘urtalovchi portfelining sifatli shakllanishi uchun mas‘uldir. Sug‘urtaning shartlari, tarif stavkalari va risk darajasini aniqlash yuzasidan tegishli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish kerak.

Bern ittifoqi – kredit va investitsiyalarni sug‘urtalovchilarning xalqaro ittifoqi. Yaponiyadan tashqari, boshqa sanoati taraqqiy etgan davlatlarning kreditlarni sug‘urta qilish bilan shug‘ullanadigan sug‘urta kompaniyalarini o‘z tarkibiga birlashtiradi. «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi Bern ittifoqiga a‘zo sug‘urtalovchi sifatida uning barcha majlislarida ishtirok yetib keladi. Bern ittifoqining asosiy vazifasi axborot va tajriba almashish, eksport kreditlarini sug‘urtalash bo‘yicha yuzaga kelayotgan muammolarni muhokama qilish hisoblanadi.

Bonus – hayotni sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta zaxiralarini investitsiyalashdan olingan foyda hisobiga mazkur sug‘urta polisi egasi tomonidan to‘langan sug‘urta mukofotlari summasiga qo‘shimcha to‘lanadigan pul mablag‘i.

Istisno qiluvchi shartlar – mazkur shartlar sug‘urta shartnomalarida ko‘rsatilgan bo‘ladi va ayrim risklar sodir bo‘lishi oqibatida yetkazilgan zararlar sug‘urtalovchi tomonidan qoplanmaydi.

Kargo-sug‘urta – tashqi savdo operatsiyalarida transport vositalari orqali tashilayotgan yuklarni sug‘urtalash. Bunda transport vositasi yoki uning haydovchisiga yetkazilgan zararlar sug‘urta himoyasi bilan qoplanmaydi.

Kasko-sug‘urta – transport vositalarini sug‘urta qilish. Bunda transport vositasidagi yuklar va uning haydovchisiga yetkazilgan zararlar sug‘urta himoyasiga olinmaydi.

Obligatorli qayta sug‘urtalash – 1) qayta sug‘urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko‘ra, ushbu mamlakat hududida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha sug‘urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug‘urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug‘urtalash orqali chet elga valutani chiqib ketishini oldini oladi; 2) sug‘urta kompaniyasi (tsedent) ma‘lum bir sug‘urta turi bo‘yicha riskni qayta sug‘urtalovchiga berishini va o‘z navbatida, qayta sug‘urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug‘urtalash shartnomasi.

Majburiy sug‘urta - sug‘urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo‘lgan shakli. Majburiy sug‘urta qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu hujjatda sug‘urtaga tortiladigan obyektlar soni, sug‘urta javobgarligining hajmi, sug‘urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko‘rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O‘zbekistonda

majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.

Keptiv sug'urta kompaniyasi – yirik sanoat, savdo va moliya guruhlaridan tashkil etiladigan sho'ba sug'urta kompaniyasi bo'lib, asosan guruh tarkibiga kiruvchi korxonalar va kompaniyalarning mulkiy manfaatlarini sug'urta qilish bilan shug'ullanadi.

Netto-mukofot – sug'urtada brutto-mukofotning sug'urta to'lovlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan qismi bo'lib, sug'urtalovchining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarini o'z ichiga olmaydi.

Netto-stavka – brutto-stavkaning asosiy qismi. U brutto-stavkaning 90 foizigacha qismini tashkil etadi va sug'urtalovchi resurslarini shakllanishiga xizmat qiladi. Sug'urtalovchining ish yuritishi bilan bog'liq xarajatlar netto-stavkada hisobga olinmaydi. Netto-stavka sug'urtalovchining sug'urta shartnomasi bo'yicha riski darajasini aks ettiradi.

SLIP – fakultativ qayta sug'urtalashga xos hujjat. Unda riskni uzatuvchi tsedentning nomi, riskning xususiyatlari, sug'urta summasi, sug'urta va qayta sug'urtalashning shartlari, sug'urta mukofoti stavkasi, tsedentning o'z javobgarligida qoldirilgan ulush va boshqa tegishli ma'lumotlar yozilgan bo'ladi.

Sug'urta da'vosi – sug'urta hodisasi sodir bo'lishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha sug'urtalovchiga talabi. Sug'urta hodisasining ro'y berish sabablarini o'rganish, zarar miqdorini aniqlash natijasida sug'urta qildiruvchiga yetkazilgan zararning qoplanishi sug'urta da'vosining qanoatlantirilishi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta da'vosini tartibga solish ishlari sug'urtalovchining ekspertlari yoki adjasterlar yoxud avariya komissarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sug'urta javobgarligi limiti – sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining maksimal javobgarligi. Bu sug'urta polisida qayd etiladi. Sug'urtalovchining maksimal javobgarligi bitta sug'urta riski yoki bitta sug'urta hodisasi bo'yicha belgilangan bo'lishi mumkin.

Sug'urta puli – obyektlarni sug'urta himoyasiga olish maqsadida bir nechta sug'urta kompaniyalarining o'zaro birlashishi.

Tibbiy sug'urta – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta qildiruvchiga zarur tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash bilan bog'liq sug'urta turi. Tibbiy sug'urta ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi. Iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlarda tibbiy

sug'urta majburiy shaklda o'tkaziladi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida muhim o'rin egallaydi. O'zbekistonda tibbiy sug'urta ixtiyoriy shaklda amalga oshiriladi. Hozirda mamlakatimizda majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqilgan.

To'liqsiz sug'urta – sug'urta obyektlarini uning haqiqiy qiymatidan past darajada sug'urta qilish. Bunday holatda sug'urta shartnomasidagi summa va obyektning sug'urtaga qabul qilingan qismining summasi o'rtasidagi farq sug'urta qildiruvchining javobgarligida bo'ladi.

Regress – sug'urta hodisasining ro'y berishiga sababchi bo'lgan uchinchi tomonga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha sug'urtalovchining talab qilish huquqi. Bu huquq sug'urtalovchida uning tomonidan sug'urta qildiruvchiga sug'urta qoplamalari to'langandan so'ng yuzaga keladi.

Shaxsiy sug'urta – shaxsning hayoti, salomatligi, mehnat qobiliyati va pensiya ta'minoti bilan bog'liq mulkiy manfaatlari sug'urta obyektini tashkil etuvchi sug'urta tarmog'i. Shaxsiy sug'urtada sug'urtalovchi, sug'urta qildiruvchi va sug'urtalangan shaxs hamda naf oluvchi ishtirok etadi.

Qayta sug'urtalash - sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish); sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalarini sug'urta kompaniyalar bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. Qayta sug'urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishda bo'ladi. Bundan tashqari, qayta sug'urtalash proportsional va noproportsional bo'ladi. Proportsional qayta sug'urtalashda, qayta sug'urtalovchining berilgan risk bo'yicha ulushi tsedentning o'z javobgarligiga qoladigan qismi aniq bo'lgandan so'ng aniqlanadi. Noproportsional qayta sug'urtalashda riskni berish tegishli limit doirasida amalga oshiriladi. Bu holda qayta sug'urtalovchi tsedentdan sug'urta mukofotining bir qismini oladi (proportsional qayta sug'urtalashdagidek sug'urta summasiga muvofiq keladigan sug'urta mukofotini emas).

Qayta sug'urtalovchi broker - ikkita sug'urta kompaniyasi o'rtasidagi professional vositachi.

Qayta sug'urtalovchi - sug'urta brokeri yordamida qayta sug'urtalash uchun riskni qabul qilib oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs. Qayta sug'urtalovchi yordamida riskni ikkilamchi taqsimlash amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik qayta sug'urtalovchilar guruhiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, Shveytsariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

Fakultativ qayta sug'urtalash - proportsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilaotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Tsedent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham tsedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin.

Fakultativ obligator shartnomasi - tsedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Franshiza - sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo'linadi. Shartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. Shartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan chegirilib qoplanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. //www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. //www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni (qo‘shimcha va o‘zgartishlar bilan). //www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi qonuni //www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi qonuni//www.lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risida»gi qonuni. //www.lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-son qarori.//www.lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-618-sonli qarori.//www.lex.uz.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-maydagi «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» qarori.//www.lex.uz.
10. 2010-yil 26-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida» 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli qarori.//www.lex.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 31-maydagi «Sug‘urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-1544-sonli qarori// www.lex.uz.
12. 2002-yilning 27-noyabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 413-sonli qarori. //www.lex.uz.
13. 2002-yilning 27-noyabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkama-

sining «Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 413-sonli qarori. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz).

14. Vazirlar Mahkamasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2008-yil 24-iyundagi 141-son qarori. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz).

15. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 8-sentabrdagi «Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sugʻurta nazoratchilari xalqaro uyushmasiga kirishi toʻgʻrisida» 202-son qarori. [.//www.lex.uz](http://www.lex.uz).

16. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida» 2009-yil 24-iyunda qabul qilingan 177-sonli qarori [//www.lex.uz](http://www.lex.uz).

17. 2008-yilning 20-noyabrida Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Sugʻurtalovchilarning sugʻurta zaxiralari toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida» buyrugʻi bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2008-yil 15-dekabrda 1882-son bilan davlat roʻyxatiga olingan. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz).

18. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 26-dekabrda 120-sonli buyrugʻi bilan «Biznes sohasi uchun sugʻurta xizmatlari koʻrsatishning yagona talablari va standartlari toʻgʻrisidagi nizom» tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 28-yanvarda 1891-son bilan davlat roʻyxatidan olingan. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz).

19. 2009-yilning 7-aprelidagi Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrugʻiga asosan «Aktuar xizmatlarni koʻrsatish tartibi toʻgʻrisida Nizom» tasdiqlangan va 2009-yilning 26-iyunida Adliya vazirligida 1975-son bilan davlat roʻyxatiga olingan. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz).

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 28-yanvardagi 19-sonli buyrugʻi bilan «Sugʻurta agentlari toʻgʻrisidagi nizom» tasdiqlangan va Adliya vazirligida davlat roʻyxatiga olingan. [//www.lex.uz](http://www.lex.uz).

Mundarija

Kirish	3
1-mavzu. Sug‘urta bozorining mohiyati va ahamiyati	6
1.1. Sug‘urta bozorining mohiyati, tarkibi va ahamiyati.....	6
1.2. Umumiy sug‘urta xizmatlari bozori.....	9
1.3. Hayotni sug‘urta qilish bozori.....	12
2-mavzu. O‘zbekistonda sug‘urta bozorining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	17
2.1. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning sug‘urta tizimiga ta’siri.....	17
2.2. 1991-1994-yillarda milliy sug‘urta bozorining shakllanishi.....	18
2.3. 1995-2001-yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozorining Rivojlanishi.....	21
2.4. 2002-2007-yillarda milliy sug‘urta bozorida ro‘y bergan o‘zgarishlar.....	23
2.5. 2008-2009-yillarda sug‘urta sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ahamiyati.....	25
2.6. 2010- va undan keyingi yillarda milliy sug‘urta bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	49
3-mavzu. Sug‘urta bozorining huquqiy asoslari	54
3.1. Sug‘urta bozori ishtirokchilari faoliyatini huquqiy tartibga solishning zarurligi.....	54
3.2. O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»-gi qonunida sug‘urta bozori ishtirokchilari faoliyatining huquqiy tartibga solinishi.....	56
3.3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sug‘urta bozori munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi.....	59
3.4. Sug‘urta bozorini tartibga solishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Moliya vazirligining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari.....	61
4-mavzu. Sug‘urta bozorida talab va taklif hamda narxning shakllanishi	66
4.1. Sug‘urta bozorida sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talab va uni shakllantirish muammolari.....	66
4.2. Sug‘urta bozorida o‘ziga xos tovar bo‘lgan sug‘urta mahsulotlariga taklifni qaror toptirish mexanizmi.....	68
4.3. Sug‘urta bozorida sug‘urta «mahsuloti» narxini shakllantirish va unga talab hamda taklifning ta’siri.....	70

5-mavzu.	O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari va ularga umumiy tavsif.....	75
5.1.	Sug‘urtalovchi – milliy sug‘urta bozorining asosiy professional ishtirokchisi sifatida.....	75
5.2.	Sug‘urta syurveyerlari, aktuariylari va ularning faoliyat yo‘nalishlari.....	80
5.3.	Adjaster va assistans tashkilotlari hamda ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar.....	89
6-mavzu.	O‘zbekiston sug‘urta bozorida yirik sug‘urta kompaniyalari faoliyati tahlili.....	93
6.1.	«O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi va uning milliy sug‘urta bozorida tutgan o‘rni.....	93
6.2.	«O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi va uning faoliyat yo‘nalishlari.....	99
6.3.	«Kafolat» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasining milliy sug‘urta bozori rivojlanishidagi ahamiyati.....	102
7-mavzu.	Mahalliy sug‘urta xizmatlari bozori.....	105
7.1.	Mahalliy sug‘urta xizmatlari bozori rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari.....	105
7.2.	Sug‘urtalovchilarning filiallari va bo‘limlari – mahalliy sug‘urta bozorining asosiy subyektlari sifatida.....	112
7.3.	Mahalliy sug‘urta xizmatlari bozorining rivojlanishida majburiy sug‘urtaning roli.....	114
8-mavzu.	O‘zbekiston sug‘urta bozorida vositachilik faoliyati.....	118
8.1.	Sug‘urta bozorida vositachilarning tutgan o‘rni va ahamiyati.....	118
8.2.	Sug‘urta agenti haqida tushuncha va uning asosiy vazifalari.....	119
8.3.	Sug‘urta brokeri va uning faoliyatini litsenziyalash tartibi.....	124
9-mavzu.	Sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish.....	130
9.1.	Sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv zarurligi.....	130
9.2.	Sug‘urta faoliyatining maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tartibga solinishi.....	135
9.3.	Sug‘urtalovchilar faoliyatini litsenziyalashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	141
9.4.	Sug‘urta faoliyatini soliq orqali tartibga solish.....	150
10-mavzu.	O‘zbekiston sug‘urta bozorida monopoliya va raqobat masalalari.....	156
10.1.	Sug‘urta bozorida monopoliya holatlarining yuzaga kelishi va uning obyektiv hamda subyektiv sabablari.....	156
10.2.	Sug‘urta bozorida duopoliya va oligopoliya. Ularning ayrim sug‘urta mahsulotlari bo‘yicha vujudga kelish holatlari.....	158
10.3.	Sug‘urta bozorida sog‘lom va nosog‘lom raqobat: uning mezonlari.....	160

11-mavzu. O‘zbekiston sug‘urta bozorida iste’molchilarning manfaatlarini himoya qilish.....	165
11.1. Sug‘urta bozori iste’molchilarining manfaatlarini himoya qilishda Davlat sug‘urta nazorati organlarining o‘rni.....	165
11.2. Sug‘urta shartnomalarida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish masalalarining aks ettirilishi.....	172
11.3. Sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishni standartlashtirish orqali iste’molchilarning manfaatlarini muhofaza qilish.....	177
12-mavzu. Xalqaro sug‘urta bozori.....	186
12.1. Xalqaro sug‘urta bozori va uning jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi o‘rni.....	186
12.2. Xalqaro sug‘urta bozori rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar: sug‘urta mukofotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, sug‘urta mukofotlarining aholi jon boshiga taqsimoti va boshqalar.....	188
12.3. Xalqaro sug‘urta bozorini tartibga soluvchi institutlar, me‘yorlar va standartlar.....	197
O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi	
52-bob. Sug‘urta.....	201
O‘zbekiston respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni.....	223
Sug‘urtaga oid atamalarning qisqacha izohli lug‘ati.....	253
Foydalanilgan adabiyotlar	258

X. Shennayev

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: **N. Artikova**
Badiiy muharrir: **M. Odilov**
Kompyuterda sahifalovchi: **U. Raxmatov**

Nashr. lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 04.03.13-y.da berildi.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog‘ozi №2. «Times» garniturasini.
Shartli b.t. 16,5. Nashr hisob t. 16,5. Adadi 100 dona.
5-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi
100084. Toshkent. Kichik halqa yo‘li, 7-uy

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»

bosmaxonasida chop etildi.

100003. Toshkent. Olmazor, 171-uy